

Y. A. Kaverin
İkki kağıt an



M. A. Sroth
Sirlar

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--





821
K24

5.0.

Rus adabiyoti durdonalari

Veniamin Aleksandrovich
Kaverin
Ikki kapitani

(Romandan parcha)



Mixail Arkadyevich
Svetlov

Sirlar

(She'rlar)

7.63.

TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2021

UO*K 821.161.1-3

KBK 84 (2 Rus)


K 24

Rus yozuvchisi va dramaturgi Veniamin Kaverinning 1938–1944-yillarda yozgan «Ikki kapitan» nomli sarguzasht romanida yoshlarning mardligi, oʻz maqsadiga erishish yoʻlida matonat va chidam bilan harakat qilishi, vatanga sadoqati va goʻzal sevgisi nihoyat darajada ustalik bilan tasvirlanadi.

Kitobning ikkinchi qismida Mixail Arkadyevich Svetlovning eng sara sheʼrlaridan namunalar keltirildi.

Toʻplam keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan.

ISBN 978-9943-6582-5-7



© V.A. Kaverin, M.A. Svetlov, 2021

© «OʻZBEKISTON» NMIU, 2021

Veniamin Aleksandrovich Kaverin



Ruschadan O. RAHIMIY tarjimai





YOSHLIK DAVOM ETADI

(*Bu bo'limni Katya Tatarinova aytib bergan*)

«SEN UNI YAXSHI BILMAYSAN»


Ivan Pavlovich xayrlashdi-da, bizga xalaqit bermay deb, vagon dan chiqib ketdi. Valya esa hadeb: «Hayvonlar xo'jaligidagi Pavel Petrovichga salom de! Ha, aytmoqchi, shifokorga ham salom de, esim dan chiqib qolishiga sal qopti!» – derdi. Axiri Kira keldi-da, qo'lidan sudrab olib chiqib ketdi. Biz ikkimiz qoldik. Qani endi, Sanya hech qayoqqa ketmay, shu yerda qolsa!

Men tikilib-tikilib to'yib olgan ko'zlarinigina emas, balki hamma yog'ini ko'rib xotirimda muhrlab qolmoqchi edim: u boshyalang turardi, o'zi shunday yosh ko'rinardiki, hatto men unga uylanma, yoshsan dedim. Rasmiy kiyimda bo'yi balandroq ko'rinardi, ammo shunday bo'lsa-da, bo'yi pakanaroq edi, shuning uchun ham ba'zan beixtiyor oyoq uchida turib, bo'yini cho'zsa kerak. – Mana, hozir ham men unga qaragan edim, oyog'ining uchida turib, bo'ynini cho'zdi. Usti-boshi kelishgan, bejirimgina yigit edi, ammo boshining tepasida bir siqim sochi dikkayib turardi, bu unga ayniqsa kulganida juda yarashardi. Biz xayrlashib bo'lib, vagon dahlizidan unga qaraganimda, u jilmayib kulib turar va shu turishida bir vaqtlar men yaxshi ko'rib qolgan keskin, qorachadan kelgan, jonajon Sanyaga o'xshardi.

Boshqalar allaqayerdadir turishar, ammo ko'zimga hech kim ko'rinmasdi, vagon zinasidan tushayotib, yiqilib tushishimga sal qoldi. Qani endi, hech qayoqqa ketmasa-yu, shu yerda qolsa!

Poyezd jo'nashi bilan u furajkasini olib silkitdi, men ham poyezd yonidan borib, nuqul «ha, ha» derdim.

- Xat yozib turasanmi?
- Ha, ha!
- Har kuni, a?
- Ha!



– Borasanmi?

– Ha, ha!

– Meni sevasanmi?

Buni u shivirlab so‘radi, ammo labining qimirlashidan bilib oldim.

– Ha, ha!

Vokzaldan Ivan Pavlovichni kuzatib qo‘yadigan bo‘ldik, bora-borgunimizcha u Sanya haqida gapirib bordi.

– Eng muhimi shuki, uni juda murakkab odam deb tushunish yaramaydi, – dedi u. – Sen izzati nafsi zo‘r, qaysarsan, dastlab ko‘p urush-janjal bo‘lib turadi oralaringda. U yog‘ini aytganda, Katya, sen uni yaxshi bilmaysan.

– Ana, xolos!

– Uning eng muhim xislati bilasanmi, nimada? U hamisha yosh yigitligicha qoladi, chunki o‘z orzulari bilan otash yurakli bir odam.

U menga jiddiy qaradi-da, yana:

– O‘z orzulari bilan to‘la otash yuragi bor... Sen takabbursan, buni o‘zing sezmasliging mumkin, – dedi.

Men kuldim.

– Kuladigan joyi yo‘q buning. Albatta, takabbursan! Yoshligingda bunaqa emas eding. U – tez odam. Umuman, sen bu haqda bafurja o‘ylab ko‘rishing kerak.

Men, u judayam yaxshi odam emaski, hadeb uning to‘g‘risida o‘ylayversang, dedim hazillashib.

Ammo kechqurun uyga borgach, o‘tirib Sanyani o‘ylay boshladim. Uyda hech kim yo‘q edi. Valya bilan Kira kinoga, Aleksandra Dmitriyevna Gorkiyning «Dahshatli dunyo» nomli asarini o‘qimoq uchun klubga ketgan edi. Aleksandra Dmitriyevna bu asar bo‘yicha adabiy montajni o‘zi tuzib chiqqan va bu bilan juda faxrlanar edi. Avvaliga men o‘zim chizayotgan xarita ustida ancha vaqt ishlab o‘tirdim-da, keyin yig‘ishtirib qo‘yib, yana o‘y o‘ylashga o‘tirdim.

To‘g‘ri, Ivan Pavlovich rost aytadi, men uni mutlaq bilmas ekanman! Bir vaqtlar meni Triumfal skverida kutgan, fonuslar yoqilguncha va men nihoyat maydon orqali o‘tib, yoniga borgunimcha ko‘rib turgan bola; uchta maktab – bizning maktab, 143- va 28-maktabdagilar bizning birga turganimizni ko‘rib qolishlariga qaramasdan, uning chehrasi nuqul ko‘z oldimga kelardi. Ammo u bola mening xayolimda edi, o‘sha vaqtdagi bo‘lsa hozirgi

munosabatlarimizga o'xshamaganday, u bola ham hozirgi Sanyaga o'xshamasdi.

Ammo men uni juda ham murakkab shaxs deb o'ylamasdim sira. Men ilgari bilgan va tanigan, fikr va hislari doirasidan boshqa yana yangi muhit paydo bo'lganini, ammo bu muhitdan mutlaq bexabar qolganligini sezardim. Bu muhit o'z kasbiga tegishli muhit, – uzoq Shimolda xatarli havo safarlari, uchuvchilar uyida o'z tanishlari bilan uchrashish, yangi mashinani ko'rsa go'daklarcha sevinish muhiti edi, bu muhitsu aqalli bir hafta ham tura olmasdi. Ammo menga bu muhitdan hozircha joy tegmagan edi. Bir kuni u, juda bir xavfli safarini hikoya qilib berayotganida, men o'zimni g'alati bir fikrda tutib oldim, – men uni, xuddi boshqa bir odam to'g'risida hikoya qilib berayapti, deb o'ylabman. Yo'lda ketayotganida bo'ronga uchrab qolgan, aeroplanni qo'ndirishda zo'rg'a omon qolgan. So'ngra uch kungacha samolyot ichida sovuq qotib qolmaslik uchun mijja qoqmay o'tirgan odam Sanyaligini tasavvur eta olmas edim. O'rinsiz bo'lsa ham, dedim:

– Bunday holga tushmaslikning ilojini qilolmaysanmi?

U uyaldi-da, hazil aralash:

– Xo'p bo'ladi! Boshqa takrorlanmaydi, – dedi.

...Albatta, Vishimirskiy bilan bo'lgan gapni menga o'zi aytib berishi mumkin edi. Ammo u buni Ivan Pavlovichdan so'radi. U gap shaxsan o'zi haqli bo'lib chiqqanligida emasligini bildi. Buning tagida shaxsiy haqqoniyat emas, balki butunlay boshqa haqiqat bor ekan. Bu haqiqatni men, onamni sevgan, hanuzgacha yolg'iz va baxtsiz Ivan Pavlovichdan eshitishim kerak edi. O'sha kecha Sanya meni ko'chada ko'rib turganini bilardim. Uni Vorotnikov va Sadovaya ko'chalari burchagidagi bog'cha eshigi oldida turganini ko'rib, ajablanmadim ham. U mening ortimdan uyimgacha borsa ham, yonimga kelmadi. Mening yolg'iz o'zim qolishim kerakligini va u haqli chiqib, men nohaq bo'lib chiqqanim tufayli, garchand masofa juda yaqin bo'lsa-da, mening undan juda yiroqdaligimni va Korablyov aytib bergan gapdan naqadar xafa bo'lganimni u bilar edi...

Sanya Moskvaga kelganidan beri faqat bir kechani birga o'tkazdik. U juda charchab keldi, Aleksandra Dmitriyevna tomoshabin oldida sahnaga chiqishning qiyinligi va sahnaga chiqqanda, albatta, hayajonlanish kerakligi, yo'qsa ishning buzilishi mumkinligini aytib berishga zoriqsa ham, ikkimizni yolg'iz qoldirib, chiqib ketdi. Botib

borayotgan quyosh, xuddi butun olamni tashlab, faqat Sivtsev-Vrajek ko'chasiga joylashib olmoqchi bo'lganiday, uni yog'duga to'ldirib yuborgandi. Sanyaga choy ichirdim, u achchiq choyni yaxshi ko'rardi, o'zim uning yeb, ichishiga qarab o'tirdim, keyin u meni ham birga choy ichishga o'tirg'izdi.

So'ng birdan, bir vaqtlar yaxmalakka borganimiz yodiga tushib, o'sha kuni ilk marotaba yuzimdan bo'sa olganini xotirladi va: «Yuzing qattiq, tukli va muzdek bir narsa edi», – dedi. Men ham uning Yevgeniy Oneginni sud qilganini, nuqul menga xo'mrayib qaraganini va so'zining oxirida Grishka Faberni «Mastistiy»* deganini esladim.

– «Grigoryev – iste'dodli bola-ku, ammo Dikkensni o'qimagan» esingdami?

– Albatta! Shundan keyin o'qidingmi?

– Yo'q, – ma'yusona dedi Sanya. – Hech fursatim bo'lmadi. Ammo Volterning «Orlean qizi»ni o'qib chiqdim. Zapolyaryedagi kutubxonada nima uchundir, Volterning kitoblari juda ko'p.

Qorong'ida ko'zlari qop-qora ko'rinardi. Birdan nazarimda ko'zimga shu ko'zlar ko'rinadi-yu, boshqa narsasi ko'zdan g'oyib bo'layotganday tuyuldi. Zapolyaryedagi Volter kitoblari bo'lsa – qiziq ekan-da, demoqchi bo'lib turgan edim, shu onda telefon qo'ng'irog'i jarangladi. Go'shakni ko'tarishga chiqdim-da, meni o'qitgan kekxa professor ayol bilan yarim soatga gaplashib qoldim: u meni «qizcham» derdi, endi qayerda ovqat qilishimni, «Myur»da ko'rgan va chiroqni qoplaydigan chiroyli qalpoqni olgan-olmaganimni so'radi. Qaytib xonaga kirsam, Sanya uxlab qolibdi. Uyg'ota boshlagan edim, keyin achindim; yoniga cho'kka tushib o'tirdim-da, yaqindan qaray boshladim.

Shu kecha Sanya shturmanning kundalik daftarlarini, hamma qog'oz va suratlarini menga berdi. Kundalik daftarlar kichkina qulfi maxsus papkada edi. Sanya ketganidan keyin men, hoshiyalari uqalanib, yirtilib ketgan, qing'ir-qiyshiq satrlar bilan to'lgan varaqalarni ko'zdan kechira boshladim: satrlarni yozgan odamning fikri-xayoli sochilib, qo'li ham egasiga bo'ysunmaganday satrlar goh tekis, goho aji-buji qilib yozilgan. Bu daftarlarni o'qib chiqmoq uchun haqiqatan ham zo'r matonat va iroda kerak edi!

* Mastitiy so'zini Sanya «Mastistiy» deb noto'g'ri aytgan; mastitiy – atoqli, dongdor.

«Bibi Maryam» deb yozilgan changak Zapolyaryeda qolgan edi, ammo Sanya uning rasmini oldirib kelgan edi: dunyoda hech bir changak rasmga shunchalik yaxshi tushirilmagan bo'lsa kerak.

Bularning hammasi yer yuziga sòchilib ketgan va Sanya hammasini to'plab yozib chiqqan va yozajak tarixning bo'laklariga o'xshardi. Men-chi? Men nima qildim? Men hech narsa qilmadim, agar Sanya bo'lmaganida, otam meni bir vaqtlar Ensk vokzalida qo'lga olib osmonga irg'itib, mehribon va baquvvat qo'llari bilan ushlab olganidan boshqa, o'z otam haqida hech narsa bilmas edim.

Men Sanyaga har kuni xat yozib turaman deb va'da bergan edim, ammo har kuni nima deb xat yozish mumkin? Hamon Kiralarnikida yashardim. Ko'p mutolaa qilardim; to'plamlar solib qo'yilgan yashiklar dahlizda turardi, xaritani royal ustida chizardim, shunga ham qaramasdan, ko'p ishlardim.

O'sha yoz fasli birinchi marta dala ekspeditsiyasiga bormadim, – 34- va 35-yillar materialini ishlash kerak edi, – Boshqirdiston boshqarmasi (men Boshqirdiston geologiya boshqarmasida ishlardim) rahbariyati Moskvada qolishga ruxsat bergan edi.

Buvim har kuni kelib turardi, umuman, hamma ish bilan band; buning yana bir sababi bor edi: Valya bilan Kira birdan kamgap va jiddiylashib qolishgan va doim oshxonada shivirlashib o'tirishardi. O'tiradigan boshqa joy ham yo'q edi, chunki butun kvartira qadimgi zamondan qolgan katta oshxonadan iborat bo'lib, u ham ikki xonaga bo'linardi: biri «umumiy oshxona», ikkinchisi «haqiqiy oshxona» deb atalardi. Valya bilan Kira devorning orqasida, ya'ni haqiqiy oshxonada o'tirishardi, shuning uchun Aleksandra kechki ovqatni «umumiy oshxona»da pishirishga majbur bo'lar edi.

Valya endi gul taqdim etmasdi, puli bo'lmasa kerak. Ammo bir kuni oq kalamush olib kelib, baloga qoldi: Kira kalamushdan qo'rqib dod soldi-da, stol ustiga chiqib oldi. Valya, bu yaxshi kalamush, albinos navidan nodir jonivor desa ham bo'lmadi. Kira stoldan tushmay dodlayverdi, shundan keyin Valya albinos kalamushini dastro'molga boyladi-da, dahlizdagi stolga olib chiqib qo'ydi. Ammo Aleksandra Dmitriyevna konsertdan qaytib kelib, kalamushni ko'rib qolib, shunangangi dod-faryod ko'tardiki, Valya o'z tortig'ini olib ketishga majbur bo'ldi.

Ammo kechalari, Kira ikkimiz to'ygunimizcha pichirlashib, keyin bir-birimizga: «Endi uxla!» deganimizdan keyin, Kira darhol uxlab

qolardi, chehrasi baxtni aks ettirardi; men o'zim yolg'iz qolgan shu daqiqalarda yuragimni g'am bosib, achisha boshlardi. Men ularning muhabbati, hayotning eng rohatli davri naqadar yaxshi va biznikiga sira o'xshamaydi, deb o'ylardim. Ular doim bir-birining yonida, kunda ko'rishib turishadi, biz esa bir-birimizdan shunchalar yiroqdamiz!

Xuddi vagon derazasidan qarab ketayotganimdek, ko'z oldimga dalalar, o'rmonlar, yana dalalar, so'ngra tayga, shimol daryolarining sovuq lentalari, qor bilan qoplangan bepoyon kengliklar, ikki o'rtamizda yaslanib yotgan cheksiz yerlar kelardi.

«Albatta diydor ko'rishamiz-a, – deb ovuntirardim o'zimni o'zim. – Men uning oldiga boraman, juda soz bo'ladi. Ikki yil ta'til olganim yo'q, bu yil olaman-da, boraman, yo iyun oyida o'zi kelib qolar?»

Ammo xavotirlik bosilmas edi, birdan men, uning aeroplani osmonda buzilib qolib, yiqilib halok bo'lsa-ya, deb o'ylay boshlardim...

Xaritani chizish qiyin edi, chunki ilgarigi xaritalarda ko'p joylar noaniq berilib, endi hammasini boshidan boshlash kerak edi. Ammo ish qancha qiyin bo'lsa, men shuncha bosib ishlardim. «Tungi bosinqirash»larga qaramasdan, men o'zimni, xuddi yelkamdan og'ir yukni tashlab, endi yurakni maroqlantiradigan yangi, xushchaqchaq davr boshlanganday his etardim.

IT O'YNATISH MAYDONCHASIDA

Sanya jo'nab ketishi oldidan qayerga borib kelgan bo'lsa, hamma yerga, «Glavsevmorput»ga ham, «Pravda»ga ham, mening uy telefonim raqamini bergan ekan. Buni menga aytganida, qo'rqib ketdim.

– Men kimman? Kimni so'rashadi?

– Katerina Ivanovna Tatarinova-Grigoryevani, – dedi Sanya jiddiy ohangda.

Men uni hazillashgandir deb o'ylovdim. Ammo u ketganidan uch kundan keyin telefon qo'ng'irog'i jaranglab, Katerina Ivanovna Tatarinova-Grigoryevani chaqirib qolishdi.

– Ha, labbay!

– Bu, «Pravda»dan, – dedi bir kishi go'shak orqali.

«Pravda»da nomi ko'p uchragan jurnalist, Sanyaning maqolasi ko'p odamlarni qo'zg'atgani va hatto maqola muallifi haqida Arktika institutidan so'rov kelganini aytdi.

– Turmush o‘rtog‘ingizni yutuq bilan tabriklasangiz bo‘ladi.

Men unga, Sanya hali turmush o‘rtog‘im emas demoqchi edim, indamay qo‘yaqoldim.

– Yanglishmasam, men bilan gaplashayotgan – kapitan Tatarinovning qizi bo‘ladimi?

– Ha.

– Otangiz hayoti va faoliyatiga aloqasi bo‘lgan yana boshqa materiallar yo‘qmi?

Men: «Bor-u, ammo afsuski, Aleksandr Ivanovichning ruxsatisiz (Sanyani birinchi marta shunday deb atadim), berolmayman», – dedim.

– Xo‘p, biz unga xat yozib yuboramiz...

«Grajdan aviatsiyasi» jurnalidan hali qo‘ng‘iroq qilib, Sanyaning bo‘ron vaqtida aeroplanni qanday mustahkamlash kerak degan maqolasi bosilgan sonni qayerga yuboraylik deb so‘rashdi, uning bunday maqola yozganini bilmas edim. Men jurnaldan ikki nusxa so‘radim, bittasini o‘zimga olmoqchi edim. Keyin «Adabiyot gazetasi» tahririyatidan qo‘ng‘iroq qilishib, u qaysi Grigoryev – yozuvchi Grigoryev emasmi, deb so‘rashdi.

Ammo eng muhimi Ch. bilan bo‘lgan suhbat edi. Sanya unga mening to‘g‘rimda nima deb aytganini bilmayman, ammo Ch. telefonda men bilan xuddi eski tanishday gaplasha boshladi.

– Pensiya olasizmi?

Men tushunmadim.

– Otangiz uchun-a?

– Yo‘q.

– Albatta, to‘g‘rilash kerak, – keyin kuldi-da, – «Glavsevmorput»dagilar qo‘rqib ketishdi, chunki «Shimoliy Yerni sizning otangiz ochgan, ularda esa boshqa bir kishining nomi yozib qo‘yilgan ekan», – dedi.

– Umuman, menga... bordi-keldi gaplar yoqmay turibdi.

– Men, ekspeditsiya yuborish masalasi hal bo‘lgan deb o‘ylabman, – dedim.

– Hal bo‘lgan edi, endi hal bo‘lmagan bo‘lib chiqdi. Men ularga: «Paxtusov»ga qo‘shib yuboringlar desam, ular «Paxtusov»ning o‘zida bir uchuvchi bor, deyishdi. Bo‘lsa nima qipti! Axir, sizning eringizning aniq maqsadi bor-da!

U xuddi shunday dedi: «Sizning eringiz» dedi.

– Xo‘p, mayli, men yana gaplashib ko‘raman... Keling, o‘zingiz biznikiga.

Men tashakkur bildirdim-da, so‘ngra xayrlashdik...

Romashovdan har kuni xat olib turardim, ba‘zi kunlarda ikkitadan kelib turardi. Maktubni xuddi biron idoraga yuborganday, xatjild ustiga: «Boshqirdiston Geologiya boshqarmasining ikkinchi partiyasiga» deb yozardi. Darhaqiqat, o‘sha yillarda meni bir idora desa bo‘lardi, chunki mening Moskvada ishlashimni boshqacha yo‘l bilan rasmiylashtirib bo‘lmas edi-da! Ammo bu manzil hazil edi, xudoning bergan kuni shu hazilni takrorlash ensamni qotirardi.

Xatlarni avvaliga o‘qib chiqardim, keyin ochmasdan o‘ziga qaytarib yuboradigan bo‘ldim, yana undan keyin o‘qimay qo‘ydim, qaytarmay tashlab qo‘yadigan bo‘ldim. Nima uchundir, ularni o‘tga tashlab yondirishdan qo‘rqardim, ular u yer-bu yerda qolib ketaverardi, agar bexosdan qo‘lim tegib qolsa, xuddi kuydirgandek qo‘limni tortib silkitar edim.

Xatni yozgan odamning o‘ziga ham xuddi shunday bexosdan duch kelib qolardim. Ilgarilari u ish bilan juda band bo‘lguvchi edi, shuning uchun ko‘chada mening uydan qachon chiqishimni poylab turishga vaqti borligiga hayron qolardim. Men uni do‘konlarda, teatrdan ko‘rib qolardim, bu menga yoqmas edi. Chunki u salom bersa, alik olmasdim. U mening yonimga kelmoqchi bo‘lganida, men teskari qarardim.

U Valyaning oldiga borib yig‘lar ekan. Bir kuni Valya hazillashib shimpanze degan maymunlarda ham shunaqa hollar bo‘lardigan degan ekan, uning jahli chiqib, baqirib beribdi.

Xullas, mening hayotimga u shu qadar kirib olgan ediki, bundan men kasal bo‘layozdim: ko‘zimni yumishim bilan u, yangi kulrang palto va yumshoq shlapa kiygani holda ko‘z oldimda gavdalanadigan bo‘ldi. Shlapani men uchun kiyar ekan, buni menga bir kuni o‘zi aytgan edi.

Romashovnikiga borib, Vishimirskiy bergan qog‘ozlarni tortib olish kerak, degan fikr, albatta, g‘ayrioddiy va g‘alati fikr edi. Menga yuborgan xat va gullarni o‘ziga qaytarib yuborganimdan keyin unikiga borishning o‘zi mantiqsizlik edi. Ammo bu to‘g‘rida qancha o‘ylasam, shuncha yoqardi. Uning uyiga kirib borishimni, uning shoshib qolib, gapirolmay menga qarab qolishini, so‘ngra rangi bo‘zday oqarib, dahlizdan yugurib borib, eshigini katta ochib berishini, men esa sovuqqonlik bilan:

– Misha, men bu yerga ish bilan keldim, – deyishim, hammasini ko‘z oldimga keltirdim.

Qizig‘i shuki, buning hammasi xuddi men o‘ylagandek bo‘ldi.

Vannadan chiqqan bo‘lsa kerak, ustiga ko‘k tusli issiq pijama kiygan, ho‘l sochlari peshanasiga sochilib tushgan edi. U oppoq oqarib ketdi-da, jaketkamni yechgunimcha, indamay turib qoldi. Keyin yonimga yugurib keldi:

– Katya!

– Misha, men bu yerga ish bilan keldim, – dedim men sovuq-qonlik bilan. – Qani, kiyining, sochlaringizni tarang, qayerda kutib turay?

– Ha, marhamat, albatta...

U dahlizdan yugurib bordi-da, eshikni ochdi.

– Mana bu yoqqa. Kechirasiz...

– Aksincha, siz meni kechiring... – Bultur Nikolay Antonovich va buvim bilan uch kishi bo‘lib mehmonga kelgan edik, buvim to ketgunimizcha uning qirq so‘m olib, bermay ketganini shama qilib o‘tirgan edi.

Uning uyi o‘sha kelganimizda ham menga juda yoqqan edi, ammo hozir, ayniqsa, chiroyli edi. Xona juda ko‘rkam qilib bo‘yalgan edi: devorlari och kulrang, eshik yonidagi shkaf undan ham ochroq rangda bo‘yalgandi. Mebel yumshoq va o‘tirishga qulay, umuman, uy nihoyatda shinam va ko‘rkam edi. Derazadan it o‘ynatish maydonchasi ko‘rinib turardi. Bu maydonchani men juda yaxshi ko‘rardim. It o‘ynatish maydonchasini – undagi halok bo‘lgan itlarga qo‘yilgan haykalni, unga tutashib ketadigan ko‘chalarni nima uchundir, yoshligimdayoq yaxshi ko‘rib qolgan edim...

Romashov sochlarini tarab, ustiga atir sepib, yangi ko‘k kostum kiyib chiqqanidan keyin (bu kostumni ilgari ko‘rmagan edim) men unga:

– Misha, men sizning hamma maktublaringizga birdan javob beray deb keldim, – dedim. – «Agar menga tegmasang, keyin pushaymon qilasan», deb yozganingiz nimasi? Xatingizni sira o‘qimasligimni bila turib, har kuni xat yozishingiz – bolalik bu! Mening sizga tegmasligimni o‘zingiz ilgaritdan juda yaxshi bilasiz. Shunday ekan, nega «meni aldading» deysiz?!

Uning yuz ifodasining o‘zgarib borishiga qarab bo‘lmasdi. U uyga, o‘z baxtiga ishonmay, sevinib, entikib kirgan edi. Endi esa mening

har kalima so‘zimdand keyin uning yuzidagi umidi so‘nib borar, rangi oppoq oqarib borardi. U, teskari qarab, ko‘zini yerga tikib turdi.

– Bu to‘g‘ridagi gap-so‘zni to‘xtatmasligimning sababi ko‘p, gapirish ortiqcha. Ammo siz aqlli odamsiz-ku! Men sizni sevmasligimni yaxshi bilasiz, shuning uchun aldanishning ham o‘rni yo‘qligini bilasiz.

– U bilan umring baxtsizlikda o‘tadi!

– Nega meni sensiraysiz? – sovuqqina dedim men. – Hozir turib ketaman.

– U bilan umring baxtsizlikda o‘tadi, – yana qaytarib aytdi Romashov.

Uning ikki tizzasi dir-dir qaltirardi; bir-ikki marta ko‘zini qisib qo‘ydi. Sanyaning u uxlaganda ko‘zini yummay uxlashini aytib bergani yodimga tushdi.

– O‘zimni ham, sizni ham o‘ldiraman! – dedi u nihoyat.

– O‘zingizni o‘ldirsangiz-ku, juda yaxshi bo‘lardiya, – dedim men sokinlik bilan. – Men siz bilan urishmoqchi emas edim, ammo menga bunday do‘q qilishga nima haqqingiz bor? Bizning zamonada qizlarga faqat fitna, g‘alamislik yo‘li bilan uylanishdan boshqa yo‘l yo‘qdek, o‘zingiz fitna qurdingiz! Sizda odamgarchilik degan narsa yo‘q ekan, bo‘lmasa xuddi daydi itday, kecha-kunduz ortimdan yurarmidingiz? Yaxshisi, mening gapimni indamay tinglashingiz kerak, chunki siz aytmoqchi bo‘lgan hamma gapingizni men yaxshi bilaman. Endi bu yo‘qqa qarang: Vishimirskiydan olgan qog‘ozlar qanday qog‘ozlar edi?

– Qaysi qog‘ozlar?

– Misha, mening gapimni tushuna turib, o‘zingizni bilmaslikka solmang. Nikolay Antonovichni ilgari birjachi deb qo‘rqitgan, keyin Sanyaga Katyadan voz kechsang, senga beraman deb va‘da qilgan qog‘ozlar-da, tag‘in qanaqa qog‘oz bo‘lardiy! Qani, bering ularni hozir menga! Tezroq bo‘ling!

U bir necha marta ko‘zini yumib ochdi, uh tortdi. Keyin oldimda tiz cho‘kmoqchi edi, men baqirib berdim:

– Unday qila ko‘rmang, eshitdingizmi!

U o‘zini zo‘rg‘a tiydi, faqat tishlari g‘ijirlab ketdi, yuzida shu qadar umidsizlik aks etdiki, yuragim beixtiyor achishib ketdi.

Bu unga achinish emas edi! Ammo uning bunday qiynalishiga, hatto bir og‘iz gapini topib gapira olmasligiga xuddi men aybdorday

bo'lardim. Qaytanga, meni so'ksa, baqirsa men uchun yengil bo'lardi. Ammo u indamay, lom-mim demay turardi.

– Misha, – dedim men yana hayajonlana boshlab, – o'zingiz bir o'ylab ko'ring, bu qog'ozlarning endi sizga sira keragi yo'q. Baribir ahvolni o'zgartirolmaysiz; otam to'g'risida hamma gazetalarda maqolalar chiqsa-yu, men o'z otam haqida hech narsa bilmasam. U qog'ozlar menga, boshqa hech kimga emas, faqat mening o'zimga kerak.

«Faqat mening o'zimga kerak» degan so'zni aytganimda, uning nima deb o'ylaganini bilmayman-u, ammo birdan ko'zlari alanglab, xuddi quturganday bo'lib ketdi, u boshini egdi-da, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. U Sanyani o'ylagan bo'lsa kerak.

– Hech narsa bermayman, – dag'al dedi u.

– Yo'q, berasiz! Agar bermasangiz, menga yozgan hamma gapingiz yolg'on ekan, deb o'ylayman.

U birdan chiqib ketdi, men yolg'iz o'zim qoldim. Uy jimjit edi, faqat ko'chadan bolalarning tovushi kelardi, bir-ikki marta mashina signali eshitildi. Uning chiqib ketishi va anchagina hayallab ketishi menga yoqmadi. Bordi-yu, o'zini bir narsa qilib qo'ygan bo'lsa-ya? Yuragim shuv etib ketdi, dahlizga chiqdim-da, quloq berdim. Jimjit, faqat bir yerdan suvning jildirab oqishi eshitalardi.

– Misha!

Vanna eshigi qiya edi, mo'ralab qarasam – vanna ustida engashib turibdi. Avvaliga tushunmadim, chunki vannaxona qorong'iroq edi, u chiroqni yoqmagan edi.

– Men hozir chiqaman, – dedi u menga qaramasdan.

U ikki bukchaygan holda boshini jo'mrak tagiga qo'yib turardi, suv yuziga, yelkalariga oqib tushar, yangi kostumi shalabbo bo'lib ketgan edi.

– Nima qilayapsiz? Jinni bo'ldingizmi?

– Boring, men hozir chiqaman! – dedi u jahli chiqib.

U haqiqatan bir necha daqiqadan keyin chiqdi, ammo ko'ylak yoqasini olib tashlagan, ko'zlari qip-qizil edi, qo'lida to'rtta oddiy daftar olib chiqdi.

– Mana, – dedi u, – menda boshqa hech qanaqa qog'oz yo'q. Oling!

Balki bu yerda ham yolg'on gapirgandir, chunki bir daftarni va-raqlab ko'rgan edim, ichidan bosma qog'oz chiqib qoldi (kitob varag'i

bo'lsa kerak), ammo u bilan ortiq gaplashib bo'lmas edi; men unga tashakkur bildirdim:

– Rahmat, Misha.

Uyga qaytdim, bir necha soat o'tdi va kechaniing yarmidan ko'pi ham o'tdi. Bungacha shu daftarlarni o'qib o'tirdim, shundan keyingina uning yuzi, shalabbo kostumi hamda joni chiqib, shalvirab qolgan qushday qiyofasi ko'z oldimdan bir oz nari ketdi.

OQ YO'L VA OMONLIK TILAYMIZ

Ko'z oldimda to'rtta eski, ya'ni inqilobdan avval chiqarilgan daftar yotadi; inqilobdan avval deganim shuning uchunki, muqovasiga «Fridrix Kan» firmasi yozilgan edi. Birinchi daftarning birinchi betiga: «Umrimda shohid bo'lganim hodisalar» deb juda chiroyli qilib yozilgandi, uning yoniga 1916 sanasi qo'yilgandi. Xotiralar! Ammo u yog'i eski gazetalardan qirqib olingan maqolalardan iborat edi. Bu gazetarlar orasida men umrim bino bo'lib eshitmagan gazetarlar, ya'ni «Birjeviye vedomosti», «Zemshina», «Gazeta Kopeyka» nashrlari bor edi. Maqolalar uzunasiga, varaqning tepasidan pastigacha yopishtirilgan edi. Ammo ko'ndalang yopishtirilganlari ham bor edi, masalan, «Tatarinov ekspeditsiyasi. Ochiq xatlarni sotib olingiz!»

Safarga jo'nash oldidan ibodat.

«Bibi Maryam» kemasi reydda*.

Daftarni nari-beri varaqlab chiqdim, ikkinchisini ham, uchinchisini ham qarab chiqdim. Ivan Pavlovich bilan bo'lgan suhbatda aytilgan «qog'ozlar»dan asar ham yo'q. Bu daftarlar ichida faqat Peterburgdan Sibir bo'ylab Vladivostokka jo'nagan ekspeditsiya haqida chiqqan maqola va xabarlar to'plab qo'yilgan edi.

Maqolalarning o'zi qanaqa maqola ekan? O'qiy boshlagan edim, juda qiziqib ketibman. O'tmish ko'z oldimdan o'ta boshladi, daftar-dagi maqolalarni afsus va alam bilan o'qirdim. Shuning uchun afsuslanardimki, «Bibi Maryam» shxunasi safarga chiqmasdan avval halok bo'lgan edi, – maqolalarni o'qib shunday xulosaga kelgandim. Alam qilgani shuning uchun ediki, otamni rosa aldashgan ekan, uning soddaligi va odilligi o'ziga zarar yetkazgan ekan.

* *Reyd* – kema va paroxodlar turadigan ochiq joy.

«Bibi Maryam»ning jo‘nab ketganini «o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan» bir kishi bunday deb yozar edi:

«...Uzoq safarga jo‘nab ketish oldidan turgan shxunaning machtalari bayroqlar bilan nari-beri bezatilgan. Jo‘nash mahali yaqinlashib kelmoqda. «Suvda va quruqda yurgan sayyohlar haqiga so‘nggi fotiha o‘qildi, so‘nggi vidolashish so‘zlari aytilib bo‘ldi... Nihoyat, «Bibi Maryam» sekin yo‘lga tushdi, qirg‘oq uzoqda qolib ketdi, uylar va odamlar ko‘rinmay qoldi. Tantanali dam! Yer bilan, Vatan bilan bo‘lgan so‘nggi aloqa uzildi. Ammo bunday tantanasiz kuzatish, kuzatuvchilarning beparvolik bilan tomosha qilishlari odamning yuragini achitar va kishi uyalardi... Kech kirdi. «Bibi Maryam» Dina daryosining og‘ziga borib to‘xtadi. Kuzatuvchilar ekspeditsiya sharafiga bir bakaldan shampan vinosi ichdilar. Yana bir martadan qo‘llar siqildi, yana bir martadan quchoqlashib xayrlashildi-da, kuzatuvchilar shaharga qaytmoq uchun «Lebedin»ga o‘tdilar.

Kichkina kema chetida turgan ayollarning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqar, ular qo‘llarini silkitib qolardilar... Uzoqlashgan shxunadan itlarning vovullashi eshitilib turdi. Uzoqlasha borgan sari kichrayib ko‘rinardi, bora-bora ufqda bir nuqtaga o‘xshab qoldi... Nimalar kutadi sizlarni, jasurlar!»

Shunday qilib, shxuna (kamida ikkita ustunli va barcha ustunlari egilgan yelkanli suzib yuruvchi kemaning turi) uzoq safarga jo‘nab ketdi. Arxangelskdagi mayoq vidolashib, «Oq yo‘l va omonlik tilaymiz» deb signal berdi: ammo shu zamonoq qirg‘oqda mojaro boshlanib ketdi. Shxunaga mol sotgan savdogarlar o‘rtasida janjal ko‘tarilibdi, sud bo‘lib, kim oshdi savdosi boshlanib ketibdi – uskuna, anjom va oziq-ovqatlarning bir qismini shxuna qirg‘oqqa tashlab ketgan ekan, shu yerning o‘zida kim oshdi savdosida sotilibdi. Aybni aytmaysizmi! – otamning ustiga qo‘yilmagan ayb qolmabdi dunyoda. Shxunaning jo‘nab ketganiga bir hafta o‘tmasdan, otamni o‘zini ham, odamlarini ham sug‘urta qilmadi, qutb doirasida suzish sharoitlarini nazarga olmasdan, uch hafta kechikib jo‘nadi, o‘zi bilan radiotelegrafchini olib ketmadi, deb ayblashibdi. Uni yengiltaklikda, jamoani yaxshi tanlay bilmaslikda («Jamoada yelkanni idora qiladigan bitta ham odam yo‘q») ayblashgan. Uni masxara qilib kulishadi; «bu bema’ni avanturada bizning dabdabali, bema’ni hayotimiz akslanadi» deb aytishadi.

«Bibi Maryam»ning jo'nab ketishidan bir hafta keyin Karsk dengizida dahshatli shturm bo'lgan, bu to'g'rida xabar kelishi bilanoq, ekspeditsiya halok bo'lib ketdi deb ovozarlar tarqalgan. «Ayb kimda?» «Bibi Maryam»ning taqdiri», «Tatarinovni qayerdan izlash mumkin?» – bu maqolalarni o'qirkanman, bolaligimda kechirgan dahshatli taassurot yodimga tushdi: Ens-kda turardik, mening kichkinagina bo'lmamga qora shoyi ko'ylak kiygan oyim qo'lida gazeta ushlab kirib keldi. Men unga allanimalar desam ham, karavotimdan sakrab tushib, ko'ylakchan holda uning yoniga yugurib borsam ham, meni ko'rmasdi. Pol sovuq bo'lsa ham, oyim menga karavotingga borib yot demasdi, qo'lga ham olmasdi, hamon deraza yonida turardi. Men ham derazaga cho'zilib qarayman, ammo faqat bog'imizni, kuz yomg'iri ostida qolgan daraxt barglari, ko'lmak suvlar, yomg'ir tomchilarining suv yuziga tushishini ko'rardim: «Oyi, nimaga qarab turibsiz?» Oyim indamaydi. Men yana so'rayman, qo'lga olishini istayman, chunki uning indamay turishidan qo'rqib ketgandim. «Oyi!». Men yig'lay boshlayman, shundan keyin oyim menga qaraydi-da, meni qo'lga olmoq uchun engashadi, ammo shu onda unga bir narsa bo'lib, yerga o'tirib qoladi, keyin polga cho'zilib yotadi. Birdan qo'rqib ketganimdan baqirib yubordim, qo'l va oyoqlarim bilan tepina boshladim, oyimning ovozini eshitsam ham, baqiraverdim. Keyin uxlab qolibman, uyqu ichida buvimning oyim bilan gaplashganlarini, oyimning buvimga:

– Mendan qo'rqib ketdi, – deganini eshitdim.


Ammo men jim yotaman, o'zimni uxlaganlikka solib yotaman, chunki u o'zimning oyim edi, u hamon yig'lar, gapirib yig'lar edi...

Endi, ushbu maqolalarni o'qibgina, u voqeaning ma'nosini tushundim.

Biroq ovozarlar noto'g'ri ekan, kapitan Tatarinov Yugor Shari-dagi telegraf stansiyasi orqali «Hamma ionachilar va ekspeditsiya-ga xayrixohlik izhor etuvchilarga samimiy salom va ehtiromlar» yuborgan.

Bu xat aslicha bosilgan bo'lib, ustiga otamning surati bosilgan edi, otam bu suratga dengizchilar kiyimida, oq pogon taqib tush-gandi, mo'ylovi chiyonday buralgan, qomati raso zobit...

Uning «Xayrixohlarga muvaffaqiyatlar» yuborishi ham bejiz emas edi: u iona to'plash natijasida, «Rusiya qutb o'lkalarini o'rganish



qo‘mitasi» ekipaj oilalariga yordam berar deb umid qilar edi. U, o‘zining Yugor ekspeditsiyasi orqali yuborgan va «Novoye vremya» gazetasining 16-iyun sonida bosilib chiqqan axborotnomasida shu to‘g‘rida ham yozgan edi:

«Umummillat ishiga o‘z hayotini fido qilganlarning bola-chalarini qo‘mita tashlab qo‘ymas deb qattiq ishonaman».

Puch umidlar! O‘sha gazetaning 27-iyunda chiqqan sonida qo‘mita yig‘ilishining hisobotini o‘qidim: «Qo‘mita sekretari N.A. Tatarinovning so‘ziga ko‘ra, yangi ionadan juda oz mablag‘ tushgan. Boshqa tadbirlar ham, chunonchi, sayr-tomoshalar ham kutilgan natija bermadi. Shunday qilib, qo‘mita ekipaj oilalariga berishni ko‘zda tutgan ma‘lum miqdordagi ionani berish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan».

Bunday «iona va sadaqalar»ni o‘qib hayron bo‘lardim... Yoki biz ham oyim bilan shu qadar qashshoq edikmidikki, «berilgan sadaqa» bilan kun ko‘rgan bo‘lsak?..

Ammo bu xayollar miyamga keldi-yu, ketdi. Bu alamlar ustida ko‘p o‘ylab o‘tirmadim, ularning yoshi meniki bilan teng edi. Eski gazetalarda meni qiziqtirgan va hayratda qoldirgan boshqa narsa edi: hamma bir og‘izdan «Bibi Maryam» muqarrar halokatga yo‘liqadi, derdi. Ba‘zi odamlar qo‘llariga qalam olib, shxunaning Yangi Yergacha yetib bormasdanoq halok bo‘lishini hisoblab chiqqan edilar. Yana boshqalar esa, shxuna dastlab uchragan muzlar orasida tiqilib qoladi, «qutb dengizi asiri» sifatida Frans-Iosif Yerini o‘tgandan keyin halok bo‘ladi, deyishardi.

Shxunaning Shimoliy dengiz yo‘lidan bir mavsumdami, ikki mavsumdami, uch mavsumdami, baribir o‘tolmasligiga hech kim shubha qilmas edi.

Faqat bir shoirning Arxangelsk gazetasida «I.L. Tatarinovga» degan she‘ri bosilib chiqqan edi. Bu she‘rga ko‘ra, uning fikri boshqacha edi.

*U azamat! Taqdir uni asrasin!
Uning g‘ayrat, tavakkali tufayli
Ikkiga bo‘lindi qutb kurrasi,
Erigan muzlar ham chekinar sekin...*

Avval ham men ko‘p narsani bilardim. Otamning, Sanya Enskda topgan bir xatida, otam «Oltmishta itning yarmidan ko‘pini Yangi Yerdayoq otib tashlashga to‘g‘ri keldi» deb yozgandi. Sanyaning Vishimirskiy so‘zidan yozib olgan xatida chirigan ust-bosh va yaramas shokolad to‘g‘risida gapirilar edi. «Arxangelsk» gazetasida savdogar E.I. Demidovning xatini o‘qidim. O‘sha Demidov «Go‘sh tuzlash va ust-bosh tayyorlash mening kasbim emas» der edi. «Bu ishda men faqat komissionerlik* qildim.

Buning ustiga, o‘zining katta savdo ishi bo‘lgani holda, u albat-ta, har bir bochkaning ichiga kirib, undagi go‘sh va baliqni tekshira olmasdi. Kapitan Tatarinovdan ketma-ket: «mol olishni to‘xtatinglar, pul yo‘q» yoxud «Hozirlangan molni sotinglar, pul yo‘q» degan telegrammalar kelib turardi. Pul yo‘q ekan, ekspeditsiya yuborishning nima kerakligi bor edi?.. Bu shoshilinch sur‘atda qilingan ishning aybdorlari bo‘lsa, ularni mahalliy savdogarlar orasidan emas: balki yuqoridan izlash kerak...»

Ammo, bir narsani, ya‘ni «Bibi Maryam»ning jo‘nashiga uch kun qolganida, for-tryumda**, bargoutning ikki tomonida, ikkinchi palubaning*** tagida, vaterliniyadan**** ancha pastroqda paroxod qobig‘ining bir necha yeri bolta va arra bilan kesib olinganligi»ni Sanya ham, men ham bilmas edik. Oyim menga nima uchun bu haqida aytmagan – bilmasdim. «Kesib olingan joylar o‘lchandi va suratga olindi: eng katta teshikning eni 12 duym, uzunligi 2 fut va 4 duym keladi, boshqalari undan kichikroq. Bu teshiklarning paydo bo‘lishi nihoyatda sirlidir, ammo kema halokatga uchragan taqdirda uning yangi egasi tegishli miqdorda sug‘urta puli olishi aniq».

Otamning halok bo‘lib ketganligi va qaytib kelmasligini shu huj-jatlarning o‘zidan ham bilish mumkin edi. Uning halok bo‘lishdan boshqa iloji ham yo‘q edi-da! U muqarrar o‘limga yuborilgan edi, halok bo‘lib ketdi.

* *Komissioner* – dallol; ma‘lum foiz mukofot baravariga, savdo ishlariga oid topshiriqlarni bajaruvchi kishi.

** *For-tryum* – paroxodning tag qismi, eng pastki qavati.

*** *Paluba* – paroxod (kema) sahni.

**** *Vaterliniya* – kemanding qanchalik suvga botib turganligini ko‘rsatadigan chiziq.

O'sha yili yozda ishim boshimdan oshib yotganini yuqorida aytgan edim; ishimning bunchalik ko'pligi yana shuning uchun ham ediki, mening yordamchim, uchinchi kursda o'quvchi talaba qiz, juda befarosat edi. Shuning uchun menga uning ishini bajarishga va bundan tashqari, uning o'zini ovutishga ham to'g'ri kelardi: u, o'zining befarosatligidan ko'p xafa bo'lardi. O'zimning ham ko'p narsaga aqlim yetmasdi, har damda keksa professor ayol oldiga yugurardim: professor meni «qizcham» derdi, «juda ozib ketibsan» deb tashvishlanardi. Darhaqiqat, men juda ozib ham ketgandim, rangimni ham oldirib qo'ygandim, chunki umrimda bunchalik o'y o'ylamagan va tashvishga botmagan edim. Maqolalarni o'qib, tashvishlanardim; Sanyadan xat kelmay qolsa ham tashvishlanardim; buvim mendan xafa bo'lib, oldimga kelmay qo'ygan edi – yana tashvishlana boshladim. Bundan tashqari Valya bilan Kira ham meni tashvishga solib qo'yishgan edi.

Ularning ishi joyida edi; ular o'zlarining oshxonadagi joylariga kirib olib, pichirlashib o'tirishar, keyin birga choy ichishar edi, choy ichishganda yuzlari jiddiy, baxtiyor va mag'rur bo'lardi. Ammo bir kuni birdan ularning pichiri to'xtadi-da, bir ozdan keyin bir-biriga baqirisha ketdilar. Qo'rqib ketib men ham baqira boshlabman, shu tobda Valya lavlagiday qip-qizarib chiqdi-da, dabdurustdan eshik deb o'ylab, shkafga kirib ketdi. Men qo'liga shlapasini berib, nima bo'ldi o'zi, deb so'ragan edim, u:

– Nima bo'lganini o'rtog'ingizdan so'rang! – dedi.

Kiraning eng so'nggi marta qachon yig'laganini eslay olmayman. Yanglishmasam, beshinchi sinfdaligimizda tasviriy san'at darsida «qoniqarsiz» baho olgani uchun yig'lagan edi. Hozir u yana yig'lardi va xuddi yosh boladay, qo'li bilan ko'zini ishqalardi.

– Kira, nima gap o'zi?

– Hech gap bo'lgani yo'q. Biz rasmiy nikohdan o'tmoqchi edik, endi u bu yerga ko'chib kelmayman deydi, bo'lgan gap shu.

– Men tufaylimi?

– Hech, sen tufayli emas. U, o'zing bilib ol deydi. Xudo ursin, o'ylab topolsam. U menikiga ko'chib bor, deb qo'ymayapti. Men bormayman dedim. U yerga ko'chib borsam, ovqat pishirishim, ro'zg'orga qarashim kerak bo'ladi, bunday ishlarga vaqtim bormi? Bu

yerda esa hamma narsa mukammal – idish-tovoq ham bor, dasturxon ham, ko'rpa-yostiq, hammasi bor.

– Oying ham shu yerda.

– Ha, oyim ham yonimda.

Kechgacha gaplashib o'tirdik, yarim kechada yonimga Kira kirdi-da: «Ha, bildim, u meni ortiq sevmaydi», dedi. Ertalab soat yettigacha men unga Valya seni juda yaxshi ko'radi, yomon ko'rsa shunaqa hovliqarmidi deb, ovuntirib chiqdim. Uni ishontirdimmi, yo'qmi, bunisini bilmadim, ammo o'tirdi, o'tirdi-da, birdan: «Bilaman, u juda yaxshi odam, men yomonman. Unga xat yozaman-da, men sening tirnog'ingga ham arzimayman, meni yaxshi ko'rmasan, chunki meni tentak, beaql deysan», deb aytaman dedi.

– Xatni yubormasingdan avval menga ko'rsatgin, xo'pmi? – dedim men, ko'zim uyquga ketarkan. Ko'zim yumilib borarkan, u stol yonida ko'ylakchan xat yozib o'tirardi...

Ertalab turib, uning kechasi yozgan xatini yirtib tashladik-da, keyin men Valyaning oldiga ketdim. U hayvonot bog'ida ishlardi, bir kuni Sanya bilan borganim, Valyaning bizga allaqanday kemiruvchi hayvonlarni ko'rsatgani esimga tushdi. Endi borib ko'rsam u binodan asar ham qolmagandi, uning o'rniga chilustunli, chiroyli, oppoq uy qurilgandi; bu safar uning qorovulga: «Men biologiya tajriba laboratoriyasining xodimi bo'laman» deb o'tirishining hojati ham bo'lmadi. Ammo bu chiroyli va oppoq binodan ham sichqon hidi kelardi. Valya ham ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday edi. Farqi shu ediki, egnida oq xalat va soqollari o'sib ketgan edi. Kechasi menga Kira, endi u o'lsa ham soqolini qirdirmay yuraveradi degan edi, shu esimga tushib, kulib yuborgim keldi.

U meni kursiga o'tqizdi-da, o'zi ham o'tirdi.

– Valya, eng avval shuni bilginki, bu erga men o'zim keldim, – deb gap boshladim, achchig'im kelib. – Meni Kira yubordi deb o'ylama.

Uning ovozi titrab: «Shunaqami?» dedi. Bechoraga rahmim keldi. Ammo men boyagidek, jiddiy sur'atda davom etaverdim:

– Sivtsevda turish, ikkovingga ham ming marta yaxshi, ammo o'z uyingda qoladigan bo'lsang, unga ochiq ayt qo'y, vassalom! O'zing bilib ol deysan, u qayerdan bilsin!

Valya indamay o'tirardi.

– Men senga aytsam... Sivtsev-Vrajekka hech ko'chib borolmayman; albatta, u yer-ku yaxshi-ya, nimasini aytasan. U yerda

yotoqxonada va kabinetni alohida qilib olsa ham bo'ladi, agar devorni boshqa yerga ko'chirilsa, hujrani laboratoriya qilsa ham bo'ladi. Ammo buning sira iloji yo'q.

– Nima uchun?

– Shuning uchunki... menga qara, seni ham gapirib charchatadimi? – birdan tajang bo'lib so'radi u.

– Kim?

– Kiraning onasi.

Kulaverib qotib qolibman.

– Sen kulasan nuqul, – dedi Valya, – sen bilmaysan-da. Mening hech tobim yo'q. Bir kuni: «Nega ranging oqarib ketdi?» deb so'rab qoldi. Sal qolsa aytib yuborardim... Nuqul Varvara Rabinovich degan allakimni gapirgani gapirgan, padariga qusur o'sha Rabinovichning... Yo'q, ko'chib bormayman.

– Menga qara, Valya, – dedim men jiddiy ohangda. – Kim kimni gapirib charchatishini bilmayman, ammo Kiraga nisbatan bemaza munosabatda bo'lishing aniq. Kechasi bilan uxlamay yig'lab chiqdi. Hozirning o'zida borib, muddaongni ochiq aytasan.

Bu gapni eshitib, qiyofasi o'zgardi, uying u boshidan bu boshiga hayajon ichida yurib turdi.

– Bormayman!

– Valya!

U oyog'ini tirab turib olgandi «Eh, ha tuzuk ekansan!» dedim ichimda; uning qaysarligi menga yoqqan edi.

– Bo'lmasa – menga yalinmalarini, bilganingni qillaring! – dedim va o'rnimdan turib ketmoqchi bo'lib turib edim, u olib qoldi. Kiraning onasini qanday qilib kamroq gapirtirish chorasini o'ylab, ikki soatga gaplashib o'tirdik.

Aytish kerak bo'lmasa ham, bo'lgan gapni Kiraga aytdim. U juda hayron bo'lib qoldi, keyin oyisining unga har kuni Valya gapirib charchatadi deb nolishini va hatto bir kuni Valya ketgandan keyin peshanasiga ho'l dastro'mol qo'yib yotib qora kulrang tulkidan to'ydim, eshitsam, jinni bo'laman deganini aytib qoldi.

Kira bir zumda o'tlanib, mening: «Men sening o'ringda bo'lganimda, avval o'zim bormasdim» deyishimga qaramay, Valyaning oldiga ketdi. – Kechqurun yana haqiqiy oshxonada pichirlashib o'tirardilar. Ular Sivtsev-Vrajekda turishmoqchi bo'lishdi.

Bu kecha Sanyasiz o'tkazgan eng yaxshi kechalardan biri edi. Bundan bir kun oldin Sanyadan katta va xushxabarli xat olgan edim; xatda u, gap orasida, ko'p mutolaa qilayotganini, ingliz tilini o'rgana boshlaganini yozgan edi. Mening ingliz tilida yaxshi o'qishimni bilib hayron bo'lgani, bir kuni gap bastakor Shostakovichdan ketganda, bu familiyani eshitmaganligi ma'lum bo'lganda, qizargani yodimga tushdi. Umuman, bu xat juda yaxshi xat edi, uni o'qib, kayfim chog' bo'lib ketdi.

Aleksandra Dmitriyevna ikkimiz «qalliqilar»dan bekitib, yaxshilab taom tayyorladik. Garchand Valya tansiq ko'rgan omar (katta dengiz qisqichbaqasi) solib qilgan salatga ikki marta tuz sepilgan bo'lsa-da (mendan keyin Aleksandra Dmitriyevna ham sepgan ekan), birpasda yeyilib ketdi, chunki Valya kechadan beri soqolini olmasligi u yoqda tursin, hatto hech narsa yemagan ham ekan.

Sanyaning sog'lig'i uchun qadah ko'tardik, keyin uning hamma ishlarida muvaffaqiyat tilab niyatlar bildirdik.

– Uning katta ishlarida, – dedi Valya, – uning hayotida katta ishlar amal berishiga ishonaman.

Keyin u, yigirma beshinchi yilda Moskva komsomol qo'mitasi huzuridagi yosh tabiatshunoslar byurosida ishlaganini, bir kuni Sanyani Serebryaniy borga ekskursiyaga olib borgani, Sanyaning «buning nima qizig'i bor» deb tirishib o'ylagani, keyin birdan sitatalar aytishini, uning yoddan bilishiga hammaning hayron qolganini so'zlab berdi. Sanya o'shanda:

*«Umidlar bor ekan kurashmoq,
Kurashmoq kerak,
Hayotda bo'lurmi bundan ham
Maroqli o'yin?»*

deya ifodali so'zlarni aytgan va «dala sichqonlarini ovlab tutish – mening kasbim emas», degan ekan.

Aleksandra Dmitriyevna ham bir narsa aytib bermoqchi bo'ldi, Kira ikkimiz yana Varvara Rabinovichdan gapirarmikin deb qo'rqdik. Yo'q, bu safar bir necha she'r o'qib berdi-da, keyin «men she'rlarni ko'p yodlay olaman» dedi.

Soat o'n birdan oshibdi. Aleksandra Dmitriyevna sahnada tovushni qanday qilib o'zgartirish haqida bizga tushuntirish berayotgan edi, eshik qo'ng'irog'i birdan jaranglab ketdi. Aleksandra Dmitriyev-

na «qorovul axlatga kelgandir», dedi. Oshxonaga yugurib chiqdim-da, axlat solingan chelakni ko'tarib ko'cha eshikni ochdim. Ammo kelgan odam qorovul emas ekan, Romashov ekan. Eshikni ochishim bilan u bir oz tislendi-da, shlapasini boshidan oldi.

– Sizda zarur ishim bor, sizga aloqasi borligiga ishondim. Shuning uchun ham ishondimki.., – u juda osoyishta edi.

– Marhamat, kiring.

Biz ikkimiz bir-birimizga ro'baro' turardik: u qo'lida shlapasi bilan, men – axlat chelagi bilan. Keyin men darrov o'zimga keldim-da, chelakni bir chetga qo'ydim.

– Noqulay bo'larmikin deb qo'rqaman, – dedi u odob bilan. – Uyingizda mehmoningiz bo'lsa kerak?

– Yo'q.

– Shu yerda, zinaning o'zida gaplashib qo'yaqolaymi? Yo pastga bulvarga tushaylik. Men sizga...

– Bir daqiqa shoshmay turing, – dedim men.

Meni Aleksandra Dmitriyevna chaqirmoqda edi. Eshikni sekin yopdim-da, uning oldiga qarab borayotgan edim, o'zi ham kelayotgan ekan.

– Kim ekan?..

– Aleksandra Dmitriyevna, men hozir kelaman, – dedim men tez. – Yo bunday qilaylik... Bir soatdan keyin Valya mening yonimga tushsin, men bulvarda bo'laman.

U yana bir narsalar degan edi, men eshitmadim, eshikni yopdim-da, chiqib ketdim.

Tun ancha sovuq edi, men ko'ylakchan edim, Romashov zinada: «Shamollab qolasiz» dedi. Menga paltosini kiygizmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, chunki ustidan yechib, qo'lga olgan edi, keyin bulvarga tushib o'tirganimizda o'rindiqqa tashlab qo'ydi, ammo menga taklif etishga botinmadi. O'zim ham sovuqni sezmasdim. Yuragim hayajonda edi. Uning kelishi bejiz emasligini sezardim.

Bulvar kimsasiz va jimjit edi, faqat Gogol haykalidan to devorgacha bo'lgan (devorning orqasida metroning yangi bekati qurilar edi) o'rindiqlarning har birida nuroniy chollar o'z hassalariga suyanib o'tirardilar.

– Katya, men sizga bir narsa aytmoqchi bo'lib keldim, – deb boshladi gapni Romashov sekin, – ekspeditsiyaning jo'nashi siz uchun qanchalik muhimligini bilaman. Yana...

U tutilib qoldi, so'ngra ravon davom etdi:

– Sanya uchun ham buning amaliy ahamiyati bo'lmasa kerak, ya'ni masalan, amakingizning hayotiga bu ekspeditsiya biror-bir o'zgarish kiritmasa kerak, deb o'ylayman. Amakingizning bundan qo'rqqani, yuragi po'killagani rost. Ammo buning sizga aloqasi bo'lgani uchun men beparvo qarab turolmayman.

Bu gapni u juda sodda qilib aytdi.

– Men sizni ogohlantirib qo'ymoqchi bo'lib keldim.

– Nima haqida?

– Ekspeditsiyaning yuborilmasligi haqida.

– Noto'g'ri gap! Menga Ch. qo'ng'iroq qilib aytdi.

– Ekspeditsiyani yubormaslik masalasi hozir hal qilindi, – o'soyishtalik bilan dedi Romashov.

– Kim hal qildi? Qayerdan bilasiz siz?

U teskari qaradi, keyin menga iljayib boqdi.

– Nima deyishimni ham bilmay qoldim. Meni ablah degan edingiz, yana deyishingizdan qo'rqaman.

– Bilganingiz.

Hozir o'rnidan turib ketadi deb qo'rqdim, – shu qadar sokin va o'ziga ishongan edi u; ilgari Romashovga sira o'xshamasdi. Ammo u ketmadi, o'tirdi.

– Nikolay Antonovich menga: «Glavsevmorput» boshlig'ining o'rinbosari ekspeditsiya yuborish rejasi haqida ma'ruza qilganini va bu rejaga o'zi qarshi chiqqanini aytib berdi. «Glavsevmorput» boshlig'ining o'rinbosari bundan yigirma yil ilgari yo'qolib ketgan kapitanlarni axtarish «Glavsevmorput»ning ishi emas, debdi. Ammo menimcha... – Romashov tutilib qoldi; u isib ketgan bo'lsa kerak, chunki shlapasini boshidan oldi-da, tizzasiga qo'ydi, – menimcha, bu o'zining fikri bo'lmasa kerak.

– Kimning fikri ekan?

– Nikolay Antonovichniki, – tez aytdi Romashov. – Nikolay Antonovich o'sha kishi bilan tanish, u kishi Nikolay Antonovichni katta qutbshunos deb yuradi. Kapitan Tatarinovni axtarish masalasini Nikolay Antonovich bilan muhokama qilmasa, kim bilan qilsin? Ekspeditsiyani yuborgan ham, ekspeditsiya haqida kitob yozgan ham Nikolay Antonovich emasmi? U Geografiya jamiyatiga ham a'zo, baabro' a'zolardan.

Men shu qadar hayajonlangan edimki, nima uchun Nikolay Antonovichning ekspeditsiya yuborilishiga to'sqinlik qilishi,

Romashovni menga kelib aytishiga nima majbur etgani, bular esimga kelmaydi. Menga faqat otam tufayligina emas, balki Sanya uchun ham alam qilgan edi.

– Uning familiyasi kim?

– Kimning?

– «Yo‘qolib ketgan kapitanlarni qidirib o‘tirishning hojati yo‘q» degan odamning?

Romashov aytdi.

– Nikolay Antonovich bilan so‘zlashib o‘tirmayman, albat, – dedim men; hayajonlanganimni shuncha bosaman deyman, sira bosilmaydi. – Bir marta gaplashdik, bo‘ldi, oramiz ochiq. Ammo «Glavsevmorput»ga borib uning to‘g‘risida ba‘zi narsalarni aytib beraman. Uni bir yoqli qilishga Sanyaning vaqti bo‘lmadi, yo rahmi kelib ayadimi, bilmadim... Yo, aytganingiz yolg‘onmi? – birdan so‘radim. Romashovga qarab: meni yaxshi ko‘rgan bu odam qanday bo‘lsa ham Sanyaning boshini yemoqchiku, deb o‘yladim shu onda.

– Yolg‘on gapirib nima qilaman? – beparvolik bilan dedi Romashov. – O‘zingiz ham bilib qolarsiz. Sizga ham aytishadi... Albatta, u yerga borib, hamma gapni tushuntirib berish kerak. Ammo siz... kimdan eshitganingizni aytmang. Yo‘qsa, aytsangiz aytavering, – dedi u, gerdayib. – Ammo Nikolay Antonovichning qulog‘iga borib yetsa, bugun aldaganimdek uni ortiq alday olmayman.

Nikolay Antonovichni men tufayli aldagan, u shunday demoqchi bo‘lgan bo‘lsa kerak. U menga qarab, nima demoqchi bo‘lishimni bilganday turardi.

– Men sizga biron kishini aldang demagan edim, – dedim men, – («umringizda birinchi marta» demoqchi edim-u, aytmadim) vijdonga yarasha ish qilib, menga yordam qilibsiz, bundan uyalmasangiz ham bo‘ladi. Nikolay Antonovichga hozir qanday qarashingizni bilmayman.

– Jirkanish bilan qarayman.

– Mayli, bu sizning ishingiz. – O‘zim ham jirkanib ketgan edim, o‘rnimdan turdim. – Har holda, rahmat sizga, Misha. Xayr.

Sivtsev-Vrajekda Aleksandra Dmitriyevnani, Kira va Valyani uchratdim. Ular hovliqib, yelib-yugurib kelishmoqda edi. Aleksandra Dmitriyevna nuqul: «Men qayerdan bilay! Agar o‘n daqiqadan keyin kelmasam, tushinglar deb aytdi», derdi.

O'rtadan tramvay o'tib qoldi, tramvay o'tib ketgach, uchovlari bulvarga qarab yugurishdi.

– To'xta!

– Bu yerda ekan, ana! Aleksandra Dmitriyevna, bu yerda!

«BIBI MARYAM» SHXUNASI»

O'sha vaqtlarda «Glavsevmorput»ning boshlig'i mashhur bir qutbshunos edi, rus Arktikasi taassurotlarini yodida saqlagan odam uning nomini darrov topardi. Uning oldiga kirish oson bo'lmasa kerak. Ch. telefon orqali gaplashgandan keyin, o'sha kuniyoq meni qabul qildi. Qabulxonada bir oz kutib o'tirishga to'g'ri keldi; kutib o'tirib ham maroqlandim, chunki qabulxonada Zapolyaryedan endi kelib turgan dengizchi va uchuvchilar o'tirar edi. Bittasi Sanyaga ozgina o'xshab ketardi, men unga bir necha marta beixtiyor qaradim, gapiga quloq solib o'tirdim. Ammo u boshqacha deb o'ylagan bo'lsa kerak, chunki qaddini rostlab, taltayib iljaydi. Keyin ular chiqib ketishdi. So'ng yuragim achishganidan o'zimdan o'zim xafa bo'lib o'tirdim.

«Glavsevmorput» boshlig'i bilan suhbatimizning hammasi esimda, chunki o'sha kuniyoq Sanyaga yuborgan xatimda boshidan oxirigacha yozgan edim.

Avvaliga juda hovliqdim, rangim oqarib ketganini ham sezdim, ammo uning past va mayin tovush bilan «Xo'sh, xizmat?» deyishi bilanoq hovliqqanim bosildi. Keyin hovliqishim yana qaytdi-yu, ammo bunisi boshqacha, o'zingni yo'qotib qo'yadigan qizg'in hayajonlik edi.

– Uchuvchi Grigoryev sizga qidiruv ekspeditsiyasining loyihasini topshirgan edi, – dedim men, – avvaliga ekspeditsiyaning yuborilishi hal bo'lgan edi. Ammo kecha...

U gapimni diqqat bilan tinglardi. U gazeta va jurnallarda ming martalab bosilgan suratiga shu qadar o'xshar ediki, nazarimda uning o'zi bilan emas, balki surati bilan gaplashayotganday bo'lardim.

«Yo'qolib ketgan kapitanlarni qidirish bilan ovora bo'lish arzimaydi deb o'ylaysizmi?» degan savolimga u:

– Yo'q, – dedi. – Ammo biz u yog'ini ham, bu yog'ini ham o'y-lashib ko'rib, bu qidirishning natijasi puch chiqadi degan fikrga keldik. Darhaqiqat, birinchidan, loyihada ko'rsatilgan joylar keyingi yillarda ozmi-ko'pmi tekshirilgan, shunga qaramasdan, shu mahalgacha «Bibi Maryam» ekspeditsiyasining asari ham topilmagan. Ikkinchidan,

Shimoliy Yer bilan Pyasina daryosining orasi ming kilometrdan ko'p keladi, bunday masofada qidiruv ishlarini olib borish nihoyatda murakkab masala. Uchinchidan, otangizning ekspeditsiyasini xuddi shu joylardan qidirish kerakligiga qattiq ishonchim yo'q, eng muhim sabab ham shu.

– Shu joylardan topilishiga mutlaq shubham yo'q, – dedim men dadil.

– Nima uchun?

– Shuning uchunki... Garchand, qabulxonada o'tirganimda hamma dalillarni yana qayta yodlab chiqqan va hatto barmog'im bilan sanab chiqqan bo'lsam ham, birdan esimdand chiqib qoldi. – Shuning uchunki...

U mening og'zimga qarab, nima deyishimni kuzatib turardi. Uning ko'zlari chiroqday yorqin, soqoli qop-qora edi. U mening yuzimga xotirjam qarab o'tirardi. Bu eng dahshatli bir dam edi.

– Birinchidan, bu shturmanning kundalik daftaridan ko'rinib turibdi, – dedim men; ovozim titradi. – Esingizdadir, u, otamning; «Ahvol tang bo'lib, kemani tashlab ketish kerak bo'lsa, biz kashf etgan yerga ketaman» degan gapini yozgan edi. Ikkinchidan... – portfel ichidan Sanya tashlab ketgan suratlarni olib ko'rsatdim. – Mana, qarang... Mana bu yerda: «Bibi Maryam ekspeditsiyasi» deb yozilgan. Bu changak Taymirdan topildi.

– Xo'p, gapingiz to'g'ri deb faraz qilaylik. Ammo nima uchun bu changak ikki oy ilgari shxunadan ketgan shturmanga qarashli deb o'ylash mumkin emas?

– Shuning uchunki, shturman... – garchand yozuv stoli ustida, devorda Arktikaning katta xaritasi osig'liq tursa ham (men uni aniq ko'rib turardim), men: – Xaritangiz qayerda? – deb so'rabman. – Shturman suzib yuruvchi muzdan butunlay boshqa tomonga qarab ketgan. Mumkinmi? – dedim qo'limga uzun cho'pni olib va stulga chiqdim, chunki Flora buruniga bo'yim yetmasdi. – Mana, u bunday ketgan. U leytenant Sedov ekspeditsiyasi bilan Arxangelskka qaytgan. Xo'p, davom etamiz, – dedim men, badanim muzday jimirlashib ketganini, hayajonlikdan rangim oqarib ketganini sezardim. – Siz, Shimoliy Yerdan Pyasinagacha bo'lgan joylar tekshirilgan joylar deysiz, shu mahal-gacha ekspeditsiya asari ham topilmadi deysiz. Rusanov-chi? Rusanov ekspeditsiyasining uskunolari topilguncha necha yil o'tdi? Qayerdan topildi? Kemalar suzib yurgan va ming marta odamlar qatnagan yerdan



topildi-ku?! Diksonda*, stansiyadan nihoyati uch kilometr masofada topilgan matros-chi?

Matrosning qabri (uning nomi Tissen edi) port oshxonasi yonida ekanligi va oshxonadan chiqib qutb stansiyasiga boruvchi har kimsaning Tissen yo'lini, ya'ni hayotdan o'limgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tishini bilmas edim.

– Yo'q, gap u joylarning tekshirilgan-tekshirilmaganligida emas, gap otamni hech kim qidirib ko'rmaganligida. Mana, uning bosgan yo'li: 86- va 87-meridianlar o'rtasida 79 daraja 35 daqiqa kenglikdan Rus orollari, Nordensheld arxipelagi tomoniga qarab yurgan. Keyin, ko'p adashib, yo'lni topolmay yurgan bo'lsa kerak, Sterlegov burunidan Pyasina daryosining dengizga quyiladigan joyiga borib yetgan. Keksa nenets, chanaga ortilgan qayiqni xuddi shu yerda topgan. Otam keyin Yeniseyga qarab yurgan, chunki odam bolasini faqat Yeniseydan topish mumkin deb o'ylagan.

Stuldan sakrab tushdim. U soqolini silab, menga qiziqib qarab o'tirardi.

– Siz shunga aminmisiz?

– Albatta. Boshqacha bo'lishi ham mumkin emas-da! Grigoryev nimani taklif etadi? «Paxtusov» muzyorar kemasi ilmiy ishlarni bajarish uchun Shimoliy Yerga jo'nashi kerak.

– U gidrografik ekspeditsiyasi, shundaymi?

– Ha.

– Juda yaxshi. Yo'l-yo'lakay bir necha joyga uchta-to'rtta qidiruv guruhlari uchun baza tashkil qiladi. Grigoryevning fikricha, har biri uch kishidan iborat ikki guruh bo'lsa bo'ladi. Menimcha, uchta guruh bo'lishi kerak, yo bo'lmasa, uchinchisining o'rniga motorli qayiq bo'lsa ham bo'ladi. Ular qirg'oq bo'yidagi orollarning dengiz tomonidan yurib boradilar, «Paxtusov» ulardan yaqin joyda ishlab turgan bo'ladi, undan ajralib qolish xavfi bo'lmaydi.

Men gapdan to'xtadim, chunki «Glavsevmorput» boshlig'i kulib yubordi-da, o'midan turdi. U stolni aylanib o'tdi-da, yonimga kelib o'tirdi.

– Eh-ha! Siz kapitan Tatarinovning o'zi ekansiz-ku! – dedi u, vaqtichog'lik bilan. – Geografmisiz?

– Geologman.

– Nechanchi kursdasiz?

* Dikson oroli.

– Institutni bitirganimga ancha bo‘ldi, ikki yildan beri Boshqirdiston Geologiya boshqarmasida ishlayman, – dedim.

– Opa-singil, aka-ukalaringiz bormi?

– Yo‘q, yolg‘iz o‘zim.

– Onangiz-chi?

– Vafot etgan.

U, odob yuzasidan biroz jim qoldi-da, keyin Sanyaning loyihasi ustida gap ochdi.

– Buning bari oson gap emasligi-ku aniq, – dedi u xayol ichida. – Ammo iloji yo‘q ham deb bo‘lmaydi... Motorli qayiqning bu yerda aloqasi yo‘q, albatta. Ammo Grigoryevni chaqirib olishga to‘g‘ri keladi. U hozir qayerda?

– Zapolyaryeda.

Yuragim gup-gup ura boshladi, nima uchundir yana:

– Zapolyaryeda, – debman.

U menga ayyorlarcha qarab qo‘ydi.

– Chaqirtiramiz, nimadan qo‘rqardik! – dedi u, yosh bolalarcha hazil bilan; Ch.ning unga men va Sanya haqida aytganini payqadim. – Siz qanday deb o‘ylaysiz, bu masalani hal qilishimiz uchun uning bu yerda bo‘lishi zarurmi?

– Menimcha, zarur, – dedim men dadillik bilan.

– Bo‘pti. Siz bilan tanishib olganimdan xursandman, – dedi u, jiddiy ohangda. – Ekspeditsiya yuboriladimi, yo‘qmi, bundan qat‘i nazar, mening oldimga kelib, dadil va otashin gapirganingiz yaxshi bo‘ldi.

BUVIMNIKIDA

Buvim mening oldimga har kuni kechqurun kelib turardi deb tepada yozgandim. U har safar kekkayib, basavlat bo‘lib kelar, Kيرانing onasi bilan kibrlanib gaplashardi. «Uyda binoyidek xonam» bo‘laturib, «begonalamnikida» turishimdan xafa bo‘lardi; buvim Dora Abramovna degan bir ayoldan, uning mening bo‘lmamga ikki marta kirib, nimanidir qidirganidan qo‘rqibdi.

– O‘zim ham keksayib qoldim, – dedi bir kuni ko‘ziga yosh olib, – bunday yolg‘izlikni kechirmagandim.

Bir kuni buvim kelmay qoldi, ertasiga ertalab qo‘ng‘iroq qilib, yurak og‘rig‘idan nolib gapirdi. Nikolay Antonovich uydami, deb so‘ragan edim, jahli chiqib ketdi.

– Qiziq gapirasan-a, – dedi u, achchig‘i chiqib, – qayerda bo‘lardi? Hamma senga o‘xshab daydib yurarmidi?

Keyin «yo‘q, chiqib ketdi» dedi, shundan keyin jadal otlanib, buvimnikiga ketdim.

Men borsam, divanda ustiga o‘zining eski ko‘k po‘stinini yopinib yotibdi. Divan yonidagi kichkina stolchada dafna daraxtidan tayyorlangan dori turgandi. Buvim har qanaqa kasalga shu dorini iste‘mol qiladi. «Qalaysiz, buvi» desam, qo‘lini silkitib qo‘ydi.

– Har narsaga ham boshini egib sajda qiladi, – dedi jahl bilan. – Monastirda yashaganligi bejiz emas ekan. «Unaqa bo‘lsang, nega bировga xizmatga tushasan?» dedim. Javobini berib yubordim...

Buvim, xizmatchi ayolning javobini berib yuboribdi, ammo chakki qilibdi: xizmatchi juda dinparast bo‘lsa ham, yaxshi ayol edi, uning bir vaqtlar monastirda yashagani buvimga hatto yoqar edi ham.

– Buvi, bu nima qilganingiz? – dedim men. – O‘zingiz betob bo‘lsangiz, buning ustiga yolg‘iz qolibsiz. Endi men sizni o‘zimmnikiga ko‘chirib ketaman.

– Bo-o-o! Bormayman! Endi shu qolibmidi...

Yechinib, ko‘rpaga kirib yoting deb shuncha qildim, bo‘lmadi, yotmadi; keyin: «Yuragim joyida, kecha ovqat pishirmay turp to‘g‘rab, ustiga pista moyi solib yegandim, shundan og‘ridim», – dedi.

– Agar hozir yotmasangiz, ketib qolaman.

– Qo‘rqitib bo‘psan!

Shunday desa ham, yechindi, ingray-ingray yotdi-da, birdan qattiq baqirib yubordi...

Onamning xonasida derazalar ochilganda nechundir hamisha shamol g‘irillab o‘tib turardi; xonani shamollatish uchun eshikni ochib qo‘ydim. Keyin o‘zimning xonamga kirdim; shuncha yil yashab umr kechirgan xonam avvaliga shunday xunuk va huvillagan ko‘rindiki!.. Keyin ancha yaxshiday tuyuldi. Karavotim ustiga buvimning qadimgi popukdor choyshabi yoyilgan, derazalardagi pardalar oppoq paxtadek, hammayoq chinnidek edi; hatto ketmasimdan avval olib o‘qigan entsiklopediya men ochib qo‘yganimcha turardi. Mening qaytib kelishimni kutishar edi, shekilli...

Derazada, eski darsliklar orasida, eng yaxshi ko‘rgan kitoblarimdan sitatalar ko‘chirib yozgan daftarimni topib oldim; «Insonning qalbi ajab narsa, ayol kishining qalbi esa, yana ham ajab. Lermontov».

Bular juda qiziq, kulgili sitatalar edi, ularning hammasini, boshdan oxirigacha o'qib chiqdim. Xuddi tush ko'rayotganday: go'yo tanish bir qiznikiga borgandayman, u qizning butun xayoli – shirin, butun olamni guliston deb bilganday...

«Olam – teatr, odamlar – ularning artistlari. Shekspir».

Shu daftarni ushlab uydan chiqayotganimda, yo'lakdan birovning sharpasi ko'ringanday bo'ldi.

Albatta, buvimning kasal holicha, ustiga ko'k po'stinni ilib, yo'lakdan yurishi esimga kelmasdi, ammo yo'lakda birovning xuddi ko'k po'stin kiyib yurgani aniq. Uning buvim ekanligi ham aniq, chunki men qaytib kirsam, avvalgidek ko'rpada yotgandi. Biroq ko'rpaga o'zini endi tappa tashlagani, hatto yaxshilab yopinmagani ham ko'rinib turardi.

Uning o'rnidan turmaganini va yo'lakka chiqib yurmaganini ko'rsatish uchun ko'zlarini chirt yumib, o'zini uyquga solib yotishi juda kulgili edi. U, meni uyga qaytib kelmasmikin, deb orqamdan qarab yurgani aniq edi.

Buvim nihoyat ko'zlarini ochib, yolg'ondakam esnab, kerishganidan keyin men:

– Buvi, shifokor keldimi? – deb so'radim.

Yo'q, kelmabdi. Shifokorni istamasmish. Turpdan kasal bo'lganini o'zi bilarmish.

– Telefonda, yuragim og'riydi, deb edingiz-ku?

– Yurak ham turpdan.

– Bo'lmagan gap! Hozir chaqiraman.

Buvimning jahli chiqdi: «Agar shifokor chaqirsang, hozir Mariya Nikitishnanikiga (qo'shnimiznikiga) chiqib ketaman», – dedi.

Ilgarilari ham shifokor janjalsiz chaqirilmasa edi, shuning uchun bu safar ham indamay qo'ya qoldim, buvimning o'zi ham daqiqa sayin tuzalib borar edi. Bir mahal tuzalib ketdi, chunki birdan qandaydir hid sezdi-da: «Voy o'lay, kuyib ketdi!» – deb, oshxonaga yugurib chiqib ketdi.

Kuyib ketgan narsa go'shtli somsa ekan, uncha kuymagan ekan ham; somsani buvim dumaloq mis idishda kerosinkada pishirayotgan ekan, somsaning xushbo'y hidi uyni bosib ketgandi. Buvim: «Agar somsadan yemasang, yana kasal bo'lib yotib olaman», – dedi.

Bularning hammasi – uning avrashi, mening eng yaxshi ko'rganim moyli somsani yopishi – buvimning nayrang'i edi. Meni

uyga qaytarishda somsa katta rol o'ynashi kerak edi. Ammo somsadan ikki bo'lak yedim-da, buvimning yuzidan o'pib, juda shirin ekan, dedim.

Nikolay Antonovich haqida hali gap ochilmagan edi. Bir mahal buvimning chehrasi tundlashdi, men, hozir boshlaydi, deb o'yladim. Ammo gapni juda uzoqdan oldi.

– Olechka bilan Laradan xat keldi, – dedi buvim, jiddiy ohangda. – «Uyning ikir-chikiri bilan ovora bo'lsa, ro'zg'orga kirishma, senga bu ish og'ir», – deb yozishibdi.

Olechka bilan Lara – Enskda turadigan keksa xolalarim edi.

– Bir gap aytsang, indamay turganidan keyin aralashmay bo'ladimi! Jig'ibiyroning chiqsa ham pinagini buzmaydi. Popning plani bilan turardi, – dedi buvim biroz jonlanib. – Popga tashigani tashigan. Tutqanog'i bor. Pop unga: «Indama, sabr-toqat qil-u, yig'la», – deb yozsa, aytganini qiladi. Javon ichiga mix qoqib, but osib qo'yibdi. Bir narsa desang: «Aytganingiz»dan boshqani bilmaydi. Yomon ko'rganim – shunaqalar!

– Haydab yuboribsiz-ku, buvi, bo'ldi-da! Buvim indamay o'tirdi.

– Butun uyni xudo urdi, – dedi yana uh tortib. – Sen bo'lsang, tashlab ketding. Unga nima, u ham shu-da! U hozir hech narsaga qaramay qo'ydi, bo'lsa bor, bo'lmasa yo'q, deb ketaveradi. Ovqatga ham qaramay qo'ydi.

«U» degani Nikolay Antonovich edi.

– O'tirib yozgani-yozgan, – davom etdi buvim. – Kechasi ham yozadi, kunduzi ham. Ertalab turib choyni ichib bo'ladi-da, shol-ro'molimga o'ranib, stol yoniga o'tirib, yozishga kirishadi: «Bu – butun umrimning mehnati, Nina Kapitonovna. Men gunohkormanmi, begunohmanmi, do'st-dushmanlarning o'zlari bilib olishsin», – deydi. O'zini aytmaysanmi, cho'pday bo'lib ketgan. Esi og'adigan bo'lib qolibdi, – dedi buvim shivirlab. – Qaysi kuni stol yoniga shapkasini yechmay kelib o'tirdi. Savdoyi bo'lib qolmasa degin.

Shu onda tashqari eshik taq etib ochilib yopildi, kimdir birov dahlizga kirib, to'xtadi. Men buvimga qaragan edim, buvim qo'rqa-pisa ko'zini olib qochdi, bildimki, Nikolay Antonovich.

– Buvi, men endi ketay.

– Yo'q, ketmaysan. Somsangni yeb ol.

Nikolay Antonovich eshikni sal taqillatdi, hech kim indamagach, kirib keldi.

Men qayrilib qaradim-da, boshimni silkitib qo‘ya qoldim, bunday dadil va mensimay salomlashganimdan o‘zinning ham kulgim qistab ketdi.

– Ishlar qalay, Katyusha?

– Rahmat, yomon emas.

Ajabo, Nikolay Antonovich men uchun faqat rangsiz qo‘llari kalta, yo‘g‘on barmoqlarini goh cho‘ntagiga tiqib turuvchi, goh yoqasini to‘g‘rilab qo‘yuvchi kekxa odam bo‘lib qolgan edi. U endi kekxa artistga o‘xshardi. Ilgari, ko‘p yillar bo‘ldi, men uni bilardim. Endi bo‘lsa uning rangsizligi, bo‘yni oriqlab ketgani, kursini surib qo‘yish uchun qo‘lini uzatganida, qo‘llarining qaltirab ketishi men uchun farqsiz edi.

Dastlabki noqulay dam o‘tdi, Nikolay Antonovich hazillashganday bo‘lib, mening xaritamdan gapirdi: Zilmergad qatlami o‘rniga Ashina qatlamini chizib qo‘ymadingmi, dedi (universitetda o‘qiganimda shunday bir voqea bo‘lgan edi). So‘ngra men yana xayrlasha boshladim.

– Xayr, buvi.

– Men chiqib ketishim mumkin, – dedi Nikolay Antonovich.

U kursida bukchayib, mehribon ko‘zlari bilan menga qarab o‘tirardi. Onamning vafotidan keyin u ba‘zan xuddi shunday o‘tiradigan bo‘lgan edi. Biroq ayni paytda bu men uchun o‘tmishda bo‘lib o‘tgan xotira bo‘lib qolgan edi.

– Vaqting bo‘lmasa boshqa safar gaplasharmiz.

– Rost aytaman, buvi, meni kutib turishibdi, – dedim, buvim yengimdan mahkam ushlab turardi.

– Yo‘q, hech kim kutmaydi. Bu nimasi? U senga amaki bo‘ladi!

– Qo‘yavering, Nina Kapitonovna, – dedi Nikolay Antonovich mehribonlik bilan. – Amakimanmi, amaki emasmanmi, baribir. Mening gapimni eshitishni istamaysan, shekilli, Katyusha?

– Ha, istamayman.

– O‘jar qiz! – dedi buvim, darg‘azab bo‘lib.

Men kuldim.

– Men senga, na menga bir og‘iz so‘z aytmay ketib qolganingdan qancha og‘irlikni ko‘rganimni va yaqindagina jinnixonadan chiqqan bechora cholning so‘ziga ishonib, ikkovingizning ham aldanganingizni senga ayta olaman, – dedi Nikolay Antonovich hamon mehribonlik bilan.

U menga ko‘zoynagingning ustidan qaradi. Jinnixonadan? Bu yangi bo‘hton edi! Balki bo‘hton ham emasdir, buning endi menga farqi yo‘q

edi. Faqat bir fikr – bu gapning Sanyaga tegib ketishi yoki uni ranjiti-
tishi mumkin degan fikr keldi-yu ketdi.

– E, voh! Uning aynib ketgan kallasi nimalarni o‘ylab chiqar-
mabdi! Allaqanday veksellar tufayli uni xonavayron qilganmishman,
ekspeditsiyani jo‘rttaga yomon ta‘minlagan emishman, bilasanmi,
nima uchun? Ivanni halok ettirib yuborish uchun qilganmishman!

Nikolay Antonovich samimiy ravishda kuldi.

– Rashkdan emish! E, xudo! Onangni sevar emishman, shu tufay-
lidan Ivanni halok ettirmoqchi bo‘lganmishman.

U yana kuldi, ammo birdan ko‘zoynagini olib, ko‘z yoshlarini arta
boshladi.

– Ha, men sevardim, – dedi u yig‘i aralash, – hamma ish
boshqacha bo‘lishi mumkin edi. Agar men aybdor bo‘lganimda ham
uning o‘zi jazoimni berib ketdi. Bundan ortiq bo‘lmas!

Uning so‘zini eshitar ekanman, xuddi tush ko‘rayotganday
bo‘lardim: bu gaplarni oldin ham ko‘p marta eshitgan, sochsiz, bir-ikki
tuk chiqib yotgan kal boshini ko‘p ko‘rgan va yig‘lab o‘tirgan kap-katta
kishini ko‘rganingda keladigan hisni ilgari ham sezganday bo‘lardim.

– Ha?! – dedi buvim do‘q bilan.

– Buvijon, somsangiz juda yaxshi ekan, yana bering, – dedim
men. – Qulog‘im sizda, Nikolay Antonovich.

– Katya, Katya!

– O‘rtoqlar, bo‘ldi! – dedim men, – jahlim chiqqanidan vaq-
tim xush bo‘lib borishini sezib, men yosh bola emasman, yigirma
to‘rtga kirdim, izmim o‘zimda, nima qilsam, hech kimdan so‘ramay
qilaveraman. Men bu yerda turishni istamayman, tushundilaringmi?
Men turmushga chiqaman. Turmush o‘rtog‘im bilan Uzoq Shimolga
ko‘chib ketaman, uning bu yerda qiladigan ishi yo‘q, chunki u qutb
uchuvchisi. Endi Nikolay Antonovichga kelsak, uning ko‘z yoshi qilib
yig‘laganini ko‘p ko‘rganman, jonimga tegdi. Shuni aytyshim mum-
kinki, agar unda ayb bo‘lmaganida, umr bo‘yi shu mojaro bilan ovora
bo‘larmidi? Agar unda ayb bo‘lmasa, «Glavsevmorput»ga borib,
Sanyaning ekspeditsiyasini buzishga tirisharmidi?

Shu tobda avvalgidek vaqtim xush bo‘lmasa kerak, chunki buvim
juda qo‘rqib ketgan va yuzidagi bir tomiri dik-dik urib turardi. U lom-
mim demasdi.

– Meni o‘z holimga qo‘yinglar, tegmanglar! – dedim zarda bi-
lan. – Aslo, sira!

QISH

Noyabrda shahar chekkasidan, Moskva daryosi bo'yidagi uylardan menga bir bo'lma tegdi. Valya bilan Kira: «Sen ketsang, biz birga turolmaymiz», – deb yalinishti; Aleksandra Dmitriyevna meni bir chetga chaqirib: «Men ham ketaman bu yerdan, chunki sen borligingda qora-kulrang tulkilar uncha dahshatli emas edi, endi Valya boshimni chaqib, miyamni qo'limga olib beradi», – dedi. Shularga qaramasdan, tezda o'z uyimga ko'chib oldim.

Uy – yangi edi, atrofi yalang qirg'oqda yolg'iz o'zi qo'qqayib turgan bu besh qavatli uyni chiroyli deb bo'lmas edi. Binokor ishchilar hali ketib ulgurmagan, hovlidagi qurilishdan chiqqan axlatlarni yig'ishtirib yurishardi; ichi mallarang, yaltiroq vanna haligacha zinada, u yer-bu yerlarda bo'yoqchilarning chelaklari yotardi.

Hozir Moskvaning V. dahasiga metroda o'n daqiqada yetib boriladi, ilgari tramvayda bir soatlik yo'l edi. V. hozir Moskvaning ichi bo'lib qolgan, ilgari juda pastqam, xilvat joy edi, buzilgan, yorilgan chorbog'lar, jimjimador ustunlar, panjaralar yonida bizning beso'naqay uyimiz juda g'alati bo'lib ko'rinar edi.

Ammo menga tekkan uyning ham uncha fayzi yo'q edi. Uning birgina yaxshi tomoni shu ediki, derazalaridan Moskva daryosining ajoyib manzarasi aks etardi. Daryo qishda ham ajoyib ko'rinar edi, ayniqsa oqshom paytida allaqayerlardan mayin shu'lalar kelib, qor uyumlari tovlenganda maroqli bo'lar edi. Shu paytlarda Qutb doirasining narigi yog'idagi kichkina port shaharchani, tosh o'rniga taxta yotqizilgan ko'chalardan kiyiklarning chopqillab yurishini tasavvur etardim. «Ammo kiyiklar bilan yonma-yon lesovoyalar*, avtomobillar, otlar, chanaga qo'shilgan itlar ham yuradi, natijada, qabila tuzumidan tortib sotsialistik tuzumgacha bo'lgan butun davrlar inson ko'zi oldida gavdalanadi, – deb yozardi Sanya. – Hozir yangi shahar qurish harakatidamiz, hamma yoqda yog'och uylar, ko'chalar payraxaga to'lib ketgan; aeroport boshqarmasi uch qavatli yangi va ajoyib binoga ko'chib o'tdi, kechalari binoning «xoll»ida** Volter*** asarlarini o'qib o'tiramiz. Qizig'i shuki, bu «zamonaviy» muallif bu yerda juda ommalashib ketdi. Hatto devoriy gazetalarda

* *Lesovoya* – shimolda o'rmon ichidan yog'och va taxta tashuvchi mashina.

** *Xoll* – katta uy, bo'lma, mehmonxona.

*** *Volter* (1694–1778) Fransuz shoiri, faylasufi; tarixchi, dramaturg, ma'rifatparvar.

uning aytganlarini shior qilib yozishadi. Seni ko'p o'ylayman, shu qadar ko'p o'ylaymanki, boshqa narsalarni o'ylashga vaqtning qayerdan kelishini bilmayman. Buning sababi, menimcha, shuki, bu boshqa narsalar ham – sen; ayniqsa, uchganda, biron narsani o'ylab boraman-da, qo'shiq aytaman, keyin yana seni o'ylayman...»

O'sha qish faslida mablag' masalasida ancha qiynalib qolgan edim, chunki pul Ufadan kelardi (Boshqirdiston Geologiya boshqarmasi o'sha yerda edi), ko'pincha kechikib kelardi. Har zamon, har zamonda telegramma yuborib turishga to'g'ri kelardi. Bundan tashqari qayerda ovqat yeyishimni bilmas edim, o'zim pishiray desam, erinardim. Xullas, juda yovvoyilashib ketgan edim. Bir kuni yangi shoyi ko'yलगimni kiyib ko'rdim-da, alamdan o'tirib yig'ladim.

Butun qish mobaynida bir marta teatrga – Vaxtangov teatrida «Odamlar komediyasi»ning taqdimotiga bormoqchi bo'ldim-da, qarassam, ko'yलगim urfdan chiqib qolgan, allaqanday dumlari osilib yotibdi, bunday ko'yलगni hech kim kiymas edi. Kira ikkimiz u yog'ini tikib, bu yog'ini chatib, nari-beri epaqaga keltirdik. Ammo kayfiyatim buzilgan edi.

O'sha qishni V.da yolg'iz o'tkazdim, Romashovdan boshqa hech kim kelmasdi desam, yanglishmayman. Bu Romashov bir vaqt meni va o'zini o'ldiraman degan Romashovga sira o'xshamas edi. U endi odobi, sokin, olifta bo'lib kelar, men bilan osoyishta gaplashar edi; institutda ma'ruza o'qiganida ham xuddi shunday sokin gapirsa kerak...

Bir kuni juda charchab, qorni och keldi.

– Misha, choy ichasizmi? – dedim.

U sovuqqina tashakkur bildirib choyni rad etdi. Bu bilan u, ikki oramizda faqat ish masalalaridan boshqa munosabat o'rnatmaslikka ti-rishganini ko'rsatsa kerak, – ikki o'rtadagi ish esa – ekspeditsiya va shunga bog'liq masalalar edi.

Nima sababdan u ekspeditsiya bilan qiziqardi deysizmi? Shu sababdanki, bu masalalarning menga dahli bor edi va demak, «u bunga farqsiz qarab turolmas edi». Ammo bu bilan u o'zini mag'rur qilib ko'rsatmoqchi edi ham: u, mening «yo'q» deb javob berishimdan xafa bo'lmaganday qilib ko'rsatardi. Bundan tashqari, boshqa muddaosi ham bo'lsa kerak: allaqanday bema'ni va murakkab yo'llar bilan menga uylanish fikrini tashlamagan bo'lsa kerak. Uning o'zida, uning qotib qolgan, ma'nosiz yuzida, dikkayib turgan shalpanquqlarida qandaydir anqovlik bilan murakkablik ko'rinib turardi. Ammo ba'zan

uning yuzida birdan vahshat ham aks etib qolardi. Ivan Pavlovichning uni juda murakkab odam, har holda ruhan kuchli odam deganining tagida gap bor bo'lsa kerak.

Ammo uning ruhi bilan mening ishim yo'q edi.

Birdan ma'lum bo'lib qoldiki, «Glavsevmorput»da qidiruv ishlari Sanyaning qo'lidan kelmasa kerak deyishibdi. U, yosh va garchand tajribasi katta bo'lsa ham, Shimolda kam ishlaganmish. U epchil, ishchan va chaqqon uchuvchi-ku, ammo tashkilotchilik qobiliyatini talab etadigan bu murakkab ishni bajara oladimi? Umuman, u qanaqa odam o'zi? Mashhur qutb arbobi, kapitanning tog'asi N.A. Tatarinov haqida bo'hton tarqatgani uchun bir jurnalda haqoratlangan kishi o'sha emasmi?

Men jurnal tahririyatidan raddiya etishni talab qilardim, olti kishilik aytarlik qiyin ish emasligini, bu ishni boshqa odamga emas, balki yoshligidan beri orzu-havas qilib kelgan odamga topshirish kerakligini isbot etardim.

Mening bu harakatlarimni Romashov bilar edi. Uning ko'nglida qanday muddaosi bor, nimani umid qiladi, men so'ramasdim, uning o'zi ham gap ochmasdi. Ammo bir kuni ko'p narsaga aqlim yetib, tushundim.

Agar ekspeditsiya ish boshlaydigan bo'lsa, Sanya bilan birga Shimoliy Yerga borishimga hech shubha qilmas edim. Bu haqda «Glavsevmorput» boshlig'iga xat yozdim-da, ekspeditsiyada geolog bo'lib ishlashim mumkinligini aytdim. Ko'p o'tmay, kadrlar bo'limidan javob keldi, ammo ularning javobi men kutganimdek emas edi: ular meni qutb stansiyalaridan birida, xohlaganimda, ishlashga chaqirar va bu to'g'rida gaplashish uchun «Glavsevmorput» idorasiga borishimni so'ragan edilar.

Shaharga borgan kunim har safar uyga kech qaytardim, bugun ham shunday bo'ldi. Zinadan chiqib boraturib, uyni qulflamay chiqib ketganim esimga tushib qoldi. Mening uyimga birovning kirgani aniq edi, o'g'rilar bo'lsa kerak. Qarasam, o'g'ri emas ekan, Romashov ekan. Men kirishim bilan turgan joyida to'xtab qoldi. Qarasam, kayfiyati buzuq.

– Mana bu xatni ko'rib chiqdim, – dedi u men bilan ko'rishmasdan. – Siz ekspeditsiya bilan birga ketmoqchisiz, endi bildim!

Uning yuziga qaradim, shu onda uni maktabda «boyqush» deb masxara qilishlari esimga tushdi. Ko'zlari dumaloq, shu paytda u

haqiqatan ham boyqushga o'xshar edi. Ammo bu boyqush – katta boyqushlardan bo'lib, hozirning o'zida «endi bildim!» dedi va zo'rg'a nafasini olardi.

– Nega birovning xatini o'qiysiz? – deb so'radim osoyishtalik bilan. – Yaxshi emas, Misha.

– Mendan berkitar ekansiz! Menga bildirmasdan, o'zingiz ketish harakatini qilib yurar ekansiz-da!

– Misha, esingiz joyidami o'zi? Bir qolgani sizdan ijozat olish-midi?

Birdan piqillab yubordi, – yig'ladimi, kuldimi, bilmadim.

– Istasangiz, o'zim to'g'rilab beraman! – dedi ovozi baland qilib. – Xo'p, borasiz.

Men indamadim. Nima uchundir, uni xafa qilgim kelmasdi.

– Nega indamaysiz?

– Bema'ni gapingizga javob qaytarishni istamayman.

– Katya, Katya!

– Menga qarang, – dedim men, sekin va shoshilmay. – Bilasizmi, nima qilishingiz kerak? Yaxshilab dam olishingiz kerak. Charchabsiz. Moskvada nima qilaman qolib?

– Siz Moskvada qolasiz.

Kulgim qistagan edi, biroq u men tomonga qarab yura boshladi, uning vazohati shunday ediki, saldan keyin meni uradi deb qo'rqdim.

– Xo'sh, azizim, bo'ldi, – dedim hamon hovliqmay, – palto bilan shlapangiz qani?

– Katya! – dedi u yana ham tajanglashib.

– Ha, nima – Katya? Qolgan taqdirimda ham nima qilmoqchi bo'lganligingizni bilaman. Jinni bo'lganga o'xshaysiz, ammo menga baribir, jinni bo'ldingizmi, bo'lmadingizmi! Jo'nang!

U indamay palto va shlapasini kiydi-da, chiqib ketdi.

1935-yilning kuzida ekspeditsiya masalasi hal bo'ldi. Mashhur qutbchi professor V. maqola yozib, maqolasida shturman Klimovning kundalik daftarlariga ko'ra, «Agar Tatarinov ekspeditsiyasining materiallari topilsa, Arktikani tekshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lardi» degan ishonchni bildirdi. Hatto men ham u «katta ketibdiku» deb o'yladim. Ammo sira kutilmagan bir holda bu fikr to'g'ri chiqdi, – Sanya loyihasining taqdirini hal etishda ham shu fikr eng katta rol ni o'ynadi. Gap shundaki, professor V., «Bibi Maryam»ning 1912-yil oktyabridan 1914-yilgacha muzlar orasida surilib yur-

gan joylari xaritasini tekshirib turib, 78° 02 kenglik va 64° uzoqlikda noma'lum yer borligini aytgan. V. o'z kabinetida o'tirib topgan yer haqiqatan ham 1935-yil mavsumida topildi. Rost, topilgan yangi yer uncha katta yer emas, Arktika muzlari orasida yo'qolib ketgan bir parcha yer edi, ammo shu bilan Sovet Arktikasining xaritasida «yana bir oq dog'» topilgan, bu esa «Bibi Maryam» tufayli bo'lgan edi.

Bilmadim, Sanyaning loyihasi uchun yangi dalillar kerakmidi, yo'qmi, har holda, «Shimoliy Yerni tekshirish ekspeditsiyasi huzurida qidiruv guruhini yuborish» kelasi yilning rejasiga kiritildi. Ko'klamda Sanya Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)ga kelishi kerak, men ham u yerga borishim (ilgari sira ham bormagan edim) va o'sha yerda uchrashishimiz kerak edi.

LENINGRAD (hozirgi SANKT-PETERBURG)

1936-yilning 10-may kuni ertalab Leningradga yaqinlasharkanman, ko'p narsalarni o'yladim, xayol qildim. Vagon nuqul dirillar va qisirlardi, eski vagon bo'lsa kerak, ammo men juda yaxshi uxladim; uyg'onib, xayol surib yotdim. Vagon g'ildiraklarining bir xilda taraqlab borishi, qo'shnilarning uyquda nafas olishlari xuddi ming chaqirim naridan eshitilayotganday; shunday holatda xayol surib yotish rohat edi. Xayolimda, bo'lishi mumkin bo'lgan va bo'lishi mumkin bo'lmagan narsalarni o'zimga moslab bo'ldirtirardim. Xayolimda bo'lmaydigan narsa yo'q edi, hatto otamning tirik bo'lishi, biz uni topib, birga qaytishimizni ham orzu qilardim. Albatta, bu bema'ni gap edi, ammo yuragim shu tobda shu qadar keng va sokin ediki, hatto, bunday ham bo'lishi mumkin, dedim o'zimga. Men yuragimga: top otamni! – deb buyurdim-u, otam topildi: ana u, sochlari oppoq oqargan, gavdasi kelishgan, oldimda turibdi, uni yotqizib uxlatish kerak, bo'lmasa hayajondan va baxtdan jinni bo'lib qoladi!

Vagon chayqalar, qisirlardi, uning nolasi go'yo endi boshlangan bir ohangdagi musiqaga o'xshardi. Men: u yog'i qanaqa ekan, deb kutib yotaverardim, musiqa esa, yana boshlanardi. O'zimga yana nima deb buyuray, hayotda qanday ajoyib, lazzeatli narsa borki, o'zimga: «qani, bajar!» deb buyuray? Buyurdim: biz qaytmoqdamiz, 1933-yilda chelyuskinchilarni qanday kutib olgan bo'lsalar, bizni ham xuddi shunday kutib olmoqdalar; hamma sevgan va nomlari hammaning tilidan tushmagan chelyuskinchilar gulga cho'mib ketgan mashinalar-

da kelardilar, gullardan, varaqalardan va ayollarning ko‘ylaklaridan Moskva ko‘chalari, uylari oppoq bo‘lib ketgandi. Ammo men buni o‘zim uchun emas, balki Sanya bilan otam uchun istardim. Ammo bu-lar faqat xayolda, vagonda yotib, mudrab borayotgan paytda xayol sur-gandagina bo‘lishi mumkin edi...

U vaqtda «strela»* Leningradga soat 10 dan 20 daqiqa o‘tganda kelardi, yonimdagi hamrohlar yo‘lakka chiqib, mening turib, kiyinib bo‘lishimni kutib turar edilar. Men esa bu holatning, bu shirin xayol-larning endi qaytib kelmasligidan qo‘rqib yotardim.

Biz, meni vokzalda Sanyaning singlisi (uni Sanyadan ajratish uchun Sasha deb chaqirardim, xatlarda ham Sasha deb yozardim) ku-tib oladi deb kelishgandik. «Men bo‘lmasam yoki tobim bo‘lmay qol-sa – Petya kutib oladi» deb yozgandi Sasha. U, o‘zining betobligi haqida bir necha marta yozgandi, ammo xatlari doim shu qadar xush-chaqchaq, rasmlar bilan bezatilgan bo‘lardiki, betobman deganiga aha-miyat bermasdim. Uning nimadan betobligini fahmlagan edim. Menga yuborgan xatlaridan birida Petyaning surati chizilgan edi: Petya bir qo‘lida kitob, bir qo‘lida chaqaloq ko‘tarib o‘tirardi, qizig‘i shunda ediki, ikkovi bir-biriga juda o‘xshardi.

Hamma palto va shlapalarini kiyib tayyor turgandi, hamrohlarim tepadan chamadonimni olib berishdi, chamadonim juda og‘ir edi, chunki ichiga hamma narsamni solgan edim, hattoki, xuddi Moskvaga qaytmaydigandek, tog‘ jinslari namunlarini ham chamadonga tiqqan edim. Meni hayajon bosdi, Leningrad axir! Odamlarning yelkalari orasidan perron ko‘rindi. Skovorodnikovlarni qidira boshladim, ammo perron g‘irillab o‘tib borar, Skovorodnikovlar ko‘rinmas edi, vagon ra-qamini yozmaganim esimga tushib, o‘zimdan achchig‘im keldi.

Hammol chamadonimni vagondan olib chiqdi, hamma ketib bo‘lgunicha qarab turdik, Skovorodnikovlar ko‘rinmas edi.

– Balki kiraverishda turishgandir? – dedi hammol.

Vokzal eshigiga chiqdik, yarim soatcha kutdim-da, bu qanday e‘tiborsizlik, dedim. Uyiga chaqirgan odam shunaqa kutib oladimi? Leningradga sira bo‘lmaganimni bila turib-a?

Bir daqiqacha «mehmonxonaga boraqolaymi» deb ikkilanib tur-dim. Keyin o‘zimni bosdim-da, balki bir narsalar bo‘lgandir deb, Skovorodnikovlarnikiga yo‘l oldim.

* «Strela» – Moskva bilan Leningrad o‘rtasida qatnaydigan tezyurar poyezd.

Rostini aytganda, men ularni kam bilardim. Sasha bilan Enskda, bundan ko'p yillar ilgari tanishgan edik, o'shandan beri ko'p bo'lsa uch-to'rt marta ko'rishdik. Ammo doim xat yozishib turardik, ayniqsa onam o'lib, Moskvada yolg'iz o'zim qolgan og'ir yillarda ko'p xat yozishardik. U menga Sanyadan olgan xatlarning mazmunini yozar va Sanya seni juda yaxshi ko'rgan derdi; hatto Balashovga, keyin Zapolyaryega ketib, meni unutganda ham Sasha: «Sanya seni juda ham yaxshi ko'radi» deb yozardi.

U menga do'st edi, hozir ko'rishamiz, uning do'st ekanligi aniq, buning ustiga, Sanyaning singlisi-ku, derdim men.

Petyani ham kam ko'rganman. Enskdaligimda u darozdan kelgan, sochlari paxmoq o'smir bola edi: uning qiziq odati bor edi: hech kim kutmaganda mehmonga kelardi, keyin birdan indamasdan ketib qolaverardi. Leningrad teatrlaridan bittasi bilan Moskvaga bir necha marta kelgan edi, har safar shoshib-pishib menikiga kelib ketardi.

Sasha, menga yozgan xatlaridan birida, vokzaldan ularning uyini qanday topib borishni batafsil tushuntirib bergan edi (ular Karl Libknext ko'chasida turishardi). Shunday bo'lsa-da, adashib qolibman. Nevskiy ko'chasiga chiqib, ko'zoynak taqqan bir kishidan:

– Nevskiy ko'chasiga qanday borsa bo'ladi? – deb so'rabman.

Shunday sharmanda bo'ldimki, uyalganimdan, bu voqeani hech kimga aytmadim.

Tramvayda odam ko'p ekan, tiqilib qolibman, ammo ko'zimga, ko'chalarda Moskva ko'chalariga qaraganda odam kam ko'rindi. Tramvaydan tushib, chamadonimni ko'tarib borgan ko'cha ham kamqatnov edi. Ana 79-uy. «Fotograf-rassom Bernshteyn».

Shu yerda.

Uchinchi qavatga chiqib, chamadon ko'tarib uzilib ketay degan qo'llarimni uqalab turganimda, pastki ko'cha eshik taraq etib ochilib yopildi-da, uzun makintosh kiygan, kepkasini qo'lida ushlagan novcha odam yonimdan hatlab o'tib ketdi.

– Petya, sizmisiz?

Shu damda fikri-xayoli allaqayoqlarda yursa kerak, chunki to'xtadi, menga qaradi va aftimdan hech qanaqa qiziq narsa topmagan bo'lsa kerak, yana yugurib ketmoqchi bo'lgan edi, biroq bir narsa esiga tushganday, to'xtadi.

– Tanimadingizmi?

– Ha nega? Tanidim! Katya, men kasalxonadan kelayot-gandim! – dedi u. – Bugun kechasi Sashani kasalxonaga olib ketishdi.

– Rostmi?

– Ha, olib ketishdi. Yuring uyga. Sizni kutib ololmaganligimiz ham shundan.

– Sashaga nima bo‘pti?

– U sizga yozmaganmidi?

– Yo‘q.

– Yuring uyga, men aytib beraman. Fotograf-rassom Bernshteyn oilasi Sasha va Petyaning ishlari bilan yaqindan qiziqsa kerak, chunki bejirim kiyingan kichkinagina bir ayol Petyani dahlizda ushlab oldi-da:

– Ha, nima bo‘ldi? – deb so‘radi.

Petya, u ayolga hali ma‘lum emas, meni kiritishmadi, deb tushuntirib berdi.

Sasha farzand ko‘rish arafasida ekan, shuning uchun uni kasalxonaga olib ketgan ekan.

– Petya, nega buncha tashvishlanasiz? Omon-eson qutular.

Biz uning uyida yolg‘iz ikkalamiz o‘tirardik: u mening to‘g‘rimdagi kursida boshini egib o‘tirardi. Avzoyi buzuq, ayniqsa men: omon-eson qutular deganimdan keyin lablari burishib ketdi.

– Siz bilmaysiz-da... Sashaning o‘zi kasal, tumov, yo‘tali bor. O‘zi ham omon-eson qutularman, deydi.

Birdan o‘rnidan sakrab turdi.

– Gabrichevskiyinikiga borish kerak. Telefonda gaplashgan edim, u, mening borishim noqulay, chunki xotiningiz boshqa kasalxonada, men boshqa kasalxonadaman, deydi. Sasha Shreder kasalxonasida.

Bilsam, Gabrichevskiy – Sashaga qaragan shifokor ekan.

– Yo‘q, avval Sashaning oldiga boramiz. Tumov hech narsa emas. Omon-eson qutulishiga aminman.

U, nima qilishini bilmay, menga qarab turardi.

– Hoy, Petya, juda ham esingizni yo‘qotib qo‘yibsiz! Yaxshi emas! – dedim men qizishib.

Bora-borguncha uni urishib bordim, axir o‘ziga keldi, qiz yoki o‘g‘lini tantanavor holatda ko‘tarib kelishi manzarasini aytib bergan edim, birdan kulib yubordi.

– O‘g‘il tilasangiz kerak?

– Eh, qurbaqa bo‘lsa ham mayli, ishqilib, tezroq tugasa bo‘lgani!

Qanaqa kasalxona ekan, bilmadim. Petyaning aytishicha, juda yaxshi kasalxona, ammo kasalxonada qabulxonada yo'qligi ko'nglimni bir oz xira qildi; kelgan odamlar zina yoniga o'rnatilgan yog'och panjaraning narigi tomonida to'planishib turishardi. Petyaga o'xshagan bir necha yosh otalar o'rindiqda o'tirishar, bir-birlarini turtishib, u yoqdan bu yoqqa yurishardi. Petya ham o'rindiqqa o'tirgan edi, men uni tepaga sudrab olib chiqdim; muloyimgina bir hamshira «professorni yo'qlama tugab, boshqa bo'limga chiqib ketayotgan paytda yo'lakda uchratish mumkin», dedi.

Axir, professorni uchratdik. Petya hovliqib va entikib uning yoniga bostirib borgan edi. Professorga nash'a qilgandan ko'zlarini yumib kulib yubordi.

Professor bizni o'z kabinetiga olib kirdi, u bilan yarim soatcha gaplashib o'tirib, uni yaxshi ko'rib qoldim. Uning ko'zlari nihoyatda mehribon edi; nimadan qo'rqish kerak, nimaning xavfi yo'q deb tushuntirib berar ekan, Petyaning qo'lidan qattiq ushlab turardi. U nihoyatda jozibali odam edi. Uning aytgan gaplari xotirjam etadigan gap bo'lmasa ham, ko'nglimiz to'q bo'ldi. Umuman, professor «garchand kasalning bunday vaziyatdaligida tumov ortiqcha bir narsa» bo'lsa ham, omon-eson qutulishi aniq, dedi. Sashani u «dadil va yuragi keng ekan, bundaylar kam bo'ladi», dedi.

Vaqtimiz chog' bo'lib uyga qaytdik. Uyga yetib kelganimizda, mening yo'l yurib kelganim, menga hatto choy ham ichirmagani yodiga tushdi. Yugur-yugur boshlandi, yo'lakdan birov:

– Petya, ovora bo'lmang, bizning choynakda issiq choy bor, – dedi.

Ammo Petya choynaksiz qaytib kirdi-da, g'aladondan pul olib, yo'lga olgan ovqatim shunday turibdi, hech narsa kerak emas desam ham, chiqib ketdi...

Bu uyda ikki rassom istiqomat qilishi darrov ko'zga tashlanar edi. Hatto bu uyning ikki rassom uchun torlik qilishi ham ko'rinib turar edi. Har bir rassomning joyi, ularning to'qnashish chegaralari ham aniq edi.

Deraza yonidagi bejirim, oppoq stol shubhasiz, Sashaniki. Anavi tartibsiz, maket va qalamlar, cho'tka va qog'ozlar sochilib yotgan stol, albatta, Petyaniki bo'lsa kerak.

Bu muhitdagi hayot butunlay boshqacha va menikiga sira o'xshamas edi, Moskvada, ayniqsa, keyingi vaqtda turmushim bir xilda va maroqsiz o'tganini sezdim. Ammo u yog'ini olganda, bular san'at kishilari, iste'dodli kishilar edi, menda esa hech qanaqa talant

yo‘q edi. Shuning uchun to Petya qaytib kelgunicha bekorga o‘zimdanda xafa bo‘lib o‘tirgan ekanman.

Petya, Sashani tug‘ruqxonaga to‘satdan olib ketganlarini aytib, uyingni besaranjom, ochiq-sochiqligidan uzr so‘radi, uyni yig‘ishtirish o‘rniga deraza yonida qaqqayib turganimdan o‘zim uyalib ketdim...

O‘ylab qaragam, qornim juda och ekan.

Choy ichib, Sasha haqida gaplashib o‘tirdik.

Ha, unutibman: kasalxonadan ketayotganimizda bir hamshira bilan gaplashib qo‘ygan edik, u har soatda Sashaning ahvolidan bizga telefon orqali xabar berib turishi kerak edi. U bilan gaplashganda Petya yonidagi hamma pulini chiqarib berdi, bergan puli juda ko‘p bo‘lsa kerak, hamshira qo‘rqib ketib, Petyaga qaytarib bera boshladi. Endi o‘sha ayol qo‘ng‘iroq qilib, Sashaning ahvoli yaxshiligini aytdi.

– Yaxshimi? – dedi Petya baqirib.

– Yaxshi.

Bir soatdan keyin yana qo‘ng‘iroq qildi-da, yana ahvoli yaxshi, dedi. Bir ozdan keyin:

– Bir oz ingrayapti, – dedi.

Petyaga issiq choyimiz bor degan ayol, darg‘azab bo‘lib dedi:

– Petya, unaqa jinni bo‘lmang! Ingrasa nima qipti? Siz ingramas edingizmi?

Kechgacha ahvol shu tarzda davom etdi.

Kechqurun men ko‘chaga chiqib, Leningradni tomosha qilsak bo‘lardi, deb edim, Petya ma‘yuslanib ketdi, men uyda qola qoldim.

– Men sizni zeriktirmayman, xo‘pmi?

U o‘zining eng keyingi asarini, Pushkinning yuz yillik yubileyiga atalgan haykal loyihasini ko‘rsatdi. Pushkin Neva bo‘yidan shamolga qarshi yurib borgan vaziyatda tasvirlangandi: shinel etaklari shamoldan uchgan, chehrasi ilhom bilan to‘la edi. U yosh va romantik ruhli, yuragi yorqin Pushkin edi.

– Yaxshimi?

– Juda ham yaxshi. Haykaltarosh ham ekanligingizni bilmas ekanman.

Haykaltaroshlik bilan shug‘ullanish sababini aytdi-da, shu ondayoq Moskvada Lasker va Kapablankalar ishtirokida bo‘layotgan xalqaro shaxmat turniridan, so‘ngra xalqaro ahvoldan gapira boshladi. Gapirib turib, bir qulog‘ini telefon qo‘ng‘irog‘i jaranglamasmikin deb, eshikka tikib turar edi, umuman, nima to‘g‘risida gapirmasin, har gapida – Sasha...

Soat sakkizda hamshira nima uchundir qo'ng'iroq qilmadi, yana kasalxonaga qarab yugurdik, yana professorni yo'lakda tutish mumkin, degan muloyimgina hamshira bilan gaplashdik. Surishtirsak, xotirjamlik ekan, hamshira esa bekorga bezovta qilmay deb qo'ng'iroq qilmagan ekan.

Uyga qaytdik, Petya meni fotograf-rassomning oilasi – uning bejirim va sochlari oppoq turmush o'rtog'i va uning xuddi shunday bejirim va sochlari oppoq singlisi bilan tanishtirdi. Fotografning o'zi nima uchundir doim Moskvada turardi, menga uning suratini ko'rsatishdi, sochlari qalin, jingalak, kalta baxmal kamzul kiygan, basavlat kishi ekan, xuddi fotograf-rassomning o'zi, fotografdan ko'ra rassomga ko'proq o'xshaydi.

Kechasi soat birdan oshganda menga Sashaning karavotiga joy solib berishdi, yotdim; Petya kasalxonaga tez-tez qo'ng'iroq qilib turardi. Bir mahal uxlabman, biroq nazarimda ko'zimni endi yumganday edim: birov devorni urib taqillatdi, nima ekanligini bilmay, dovdiraganimcha o'rnimdan sakrab turibman. Dahlizda chiroq yoniq, allakimlarning g'ovur-g'uvur tovushi kelar edi. Shu ondayoq Petya uyga hovliqib yugurib kirdi-da, o'yinga tushib ketdi...

Keyin stol ustidan engashib, devorda osig'liq turgan suratni ola boshladi.

– Petya, nima qilayapsiz? Nima gap?

– O'g'il! – Birdan baqirib yubordi u. – O'g'il!

Hamma narsani polga irg'itib tashladi-da, devordagi og'ir ramkaga solingan katta suratni ola boshladi. U goh stolda emaklab yurar, goh stol ustiga o'tirib yurardi.

– Sasha-chi? Sasha qalay? Jinni bo'ldingizmi? Suratni nega olayapsiz?

– Sasha omon-eson qutulsa, shu rasmni Rozaliya Naumovnaga taqdim qilishni va'da qilgandim.

So'ngra u stol ustidan tushdi-da, yuzimdan o'pib, yig'lab yubordi.

UCHRASHUV

Sasha omon-eson qutuldi; ertasiga ertalab Sashaga xat, konfetlar yubordik; gul do'konidan eng katta savatdagi gulni olib kasalxonaga xodimiga bergan edik, u: «Oy-boy!» deb yubordi. Navbatchi hamshiraning ham og'zi ochilib qoldi.

Oxiri baxayr bo'ldi-yu, biroq men yaxshi ko'rib qolgan professor nazarimda bir narsadan ko'ngli to'q emasdek ko'rindi. Balki menga shunday ko'ringandir. Nima uchundir Sashani ancha vaqtgacha palataga ko'chirishmadi, ammo biz palataga ko'chirgularicha kutib turdik. Biz, Petyaga qo'ng'iroq qilib turgan hamshirani kiritgan edik, xat olib chiqdi.

«Petenka xuddi senga o'xshaydi, senikiga o'xshagan burni katta. Oxiri baxayr bo'lar, demabmidim? Katya, jonim, seni quchib qolaman. Gul uchun rahmat. Menga buncha ko'p ovqat keltirmanglar. Bernshteynlarga salom. Sashangiz».

Xatni o'qib turib yig'lagim keldi. Ehtimol, yig'ladim ham shekilli, ammo shu onda qabulxonada birov vaqtni so'radi, qaragam soat chorak kam o'n bo'libdi.

Petya bilan xayrlashdim, uning bu yerdan sira ketgisi kelmas edi. To'g'ri vokzalga qarab jo'nadim, chunki poyezd soat 10 dan 40 daqiqa o'tganda kelishi kerak edi.

Ilgarilari Sanyani uzoq vaqt ko'rmay yurib, keyin ko'rishganimizda birdan ko'nglim soviganligini sezardim. Xayolimda bu uchrashuvni ko'p marta ko'z oldimga keltiraverganim uchun bo'lsa kerak, o'rganib qolardim va u bilan ko'rishsak, ilgarigidek yaxshi bo'lmas kerak, deb o'ylardim. Sanya Shimoldan Moskvaga qaytib kelganida va Bolshoy teatr yonida ko'rishganimizda xuddi shunday bo'lgan edi. O'sha kezda men g'ayrioddiy biron narsa bo'ladi deb o'ylagan edim, ammo ikkimizning ham bu uchrashuvdan afsuslanishimizdan boshqa, hech qanday o'zgarish bo'lmasdi.

Bu safar ham, vokzalga kelib, o'sha hissiyotdan qo'rqib ketdim: vokzalga kelgan hamma odamlar o'z odamlarini kutib olish uchun kelishgan, hammollar poyezdga qarab yugurishardi. Badburush va oqargan mo'ylovi kir nazoratchi provodnikni zo'r berib so'kmoqda edi.

Ammo bu hissiyotning o'chishini endi bilardim, chunki bu safargi uchrashuvimiz butunlay boshqacha bo'lishi kerak edi...

Poyezd ko'rindi, perrondagilar hayajonlanib, tipirchilab qoldi. Kutib olishga kelganlar uncha ko'p bo'lmas ham, Sanya meni darrov topsin deb, chetroqqa chiqib turdim. Ko'nglim tinch, xotirjam edi, shekilli. Nazarimda faqat hamma narsa juda sekin bo'layotganday, poyezd nihoyatda sekin yurib kelayotganday, yo'lovchilar vagonlardan juda sekin tushayotganday ko'rinardi: hamma bor edi-yu, yolg'iz San-

ya yo‘q edi; odamlar hamon yonimdan o‘taverdi, ammo Sanya yo‘q edi, yuragim shuv etib ketdi. U kelmabdi.

– Katya!

Qayrilib qaradim. U eng boshdagi vagon yonida turgan ekan, yugurdim, baxtdan va hovliqqanimdan butun a‘zoyim titraganini sezardim.

Biz ham platformadan sekin-sekin yurib kelardik, chunki har qadamda to‘xtab, bir-birimizga qarardik. Dastlabki damda nimalarni gapirganimiz hozir esimda yo‘q. Sanya mendan allanimalarni so‘rar, uning gapi qulog‘imga kirmasa ham, allanimalarni javob qilardim. Keyin men Sashani gapirib berdim, shu vaqtda yana to‘xtadik, to‘xtagan joyimiz noqulay bo‘lsa kerak, odamlar itarishaverdi, shu turishimizda anchagacha Sasha to‘g‘risida gaplashib turdik.

– Petka-chi, Petka qalay? Butun Leningradni ostin-ustun qilib yuborgandir, deyman! Tentak-ku! Juda ham sog‘indim-da ularni!

Biz «Astoriya»ga* ketdik, chunki Sanya o‘sha yerga qo‘nganim qulayroq dedi. Keyin mehmonxonadan turib Petyaning uyiga, so‘ngra kasalxonaga qo‘ng‘iroq qila boshladik. Kasalxonada uni hamma taniydigan bo‘lib qolgan edi. U yerdagilar Petyani sedanali konfet olib kelgani ketdi, deyishdi.

– Nima, nima?

– Sedanali konfet!

– Sedanali konfet olib kelgani ketibdi, – dedim, hayron bo‘lib va Sanyaga qarab.

Sanya qotib-qotib kuldi.

– Sasha shunaqa konfetni yaxshi ko‘rardi, shu esiga tushgan, – dedi. – Bunday konfetlar uning joni-dili edi. Voy singiljonim-ey! Hali ham «jinni-tentak» degan so‘zi bormi? «Jinni-tentak» deyishni yaxshi ko‘rardi. Nega qaraysan menga?

Men unga tikilib qarashimning sababi shu ediki, menga juda-juda ham yoqardi u, qarab to‘ymasdim. Ajabo, biz-ku, qariyb bir yilcha ko‘rishmadik, ammo ajralishgan vaqtdagidan ko‘ra bir-birimizga ming marta yaqinroq edik. Nazarimda uning bo‘yi ancha o‘sgan, ko‘krak va yelkalari kengayganday ko‘rinardi. Uning yuz qiyofasi aniqroq ko‘rinar, qarashlari dadil, irodali edi. U endi yosh bolaga sira o‘xshamasdi, unga «uylanish hali senga erta» deb bo‘lmas edi. Faqat boshidagi bir siqim tepa sochi avvalgidek do‘ppayib turardi.

* «Astoriya» – Leningradga eng katta va hashamatli mehmonxonalardan biri.

– Go‘zalligingni unutilman, – dedi u, – ajabo, u yerdaligimda nechundir buning menga sira ahamiyati yo‘q edi.

– Bu yerda-chi?

Yana Petyaga qo‘ng‘iroq qildik.

Bu safar Petya uyda ekan, Sanya yonimda turibdi, telefon go‘shagini qo‘limdan tortib olayapti degan edim, Petya bo‘kirib yubordi. Ikkovlari anchagacha bir-birlariga «Hoy, qalaysan, chol?» deyishib, bir-birlarini «jinni-tentak» deb so‘kishib turishdi. Keyin Sanya undan «sedanali konfet topdingmi?» deb so‘radi va kulgisi qista-ganidan bo‘g‘ilib, menga «topmabdi» dedi. Axir shunday qilishadigan bo‘lishdi: Sanya kasalxonaga borib, ikkovlari Sashaning yoniga kirish-ga urinib ko‘rishadigan bo‘lishdi.

– Men-chi?

U yana meni bag‘riga bosdi.

– Sensiz qayoqqa borardim? – dedi u.

Uni vokzalda kuzatib qolganimda mendan so‘ragandek, yana:

– Meni sevasanmi? – deb so‘radi.

– Ha, ha.

Albatta, Sashaning yoniga kiritishmadi, yana xat yozib kiritgan edik, javob yozib chiqardi: «Qani endi, sizlar bilan sayr qilib yursam!» derdi. Oxirida: «Tushlik qildinglarmi? Ovqatlanmagan bo‘lsalaring, erimni ham olib boringlar, chunki agar esiga solmasa, ikki-uch kun ham ovqat yemay yuraveradi» deb yozgandi.

Tushlikdan hech narsa chiqmadi. Sanya Arktika institutiga borishi kerak edi, men ham birga bordim. Birga borishimning sababi u bilan birga bo‘lish emas, balki ish to‘g‘risida gaplashib olishimiz kerak edi. Axir, Leningradga shuning uchun kelgan edik-da! Mening keyingi xat-larim unga yetib bormagan ekan, shuning uchun «Paxtusov» haqida-gi yangiliklarni u bilmas edi, eng keyingi qarorga ko‘ra, «Paxtusov» Matochkin shar orqali o‘tib, Shimoliy Yerni aylanib, Myaxov orollari tomonga boradigan bo‘lgan edi.

– Juda soz, qaytanga vaqtimiz ko‘p bo‘ladi, – dedi Sanya.

– Vaqtning ozligidan qo‘rqaman.

Gap qidiruv guruhiga olinadigan odamlar to‘g‘risida ketdi, Sa-nya Dikson orolida ishlayotgan bir radio ishi mutaxassisini, doktor Ivan Ivanovichni, o‘zining bortmexanigi Lurini tavsiya etdim, dedi (Luri haqida menga yuborgan xatlarida ko‘p yozardi).

– Radio ishi mutaxassisi juda usta odam. Bilasanmi, kim?

– Yo‘q, bilmayman.

– Korzinkin, – dedi u tantanali ohangda. – O‘shaning o‘zi.

Men, Korzinkin deganni, eshitmagan ekanman, dedim. Sanya u haqida aytib berdi: Korzinkin Amundsen bilan birga Janubiy qutbga borgan ikki rusning biri ekan, Amundsen o‘zining kitobida uni ham yozib o‘tgan ekan.

– Qalay boplabmanmi? Beshinchisi – o‘zim. Oltinchisi – sen. Seni «qizi» sifatida tavsifiya etdim.

– Rostdanmi? Bu ekspeditsiyada kapitan Tatarinov qizi sifatida emas, balki boshqacha yo‘l bilan qatnashishga haqqim bordir deb o‘ylab edim.

Sanyani hijolat bosdi.

– Nima qipti? – dedi u uyalib. – Yomon gap emas. Chakki qilibmanmi, a?

– Juda.

– Unaqa qilmaganimda, xotinim uchun tirishgan bo‘lib chiqardim. Bunisi qaytanga noqulay bo‘lardi.

– Sanya, men uchun tirishgin deb iltimos qilmagan edim-u, – dedim men osoyishtalik bilan. – Qizi, xotini! Men yana jiyan ham, nabira hamman. Men tajribali geologman. Sanya «Glavsevmorput» boshlig‘iga yozgan xatimda ekspeditsiyaga meni sening turmush o‘rtog‘ing sifatida emas, balki geolog sifatida qo‘shishlarini so‘raganman. Aytmoqchi, men hali sening xotining emasman, agar yana shunaqa tentaklik qiladigan bo‘lsang, boshqaga turmushga chiqib ketaman. Biz hali qonuniy nikohdan o‘tmaganmiz, shekilli?

Bechoraning ko‘zlari pir-pir ucha boshladi, asabiy kuldi, furajkasini boshidan olib, peshanasini artdi, rahmim keldi.

– Katya, kechir! – dedi u.

Arktika institutining hovlisida turgan bo‘lsak ham, uni mahkam quchdim-da:

– Muvaffaqiyat tilayman! – dedim.

U soat oltida qo‘ng‘iroq qilmoqchi bo‘ldi, iloji bo‘lsa, Petyanikiga borish niyatini aytdi.

Sanya soat oltida emas, o'n birga yaqin Petyalarnikiga emas, «Astoriya»ga qaytdi. Qaytishi bilanoq bizni birga ovqatlanishga chaqirdi. «Bugun ovqat yeganim yo'q, o'lguday ochman, bir o'zimdanda ovqat o'tmaydi», dedi u.

Ammo Petya kun bo'yi yugurib, charchaganidan ko'zlarini zo'rg'a ochib o'tirardi.

Sanya bilan qachon, qaysi kunlari ko'rishganlarim, hatto undan qaysi kunlarda xat olganim esimda turibdi. Triumfalnaya ko'chasidagi bog'chada 2-aprelda ko'rishgan edik. Katta teatr yonida 13-iyunda ko'rishdik. Arktika institutidan qaytib, menga qo'ng'iroq qilgan va men unikiga borgan kunim – 21-may edi. Bu kun sira yoddan chiqmaydigan kun edi.

Biz ikkimiz bir-birimiz bilan yoshlik vaqtdan tanishmiz, men uni juda yaxshi bilaman deb o'ylardim. Ammo bu kecha u butunlay boshqacha ediki, ilgari sira bunday holatda ko'rmagan edim. Ovqat yeb o'tirganimizda hatto o'ziga ham shuni aytdim.

Loyiha kam-ko'stsiz qabul qilinibdi, institutda uni ko'p maqtashibdi, Sanya «Bibi Maryam» safari asosida yangi orol ochgan professor V. bilan suhbatlashibdi, professor V. Sanyani yaxshi kutib olibdi. U Leningradga, uchuvchilar maktabida o'qigan vaqtdan beri sevib qolgan shu azamat shaharda edi. Ish o'ngidan kelgan edi.

Uning yuzida, hamma harakatlarida, hatto ovqat yeyishida ham baxt tole aks etardi. Uning ko'zlari chaqnagan, shu bilan birga, o'zini erkin tutardi. Agar ilgari uni sevib kelmaganimda ham bu kecha muqarrar yaxshi ko'rib qolardim.

Ancha vaqtgacha allanimalarni yeb o'tirdik, keyin sayr qilgani ketdik, chunki men hali ham Leningradni ko'rganim yo'q, dedim. Sanya «Leningradning qanaqaligini o'zim senga ko'rsataman» dedi.

Kechasi soat ikkidanda oshgan, tunning eng qorong'i payti edi, biroq «Astoriya»dan chiqsak, shu qadar yorug' ediki, Gogol ko'chasida atayin to'xtab, gazetani bemalol o'qib turdim.

Oq tun! Ammo Sanya: «Oq tun ham shunaqa bo'ladimi! Bu yer oq tunlarining shunisi yaxshiki, ular yarim yillab davom etmaydi» dedi.

Bosh shtabning orqa tomoniga o'tganimizda, oldimizda go'zal va kimsasiz maydon yastanib yotardi; maydon katta bo'lmasa ham, qandaydir bag'rikeng va soddagina bo'lib, Moskvaning ochiq va yalang



maydonlariga o'xshamas edi. Bu maydonning qanaqaligini bilmay afsuslandim, Sanyaga 1917-yilning 7-noyabri haqida qisqa ma'ruza o'qib berishga to'g'ri keldi.

Keyin biz Xalturin ko'chasidan yurib ketdik (ko'cha nomini bir bino tepasiga osilgan chiroq tagidan o'qib bildim), Ermitaj* eshigini yelkalarida ko'tarib turgan bahaybat odam haykallariga anchagacha qarab turdik. Sanyani bilmayman-ku, ammo men ularga rahmim kelib qarardim: nazarimda tirikka juda o'xshash odam haykallariga binoni ko'tarib turish og'ir edi.

Keyin Neva bo'yiga chiqdik, ana buni oq tun deydilar! – kunduz deb kunduz emas, tun deb tun ham emas, tong ham, oqshom ham emas edi. Harbiy-tibbiyot akademiyasining binolari ustida osmon to'q ko'k, och ko'k, sariq, jigarrang, qo'yingki, dunyoda qancha rang bo'lsa, hammasi shu yerda tovlanib turardi. Quyosh osmonning o'sha tomonida, allaqayerda edi. Petropavlovsk qal'asi ustidagi osmon esa, butunlay boshqacha, xuddi tuman bosganday edi. Shu qadar farq qilar ediki, ikkovining bir osmonligiga odam ishongisi kelmas edi. Ilgari biz anchagacha qal'aga va uning tepasidagi osmonga qarab turar edik, keyin birdan harbiy-tibbiyot akademiyasiga, uning tepasidagi osmonga qarardik, bu esa bir o'lkadan ikkinchi o'lkaga, sokin va qorong'i o'lkadan ajoyib, go'zal, rang-barang bo'yoqlar mavj urib turgan o'lkaga borib qolish taassurotini berar edi.

Ustim yupqa edi, sovuq yedim, ikkalamiz Sanyaning plashini yopinib, anchagacha indamay o'tirdik.

Biz Neva bo'yidagi metin o'rindiqla o'tirardik, pastda, oyog'imiz ostida daryo to'lqinlari tosh qirg'oqqa kelib urilardi.

Bu kecha shu qadar baxtiyor, yuragim shu qadar sevinch va shodlik bilan to'la ediki, aytib berishga ojizman. Biz, axir, yana qayta topishgan edik. Bir-birimizga hech narsani isbot qilishimiz ham kerak emas edi, bir-birimiz bilan urishishimiz ham.

Shu kecha yana allaqayerlarni kezib yurdik, ammo sira Neva bo'yidan ketolmasdik. Moviy gumbazli, past-baland minorali ibodat-xona hamon old tomonimizdan ko'rinar, biz unga tomon borganimiz sari u bizdan nariga ketib qolardi.

Qorovullar ko'chalarni supurishga chiqqan, Viborg tomonidan quyosh shafag'i ko'ringan edi, bu tundan ajralishni istamasdik. Sanya

* *Ermitaj* – muzey; sobiq Sovet Ittifoqidagi eng katta muzeylardan biri.

birdan Petyaga qo'ng'iroq qilamiz degan paytda tun tamom bo'lgan edi.

– Biz undan bu kechani qanday o'tkazmoqchi bo'lganini so'raymiz, – dedi kulib.

Ammo men uni qo'ng'iroq qilmaslikka ko'ndirdim, chunki telefon dahlizda edi, qo'ng'iroq qilsak fotograf-rassom Bernshteynning oilasini uyg'otib yuborgan bo'lardik.

– Ular juda yaxshi odam, tong otmasdan uyg'otish noinsoflik bo'lardi, – dedim men.

Ibodatxona yonida – axir manzilga yetib qolgan edik, Sanya yo'lovchi mashina chaqirdi. Mashinada yurish shu qadar huzurli ko'rindiki, Sanya meni avval orol tomonga, keyin Petyalarnikiga olib bormoqchi bo'ldi. Ammo bugun Sanyaning ishi juda ko'p edi, avval uyga qaytib, juda bo'lmasa, bir oz uxlab olishini istar edim.

«Astoriya»ga qaytib, qahva qaynatdik, Sanya shimolda yurib qahvaga o'rganib qolgan ekan, doim yonida mis choynak olib yurardi.

– Baxt ham shunchalik bo'ladi-da, a? – dedi u. – Yuragingning urishini qara! Menikini ham, qara.

Mening qo'limni olib, ko'kragiga bosdi.

– Ikkimiz ham hayajondamiz, qiziq, a?

U allanimalarni gapirardi, o'z gapi qulog'iga kirmasdi, hovliqqanidan birdan ovozi o'zgarib, boshqacha bo'lib ketdi...

Skovorodnikovlarnikiga soat birga yaqin bordik. Eshikni jussasi kichkinagina kampir ochdi-da, Petya uyda yo'q, dedi.

– Kasalxonaga ketdi.

– Hali erta-ku?

– Ha.

U bir narsadan xafadek ko'rinar edi.

– Biror hodisa yuz berdimi?

– Yo'q, yo'q, u kasalxonaga qo'ng'iroq qilgan edi, Aleksandra Ivanovnaning mazasi yo'g'roq deyishdi.

SINGIL

Shum kunlar boshlandi, o'sha kunlar esimga tushsa, hozir ham yuragim alam, dard-hasratga to'lib ketadi. Kunda uch marta Shreder kasalxonasiga yugurardik, harorat ko'rsatuvchi varaq yopishtirilgan taxta oldida turib qolardik: «Skovorodnikova – 37; 37,3; 38,2;

39,9». Ammo uning kasali oddiy zotiljamlardan bo'lmay, balki professorning aytishicha, «sudraluvchi» zotiljam edi. Ba'zi kunlari harorati tushib, normal holga kelardi, shunday kunlarda biz, vaqtimiz xush bo'lib, uyga qaytardik, Sasha endi uyga qaytar deb umid qildik. Fotograf-rassomning turmush o'rtog'i Rozaliya Naumovna «men ham zotiljam bo'lganman, ammo zotiljam – yiringli plevritga qaraganda hech narsa emas, singlim Berta shunaqa plevrit bo'lgan», derdi. Petya yana o'zining haykali ustida ishlay boshlardi. Hatto bir kuni uni men bilan Ermitajga borishga ham ko'ndirdim. Ammo ertasiga yana kasalxonadagi taxta oldida varaqdan ko'zimizni uzmay turardik. Bir kuni Petyaning ko'zini chirt yumib ochganini ko'rib qoldim: yoshlikda har kim ham ko'zingni yumib ochsang, boshqa narsa bo'lib qoladi deb o'ylardi. Ammo Petya bu safar ham ilgari raqamni, biz istamagan raqamni ko'rdi: «Skovorodnikova – 38,1; Skovorodnikova – 39,3; Skovorodnikova – 40».

Uch kungacha harorat 40 ga chiqib turdi, keyin birdan pasaydida, bir necha soatdan keyin yana ko'tarildi, bu safar 40,5 ga chiqqan edi. Men bu zotiljam emas deb o'ylardim, Sanyaga bildirmasdan professorning uyiga bordim. Professor diagnozni to'g'ri topdi, «ikkala o'pkada ham zotiljam manbayi bor», dedi. U yana: «Bu mening itxisosim emas, Sashani terapevt ko'rdi», dedi.

– Nima dedi?

– Gripp, gripp ketidan – zotiljam.

Sashaning oldiga kunda ko'p marta kirib turishini, umuman, kasalxonadagilarning hammasi Sashaga yaxshi qarashini bilar edim. Ammo bilsak ham yana bironta boshqa terapevtni chaqirsak qanday bo'larkin, deb so'radim.

– Masalan, Gabrichevskiy?

– Bo'ladi, bo'ladi, albatta! Men o'zim telefon orqali chaqiraman.

Ammo Gabrichevskiy ko'rgani bilan Sashaning harorati pasaymadi.

Shu kunlari Sanyani juda kam ko'rardim; ba'zan kechalari qo'ng'iroq qilib qolardi; bir kuni o'zim uning oldiga birrov borib keldim; u institutda, ekspeditsiyani hozirlash uchun ajratilgan kichkina bir uyda ishlar edi. U o'tirgan stol usti qurollar, fotoapparatlar, qo'lqoplar, mo'yna paypoqlar bilan to'lib ketgandi. Charm palto kiygan, mo'ylovi shopday, qiyofasi jiddiy bir kishi qo'shog'iz miltiqni to'plar va stvoli qo'ndog'iga tushmaydi, deb ovora edi.

– Xo‘sh, Sashaning ahvoli qanday? Sen o‘zini ko‘rdingmi? Shifokorlar nima deyishyapti?

Telefon ketma-ket jaranglab turardi, axir Sanyaning toqati tugadida, go‘shakni olib, stol ustiga tashlab qo‘ydi.

– Ahvoli eskicha.

– Harorati-chi?

– Ertalab qirq ikki edi.

– Padariga la‘nat! Nahotki, davosi bo‘lmasa?

Keyingi kunlarda u juda oriqlab ketgandi, charchaganligi, tashvishi ko‘pligi ko‘rinib turar, u o‘zini juda oldirib qo‘ygandi.

– Juda oriqlab ketibsan, – uxlamaysanmi deyman-a, – dedi u.

– Tushunolmay qoldim, ahvoli qalay o‘zi?

– Bevosita xavf yo‘q.

– Nima?

– Gabrichevskiy bevosita xavf yo‘q dedi.

– Padariga la‘nat-ey! – dedi Sanyaning jahli chiqib. – Bitta odamni tuzatisholmaydi-ya! Soppa-sog‘ odam edi. Umrída kasal bo‘lmagan-a!

Men unga: «Endi sen bilan bir necha kun ko‘rishmasak kerak, chunki Sashaning yonida o‘tirishga ruxsat berishdi. Bugun kechqurun kasalxonaga ko‘chib boraman», dedim. Sanya qo‘limni ushladida, minnatdorlik bilan yuzimga qaradi. Keyin darvozagacha kuzatib qo‘ydi, biz xayrlashdik.

Sasha shiftga qarab, har zamon, har zamonda qaqragan lablarini yalab yotardi, qalpoq va xalat kiyganim uchun bo‘lsa kerak, avvaliga meni tanimadi. Nazarimda, u meni boshqa odam deb o‘ylagandek bo‘lardim.

Anchadan beri uxlayotgani, xuddi vaqt uni tashlab ketgandek, erta va kechni bilmas edi.

Ko‘zlari cho‘kkan, quyoshdan qoraygan kulchadek yuzida tatar qiyofasi aniqroq ko‘rinib qolgandi. U hamisha g‘ilayroq edi, uning g‘ilayligi o‘ziga yarashar edi ham. Ammo endi, ayniqsa kechalari, uning g‘ilaylanib og‘ir qarashidan qo‘rqardim. U, soch o‘rimlarini ko‘kragiga tashlab, rangi oqargan holda indamasdan o‘rmidan turib o‘tirardi, necha marotaba so‘rasam ham yotmasdi. Bir kuni Sanya kelganida ham shunday bo‘ldi. Sanya ancha vaqtgacha o‘ziga kelolmay o‘tirdi, Sasha unga onasini eslatar edi.

Ilgari men sira bemorlarga qaramagan edim, ayniqsa, Sashadek og‘ir kasallarni parvarish qilmaganman. Biroq tez orada buni o‘rganib

oldim. Sashaga qarash ancha qiyin edi, chunki u sira uxlamas edi. Uxlasa ham, ko'zini yumib darrov ochardi. Uning nafas olishini doim nazorat qilib turish kerak edi.

Uning taniga hayot qaytib kelgan kunlar ham bo'lardi. Shunday kunlardan biri esimda, kasalxonaga kelishimning to'rtinchi kuni edi. Kechasi yaxshi uxlab turdi-da, ertalab qornim och deb ovqat so'radi. Bitta tuxum yeb, bir stakan sutchoy ichdi, keyin palatani bir oz shamollatish uchun uni ko'rpaga o'rayotganimizda, u:

– Katenka, hamisha yonimdamisan? Kechasi ham shu yerdamisan? – deb so'radi.

Yuzim titrab ketgan bo'lsa kerak, chunki Sasha menga ajablanib qaradi.

– Men ko'p uxladimmi? Rostmi?

– Sashenka, sen hozir qimirlamay jim yot, derazani ochamiz, xo'pmi? Sen kasal eding, endi tuzala boshlading, oxiri baxayr bo'ladi.

Sasha xo'p dedi, yuz va qo'llarini xushbo'y sirka bilan artayotganimda qo'limni ushlab turdi. Keyin chaqaloqni olib kelishdi, uni emizar ekan, biz unga qarab o'tirdik, chaqaloq ma'nosiz ko'zlarini ochib, jiddiy ravishda atrofga qarardi.

Bolaga kasal yuqtirmaslik uchun Sashaga niqob kiydirilar edi. Bu safar ham niqob kiyib:

– Juda o'xshaydi, a? – dedi.

Kichkintoyning Petyaga o'xshashi unga juda yoqardi; garchand, chaqaloq o'n kunlik bo'lsa ham, uning yuziga qarab, kimga o'xshashligini aytish mumkin edi. Ammo nazarimda u Sanyaga, opasi Sanyaga emas, mening Sanyamga o'xshardi, chaqaloq juda keskinlik va abjirlik bilan emar edi.

– Petya qalay? O'tirgani joy topolmay yurgandir? Bugun kechasi tushimda u shu uyga kelib o'tirganmish, mendan berkitisharmish uni. Men uni ko'rar emishman-u, Marya Petrovna – yo'q, bu erda yo'q dermish.

Kechasi yonida o'tirib chiqadigan hamshiraning ismi Marya Petrovna edi.

– U bo'lsa sen o'tirgan joyda indamay o'tirganmish. U gapirolmasmish, chunki mendan berkitishar emish-da. Voy men-ey! Axir, seni, uni yaxshi bilmasligingni unutibman.

– Men uni yuz yildan beri bilaman.

– Sanya qalay? Qachon jo'naysizlar?

– Ikki haftalardan keyin jo‘nasak kerak, «Paxtusov» ta‘mirda. Dokdan iyunning oxirida chiqadi.

– Dok* degani nima degani?

– Bilmayman.

Sasha kuldi.

– Juda baxtlisizlar-da!

Bir soatcha gaplashib o‘tirdik. Petyaning «Pushkin»idan ham gapirdik, Sasha menga ham yoqadi dedi.

– Ammo o‘zini har tomonga otadi, shunisi yomon, – dedi Sasha. – Haykaltaroshlikka berilib ketganida men qarshi edim. Ammo chizgan rasmlarida haykaltaroshlik alomatlari ham bor.

U Enskda tanishganimizni, ularnikiga mehmon bo‘lib borganimni, Dasha xolaning men to‘g‘rimda: «Tuzuk, menga yoqdi. Ko‘hlikkina, g‘amgin, sog‘lom qiz ekan» deganlarini esladik.

– Dasha xola qayerda? – deb so‘radim men. – Nega kelmadi? Ko‘z ochib ko‘rgan nabirasi-ku?

– Sen hali bilmaysanmi? Juda ham tobi yo‘q, yuragining mazasi yo‘q, shifokorlar olti oycha yotasan, deyishibdi. Petya bilan ko‘p borib turamiz, har yozda.

U qiynalib gapirardi, nafas olish uchun to‘xtab-to‘xtab olardi. Ammo kechagi bilan farqi katta edi.

– Sudyani aytmaysanmi!

– Qaysi sudya?

– Ha, bizning sudya-chi?

Sasha, Petyaning otasi sudya Skovorodnikovning yuksak orden bilan mukofotlanganini aytdi.

– U yerlar juda yaxshi, a? – dedi u bir oz jim qolib. – Enskka sizlar ham borasizlar, a?

– Albatta.

Professor-terapevt yurak dorilarini ichirishni to‘xtatdi, «Hadeb dori tiqishtiravermanglar, – dedi u navbatdagi ko‘rikdan so‘ng va chiqib ketaturib qo‘shimcha qildi, – bavosir kasaliga juda tez kor qiladigan yangi dori chiqibdi».

Kechga borib holi bir oz yomonlashdi, ammo men bunga uncha e‘tibor bermadim, chunki odatda o‘zi shunaqa bo‘lguvchi edi. Men karavot yonidagi kichkina stolga qo‘yilgan chiroq yorug‘ida kitob o‘qib o‘tirardim. Yorug‘lik Sashaning ko‘ziga tushmasligi uchun lampa

* Dok – paroxod va kemalar ta‘mirlanadigan joy.

ustiga ro‘mol tashlab qo‘yilgandi. Bundan bir kun avval Sanya menga bir qancha kitob yuborgandi. Hozir Stifansonning «Mehmondo‘st Arktika» nomli kitobini o‘qib o‘tirardim. Mening ekspeditsiyada geolog sifatida qatnashishim masalasi qat‘iyan hal bo‘lgan edi. Bir necha kundan keyin men professor V. ning huzuriga borishim kerak edi. Professor V. ekspeditsiyaning ilmiy qismiga rahbar edi. Albatta, Shimolni hali yaxshi bilmasligimni yashirmoqchi emas edim. Sanya yuborgan kitoblarni imkon darajasida tez o‘qib chiqishim kerak edi, chunki ular eng asosiy kitoblar edi.

Sashaga qaray deb o‘rnimdan turganimda, soat uchlar bo‘lsa kerak, qaragam, u uyg‘oq yotibdi.

– Sasha, nega uyg‘oqsan?

U jim qoldi.

– Katya, men o‘laman, -- dedi sekin.

– Unday dema, tuzalyapsan, bugun ancha tuzuksan.

– O‘limdan qo‘rqmas edim-u, lekin bolam borligi uchun ham qo‘rqaman...

Ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lgandi, yuzini yostiqqa artish uchun boshini aylantirishga urinardi.

– Uni institutga olib ketishadimi?

Ko‘zlarini artdim.

– Institutga olib ketishadi, keyin tanimay qolaman. Nega Petya kelmadi? Nega uni kiritishmaydi? Kiritmaslikka haqlari yo‘q. Ular meni Petyani ko‘rmaydi deyishadimi? Ha, ana-ku, ana, turibdi-ku!

O‘rnidan turib o‘tirmoqchi edi, o‘tqizmadim. Hamshira kelgan edi, kislorodli yostiq keltirishga yubordim...

Shu kechadan boshlangan azob-uqubatni asti qo‘yavering!

Soat sayin dori bilan emlardik, kislorodsiz nafas olishi qiyin bo‘lib qoldi. Harorati tobora pasayib borar, uning qalbiga dorilar ta‘sir etmay qo‘ydi. Barmoqlari ko‘m-ko‘k ko‘karib, yuzi oq saqichday oqarib yotsa ham, qiynalgan, emlashdan ilma-teshik bo‘lib ketgan badaniga hamon dori yuborishardi.

Qancha davom etganini bilmayman, juda ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lsa kerak, chunki ilgari men sira ko‘rmagan yangi shifokor palatadan sekin yurib yo‘lakka chiqqanida, ikkinchi kecha bo‘lgan edi. Uchovimiz – men, Sanya, Petya yo‘lakda turar edik. Nima uchundir bizni palatadan chiqarib yuborishdi. Shifokor eshik yonida to‘xtadi-da, keyin biz tomonga qarab keldi.

VIDOLASHUV

Inson vafot etganidan keyin uning ta'rifi juda katta bo'lar ekan. San'at akademiyasida bo'lgan janozada qilingan ta'riflarning yarmisini ham Sasha tirikligida eshitmagan bo'lsa kerak.

Tobut baland joyga qo'yilgandi, gullar shu qadar ko'p ediki, Sashaning rangsiz yuzi gulga ko'milib ketgandi. Ha, uni endi «senlab» gapirardilar. «Ajoyib rassom edi», «ajoyib inson», «ajal umr ipini vaqt-siz qirqdi» va hokazolarni aytdilar. Bu so'zlar, bu nutqlar marhumdan naqadar yiroqda edi.

Mazam yo'q edi, janozaning oxirigacha zo'rg'a turdim. Eng yaqin, qadrdon kishini o'limdan saqlab qolish uchun qilingan harakatlardan keyin qiladigan ish qolmagan edi. Men endi bo'sh edim. Tobut yonida qanday qilib turganimni bilmas edim. Sanya yonimda tursa ham, menga xuddi tuman ichidan ko'ringanday g'ira-shira ko'rinardi. U singlisidan ko'zini uzmay qarab turardi. Xuddi singlisining vafot etganidan jahli chiqqanday yuzi horigan, xo'mraygan ko'rinardi.

U hech tinmadi, tobut buyurdi, mashina chaqirdi, dafn marosimi uchun kerakli harakatlarni qildi, qabristonga borib keldi, meni «Astoriya»ga jo'natdi-da, o'zi butun kechasi Petya bilan birga qoldi. Endi yonida turib, diydoriga to'yib olmoqchi bo'lganday, singlisidan ko'zini uzmay qarardi. Men Petya qalay deb so'ragan edim, tobutning past tomonidagi odamlarni imlab ko'rsatdi, Petya o'shalar orasida edi.

Ko'rinishi yomon emas edi, ammo rangsiz va loqayd (beparvo) yuzi ko'zimga g'alati ko'rindi. U, xuddi bu marosim hozir tugaydi-yu, Sasha yana uning yoniga qaytib, yana olam guliston bo'ladigandek ko'rinardi. Dafn marosimiga kelgan keksa Skovorodnikov uning orqa tomonida turar edi, ko'zidan chiqqan jiqqa yoshlar yuzidan oqib oppoq mo'yloviga tushardi. Keyin yana ko'zim jimirlashib ketdi, janozaning qanday tamom bo'lganini bilmayman.

Sashani qabristonga qo'yib kelganimizdan ikki kun keyin bo'lsa kerak, qariya Skovorodnikov Ensikka qaytadigan kuni, biz bilan xayrlashgani «Astoriya»ga keldi. Sanya anjom-buyumlarni Arxangelskka jo'natuvchi agent bilan band edi, qariya ikkimiz yotoqqa kirdik. Hamma yerda paxtali kiyimlar, qo'lqoplar, qoplar sochilib yotardi... Ekspeditsiya Arktika institutidan Sanyaning turgan uyiga ko'chib o'tgan edi.

Qariyani karavotga o'tqazdim-da, qahva ichirdim.

– Ketasizlarmi? – deb so‘radi u.

– Ha, endi oz qoldi.

Jim qoldik.

– Kechiring, men sizni hali yaxshi tanib olganim yo‘q, – dedi u. – Ammo ta‘rifingizni ko‘p eshitdim, farzandim hisoblagan Sanya o‘z hayotini siz bilan bog‘laganiga ko‘p xursandman. Albatta, boshga tushganni ko‘z ko‘rar, degan... To‘yni birga o‘tkazardik... Taqdir shu ekan-da...

Bir xo‘rsinib oldi-da, yana dedi:

– Taqdir shu ekan... Sashaga g‘amxo‘rlik qilganingizni Petya menga aytdi, chin yurakdan tashakkur bildiraman.

– Darya Gavrilovnaning sog‘lig‘i qalay, – deb so‘radim.

– Butun gap shunda-da: sihati yomon. Shifokorlar turmasin degan. Nafasi bo‘g‘iladi. Sog‘ bo‘lsa-ku, chaqaloqni olib ketardig-a. Petyani ham olib ketardik. Endi olib ketish u yoqda tursin, qanday qaytib borishimni ham bilmayman. Sashaning vafot etganini eshitsa, u o‘lib qoladi. Butun orzu-havasi Sasha bilan Petyada edi.

Patronidan qilingan mis yondirgichni qo‘lida aylantirib o‘tirarkan (juda qadimgi bo‘lsa kerak), nimalarni o‘ylayotganini anglagandim. O‘zim ham, dafn marosimidan Petrograd dahasiga qaytib kelganimda, shuni o‘ylovdim.

Bo‘yalmagan stol endi egasiz qolgan edi, kichkina-kichkina cho‘tkalar, Sasha keyingi vaqtlarda qadimgi zamonnikiga o‘xshatib ishlay boshlagan kichkina rasmlar endi hech kimga kerak emas edi.

«O‘zim o‘lsam-u qo‘rqmayman-a, chaqaloq borligi uchun qo‘rqaman». Shu gapi bilan o‘z o‘g‘lini mening qo‘limga tashlab ketishini bildirganday edi. Agar jon berayotganida o‘zida bo‘lganida edi, buni, albatta, aytardi menga.

KICHKINA PETYA

Iyun oyining o‘rtalarida jo‘nab ketishimiz kerak edi. Shuning uchun chaqaloq bilan atigi ikki hafta birga bo‘lishim mumkin edi. Ammo ikki haftalik chaqaloq bola uchun ikki hafta uncha oz emas. Esimda: Petya ikkimiz uni uyga olib kelish uchun borganimizda, chaqaloqni qo‘lga olish u yoqda tursin, hatto qo‘l tegizishdan qo‘rqar edim. Hamshiraning bolani qanday boqish to‘g‘risida nasihat beraturib, chaqaloqni kaftiga qo‘yib baland ko‘tarishini ko‘rib

qo‘rqib ketdim. Hamshira uni bir qo‘li bilan ko‘tardi. Chaqaloq big‘illab yig‘lab yuborgan edi, hamshira pinagini buzmay:

– O‘pkasi baquvvat bo‘ladi, – dedi.

Har uch soatda shishani qaynatib, sut berib turish, kunora cho‘miltirib turish kerak edi. Hamshiraning nasihatlari shu qadar ko‘p ediki, boshim qotib qoldi. Axir, qo‘rqsam ham chaqaloqni o‘radim-da, qo‘limga oldim. Juda ham ehtiyotlik bilan, avaylab olgan bo‘lsam kerak, hamshira kuldi-da:

– Qo‘rqmang, dadil ko‘taravering, – dedi.

Kechasi ham, kunduzi ham qo‘lim bo‘shamas edi: goh chaqaloqni yo‘rgaklash, goh sutini berish, goh cho‘miltirish kerak edi. Har kuni ertalab va kechqurun kasalxonaga borib sut olib kelardim, xullas, ish ko‘p edi. Ammo ajabo, yaqinda bu cho‘miltirishlar bo‘lmaydi (chaqaloq cho‘milishni juda yaxshi ko‘rardi), Rozaliya Naumovna bilan so‘rg‘ich berish kerakmi, yo‘qmi deb bahslashishlar bo‘lmaydi, deb o‘ylasam g‘alati bo‘lib ketardim.

Boshqirdiston Geologiya boshqarmasi meni bir yilga Arktika instituti ixtiyoriga yuborganligi to‘g‘risida xat yubordi. Meni professor V. o‘z oldiga chaqirdi-da, ekspeditsiyaning geologiya sohasidagi vazifalarini birga muhokama qildik: men ko‘p o‘sal bo‘ldim, chunki u vaqtda shimol geologiyasidan uncha xabarim yo‘q edi-da.

«Mehmondo‘st Arktika»ni qiynalib bo‘lsa ham, axir o‘qib tugatdim: qiynalib bo‘lsa ham deganim shuning uchunki, uni kechalari, mudrab o‘tirgan vaqtlarda o‘qir edim. Ammo nima uchun mehmondo‘st ekan, sira tushunolmadim, menimcha, sira mehmondo‘stga o‘xshamas edi. Har safar qo‘limga kitobni olishim bilan chaqaloq, xuddi mening yaqinda ketib qolishimni bilganday, yig‘lay boshlardi.

Men ketgandan keyin chaqaloqni kimga tashlab ketish masalasini hal qilish kerak edi, bu to‘g‘rida Petya bilan bir necha marta gaplashganimda, u boshini egib, indamay o‘tiraverdi.

– Murabbiyasiz bo‘lmaydimi? – dedi u bir kuni; unga bu uyda begona odamning bo‘lishi og‘ir ko‘rinardi.

Mening undashimga, zo‘rlashimga qaramay, hech narsa yemasdi. Bir kuni ko‘chada shapkasini yo‘qotib kelibdi-da, nuqul uydan qidirdi... Bolasiga bir marta ham qaramasdi, meni hammadan ham hayratda qoldirgan narsa shu bo‘ldi. Ammo bir kuni kechasi sahar vaqtda kitob o‘qib o‘tirib mudrab qolibman, birdan shitir-shitirdan uyg‘onib

ketibman. Qulog'imga «sho'ring qurgur bolam, qo'zichog'im!» degan gap eshilib qoldi.

Petya karavot oldida ko'ylakchang, ko'kragi ochiq holda turar, ko'zlarini katta ochib, uyquda yotgan bolaga tikilib qarardi.

– Nima qilayapsiz, Petya? – degan edim, qo'rqib ketdi-da, karavotdan o'zini nariga oldi. Ko'zlari jiqqa yosh, lablari qaltirardi...

Sanya har kuni kelib turardi, ishidan xursand yo xafaligini bir qarashdan bilardim. Avval ikkimiz uy ichida o'tirib gaplashardik, keyin u dahlizga chiqib tamaki chekardi, zerikmasin deb men ham orqasidan chiqardim.

Bir kuni chaqaloq yig'lab qoldi-da, uni karavotdan olib, uy ichida allalab yurdim. Buni ko'rib, Sanya:

– Qiziq, – dedi.

– Nima – qiziq?

– Hech nima. Xuddi mehribon onalarning o'zisan.

Qizarib ketganimni bilaman. Sanya kuldi-da, chaqaloq ikkimizni bag'riga bosdi.

– Nima qilishimni bilmay qoldim, – dedi boshqa safar kelganida; o'zi juda charchagan, xafa ko'rinardi. – Shuncha qildim – pulni oz berishdi. Pul oz, shuning uchun vaqt ham oz.

– Vaqtning nima aloqasi bor?

– Arzimagan narsa ustida olaymi, olmaymi, deb soatlab bosh qotirib o'tirasan. Hammasi hisob-kitob bo'limi orqali o'tishi kerak, jin ursin.

Xafa bo'lganda pastki labini tishlaydigan bo'libdi. Hozir ham labini tishlab o'tirardi.

– Shunaqa muttahamanni berib qo'yishgan degin!

Muttaham degani – o'z qo'lida ishlovchi agent edi, eng kerakli narsalar o'rniga boshqa narsalarni olib kelar ekan.

– Menga sen qarasholmaysanmi? – davom etdi u. – Bilaman, bandsan. Juda bo'lmasa, hisob-kitoblarga qarashib yuborin! Xudo ursin, safarga jo'nab ketmasimizdan oldin meni qamab qo'yishadi deb qo'rqaman.

Ertasi kuni Rozaliya Naumovnaga chaqaloqni qay vaqtlarda ovqatlantirish, sutga qachon borish va hokazolarni yaxshilab tayinladim-da, «Astoriya»ga bordim, u yerda kechasi ham yotib qoldim. Ertasiga ham o'sha yerda qoldim, chunki qaragam, Sanya mensiz xarob bo'larkan. Bir daqiqa ham nomerni tashlab chiqish mumkin emas edi, har damda telefon jaranglab turardi.

TUNGI MEHMON

Ch. bilan soʻzlashgan vaqtimda u, gap orasida «Shimolga maftun boʻlish kerak» degan edi. Endi Sanyaga ekspeditsiyani hozirlashda qarashar ekanman, bu gapning maʼnosiga tushundim. Sanyaning oldiga «shimolga maftun boʻlgan» odamlarning kelmagani kuni yoʻq edi. Ular orasida P. degan eski bir rassom, Sedovning doʻsti va yoʻldoshi bor edi. Sanyaning maqolasi «Pravda»da bosilib chiqqanida, uni qizgʻin tabriklagan edi. Oʻsha P. degan rassom keyinchalik, «Avliyo foka»ning katta yerga qaytib kelayotganida, Flora burunidan shturman Klimovni kemaga solib olgani haqida oʻz esdaligini ham bostirib chiqargan edi.

Sanyaning oldiga oʻsmir bolalar ham kelardi, ular «Paxtusov»ga juda boʻlmasa oʻtyoqar yo boʻlmasa oshpaz shogirdi qilib tayinlashni soʻrab yalinar edilar.

Oson yoʻl bilan nom-shuhrat chiqarishni orzu qiluvchi kishilar, Arktikani moʻjizalar koni deb tasavvur etgan xolis xayolparastlar ham kelardi.

Shu kishilar orasida bir kuni bir kishi ham keldi; hozir ham, ahvol butunlay oʻzgarib, ilgari tashvish va hovliqishlar koʻzimga bachkana koʻringan chogʻda ham, u odamni eslab turaman. U, xuddi tushimga kirib chiqqanday, bir koʻrindi, yoʻq boʻlib ketdi, hatto uning ismi nima, Sanya u bilan qayerda tanishgan, koʻp vaqtgacha bilmay yurdim. Ammo kelib-ketganida kelajak, hatto yaqin kelajak birdan koʻz oldimda gavdalanib ketdi. Xuddi bir daqiqa oldinga, kelajakka koʻz tashladim-u, yuragim siqilib, badanim jimirlashib ketdi...

Sanya kelavermaganidan keyin, oromkursiga oʻtirib oldim-da, uxladim. Uygʻonib qaragam, begona bir kishi oʻtiribdi. Oʻtirgan kishi harbiy dengizchi edi, martabasi qandayligi esimda yoʻq hozir. Sanya stolda turli xil rasmlar chizib oʻtirardi, u odamning oʻzi epchil, koʻzlari shoʻx edi, boshida kazaklarnikiga oʻxshagan kokili bor edi, uying u yogʻidan bu yogʻiga yurib turar edi.

Ular jiddiy bir masalani muhokama qilishardi, men darrov koʻzimni yumdim-da, oʻzimni uxlaganga soldim. Shunday paytda oʻzingni uyquga solsang, maza qilasan, bemalol gapni eshitib oʻtirasan, turib tanishishing ham kerak emas, sochlaringni tarashing ham, kiyinishing ham kerak emas.

– Kapitan Tatarinovni qidirish «Glavsevmorput»ning asosiy vazifalariga sira aloqasi yoʻqligini isbot etishdan oson gap yoʻq.

Bu – mutlaq ahamiyatsiz narsa, Franklinni qidirilganligini esga olish kifoya. Umuman, odamlarni qidirish kerak, bu geografiya xaritasini mukammallashtiradi. Ammo mening gapirganim – boshqa narsa.

«Boshqa narsa» degani – urush degani, Arktikada, Barents va Karsk dengizlari bo'yida urush bo'lishi mumkin, degani edi.

Qo'liga qalam olib, Kolsk yarimorolidagi foydali ma'danlarning miqdorini sanab chiqa boshladi, bunisi mening sohamga tegishli edi. Ammo o'sha tungi mehmon okeanit va apatitlarni kelajak urushda kerak bo'ladigan «strategiya xomashyosi» deb hisoblardi, ammo men unga ichimda e'tiroz bildirdim, chunki urush bo'lishiga ko'zim yetmasdi.

– Kapitan Tatarinov har bir qutb ekspeditsiyasining asosiy maqsadi ortida harbiy fikr borligini bilgan, bunga aminman.

«Albatta bilardi, – dedim men ichimda. – Ammo urush bo'lmaydi».

– ...Karvonlarimiz bosib o'tadigan yo'lning har yeriga harbiy bazalar qurish kerak... Masalan, men bo'lsam, Yangi Yerga, uzoq masofaga otadigan batareya qurardim...

«Katta ketding-ku! – dedim ichimda. – Kimga qarshi urush ochar edingiz? Oq ayiqlarga qarshimi?»

Ammo u hamon gapirardi; oyoqlarini yig'ishtirib o'tirib olgan, Sanya ko'zimga chiroq tushmasin deb, lampani dasturxon cheti bilan berkitib qo'ygan tungi musofirxonadan birdan ko'zimga xaroba holga kelgan, g'alati shahar ko'rinish ketdi. Shahar jimjitmish, dahshatli, mudhish jimjitmish, hamma shivirlab gapirarmish, allanima bo'lishini kutarmish, pastga, zax yerto'laga tushib berkinish kerakmish. Men tushmashman, bo'shab qolgan, huvillab yotgan yog'och uyning eshigi qarshisida turganmishman-da, tepamni ochiq va sirli osmon qoplaganmish. Sanya qayerda, dermishman. Yulduzlar ostida, bepoyon fazoda samolyot uchib yurganmish, motori buzilganmish, qanotlari muzlab, og'irlasha borarmish. Qutulishning iloji yo'qmish. Motori hamon so'nib borarmish, mashina chayqalarmish, yiroqda qolib ketgan stansiyalar xavfga tushib qolganmish...

– To'g'ri, buning hammasi tarix! – dedi dengizchi birdan. Men uyg'onib ketdim-da, sevindim, chunki bu tushim ekan. Yaqinda ikkimiz birga Shimolga jo'nab ketamiz, ana, Sanya – charchagan, aqlli Sanya, men sevganim, sira ajralolmaydigan Sanyam yonginamda turibdi.

– Ammo «Glavsevmorput»da tarix hech kimni qiziqtirmaydi-da! Juda bo'lmasa, katta Sovet ensiklopediyasidagi maqolani o'qishsin! Aytmoqchi, o'sha maqolada Mendeleevning qiziq so'zlari keltirilgan. Quloq soling-a, men o'qib beraman. Ajoyib gaplar!

Dengizchining tili chuchuk edi. U, Mendeleevning mashhur so'zlarini o'qib berdi (bu so'zlarni bir vaqtlar otamning qog'ozlarida ham uchratgan edim): «Tsusimada boy berganimizning loaqal o'ndan bir qismini qutbga yetish ishiga sarflaganimizda edi, eskadramiz nemis dengizi va Tsusimadan o'tmasdan, boshqa yo'l bilan Vladivostokka yetib olgan bo'lardi».

Dasha xola Sanyadan:

«Xo'sh, Sanya, umr safaring qalay?» deb so'rashni yaxshi ko'rar ekan, buni menga Sanyaning o'zi aytib bergan edi. Kursida o'tirib, o'zimni uxlaganga solib, otashni, tili chuchuk, kazaklarnikiga o'xshagan kokilli tungi mehmonga bildirmasdan qarab o'tirarkanman, mening «umr safarim» bir kunmas bir kun Sanyani shu odamning uyiga olib borib qo'yishini bilarmidim? Agar o'shanda birov, Sanyaning meni sog'ingan, azob chekkan va keksayib qolgan Sanyaning uning bo'shab, huvillab qolgan uyida zoriqib o'tiradigan vaqti keladi, desa yuziga qarab turib kulib yuborardim.

Ammo nima bo'lishini oldindan bilishga tirishmayman. Agar odam o'zining «umr sayohati»ni oldindan bilsa, ularning qizig'i qolmas edi.

YOSHLIK DAVOM ETADI

Axiri ozoda, to'ladan kelgan enaga topildi. Qirq yillik tajribasi bo'lgan bu ayol enaga emas, balki Bernshteynlarning aytishicha, «professor» edi. Enaganing ketidan qorovul kattakon sandiq ko'tarib kirdi. Enaga shu sandiqdan oppoq fartuk, qalpoq va eski suratni chiqardi. Suratdagilar enaganing ota-onalari hamda qaqqayib va baqrayib o'tirgan etti yashar qiz uning o'zi edi.

Enaga fartuk bilan qalpoqni kiyib bo'lgach, suratni Petya Rozaliya Naumovnaga bergan rasm o'rniga osib qo'ydi. Shundan keyin uyda xo'jayin kim ekanligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ldi. U menga, «fan qoidalariga muvofiq, chaqaloqning o'ziga maxsus idish-tovog'i, ko'rpa-yostig'i, karavoti, doim nazorat qilib turuvchi shifokori bo'lishi kerak, ammo Xudoga shukur, shuncha yildan beri men karavotsiz ham, shifokorsiz ham, idish-tovoqsiz ham o'stirib

kelganman», dedi. Bernshteynlar uning gapini mahliyo bo‘lib eshitib turishar edi. Ular undan bir oz hayiqishsa kerak, men hayiqmasdim. Aslini surishtirganda, u mehribon, soddadil kekxa ayol edi, o‘z hunarini dunyodagi hunarlardan eng muhimi deb bilar edi.

Biz Sanya bilan kuzda qaytib, kichkina Petyani va Darya Timofeyevna (enaga)ni Moskvaga olib ketmoqchi bo‘ldik. Katta Petyaning ishi chatoq edi. Axir bir kuni Sanya uni o‘zinikiga boshlab olib borib, meni uydan chiqarib yubordi-da, eshikni ichidan qulflab, kechasigacha ikkovlari yolg‘iz qolishdi. Nimalarni gapirishgani ni bilmadim, ammo men kechasi soat ikkilarda qaytib kirganimda, ikkovining ham ko‘zlari qizargan edi (tamakidan bo‘lsa kerak), uyning ichini tutun bosib ketgan, derazaning darchasi nimagadir berk edi.

– Axir, yashash ham kerak-da, do‘stim, – dedi Sanya asta-sekin, men kirganimda. – Farzanding bor qo‘lingda. Hamma narsani aql tarozusiga solib o‘lchab ko‘r-da, yaxshilab o‘yla!

Petya og‘ir uh tortdi.

– Aytganingni qilaman, – dedi u. – Sizlar xavotir bo‘lmanglar, bolalar. Rost aytasan, o‘tmishni qaytarib bo‘lmaydi...

... Ekspeditsiyaning asosiy qismi anjomlarini belgilangan mudatda tayyorlab yetqiza olmagan edi; bizniki allaqachon tayyor, hatto Arxangelskka jo‘natilgan edi. Natijada, bir necha kun qo‘lim bo‘shab qoldi. Sanya hamon ertadan kechgacha Arktika institutida qolib ketardi. Shu qolgan ikki-uch kun ichida Leningradni aylanib tomosha qilmoqchi bo‘ldim.

Bolalarning Mis otliq haykali ustiga chirmashib o‘tirishlariga qarab turar ekanman, agar men Leningrada tug‘ilsam yoshligim butunlay boshqacha bo‘lardi. – Boltiq dengizida o‘tardi deb o‘ylardim. «Kashfiyotlar asri»ni men xuddi shu erda, Leningrada o‘qishim kerak edi, deb xayol qilardim.

Pushkinning kvartirasini, Petrning gollandcha qurilgan uyini, yozlik bog‘ni borib ko‘rdim.

Nevada kemalar turardi, bir kuni Senat* yonida matroslarning qirg‘oqqa tushishganini tomosha qilib turdim. Signalchi daryo bo‘yidan turib kichkina bayroqchalar bilan allanimalarni tushuntirardi, u yerdan, kemadan ham unga bayroqchalar vositasi bilan javob berishardi. Havo

* *Senat* – Leningrada, Neva bo‘yida qad rostlagan hashamatli bino. Senat inqilobdan ilgari hukumat idorasi edi.

ochiq, quyosh yog‘du sochardi, shu qadar tantanali, maroqli, olam shu qadar keng ko‘rinar ediki, ko‘zlarim beixtiyor yoshga to‘lib ketdi.

Leningradda ko‘p yig‘lagim kelardi (yurak ham sevinch, ham qayg‘u-alamga to‘lib ketgandi), bu ajoyib, bag‘rikeng shaharda bir xil bo‘lib kezib yurardim. Bu baxtli va mungli kunlarning ketidan nima kelishini o‘ylamasdim.

Albatta, mening yuragimda bir narsalar bo‘layotganini Sanya bilar edi. Ammo nazarimda, mening bunday bo‘lishim, hatto nomerga ovqat keltirgan qizga rashk qilishim unga yoqqanday ko‘rinardi.

Birdan miyamga sira kutilmagan fikrlar kelib qolardi. Ba‘zan ko‘chaga chiqishim bilanoq darrov uyga qaytib kirardim. Sanya-ning uydami, uydamasligini portyedan so‘rab bilish mumkin bo‘lsa-da, men zinadan chiqib boraturib, Sanya uydami yo uydamasmi deb tussmollardim.

Bularning hammasi tentaklik edi, albatta, ammo o‘zimni hech bosib ololmasdim. Hamma ishning tamoman yaxshi bo‘lishi uchun yolg‘iz mening xohish-istagim kamday, yana allaqanday g‘ayrioddiy, afsonaviy kuch kerakday...

...Ertaga jo‘naymiz degan kun kechasi sira esimdan chiqmaydi. Kechqurun Petrograd dahasiga borib keldim. Borsam, kichkina Petyani endi cho‘miltirib, uxlatishgan ekan. Enaga boshiga oppoq qalpoq, ustiga fartuk kiyib, sandiqda paypoq to‘qib o‘tirardi.

Men unga so‘nggi marta nasihat qilgandim, u:

– Graflarni boqib katta qilganmiz, – dedi mag‘rurlanib.

Tajribali enagadan ko‘p bemaza ishlar kelishi mumkinligini o‘ylab, qo‘rqib ketdim, birrov bolaga qaragan edim, bu xayol darhol yo‘qoldi. Chaqaloq oppoq, top-toza, o‘rni chinnidek yotardi.

Katta Petya bilan Bernshteynlar bizni kuzatgani vokzalga chiqishmoqchi edi.

Uyga qaytib kelsam, Sanya uxlab yotgan ekan. Gilamda pullar sochilib yotgandi, yig‘ishtirib olib qo‘ydim-da, Sanya-ning ertaga qilishi kerak bo‘lgan yumushlar ro‘yxatini o‘qib o‘tirdim.

Tun bo‘lsa ham, nomerning ichi yorug‘ edi, Sanya pardani berkitmagan edi. Ko‘ylagimni yechib, yuvindim, ustimga xalat kiyib oldim. Yuzlarim qizib ketgan, uyqum kelmasdi, aksincha, ko‘nglimda Sanya uyg‘onsaydi, derdim.

Telefon jarangladi, go‘shakni oldim.

– Uxlab yotibdi.

– Ko‘p bo‘ldimi uxlaganiga?

– Endi uxлади.

– Undoq bo‘lsa, uyg‘otmang.

O‘zim ham uyg‘otmas edim! Qo‘ng‘iroq qilgan V. edi, tovushidan tanidim, zarur ishi bo‘lsa kerak, bo‘lmasa kechasi qo‘ng‘iroq qilarmidi. Baribir, Sanyani uyg‘otmaganim yaxshi bo‘ldi. U divanda yechinmasdan uxlab yotardi. Uyquasi ham bezovta edi, lablari qimirlardi.

Qani endi, o‘zi uyg‘onsa! Qizib ketgan yuzlarimni ushlab uy ichini kezib yurardim. Bu uy – yot uy, ertaga bu yerda boshqa odamlar turadi; u minglab boshqa uylarga o‘xshardi: ko‘k reps qoplangan divan, popukli pardalar, ustiga oyna qo‘yilgan kichkina yozuv stoli; baribir, bu bizning birinchi uyimiz edi, unga to‘yib qarab olay derdim.

Devorning narigi yog‘idan skripka ovozi kelardi: skripka anchadan beri chalinar edi-yu, men endi quloq sola boshladim. Skripkani ozg‘in, malla bashara bir bola chalardi. U mashhur skripkachi bo‘lib, uni menga mehmonxonaga kiraverishda ko‘rsatishgan edi. Uning bizning yonimizda yashashini bilardim.

U, butunlay boshqa narsani Sanya turmush o‘rtog‘im-u, men Sanyaning rafiqasi ekanligimizdan kelib chiqqan g‘alati va baxtli hissiyotni emas, balki maktabdagi o‘quvchilik davrimizni, yoshlikdagi uchra-shuvlarimizni kuylardi.

Ko‘zimga xunuk ko‘ringan malla bola: «Yoshlik davom etadi... Qayg‘u ketidan shodlik keladi, ajralishdan keyin diydor ko‘rishish. Esingdami, ichingda uni topinglar deb buyurganing? – ana, sochlari oqargan, sarvi qad turibdi, hayajondan, baxtdan yurak qinidan chiqib ketay deydi. Ertaga – safarga ketasizlar, hammasi sen aytganingdek bo‘ladi. Istiqboling porloq, chunki biz ishongan ertaklar hali ham yashaydi bu dunyoda» deb kuylardi.

Men yerdagi gilamga yotib, shu kuyni eshitib yig‘lardim, nega yig‘layman deb o‘zimni o‘zim koyirdim. Ammo yig‘lamaganimga ham ancha bo‘lgan edi, o‘zimni yig‘lashni bilmaslikka solib yurardim...

Soat oltidan o‘tganda Sanyani uyg‘otdim (o‘zi uyg‘otib qo‘y degan edi), «kechasi V. qo‘ng‘iroq qildi», dedim.

– Mendan xafamisan?

– Nega?

U uyqudan ko‘zini ocholmay, divanda goh bu ko‘zi, goh u ko‘zi bilan menga qarab o‘tirar edi.

– Uygʻotib qoʻymaganimga.

– Xafaman, – dedi-da, kuldi. – Yosharib qolibsən. Kecha V. yoshi nechada dedi, men oʻn sakkizda dedim.

Soʻngra u vannaga kirib yuvinib chiqdi-da, badantarbiya qila boshladi. U meni ham badantarbiya qilishga majbur qilardi, ammo men mashqlarni boshlab, darrov tashlab qoʻyardim. U esa har kuni erta va oqshom kanda qilmas edi.

V. ga qoʻngʻiroq qilish hali erta desam ham, Sanya paxmoq sochiq bilan koʻkragini artgani holda telefon yoniga keldi. Men bir ish qilayotgandim, ha, qahva qaynatyapman. Sanya V. ni chaqirdi. Keyin ovozi bir xil boʻlib ketdi-da, «Nima?» deb soʻradi. Oʻgirilib qarasam, yelkasidagi sochiq yerga tushib ketgan, oʻzi oppoq oqarib, qimir etmay turardi.

– Yaxshi, men shoshilinch telegramma beraman, – dedi-da, goʻshakni qoʻydi.

– Ha, nima gap?

– Bilmadim, oʻzim ham tushunolmay qoldim, – dedi Sanya, yerdan sochiqni olib. – V. kechasi telegramma olibdi, qidirish ekspeditsiyasi qoldirilibdi. Men darhol Moskvaga, Fuqaro Havo floti boshqarmasiga borib, yangi ishga ketishim kerak emish.

«QOʻLINGDA CHAQALOQ...»

Sanya menga bir kuni «butun umr shunaqa: hamma ish yaxshi boʻlib keladi-yu, qarasang birdan oʻzgarib, charxpalak boʻlib ketadi» degan edi. Ammo bu safar ish charxpalakdan ham battar boʻlib ketgan edi.

Albatta, hozir urushdan ilgari orzu-havaslarimiz, turmushimiz, qaygʻu va sevinchlarimizning oʻrniga yangi, ming chandon kuchli his va tuygʻular bosgan bir mahalda, oʻsha muvaffaqiyatsizlikning Sanyaga qattiq taʼsir qilgani gʻalati koʻrinadi. Bu taʼsir shu qadar kuchli edi-ki, hatto u, turmushga boshqacha qaraydigan boʻlib qoldi.

– Tamom, Katya, – dedi u, V. ning oldidan tajang boʻlib qaytib. – Shimol, ekspeditsiya, «Bibi Maryam» – bularni eshitishga ham toqatim yoʻq! Bularning bari bolalar ertagi, bularni unutish kerak.

Garchand u bularni sira unutmashligini bilsam-da, unutishga vaʼda berdim.

Sanya Moskvaga borib buyruqni bekor qildirar degan kichkina umidim bor edi. Biroq undan kelgan telegramma bu umidni uzdi. Telegrammani u Moskvadan emas, Saratovdan yuborgan edi. Uning yangi ishga tayinlanishining o‘zi ekspeditsiyaning barbod bo‘lganini tasdiqlar edi. U qishloq xo‘jalik aviatsiyasiga (maxsus aviatsiya deb atalardi) ko‘chirilgan edi. Uning qiladigan vazifasi – bug‘doy sochish va ko‘lmak suvlarga dori sepishdan iborat edi. «Juda soz, meni kim deyishsa o‘shaman, – deb yozgandi birinchi xatida, xatni u bir jamoa xo‘jaligidan yozgan edi, o‘z ishini mahalliy ma’murlar bilan «bog‘lash» va «moslash» uchun ikki haftadan beri o‘sha xo‘jalikda turib qolgan ekan. – Yo‘qolsin, quruq xayollar! Rost, hammasi quruq xayol edi! Ammo Ch. ning gapi ham rost edi, – bo‘lsang, eng yaxshisi bo‘l. Meni hafsalasi pir bo‘ladi deb o‘ylama tag‘in! Istiqbolimiz bor hali».

«Bo‘lgan gaplardan juda bo‘lmasa bizning bir-birimizni topishimizga va sevishimizga sababchi bo‘lgani uchun minnatdor bo‘laylik, – deb yozardi ikkinchi xatida. – Ammo men, vaqti kelib, bu eski va shaxsiy adovatlarning ahamiyatiga boshqalarning ham tushunib qolishiga aminman».

«Don sepuvchi», «chigirtka ofati» roliga ko‘nikib borishini tanqid ruhida yozardi. Ammo bu ish uni qiziqtirgan bo‘lsa kerak, chunki ko‘p o‘tmay undan butunlay boshqacha mazmunda xat oldim.

«Qimmatli kampirim, – derdi u, – dunyoda parijskaya zelen degan dori bo‘larkan, ko‘l ustiga har kilometriga o‘n bir kilogrammdan sepilar ekan. Bu ishni usta uchuvchi bo‘lmasang, bajarolmas ekansan, chunki o‘rmon ichidagi bu kichkina ko‘llar hammasi bir-biriga o‘xshar ekan. Bir ko‘lning ustiga tez uchib kelasan-da, tikka sho‘ng‘ib, yana tikka uchib ketasan. Qiziq, a? Ajabo, shu ko‘llar ustida sho‘ng‘ib yurganimda yoki pastlab uchib bug‘doy sochganlarimda, miyamga butunlay boshqa fikrlar keladi. Bir kunda yuz yigirma besh marta qo‘nishga to‘g‘ri keladi, – samolyotimga parijskaya zelen emas, undan og‘irroq va muhimroq yuk ortilganda bu kerak bo‘ladi. Ishqilib, yomon emas, kelganimga achinmayman. Seni quchog‘imga bosdim. Qo‘lingda chaqaloqni ko‘tarib, uni allalab yurishing, soching yozilib ketib, oldimga kelib cho‘kka tushganing, sochingni yig‘ishtirib qadab qo‘yganim ko‘z oldimda...»

Kichkina Petyani ko‘tarib yurishimni tasavvur etishi bejiz emas edi, hamma bo‘sh vaqtimni chaqaloqqa bag‘ishlardim. U kun sayin o‘zgarib

borardi; meni, Rozaliya Naumovnani, enagani taniy boshlagani, hech narsaga aqli yetmaydigan ko'zlarida hayrat, diqqat alomatlari paydo bo'lishidan odam maroqlanardi. U lampaga qarab turganda, birdan o'chirsa yig'lab yuborardi. Oldiniga u o'z qo'llaridan qo'rqardi, keyin qo'rqmaydigan va tomosha qiladigan bo'lib qoldi. Uning tengi boshqa bolalar nimjon, injiq bo'lardi, u bo'lsa xuddi dunyoga kelganidan xursandday, xushchaqchaq edi. Menimcha, u Sanyaga juda o'xshardi. Tug'ilganida boshining tepasida bir siqim soch bilan tug'ilgandi, endi sochlari o'sib, bejirim va chiroyli bo'lgan edi...

Umid, orzular unmad! Men Sanya bilan ko'rishmoq, u bilan sira ajralmas bo'lib yashash uchun Leningradga kelgan edim, ana endi u yana mendan yiroqda, allaqayerlarda. Kutilmagan holda oilali bo'lib qoldim – kichkina Petya, katta Petya, enagalar va ularning g'amini yeyish ham menga qolgan edi.

Sanyaga Shimolni unutishga va'da bergan bo'lsam-da, nima uchundir Shimol geologiyasi bilan hamon shug'ullanardim. Puldan qiynalib qolgan edim, shuning uchun geologiya institutidan ish olgandim.

Ilgari shunday bo'lsa ko'p qiynalardim, o'zimni o'zim koyirdim. Ammo nechundir men sokin va xotirjam edim. Xuddi «bolalar ertagi» bilan birga o'zimning mag'rurligimdan, umid va orzularimdan ajralganday sezardim. Sanya bir xatida «seni Leningradga olib kelib tashladim, buning ustiga butun boshli oila berib qo'ydim» deb yozgan edi. «Ilojimiz qancha, jonim! Keksa sudya aytganidek, hayotda hech narsani avvaldan bilib bo'lmaydi» deb yozdim, uning shu xatiga javoban.

Men unga uzundan-uzun xatlar yozib turardim, – «ilmiy» enaga haqida, kichkina Petyaning o'sib katta bo'lishi katta Petyaning birdan ishga qiziqib berilib ketgani, Pushkin haykali loyahasining yaxshi chiqqani haqida yozardim...

Ammo bir kuni 25-oktabr ko'chasidagi «Gastronom»ga bir narsa olgani kirganimda, derazaning narigi tomonida kulrang palto va yumshoq shlapa kiygan odamni ko'rganimni yozmadim...

Qosh qoraygan edi, yanglishgan bo'lishim mumkin. Yo'q, Romashovning xuddi o'zi. Rangi oqargan, oldinga bir oz bukchaygan Romashov do'kon yonidan o'tdi-da, odamlar orasida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

BESH YIL

Bir she'r o'qigandim, o'sha she'rda yillar «aqlda tortilgan vaqt ipiga osilgan» fonuslarga o'xshatilgan edi.

Ba'zi fonuslar chaqnaq, yarqirab yonadi, boshqalari esa, sasib, qorong'ida tutab yonadi.

Biz Qrimda va Uzoq Sharqda turamiz. Men – uchuvchining rafiqasiman, Qrimda ham, Uzoq Sharqda ham uchuvchilar ayollaridan ko'p o'rtoq orttirdim... Otryadga yangi mashinalar kelganda men ham ular kabi xavotirlanaman. Sanya osmonga uchib ketib, vaqtida qaytib kelmasa, men ham ular kabi otryad shtabiga tinmay qo'ng'iroq qilib navbatchining joniga tegaman. Men ham ular kabi, turmush o'rtog'imning kasbiga hech ko'nikolmayman deyman-u, ammo ular ko'nikkani kabi, men ham axir ko'nikaman. Sira iloji bo'lmasa-da, hamon geologiya bilan shug'ullanaman; keksa professor (hali ham meni «qizcha» deb chaqiradi) menga: «Agar turmushga chiqmaganingda, allaqachon fanlar kandidati unvonini olgan bo'larding» deydi. 1936-yilning kech kuzida Uzoq Sharqdan Moskvaga qaytib, Sanya bilan birga bajargan yangi ishimni ko'rsatganimda, bu so'zlarni aytganiga afsuslandi. Aeromagnet razvedkasini qilgan edik! Aeroplanda uchib yurib, temir rudalarni qidirdik.

Ivan Pavlovich endi menga: «Sen uni yaxshi bilmaysan» deya olmas edi. Huvillab yotgan va tashlandiq uyda kechalari sirli olov yonib, darcha tirqishlaridan olov shu'lalari yaltillab, qutb yulduzlarining shu'lasi miltillab ko'rinardi. Darchalar berkitib tashlangan. Ammo ularning tirqishidan yorib chiqqan shu'lalar, goh bir-birimizni yo'qotgan, goh yana topishgan yo'limizni yoritadi.

– Sanya, sening kimligingni endi bildim.

Biz Vladivostok bilan Moskva o'rtasida qatnaydigan poyezdning xalqaro vagonidamiz. Ajabo, o'n kecha-yu, o'n kunduz birgamiz: bir dasturxondan nonushta qilamiz, ovqat yeymiz. Bir-birimizni kunduz kunlari ham ko'ramiz, ba'zi ayollarga bu hodisa ajab ko'rinmasmish.

– Kim ekanman?

– Sayyoh.

– Rost aytasan, Vladivostok – Irkutsk, Primor aerodromidan uchiladi, uchish vaqti soat etti-yu qirq to'rt minut.

– Gap bunda emas. Seni yuborishmaydi. Ammo baribir, sen tug‘ma sayyohsan. Bugun tushki ovqat vaqtida yegan baliqning yoshi nechada ekan, degan gapni faqat sayyoh odam aytishi mumkin.

Sanya kuladi.

– Faqat sayyohlar qog‘ozbozlikni yomon ko‘rishadi. Faqat sayyohlar gul berganda tortinadi, uyaladi. Faqat sayyohlar hushtak chalishni yaxshi ko‘rishadi, faqat sayyohlar har kuni ertalab ayollarini yigirma to‘rt mashqdan iborat gimnastika qilishga majbur etib qiynaydilar.

– Sovuq suv bilan badanni artish bu hisobga kirmaydi.

– Ha. Faqat sayyohlar qarimaydi.

– Men qarib qoldim.

– Bilasanmi, men doim har bir odamning o‘ziga xos mijozi bor, deb o‘ylardim. Birov yoshligidayoq qirq yashar odamga o‘xshab qoladi, ba‘zilar esa, o‘la-o‘lgunicha o‘n to‘qqiz yashar o‘spirin bolaliklaricha qolaveradilar. Ch. – shunaqalardan, sen ham. Umuman, uchuvchilarning ko‘plari shunday bo‘ladi. Ayniqsa, okeanlarni uchib o‘tuvchilari shunday bo‘ladilar.

– Seningcha, men okeanlarni uchib o‘tuvchilardanmanmi?

– Ha. Okeanni uchib o‘tganingdan keyin meni tashlab ketmaysanmi?

– Yo‘q. Ammo meni yarim yo‘ldan qaytarishadi.

Men indamayman. «Meni qaytarishadi», – bu butunlay boshqacha gap, bu – otamning Ensksdan to Taymirgacha sochilib ketgan va Sanya to‘plab, jam qilgan hayotining begonalar qo‘liga tushib qolishi degan gap edi. Kapitan Tatarinovning rasmi geografiya jamiyatida ham, Arktika institutida ham osig‘liq turadi, shoirlar unga o‘z she‘rlarini bag‘ishlaydilar; Katta sovet ensiklopediyasida N.T. imzosi bilan uning to‘g‘risida katta maqola bor. Uning sifati Sedov, Rusanov, Tollarning sayohatlari bilan bir qatorda, Arktikani ruslar tomonidan egallash tarixiga kiradi...

Uning nomi qancha baland ko‘tarilgan sari, uning tog‘asi, «Bibi Maryam» ekspeditsiyasi uchun butun bisotini sarf qilgan, butun umrini ulug‘ kishining tarixini yozishga sarflagan, shuning uchun ham qutbchi – olim tog‘asining nomi ham birga qo‘shib aytiladi.

Nikolay Antonovichning xizmatlari ravnaq topdi. Uning «Muz dalalarida» nomli kitobi bolalarga va kattalarga atalib har yili bosib chiqariladi. Gazetalarda uning raisligi ostida o‘tgan allaqanday «il-

miy kengashlar» haqida maqolalar chiqadi. «Ilmiy kengashlar»da u nutqlar soʻzlaydi, bu nutqlarda men, eski bahslarning yuzi juda oppoq ayolni sovuq hovliga olib chiqib, oʻz uyidan abadiy olib ketilgan kuni tamom boʻlganini sezaman. Yoʻq, u bahs hali tugamagan! Keksa olimning oʻz kitoblarida nuqul, kapitan Tatarinovning halok boʻlib ketishiga «sanoatchilar», jumladan, fon – Vishimirskiy degan odam sababchi deb aytaberishi bejiz emas-da! Keksa olimning, bir vaqtlar uning sirini ochgan maktab bolasini yolgʻonchilikda ayblash uchun keltirgan dalillarini hali ham ishlatishi bejiz emas-da!

Maktab bolasi hozir indamay yuribdi. Ammo vaqti kelib qolar.

U indamay, kecha-yu kunduz ishini bilib qilib yuribdi. U Volga boʻylarida hovuz va koʻlmak suvlarga dori sepadi. U Irkutsk bilan Vladivostok oʻrtasida pochta tashiydi, Moskva gazetalarini Vladivostokka ikki kunda yetkizsa – terisiga sigʻmay sevinadi. Unga ikkinchi toifali pilot nomi berildi va u Shimolga yuborishlarini soʻrab ariza berganda, javob oʻrniga Simferopol bilan Moskva oʻrtasida osmon izvoshchigi qilinganda uning emas, mening achchigʻim chiqadi. Uning yoʻliga har safar koʻndalang boʻlib tushadigan sirli soya kimniki ekan? Bilmadim. Uning oʻzi ham bilmaydi.

U tinmay ishlaydi, uning ishini maqtaydilar. Ammo uning bu bir xil va jonga tegadigan safarlardan qanday charchaganini faqat men bilaman...

– Qaysi kuni eski yon daftarimni topdim. Bilasanmi, birinchi betida nimalar yozilgan?

Kemaning oppoq va bezatilgan sahnidamiz, ustimizda oq koʻylak. Sanya – taʼtilga chiqqan, uning taʼtilga chiqqaniga xursandman, ikkimiz birdan Sevastopolga bormoqchi boʻldik.

– Uning kemasining nomi – «Olgʻa». U haqiqatan olgʻa intiladi. «Amundsen haqida Nansen» oʻn toʻrt yoshimda shuni oʻzimga shior qilib olgan edim. Yaxshi-ya? Mana hozir ham olgʻa, ham orqaga. Moskva – Simferopol.

...Fonus goh yonib, goh oʻchadi, uning miltillagan shuʼlasi goh qaygʻu-alamni, goh shodlikni yoritadi. Vaqt toʻxtamay yelib boradi va faqat Sanya oʻz hayotini aytib berganida, bir kechagina toʻxtaydi. Bu gap Tatar posyolkasidagi uchuvchilar bogʻida boʻladi. Bogʻ tepalik bagʻriga qurilgan, yoʻl va yoʻlkalar pastga qarab chopishib, chakalakzordan oʻtib, dengiz boʻyiga borib toʻxtaydi. Boqqa kiruvchi uchuvchilarning oyoqlari ostida shagʻal gʻijiraydi. Birdan shamol turib, Ay-Vasil bogʻlaridan olcha va olma gullarini uchirib keladi. Bu yerda

ochiq partiya majlisi, tom ma'nosi bilan ochiq majlis bo'layotir – sahna oldidagi maydonchada, janubning tez qorong'ilashadigan osmoni ostida...

Sanya shoshmasdan, bafurja gapiradi, ammo hovliqib tez gapirib ketganda o'zini bosib olish uchun to'xtam qilganlarida, uning yuragida nimalar kechayotganligini faqat men bilardim. U hayajonlanardi.

Sanyani tinglar ekanman, esimizdan chiqayotgan yoshligimiz ko'z oldimga keladi. Xuddi kinodagidek: g'aybdan bиров o'z tarixini aytib turadi, parda yuzida bulutlar kezadi, bir joydan tuman bosgan daryo ko'rinadi, erta tong, yoshligimiz ham g'ira-shira, nihoyatda baxtiyor ko'rinadi.

Tepa sochi dikkaygan, ozg'ingina va qorachadan kelgan komsomol bola to'rtinchi maktabda Yevgeniy Oneginni sud qiladi. O'sha komsomol bola yaxmalakka borganimizda birinchi marta menga uchuvchilik maktabiga kirajagini aytadi. Men uni Enskda, Sobor bog'ida, eski maktublarni o'qib hayratda qolganini ko'raman. Moskvada, Shimolda, yana Moskvada, hamma yerda u, o'zining haqli ekanligini isbot qiladi.

Ammo yetar endi xotiralar! Uning haqidagi gaplarni eshitaylik.

Uni maktab tarbiyalab yetishtirdi, uni jamiyat odam qildi, uning haqidagi gaplar shular edi. U o'qimishli. Madaniy yigit. Qutbning murakkab sharoitlarida mardlarcha uchgani uchun 1934-yildayoq Nenets milliy okrugidan tashakkurnoma olgan edi. O'shandan beri u, o'z mahoratini kamolga yetkazdi, masalan, kechasi uchish texnikasini yaxshi bilib oldi. Albatta, uning nuqsonlari ham yo'q emas. U jiz-zaki, tez jahli chiqadigan, sabrsiz. Ammo «Grigoryev partiya a'zosi bo'lishga munosibmi?» degan savolga biz: «Ha, munosib» deb javob berishimiz kerak.

1937-yilning qishida Sanyani Leningradga ko'chiradilar, biz Bernshteynlarnikida turamiz; kechalari uyg'onib qaragam, Sanya uyg'oq yotardi, mana shunisi meni har xil o'ylarga solardi. Har haftada biz Nevskiydagi kinoteatrga borib, Ispaniya urushini ko'ramiz. Katak ko'ylak kiygan va qo'llariga miltiq ushlagan yosh-yosh yigitlar Madrid yonidagi Universitet shaharchasining xarobalariga kirib berkinadilar, so'ngra qaddilarini rostlab, hujumga kirishadilar. Beshinchi polkka qurol-aslahalashiladi. Qamal ichida qolgan Madrid bolalarini shahardan ko'chirib olib ketadilar. Onalar avtobuslarning ketidan yugurib, ho'ng-ho'ng yig'laydilar, bolalar esa, qo'llarini silkita-silkita ketadilar, rostmi, haqiqatan shundaymi? Rost, haqiqatan shunday. Hech qachon

va hech qayerda tushmasin hech kimning boshiga bu achchiq haqiqat! Tomoqqa qayerdan ko'z yoshlari kelib qoldi? Kichkina, dim qorong'i zalda bu hayajonlar qayerdan paydo bo'ldiykin?

Yana ikki haftadan keyin biz Sanya ikkimiz Bernshteynlarning eski po'stinlar, har qanaqa ustunlar bilan to'lib yotgan dahlizida indamay turamiz. Chorak soatdan keyin yana ayrilamiz. U, safarga oddiy kiyimda, yumshoq shlapa kiyib ketayotir, uni tanib bo'lmaydi.

– Sanya, senmisan? Yo sen emasmisan?

U kuladi.

– Kel, men emas deb hisoblaylik. Yig'larmiding?

– Yo'q. O'zingni ehtiyot qil, azizim, hayotimning guli.

U «qaytib kelaman» deydi va yana allanimalarni gapiradi, meni ovuntiradi. Men nima deganimni bilmayman, faqat parashyutni ishlat deyman. U ko'pincha parashyutsiz uchar edi.

Qayoqqa ketmoqda u? Bilmayman. O'zi Uzoq Sharqqa deydi. Uzoq Sharqqa bo'lsa, nega harbiy kiyimda emas? Nega men bu komandirovkadan gap ochganimda u darrov javob bera qolmasdan, avval uzoq o'ylaydi-da, keyin javob beradi? Nega yarim kechada unga Moskvadan qo'ng'iroq qilishganida u, faqat yo «ha», yo «yo'q» deb javob beradi? Nega shundan keyin uy ichida o'zidan o'zi sevinib, hayajonlanib, ustma-ust tamaki chekib yuradi? Nimadan xursand u? Bilmayman, bilishga haqqim yo'q. Nega men uni vokzalga kuzatib qo'yaqolmayman, axir, u Uzoq Sharqqa ketayapti-ku?

– Noqulayroq bo'ladi, – deydi Sanya, – yonimda sheriklarim ham bor-da. Ketmay qolish ehtimoli ham bor. Basharti imkoni bo'lsa, vokzalda o'zim qo'ng'iroq qilaman senga.

Poyezdning jo'nab ketishiga o'n daqiqa qolganida u qo'ng'iroq qildi. «Xavotir olma, xotirjamlik», dedi. Kunora xat yozib turishga va'da qildi. Albatta, «parashyutsiz uchmayman» dedi ketidan...

Har zamon-har zamonda undan xat olib turaman, konvertga Moskva shtempli bosilgan bo'ladi. Bu xatlarga qaraganda, u ham mening hamma xatlarimni olib tursa kerak. Hech tanish bo'lmagan odamlar qo'ng'iroq qilib, sog'lig'imni so'rab turishadi. Mendan ming kilometr yiroqda, Gvadalaxara tog'larida janglar borayotir; karavotim tepasida ochilgan xarita kichkina bayroqchalar bilan to'lib ketgan, u xarita – Ispaniya, sirli Ispaniya; Xose Dias va Dolores Ibarrurining Ispaniyasi, xuddi yoshligimda o'zim yugurib o'ynab yurgan ko'chamdek, yaqin va jonajon bo'lib qoladi...

Martning seryomg'ir kunlaridan birida respublika aviatsiyasi, Valensiyani Madriddan kechib qo'yishni niyat qilgan isyonchilarga qarshi ko'tariladi. U – Gvadalaxara yonida qo'lga kiritilgan g'alaba edi. Mening Sanyam qayerlarda ekan?

Iyulda Modesto armiyasi isyonchilarni Brunetadan uloqtirib tashlaydi. Mening Sanyam qayerlarda ekan? Baskoniya ajralib qoldi, eski, grajdan ishida ishlab kelgan aeroplanlarda tog'lar orqali oshib Bilbaoga uchib borish kerak. Mening Sanyam qayerlarda ekan?

«Komandirovka cho'ziladigan bo'ldi, – deb yozadi menga Sanya. – Men har qanaqa falokatga yo'liqishim mumkin. Har holda, bilki, erking o'zingda, hech qanaqa majburiyat olmagansan».

Volodarskiy ko'chasi eski kitoblar sotuvchidan 1836-yilda bosib chiqarilgan, hamma yog'i yirtilib ketgan ruscha-ispancha lug'at sotib olib, muqovasozga berib muqova qildirdim. Kechalari uzundan-uzun ispancha so'zlarni o'qib o'rgana boshladim: «Ha, erkim o'zimda. Ammo sen qaytmasang o'lib qolaman». Yoki: «Azizim, nega menga odamni yig'latadigan xatlarni yozasan?»

Shu ispancha so'zlarni o'zimdanda o'zimga gapirib yotaman, qorong'i uyda bu so'zlar g'alati bo'lib eshitilsa kerak, chunki «olim enaga» meni bosinqiradi deb o'ylab, o'rmidan turadi-da, sekin-sekin elkamga qoqib qo'yadi...

Birdan hech kim kutmagan, hech kimning xayoliga kelmagan hodisa yuz berdi. Bu oddiy bir hodisa tufayli hamma narsa – ob-havo ham, sog'lig'im ham, ishlarim ham ko'zimga yaxshi ko'rinib ketdi.

Sanya qaytib keldi... Yarim kechada Moskvadan qo'ng'iroq bo'ldi, Rozaliya Naumovna cho'chiganicha meni kelib uyg'otganida, yugurib telefonga bordim... Yana bir necha kundan keyin quyoshdan qoraygan, oriqlab ketgan va nima uchundir ispanga o'xshagan Sanya mening yonimda turardi.

... Kuzda Enskka jo'nab ketdik. Petya har yili yozda o'g'li va «olim enaga» bilan birga Enskka ko'chib ketadi, Dasha xola har xatida bizni Enskka chaqirardi. Nihoyat biz bir kuni ertalab Enskka borishga qaror qilib, kechqurun men vagon yonida Sanyadan jahlim chiqib, tajang bo'lib turardim: poyezdning jo'nab ketishiga besh daqiqa vaqt qolganida, u shirinlik olib kelaman deb ketganicha yo'q bo'lib ketdi. Poyezd qo'zg'alganida, u zo'rg'a vagona osilib chiqib oldi. Juda xursand edi.

– Qiziq ekansan, ularda bunaqa konfetlar bo'lmasa kerak: hatto qutining qanday ochilishini ham bilmaysan, ochib bo'lganingdan keyin

ichidan kichkina qizil medalon chiqadi, unga oltin hal bilan: «Omon bo'ling, davlatingiz ziyoda bo'lsin» deb yozilgan bo'ladi.

Anchagacha chalayorug' kupeda chiroq yoqmay o'tirdik.

Bu qachon bo'lgan edi? Xuddi yoshi ulug' kishilarday, biz Enskdan qaytmoqda edik. Bizni qo'llariga issiq qo'lqop kiygan keksa ayollar kuzatib qo'ygan edi. Pak-pakana, soqoli o'sib ketgan bir kishi bizning kimligimizni bilolmay o'tirar edi: aka-singil desa bir-biriga o'xshamaydi, er-xotin desa hali yosh, deb o'tirar edi. Olmalar-chi! Qip-qizil, karsillama olmalar! Nega shunaqa olmalarni odam faqat yoshligida yeydi-ya?

– Xuddi o'sha kuni men seni yaxshi ko'rib qoldim, – deydi Sanya.

– Yo'q. Sen yaxmalakdan qaytib kelayotganimizda menga popuk olib berib, men yo'q, olmayman deganimda va boshqa bir qizchaga berganingda yaxshi ko'rib qolgansan.

– Yo'q, sen o'shanda meni yaxshi ko'rib qolgansan. Bo'lmasa popukni qizga bermasding.

U juda jiddiy o'ylanib qoladi.

– Sen qachon yaxshi ko'rib qolgansan?

– Bilmayman... Hamma vaqt.

Biz vagon yo'lagida turdik, o'sha safargidek, goh sho'ng'ib, goh osmonga uchib chiqqan telegraf simlariga qarab turdik. Hozir hamma tuyg'ular boshqacha ko'rinadi, ammo ilgarigidek, baxt bag'ishlaydi. Mo'ylovdor, to'ladan kelgan vagon nazoratchisi bizdan, (yo mendanmi?) ko'zini uzmay qarab turardi. Anchadan keyin og'ir uh tortdi-da: «Mening ham xuddi senga o'xshagan chiroyli qizim bor», dedi...

Ensk. Erta tong. Tramvaylar hali yurmagan, butun shaharni piyoda kesib o'tish kerak. Odobli bir juldirvaqa bola bizning yuklarimizni ko'tarishib bordi, biz shu yerlikimiz desak ham, tinmay gapirib bordi. U hammani tanir ekan: marhuma Bubenchikovalarni ham, Dasha xolani ham, sudyani ham. Ayniqsa sudyani yaxshi tanir ekan, chunki u bilan ko'p ko'rishib turar ekan.

– Qayerda ko'rishib turasizlar?

– Tumanning sud kamerasida.

Bozor maydonida, kolxozchilar olma va karam sotib turgan aravalar orasida Dasha xola qo'lga karam olib, «olaymi, olmaymi» deb turar edi, u ancha keksayib qolgan edi.

Sanya uning ismini aytib chaqirdi, Dasha xola ko'zoynagining ustidan bizga qaradi-da, birdan karami qo'lidan tushib ketdi.

– Sanechka! Voy chiroqlarim! Bu nimasi? Bozorda nima qilib yuribsizlar?

– Yo'limiz tushib qoldi, Dasha xola. Mana bu – rafiqam.

Sanya meni Dasha xolaning yoniga yaqinroq olib bordi. Ensk bozorida go'yo savdo to'xtab, hatto otlar ham yem xaltalaridan boshlarini chiqarib, bizning ko'rishishimizga qarab qolgandek...

Gogol ko'chasidagi Markuzening sobiq uyi, kiraverishda sher kailalari yotardi. Dasha xolaning ko'nglidagidek nonushta, bu nonushtadan keyin yana tushlik bo'lishini eslasang, qo'rqqaningdan yuraging shuv etib ketadi. Sudyaya sayyor uchrashuv o'tkazgani tuman markaziga ketgan ekan, u bilan telefon orqali gaplashdik. Ovozning eshitalishidan, go'yo dunyoning narigi tomonidan kelayotgandek edi. Kichkina Petya ham (u endigina uch yoshga qadam qo'ygan edi) shu yerda. Yaqindagina unga so'rg'ich berish kerakmi, yo'qmi degan muhim masalani ko'plashib muhokama qilishgan edik...

Katta Petyani Sobor bog'idan qidirib topdik, u bir vaqtlar Sanya ikkovi kunduz kuni osmondagi yulduzlarni ko'ramiz deb yotgan joyda ekan. Ular shu yerda xatnoma o'qishar, shu yerda bir-birlariga «qonli do'stlik qasamini ichganlar».

Petya xuddi turklarga o'xshab chordona qurib, tizzasida matodan qilingan albom olib o'tirar edi. U Reshyotka degan joyni, Peschinka bilan Tixyaning birga qo'shiladigan yerni tasvirga tushirmoqda. Daryoning narigi betidagi Pokrov monastiri, quyosh nurlari bilan to'la osmon, narigi yoqdagi dalalar tasvirga olinib bo'lgan edi.

– Kechirasiz, grajdanin, shu yerda bir bo'yoqchini ko'rdingizmi?

U bizga qayrilib qaradi-da, ajablanib tikilib qoldi.

– Shu yerdan kamzul kiygan, sochlari paxmoq bir bo'yoqchi o'tmadimi? – davom etdi Sanya.

Birdan Petya sapchib o'rnidan turdi.

– Keldinglarmi? Katya hammi? Voy shovvozlar-ey! Juda soz! Ha, qani gapdan kelinglar, Sanya, sen u yoqda eding-da?

– Ha, u yoqda edim.

Avliyo Martin minorasi yonida ikki soatcha o'tirib, so'ngra pastga, daryo bo'yiga tushib, bog'lar ichidan yurib, shaharlarning narigi tomonidan chiqdik. Kuzda juda allaqanday yaxshi bo'ladi-da, bu shahar! O't bosib ketgan biror xiyobondan yurib borib, daryo chetiga,

kimdir birov ohak bilan bo'yab qo'ygan olmazorga chiqsang, rohat qilasan kishi.

– Bir vaqtlar shu yerlarga olma o'g'irlagani kelar edik. Qorovullarning multiqalari tuz bilan o'qlangan deb nuqul yolg'on gapirar eding.

– Hech bir-da! Qanaqa bolalar ekanmiz? Sen o'zingning qanaqa bola bo'lganingni bilasanmi? Men – bilmayman.

– Sen ancha qiziq bola eding. Esingdami, bir kuni sen asalarilarning poshsha-onasi bo'ladi deb gap to'qiganing? Turkiston-chi? U – bizning orzu-xayolimiz edi. O'sha vaqtda ham sen rassom eding, rassom bo'lmasang ham, har holda san'at kishisi eding.

– Men, sen rassom bo'lasan deb yurar edim. Sen yaxshi haykallarni yasar eding-da. Nega tashlab yubording-a?

Men Sanyaga siringni ochaymi, ochmaymi deb qaradim. U menga ko'zini qisib qo'ydi, men indamadim. Hali ham bo'sh vaqtlarida haykal yasash bilan shug'ullanadi, albatta, o'zi uchun, hech kimga ko'rsatmaydi.

Kech oqshomda, biz endi kelmas deb o'tirganimizda, sudya kelib qoldi. Birdan allaqayerdan «gazik»ning pishqirishi eshitildi, bir ozdan keyin yo'lkada qariya ko'rindi, usti boshi chang, ikki qo'lida portfel.

– Xo'sh, mehmonlari qaysi biri? Hozir bir yuvinib chiqay. Keyin ko'rishamiz.

...Ma'lum vaqtdan so'ng sarpoychang, toza yaxtak kiyib chiqdi. Avval meni, keyin Sanyani eshikka, yoruqqa olib chiqib, yaxshilab ko'rib oldi, Sanyaning ordenini alohida ko'rди.

– Chakana emas, – dedi u, maroqlanib. – Shpalami?

– Shpala.

– Demak, kapitan degin?

– Kapitanmiz.

Qariya Sanyaning qo'lini qattiq siqdi.

Shu zayilda Ensk oqshomi o'tdi. Biz butun oila bilan juda kam to'planamiz aslida, hammamiz bir-birimizni juda yaxshi ko'ramiz. Mana hozir ham, hammamiz bir yerga to'planganimizda, ayrim-ayrim turishimiz o'zimizga g'alati tuyulayapti.

Yarim kechagacha gaplashib o'tirdik, gapimiz sira tugamas edi. Sashani yo'qlaymiz, u, xuddi yonimizda o'tirgandek, uning to'g'risida oddiy gaplarni gapiramiz. U bizdan ketmagan, biz bilan birga – kichkina Petya kundan kunga oyisiga o'xshab bormoqda: uning ko'zlari

ham qiziq, chekkalarini qoramtir tuk bosgan. U ham boshi egik holda qoshlarini chimirib uchiradi...

Sanya Ispaniyadan gapirib berdi, meni birdan eski, unutib yuborgan tuyg'u chulg'ab oldi. Men, u xuddi boshqa odamni ta'riflab berayotganday, gapini eshitib o'tirardim. Bir kuni razvedka qilgani uchib ketib, yo'lda beshta «yunkers»ni uchratib, darhol jang boshlab yuborgan Sanya ekan-da? «Yunkers»lar orasida qolib, tavakkaliga o'q uzgan Sanya ekan-da? Tavakkalga otishdan boshqa iloj ham yo'q ekan, chunki otgan o'qlari tegmasdan qolmas ekan. Ustidagi kiyimlari kuygan holda, yuzini qo'lqoplari bilan berkitib, pachag'i chiqqan aeroplanini yerga qo'ndirgan va yana bir soatdan keyin boshqa aeroplarda osmonga ko'tarilgan Sanya ekan-da?

Sudya uning gapini tinglar ekan, qalin va paxmoq qoshlari ostidagi ko'zlari maroq bilan chaqnar edi. U qo'lga qadah olib, o'rnidan turdida, nutq so'zladı. Poyezdda kelayotganimizda Sanya, «sudya, albatta, nutq so'zlaydi» deb aytgan edi.

– Sanya, garchand sen qilgan ishlar to'g'risida yuksak so'zlar bilan gapirishga arzisa ham, men bunday yuksak so'zlarni ishlatmayman. Bir vaqtlar sen menga uchuvchi bo'laman degan eding, o'shanda men sendan: «Harbiy uchuvchi bo'lmoqchimisan?» deb so'ragan edim, sen: «Qutb uchuvchisi bo'laman. Vaqti kelsa harbiy uchuvchi ham bo'laverman» degan eding. Mana endi, harbiy, jangovar uchuvchi bo'lib qarshimda o'tiribsan, seni o'z o'g'lim deya olishim mumkinligidan mag'rurlanaman. Ammo ko'z oldimda o'tirar ekansan, miyamga boshqa fikrlar ham keladi. Men, kapitan Tatarinov ekspeditsiyasini topish orzuimg, yoshlik yillaringni isitib kelgan orzuimg to'g'risida gapiraman. Sen o'sha vaqtda tarixga bosh qo'yishni, uni o'z istaganingcha tuzatishni o'z oldingga vazifa qilib qo'ygan eding. Juda to'g'ri edi bu ishing. Seni men yosh bolaligingdan beri bilaman, shuning uchun ertami, kechmi, axir shu vazifani bajarishingga ishonaman.

Hammamiz qadah urishtirdik, Sanya ispan tilida:

– Salud! – dedi. – Umr safari endi boshlandi deb hisoblaymiz. Kema gavandan kecha chiqdi, unga: «Safaringiz muvaffaqiyatli bo'lsin» deb qolgan mayak hali ham ko'zdan g'oyib bo'lgani yo'q. Bir vaqtlar, yoshlik chog'larimizda, biz shu shaharning qorong'i ko'chalaridan sira qo'rqmay yurardik. Ikki kishiga bir qalamtarosh bor edi, qalamtaroshimizni Petya eski etik charmidan tikkan xaltaga solib yurardik. Bor-yo'q qurolimiz shu edi. Ammo bizning qurolimiz



kuchli edi. Biz bir-birimizga: «Kurashmoq va izlamoq, topmoq va bas kelmoq» deya ont ichgan edik, shuning uchun biz dadil borardik. Biz dadil borardik, yo'limiz hali yiroq».

1939-yilda biz Moskvada yashadik, Sivtsev-Vrajekka, Valya bilan Kiralarnikiga ko'p borib turardik. Sivtsev-Vrajekdagi kvartira ularga torlik qilib qolibdi.

«Umumiy oshxona»da sochlari jamalak, burni Kiraning burni kabi katta burunli qizcha uxlab yotardi. Bir vaqtlar Valya o'ziga fotolaboratoriya qilib olgan kichik hujrada yo'rgaklar osib qo'yilgan. «Asosiy oshxona»da Sanyaning bir tugun ustiga o'tirib olishiga sag'al qoldi, tugun ichidan sochlari peshonasiga gajak bo'lib tushgan, yuzi nihoyatda jiddiy chaqaloq qarab yotar, uning chehrasi haqiqatan ham shu qadar jiddiy ediki, ko'ziga gardishi suyakdan qilingan ko'zoynak taqib, qora tulkilar duragaylari haqida ma'ruza o'qishga tayyor ko'rinardi.

Qizcha she'rlarni ohangdor qilib o'qiydigan bo'lgan, bunda o'z prinsiplari bilan, juda kekkayib ketgan Varvara Robinovich maktabidan butunlay farq qilgan Kiraning oyisining ta'siri borligi ko'rinib turar edi.

Ashaddiy sayyoh va daydi bo'lgan biz ikkimiz, – men bilan Sanya. – Sivtsev-Vrajekdagi juda qadrdon bo'lgan do'stlarimiz-nikida o'tirganimizda nimalarni o'ylar edik?

Albatta, butun umrimiz birovlarining uyida o'tmay, hech bo'lmaganda Valya bilan Kiralarnikiga o'xshagan kichkina kulbamiz bo'lishini niyat qilardik.

Biz Leningradda shunday kulbaga erishishga qaror qilgandik...

Fonus goh yonadi, goh o'chadi, uning multillagan shu'lasini goh qayg'u-alamni, goh shodlikni yoritadi.

Qishning yorqin kunlaridan birida biz Kreml devori ostida kichkina marmar taxtachaga tikilib uzoq turdik, unga biz cheksiz sevgan kishimizning nomi yozilgan. Sanya shu onda, bir marta unikiga borganini, hovliqmaslik uchun shoshilmasdan fikr yuritganini va oldiga kirgandan keyin, xuddi telefonda gapirgandek:

– O'rtoq Ch.mi? Grigoryev gapiradi, – deganlarini eslaydi.

Katta bir shaharga, yuzlab ajoyib ko'chalarga, teatrlarga, parklarga, bog'larga o'sha odamning nomi qo'yilganiga bir yil bo'ldi. Sanya ikkimiz esa uning yo'g'on ovozi endi sira ham eshitmasligimizga ishonmaymiz.

1941-yilda biz Leningradga ko'chdik, Leningradda doimiy qolishga harakat qila boshladik. Uch xonadan iborat bir chorbog'ni ijaraga oldik. Qo'rasida qudug'i bor, chorbog'ning egasi keksa, juda ko'hlik, qadimgi Rusda o'tgan merganlarga o'xshardi. Petya darhol uning rasmini chizishga kirishdi. Chorboqqa hammamiz, – ikkala Petya, «olim enaga», Sanya, – ko'chib chiqdik, har kuni ko'lda cho'milamiz, qorni semiz samovardan choy ichamiz. Nazarimda go'yo mendan boshqa hech qanday ayol bunday baxtni tuyolmaydigandek.

Har shanba kuni Sanyani kutib olish uchun hammamiz birgalashib stansiyaga chiqamiz. Albatta, Sanyani hammadan ko'ra kichkina Petya oshiqib kutadi, – u har safar kichkina bronenosni olib kelarmikin, deb orzu qiladi. Uning orzusi amalga oshadi, – Sanya hali to'xtamagan poyezddan sakrab tushadi, qo'lida katta va ajoyib kema; ammo u, vagondan tushgandan keyin yana vagon yonidan yurib ketadi, bizga qo'lini silkitib qo'yadi. Poyezd to'xtaydi, Sanya qo'lini uzatadi. Vagon zinasidan kichkina, qotmadan kelgan bir kampir dadil tushadi. Kampirning bir qo'lida soyabon, bir qo'lida xalta. O'z ko'zimga ishongim kelmaydi. Ammo u chuchuncha kostum kiygan, boshiga poxol shlapa kiygan, Sanya odam to'la perrondan avaylab qo'ltiqlab olib kelayotgan kampir – o'zimning buvim edi!

BUVIMNING HIKOYASI

Shuni aytishim kerakki, keyingi kunlarda buvimning ba'zi qiliq va xulqlariga tushunolmay qoldim. Ilgarilari buvim qartani sira yoqtirmas edi. Endi bo'lsa qarta bilan fol ochishni shunday yaxshi ko'rib qolibdiki, hatto yonida qarta olib yuradigan bo'libdi. Hozir u, toppon shohiga qarab fol ochar edi, u bilan munosabati juda chalkash bo'lsa kerak.

– Ha, ha, hali shunaqamisan, – derdi buvim qovog'ini solib, – shunaqa qilar ekansan-da! Avaxta chiqib qolsa, nima derding!..

Birdan gap orasida o'rnidan sapchib turar edi-da, uyga ketishga o'tlanib qolardi; garchand uyda qiladigan ishim ham yo'q, zerikib ketdim deb o'tirsa ham, «uyga ketay, ro'zg'orim qolib ketdi» deb turib olardi.

– Yo‘q, bormasam bo‘lmaydi, – derdi u nimadandir qo‘rqayotgandek. – Ketay. Albatta, ketaman.

Ilgari kinoni juda yaxshi ko‘rar edi, ko‘p borib turardi, endi kinoga olib boray desam kapalagi uchib ketadi.

– Kinoga faqat filmning sifatiga qarab borish kerak, – deydi menga ma‘nodor qilib qarab.

«Filmning sifatiga qarab» degan so‘zlarni buvim ilgari sira aytmas edi.

Toppon shohning kimligini, albatta, bilardim. Buvimning nima-ga birdan uyga otlanib qolishini, bu dumaloq va silliq jumalarning qayerdan kelib chiqqanligini ham bilardim... Buvimning butun fikrizikrini o‘ziga qaratib olgan Nikolay Antonovich edi.

Uning izmi, uning hayratda qoldirarli darajada bo‘lgan ta’siri ko‘zga yaqqol ko‘rinib turar edi.

Juda bo‘lmasa Sanya ikkimiz Moskvada bo‘lgan kunlarda biz bilan birga turishini ko‘p marta so‘rardim, – birga turish qayoqda, yo‘qchi, yo‘q deb turib oldi.

– Ketsam, u meni topib olsa! – dedi u, sirli bir ma‘noda. – Yo‘q, taqdirim shu ekan.

– Qanday qilib topardi seni? Seni nima ham qilardi! Seni qidirib ham o‘tirmaydi!

Buvim indamasdi.

– Yo‘q, qidiradi. Qidirmasdan iloji yo‘q.

– Ha, nega endi?

– Shuning uchunki, men ketib qolsam, uning aytgani bo‘lib chiqadi. Axir, men uning uyida turaman-ku! Hamma sizlarga o‘xshaganmi? U menga har kuni kechqurun o‘qib berib o‘tiradi.

Nikolay Antonovich har kuni kechqurun buvimga o‘zining kitobini o‘qib berib o‘tirar ekan...

Leningraddan joy topib, ko‘chib o‘tganimizdan keyin buvimning biz bilan birga turishini istardim. Ammo har safar buvimni ko‘rganim sari birga turishning iloji yo‘qligiga ishonardim. Buvim Nikolay Antonovichni borgan sari ham qarg‘ar, ko‘proq qo‘rqib gapirardi. Bir kuni Nikolay Antonovich o‘z shoxlarini nima bilan yuvadi, tish poroshogi bilanmi yo pemza bilanmi deb so‘ragan edim, buvimning jahli chiqdi. Buvim dilida Nikolay Antonovichning avliyoligiga ishonsa kerak.

– Men bir gapni endi o‘ylab tursam, u darrov biladi, – dedi buvim bir kuni. – Qaysi kuni somsa yopmoqchi bo‘ldim, hali boshlamagan

ham edim, u menga: «Somsangizni kraxmal qo‘shmay qiling, me‘daga og‘ir bo‘ladi», dedi.

Buvim bir qo‘liga soyabon, bir qo‘liga xalta olib, poyezdda bizning oldimizga kelishga jur‘at etgan bo‘lsa, buning bir muhim sababi bordir.

Yo‘lda ketaturib u so‘radi:

– Domovoyga yozilish, albatta, zarurmi?

– Yozilmasdan ham tursangiz bo‘laveradi, – dedim men. – Nega bundan xavotir olib qoldingiz?

– Yo‘q, mayli, yozib qo‘yishsin, – dedi buvim, qo‘lini silkitib. – Menga endi baribir.

Kichkina Petyani, katta Petyani, marhuma Sashani buvimga har xatimda yozgan, og‘zaki ham ko‘p aytib berdan edim; Petya hatto biz Tverskoy-Yamskoyda turganimizda biznikiga kelib ham turardi, buvim uni tanirdi. Ammo buvim u bilan xuddi birinchi marta ko‘rishganday juda beparvolik bilan salomlashdi. Kichkina Petyani xayolparishonlik bilan peshonasidan o‘pdi, «olim enaga»ni ko‘rib «muncha basharasi badburush?» dedi.

Buvimning bir narsadan hayratda qolganligi aniq edi. Ammo nima-dan? Mana shunisi noma‘lum edi.

Biz ijaraga olgan bog‘ning ikki uyi va bir boloxonasi bor edi; boloxonasi xuddi buvimga atab qurilganday edi: u ham buvimga o‘xshagan kichkinagina va bejirim edi. Buvimni shu yerga joyladik; buvim boloxonaga kirishi bilan derazalarning halqalarini, eshikning qulflarini tekshirib ko‘rdi.

– Bo‘ldi endi, buvi, jonimga tegdi, – dedim men, keskin ravishda. – Mana, hozir eshikni mahkam yopib qo‘yaman, hech kim eshitmaydi. Nima gapligini hozir aytib berasiz.

Buvim birpas jim qoldi.

– Ha, aytib beraman! Qo‘rqarmidim!

...U ancha uxlab oldi, keyin turib yuvindi, yenglari keng ko‘ylagini, burni cho‘ziq botinkalarini kiyib, ancha yosharib, dasturxon atrofiga keldi.

– Uyg a ekonomka oldi, – dedi, gapning po‘skallasidan boshlab. – «Ekonomka emas, kotib. Menga yordamchi bo‘ladi» deydi. Ekonomkasi bo‘lsa o‘chog‘im boshiga iflos botinkasini qo‘yadi. Ana, yordamchining qilgan ishi.

Buvimning o‘chog‘iga Alevtina Sergeyevna degan allakim iflos botinkasini qo‘ygan ekan. Bu juda qiziq voqea edi. Hammamiz bog‘da

o'tirgan edik, buvim o'z hikoyasini gerdayib aytib berar, hikoyaning ortida nima borligini biz hali bilmas edik. Petya buvimning suratini olishga urinardi, men unga bu ishni qilmagin deb qo'limni mix qilib ko'rsatdim. Sanyaga ham qo'limni o'qtalib qo'ydim, uning kulgisi qis-tab o'tirar edi. Faqat kichkina Petya jim o'tirib, diqqat bilan tinglar edi.

– Kotib bo'lsang, nega men ovqat pishiradigan joyga botinkangni kelib tiqishtirasan? Men bunga sira chidab turolmayman. Bugun o'choqqa o't yoqib yuborsam nima qilasan, dedim.

– Keyin nima bo'ldi?

– Yoqdim.

– Keyin-chi?

– Botinkasi yonib ketdi, – dedi buvim mag'rurlik bilan. – Qo'ymasin-da!

Kulib qotib qolibmiz.

Xullas, ekonomka botinkasiz qolibdi, shundan keyin Nikolay Antonovich buvimni oldiga chaqirib, qattiq gapiribdi.

– «Men unaqa-yu, men bunaqa» deydi, – buvim Nikolay Antonovichni masxara qilib ko'rsatdi. – Hammadan yaxshi bo'lsang – yaxshiman dema, boshqalar maqtasin seni. Menga kvartira ko'rsatdi. «Xohlaganingizni tanlang, Nina Kapitonovna», deydi.

Nikolay Antonovichga Gorkiy ko'chasidagi yangi uylardan kvarti-ra ajratilgan ekan, bechora buvimga u, shu ajoyib kvartiradan xohlagan uyni tanlab oling, debdi. Bir oygacha butun Moskvani aylanib mebel qidiribdi. Nikolay Antonovichning fikricha, 2-Tverskoy-Yamskoy ko'chasidagi kvartira «Kapitan Tatarinov muzeyi»ga aylanishi kerak ekan. Kapitan Tatarinov u uying ostonasiga oyoq ham bosmaganligi uni xijolatga qo'ymasa kerak.

Men unga ta'zim qildim-da, «Rahmat. Men hali birovlarining uyida yashab o'rganmaganman», dedim.

Buvim xuddi shu gapdan keyin Nikolay Antonovichni tashlab, biznikiga ko'chib kelishga jazm qilibdi. Ammo to'ppa-to'g'ri o'tlanib, yo'lga chiqaverish o'rninga u, avval Nikolay Antonovich bilan jo'rttaga yarashibdi. Hatto uning ekonomkasini ham o'ziga qaratib olibdi – bu-larning hammasini Nikolay Antonovichdan qo'rqqanidan qilgan-da! Buvim, Nikolay Antonovichning Bolshevodagi Olimlar dam olish uyi-ga ketishidan foydalanibdi. Moskvada yigirma yil yashagan bo'lsa, shu yigirma yil ichida birinchi marta u, bir qo'lga soyabon, bir qo'lga xalta olib, hech kimga birdirmasdan, uydan yashirincha ketibdi...

... Sanya hamisha ertalab soat oltida o'rnidan turar edi. Nonushtagacha cho'milib kelar edik. Boshqa yakshanba kunlaridan sira farq qilmagan bugungi yakshanba kuni ham xuddi shunday bo'ldi.

Albatta, hech farq qilmas edi! Unday bo'lsa, nega u juda esimda qolgan? Qo'l ushlab tepalikdan pastga qarab chopib tushganimiz, Sanyaning soy ustiga tashlangan xodadan yurib o'tishi, mening botinkalarimni yechib, suvni kechib o'tishlarim, – nega bularning barisi ko'zim oldidan sira ketmaydi? Nega, o'shanda bir-birimizga aytgan har bir kalima so'z hali ham esimda? Nega, ustini tuman pardasi qoplagan, oftob nurlari qiyalab yoritib turgan ko'lning maroqli manzarasi hali ham ko'z oldimdan ketmaydi. O'sha tongning har bir mayda ikir-chikiri, – Sanyaning oftobdan qoraygan yuzi, yelkasi va ko'krigidagi suv tomchilari, dikkayib turgan bir tutam sochi, suvdan chiqib, yonimga kelib, ikki tizzasini quchoqlab o'tirishlari, nega bularning hammasini eslasam yuragim achishib-achishib ketadi? Shimining pochasini shimarib, to'r bilan qisqichbaqa tutib yurgan bolaga Sanyaning qisqichbaqani chirigan go'sht bilan yoki gulxan yoqib ovlash kerakligini tushuntirganlarini ko'z oldimga keltirsam, nega yuragim achishadi?

Shuning uchunki, oradan uch-to'rt soat o'tmasdan, bu cho'milishlar, qirg'oq ko'lankalari qimir etmay akslanib turgan sokin ko'l, to'r sudrab yurgan bola va yana minglarcha boshqa tuyg'u, taassurot va fikrlar bir damda allaqayoqqa uchib g'oyib bo'lib ketdi-da, xuddi durbinni teskari o'girib qaragandagidek, kichkina va mayda, arzimas bir narsa bo'lib ko'rindi...

«ESINGDA BO'LSIN, SEN ISHONGANSAN»

Agar vaqtni to'xtatish qo'limdan kelsa, shaharga yelib borib, Sanyani topolmagach, Nevskiyda tramvaydan tushib, Bosh qo'mondonlikning «Gastronom» derazasiga yopishtirilgan birinchi svodkasi oldiga borib turganimda, to'xtatardim. Deraza yoniga borib svodkani o'qidim, keyin atrofimga qarab, jiddiy va hayajonlangan qiyofalarni ko'rdim. Birdan meni g'alati bir tuyg'u chulg'ab oldi: endi butunlay yangi, noma'lum bir hayot boshlangan edi. Bu iliq oqshom noma'lum, sirli hayotning birinchi oqshomi edi; trotuardan yurib borayotgan ko'lankalar, hali quyosh botmasdan, Admiralteystvo ustida oy paydo bo'lishi – bularning barisi sirli va g'alati ko'rinar edi. Bu yangi hayotning birinchi kalima

soʻzlari derazaning butun eniga qalin qilib yozilgan, yangi va yangi odamlar kelib ularni oʻqir, mavjud vaziyatni oʻzgartirish, boshqacha qilishning sira iloji yoʻq edi.

Rozaliya Naumovna menga Sanya tashlab ketgan kichkina xatni bergan edi. Bloknot varagʻiga yozilgan bu xatni men damba-dam sumkadan olib oʻqirdim:

«Qimmatligim Pira-Poleykin, seni qattiq quchoqlayman. Esingda boʻlsin, sen menga ishongansan».

Qrimda turganimizda Pirat degan itimiz bor edi, gullarga suv quyganimda shu it nuqul ketimdan ergashib yurar edi. Sanya masxara qilib kulardi, oʻshanda ikkimizga «Pira-Poleykin» deb laqab qoʻygan edi... «Esingda boʻlsin, sen menga ishongansan» – bu mening soʻzim edi. Bir kuni unga: «Sening istiqbolingga ishonaman» degan edim. Xatdan uning kayfi chogʻligi koʻrinib turar edi – mana shunisi muhim edi! Biz xayrlashmadik ham, u soat oʻn birda ketdi, shaharga borib topolmadim, xayrlashmay ketganini, hatto yozmagan ham, chunki buning ahamiyati yoʻq edi.

Nima uchundir, boqqa qaytdim, bir kecha yotdim, ammo sira uxlay olmay chiqdim, mudrab qolgan boʻlsam kerak, birdan koʻzimni ochib qaragam – yuragim gupillab uryapti: «Urush. Taqdirga tan berish kerak».

Oʻrimdan turdim-da, enagani uygʻotdim.

– Otlaninglar. Ertaga koʻchamiz.

– Bir haftada nechta juma boʻladi oʻzi! – dedi enaga, jahli chiqib, esnab.

U karavotda mudrab, oʻz-oʻzicha vaysab oʻtirardi, men uning gapiga quloq solmasdan, uyning u burchagidan bu burchagiga yurib turardim, keyin derazani ochib yubordim, yosh, daraxtlari nozik oʻrmon ichi jimjitlik va baxt bilan toʻla edi!

Bizning gapimizni buvim eshitib qoldi-da, meni yoniga chaqirib oldi.

– Senga nima boʻldi, Katya? – deb soʻradi menga xoʻmrayib qarab.

– Buvi, biz bir-birimiz bilan xayrlashmadik! Nega xayrlashmay qoldik-a!

Buvim menga tikilib qarab, yuzlarimdan oʻpar, keyin mahkam bagʻriga bosar edi. «Xayrlashmaganlarning yaxshi boʻpti, tez qaytarkan» dedi buvim, ammo men nuqul yigʻlardim...

Kechki poyezdda Petya keldi, u charchagan, xavotirli, ammo vajo-hati keskin edi. Ilgari uni bunday ahvolda sira ko'rmagandim.

Leningraddan bolalarni ko'chirib ketish to'g'risidagi xabarni dast-lab o'shandan eshitdim, enaga ikkimiz gul ekib o'stirgan chorbog'ni tashlab ketish menga juda alam qildi. Saraton issig'ida kichkina Petyani Leningradga emas, bundan ham uzoq joyga, tanish bo'lmagan bir shaharga olib ketish naqadar og'ir edi!

Petya, rassomlar uyushmasi bolalarni Yaroslav viloyatiga jo'natmoqchi dedi, Petenka bilan Nina Kapitonovnani yozdirib ham qo'yibdi. Enaga masalasi qiyinroq ekan, ketidan yurish kerak ekan.

Birpasda yuklarni tugib bo'ldi, allaqayoqqa borib arava topib keldi-da, boloxonaga, buvimning oldiga chiqib ketdi. Birdan buvim Yaroslav viloyatiga bormayman deb qoldi. Ular ikkovlari nimalarni gapirish-di, nima uchun buvim Yaroslav viloyatini yomon ko'rib qolgan ekan, bilolmadim. Ammo yarim soatdan keyin ular bir-birlaridan mamnun bo'lib, pastga tushishdi, buvim darhol qop va xaltalarga bog'ich tika boshlab, enaganing ishlarini tanqid qila ketdi.

Mendan boshqa hamma o'z ishi bilan ovora edi, hatto kichkina Petya ham o'zining kichkina chamadonchasiga o'yinchoqlarini solar, chamadonga sig'magan masxarabozining kallasini sug'urib olish bilan ovora edi.

Men besaranjom va hammayog'i ochiq-sochiq uyda o'lgudek charchab, holdan toyib o'tirardim, axir yonimga Petya keldi-da:

– Katya, azizam, o'zingizga keling endi, – dedi.

...Leningradga qaytganimizni, Petya meni Rassomlar uyushma-siga sudrab olib borgani, allakimga meni qo'lidan har narsa keladi degani, so'ngra meni ro'yxat yozishga o'tqizib qo'yishganlarini aytib o'tirmayman.

Leningraddan yolg'iz bolalarning o'zi jo'natilishi, onalar va ena-galar Leningradda qolishlari kerak edi, butun kurash, hamma gap-so'z shu onalar va enagalar atrofida borar edi: ularni ro'yxatdan chiqarib tashlashsa, allaqanday yo'llar bilan yana ro'yxatga kirib qolar edilar.

Ishning uddasidan chiqmagan bo'lsam kerak, chunki pak-pakana va serjahl bir rassom ayol qo'limdan ro'yxatlarni tortib oldi. Shundan keyin bitta ham ona yoki enaga ro'yxatga muqarrar kirmagan bo'lsa kerak. Bizning enaga hammadan avval o'chirib tashlangan edi.

Yaroslav viloyati uchun tovar vagonlar emas, balki passajir vagonlar uchun va oldindan bilib bo'lmagan yana ko'p narsalar uchun

shahar kengashiga borib tortishish kerak edi, chunki bunday hodisalar ilgari hech kimning boshiga kelmagan edi-da!

Shahar kengashiga ham bordik, San'at akademiyasining rektoriga borib, shahar kengashiga qo'ng'iroq qilishini iltimos qildik. Yo'lga ketuvchilar uchun oziq-ovqat va turli xil anjomlarni qabul qildik, bolalarga qo'lqoplar tikib, ustiga raqamlar yopishtirdik, shu orada men ham hamma ishni biladigan va hamma murojaat qiladiganlar qatoriga kirib qolibman.

Jo'nash kuni beshinchi iyulga, keyin oltinchi iyulga tayinlangan edi. Bu hovliqishlar va otlanishlar, bolalardan ajralish qayg'usi, to'rt millionli shaharni chulg'ab olgan hayajon – bularning barisi endi g'alati ko'rinadi.

Poyezd kechikib keldi, bolalar kutish zalida, kattalar qatori oralarida anchagacha turib qoldilar. Poyezdga mindirish vaqtida ota-onalar xalaqit bermasligi uchun, bolalar kattalar orasiga jo'rttaga terib qo'yilgan edi. Ammo qator oralari allaqachon buzilib ketgan, charchagan, tinkalari qurigan onalar o'z bolalarining yoniga kelib turib olgan edilar. Kun issiq, bolalar suvsirar, ularni ovuntirish kerak edi. Iyul kunining changi va issig'i ham umumiy qayg'uga o'z hissasini qo'shganday tuyular edi.

Nihoyat, zaldan chiqa boshladilar, oldinda katta yoshdagi o'quvchi bolalar. Ular ketidan kichkinalar, eng oxirida olti-etti yashar bolalar borar edilar. Orqalariga qopcha ortgan mayda bolalarning bir-birlarining qo'llaridan ushlab, dadillik bilan yurib borishlariga ko'z yoshisiz qarab tura olmas edi odam! Ular jo'nab ketishadi – qayoqqa? Uyda Petenkaning elka qopchasi ko'zimga ko'rinsa, yuragim jizillab achishib ketardi. Hamma o'z bolasining ketidan ketdi, men ham Petenkaning orqasidan bordim. Petenka bejirim va do'ndiqqina qizcha bilan yonma-yon borar edi. Hamma qatorida men ham vagon eshigi oldida turib qoldim, kattalarni ichkariga kiritmas edilar. Boshqalar singari men ham lablarimni tishlab, ko'z yoshimni zo'rg'a tiyib, Petenkaning ketidan qarab qoldim, keyin yugurganimcha bagaj stansiyasiga bordim. Chunki u yerga zarur buyumlar keltirilgan va bolalarga tegishli buyumlar kattalarniki bilan aralashib ketmasligi uchun qarab turish kerak edi.

Poyezd soat to'rtida jo'nab ketishi kerak edi, xuddi tayinlangan vaqtdan bir daqiqa ham kechikmay, jo'nab ketdi. Poyezd endi jo'nay deb turganida Petya yugurib kelib qoldi. Keyin bilsam, rektor bilan birga Smolniyga borib kelgan ekan. O'g'lini unga derazadan uzatish-

di, bolasini ko'kragiga bosganicha turib qoldi. Buvim tashvishlana boshlagan edi, o'g'lini shoshib-pishib bag'riga bosdi-da, derazadan qaytarib berdi...

Bolalarning jo'nab ketishlarini eslasam, hali ham hayajonga tushaman, bu voqeani batafsil aytib bera olmayman, yuragim siqilib ketadi. Urush yillarida boshimga ne-ne kunlar tushmadi, ne-ne mashaqqatlarni kechirmadim, ammo u kunlar ko'z oldimda alohida gavdalanib turadi...

«ALBATA, DIYDOR KO'RISHAMIZ...»

Garchand Xudfondda* gilar eshelon eson-omon yetib bordi, bolalarni guldastalar bilan kutib olishdi, deyishsa ham, buvidan anchagacha telegramma kelmay turdi. Ammo ular Yaroslavdan yana allaqayerga, Gniloy Yar** degan joyga ketishlari kerak edi. Shunday nomi xunuk joyda bolalar sira ham rohat ko'rmasalar kerak, deb o'ylardim. Kirkadan achchiq alam bilan to'lgan xat keldi, u ham bolalari va onasi bilan allaqayerga ko'chib ketmoqda ekan, Valya esa Moskvada qolarkan, ular umrlarida birinchi marta ajralishar edi. Ajabo, Kirka fashist bombalaridan emas, (albatta, bomba Sivtsev-Vrajekka ham kelib tushishi mumkin edi), yo'q, u, Valyaga xushomad qilib yurgan Jenya Kolpakchi degan qizdan qo'r qar ekan. Maktubdagi satrlar yoyilib ketgan edi. Bechora Kirka xatni yig'lab-yig'lab yozgan-ga o'xshaydi, garchand urush tufayli aqlini yo'qotib qo'ygan bo'lsa ham, bechoraga yurakdan achindim.

Meni eng ko'p xavotirga solgan Sanya edi, u deb kechalari uxlay olmay chiqardim, tushimda undan xafa bo'lib, koyirdim, (nima uchun?)u bechora qovog'ini solgani holda, boshini egib tinglab o'tirar edi...

Sobiq «Elit» kinosining kontorida Rozaliya Naumovna sanitar posti uyushtirdi, tuman kengashining mudofaa komissiyasi menga hamshira bo'lib ishlashni taklif etdi, chunki Rozaliya Naumovna mening to'g'rimda «kasal boqishda tajribasi katta» deb aytgan ekan.

– Shuni bilingki, o'rtoq Tatarinova-Grigoryeva, – dedi komissiya a'zosi, shifokor menga shivirlab, – agar bizning taklifga ko'nmasangiz, darhol istehkom qurishga jo'natamiz.

* *Xudfond* – SSSR (Sobiq Ittifoq) sovet rassomlari uyushmasi huzuridagi, rassomlarga moddiy yordam beruvchi tashkilot.

** *Gniloy Yar* – Chirik Jar, chirigan jar degani.

Hamshira bo‘lib ishlashdan ko‘ra istehkomlarda ishlash (leningradliklar uni «okop ishi» deyishar edi), albatta, og‘ir edi. Ammo men ularga rahmat dedim-da, taklifiga ko‘nmadim.

Kechki payt bizni Srednyaya Rogatkadan yana nariga yuborishdi, kechasi bilan tankka qarshi zovur qazib chiqdik. Yer juda qattiq ekan, avval uni kirka bilan urib, keyin belkurakni ishlatishga to‘g‘ri kelar edi. Men, Leningrad nashriyotlaridan birida faoliyat yuritadigan xodimlar brigadasiga tushib qolgan edim, bu brigada «Gitlarga go‘r qazishda» yuksak namunalar ko‘rsatgan edi. Brigada deyarli nuqul ayollardan iborat edi: matn ko‘chiruvchilar, musahhihlar, muharrirlar. Ularning ko‘pining nechundir yasanib kelganini ko‘rib hayron bo‘ldim. Chiroylikkina bir muharrir juvondan nega okop qazigani yasanib keldingiz deb so‘ragan edim, u kuldi-da, «hamma kiyimim shunaqa» dedi. Men uchun bo‘lak dunyo – teatr, adabiyot, san‘at dunyosi, – odamlarning muhiti meni hamisha qiziqtirib kelar edi. Ammo hozir, qo‘llariga kirka olib, toshday yerni qazuvchi chiroyli va o‘qimishli qizlar san‘atdan ancha yiroqda edilar, hatto gap, teatrlardan biridagi so‘nggi premyeradan yoki rassom R. «Silva» spektaklini yomon bezashidan ketganida ham, urushning hidi kelib turar edi, uni hech kimsa unutilmas edi.

Men, qorachadan kelgan bir muharrir qiz bilan birga ishlardim, u menga, «kecha turmush o‘rtog‘im va ikki ukamni frontga jo‘natdim», dedi. U kichik ukasidan ko‘proq xavotirlanardi (o‘zi nimjon, hali o‘smir bola ekan, eri unga shuncha qol, borma desa ham kor qilmabdi, ketibdi. Men ham Sanyadan gapirib berdim, shundan keyin bir-muncha vaqt indamay ishlab turdik), okopning ichiga tushib, zambilni yerga qo‘yamiz, boshqa qizlar zambilni loy bilan limmo-lim qilib to‘ldirishadi, zambilni tepaga ko‘tarib chiqamiz-da, okopning narigi tomoniga ag‘daramiz. Urush boshlangandan beri Sanyadan darak yo‘qligini unga aytmadim. Bundan bir kun avval Sanyaning otryadidagi bir uchuvchining onasiga qo‘ng‘iroq qilgan edim, u Ribinskdan xat oldim, dedi. Balki Sanya ham Ribinskdadir? U yerda yangi qism tuzilayotgan bo‘lsa kerak. Ammo Sanya boshqa shaharda ham bo‘lishi mumkin. Bundan ortig‘ini, qayerdaligini, nimalar qilayotganligini bilmasligim kerak edi. Agar halok bo‘lsa, qayerda, qanday o‘lganini bilmayman. Balki u jon berayotgan paytda teatrdan o‘tirgan bo‘larman, yo uxlab yotgan bo‘larman, yoki odamlar bilan bemalol kulib gaplashib turgan bo‘larman; mana, hozir ham brigada boshlig‘i

ishning qanaqaligini o'ylamasdan, ya'ni boshqa narsalarni o'ylab yurib ishlanglar, dedi. Men sherigimga, sherigim menga qaradik-da, birdan kulib yubordik. Bu maslahat juda joyida bo'ldi, chunki bizning o'ylaydigan gaplarimiz juda ko'p edi.

Sahar paytining kelib qolganini bilmay qolibmiz; osmon bilan yer o'rtasida qimirlamay turgan g'ira-shira havoda birdan tong alomatlari paydo bo'ldi, zenitkarni pana qilib turgan butalarni silab o'tgan shamol xuddi tong shamoliga o'xshardi. Yiroqda, shahar tepasida havo g'ovlari bo'lgan aerostatlar osmonga uchib chiqib, hali ko'tarilmagan oftob nurlari orasiga kirib ketdi, aerostatlar haybatli, ulkan, kumush rangli baliqlarga o'xshar edi.

Tongotarda hammaning rangi ancha qochib qoldi, bir qizning hushi ketdi, ammo shunga qaramasdan, bizning brigadamiz o'z «sabog'ini» boshqalardan avval bajardi. Juda chanqab turgan edim, mening yangi o'rtog'im kvas sotadigan joyga sudrab olib ketdi. Palatkalar ko'hna, tashlandiq cherkov yoniga qurilgan edi, biz navbat kutib turdik, birdan o'rtog'im minoraga chiqamiz, deb qoldi.

Yelkamni ololmay, o'lgudek charchagan bir paytda minoraga chiqish tentaklik edi, albatta, ammo men ham birdan yur, chiqamiz, dedim.

Minoraga chiqib, uchastkamizni qidirib topdim: tuproqqa qoqib qo'yilgan zambil shotisiga devoriy gazeta ilingan joy – bizning uchastka edi, u erga yangi odamlar kelmoqda edi. Nahotki qilgan ishimiz shuncha oz bo'lsa? Ammo bizning uchastka boshqa uchastkaga, unisi yana boshqasiga tutashib ketardi, eni uch metrdan, bir tomoni tikka kesilib tushgach, bir tomoni nishab chuqur okoplar ichida ayollar yer qazir, tuproqni belkuraklar bilan uloqtirib tashlar, zambilga solib, tepaga olib chiqar edilar... Bundan bir oy ilgari ularga uy-ro'zg'oringizni, qilib turgan ishingizni tashlab, kechalari shahardan tashqariga, dalaga chiqib, yer qaziysiz, istehkomlar qurasiz, transheyalar qaziysiz desa qah-qahlab samimiy kulgan bo'lardi... Ammo ular kelishdi, qazishdi, shaharni o'rab olgan, faqat katta yo'llar kelgandagina kesilgan bahaybat istehkomlar tayyor bo'lib qolgan edi.

Hamayog'i kesilib ketgan, Leningrad quyoshining ojiz nurlari yoritgan dalaga qarar ekanman, yuragim g'alati bo'lib ketdi.

Xuddi bo'ronga tutilib qolgan odamday, qo'rqib ketdim. Ammo yurakda yoshlik jasorati ham paydo bo'ldi birdan.

Choshkada uyga qaytdim, kiraverishda Rozaliya Naumovnani uchratdim, u hovliqib, entikib, Nevskiyda bir josusni tutib olganlarini aytib berdi.

– Sep-semiz, mo‘ylovi shopday, xuddi nemisning o‘zi! Tfu! – jirkanchlik bilan tufurdi Rozaliya Naumovna. – Yaxshiyam yonimda Berta yo‘q edi! Ko‘rsa jinni bo‘lib qolardi bechora.

Berta juda qo‘rqoq edi.

Ikkinchi qavatga chiqib to‘xtadik, chunki Rozaliya Naumovna josusni qanday ushlaganlarini aytib bera boshlagan edi. Shu paytda zinadan dukur-dukur qilib tushib kelayotgan bir harbiy kishi bizga yetmasdan, zinadan engashib qaradi, qarasam – Luri ekan.

Luri shturman, Sanyaning o‘rtog‘i edi. Ular Shimolda birga ishlashgan, keyin ajrashib ketgan edi. Sanya qayerda ishlamasin, Lurini tez-tez esga olardi. Ispaniyadiligida menga yozgan bir xatida: «Qani endi, yonimda Luri bo‘lsa!» degan edi. Har zamon-har zamonda Luri biznikiga kelib turar, hamma vaqt kayfi chog‘, maqtanchoq edi, uzun soqol qo‘yganidan ajnabiylarga o‘xshab ketgan edi.

– Katerina Ivanovna! – harbiychasiga salomlashdi u. – Taqillatdim, qo‘ng‘irog‘ingizni chaldim, hech kim ovoz bermaganidan keyin xatni qutiga tashladim.

– Sanyadanmi?

– Albatta.

Luri Rozaliya Naumovna bilan ham harbiychasiga salomlashdi.

U, baxtga qarshi o‘n besh daqiqa vaqtim bor, dedi. Uning oldida xatni o‘qib o‘tirmadim, faqat xatning oxiridagi: «Albatta, diydor ko‘rishamiz, ammo yaqin emas» degan so‘zlar ko‘zimga o‘z-o‘zidan tashlandi.

– Qayerdan keldingiz? Harbiy xizmatdamisiz? Leningraddamisiz? Sanya qayerda?

Luri harbiy xizmatda, ham Leningradda ekan. Bu ikki savolga u darrov javob berdi. Ammo men yana:

– Sanya qayerda? – deb so‘radim.

U bir oz o‘ylab turdi-da, keyin:

– Polkda, – dedi.

– Qayerdaligini aytishni istamaysizmi? O‘zi sog‘mi?

– Otday, – dedi Luri kulib.

Luri «vaqtim yo‘q, faqat o‘n besh daqiqa qoldi» desa ham, Rozaliya Naumovna qahva qo‘ygani kirib ketdi; biz ikkimiz qoldik,

surishtirib-surishtirib allaqayerda (qayerdaligi noma'lum edi), maxsus polk tuzilayotganligini, unga faqat bir yarim ming soat uchgan GVF uchuvchilari qabul qilinishini bildim, ular hozir yangi xil mashinalarda uchishni o'rganishayotgan ekan. «Maxsus polk» degan so'zni eshiti-shim bilan yuragim allaqanday bo'ldi, ammo bu polkning qanaqaligini so'rab o'tirmadim. Baribir, Luri aytmas edi. Men faqat undan Sanya yangi mashinani yana uzoq vaqtgacha o'rganadimi deb so'radim, Luri yana bir oz o'ylab turib, «yo'q, uzoq emas» deb javob berdi. Hamma savollarimga u avval ancha jim turib, o'ylab, keyin javob berar, gar-chand ovozigaga beg'amlik ohangini qo'shmoqchi bo'lsa-da, xavotirlik sezilib turardi.

Sanyaga bir parcha xat yozdim, Luri ketdi, eshikda Rozaliya Naumovna bilan to'qnash kelib qolib, «agar ilojini topsam yana bir kirib ketarman», dedi. Ikkimiz eshik yonida yana bir oz turib qoldik, xayrlashar ekanmiz, birdan bir-birimizni qattiq quchoqladik.

Sanyaning xati g'amginroq ko'rindi, uning g'amginligini faqat men bilardim.

«Qani endi, chol-kampirning oldiga olib ketilsa!» Ammo shu ondayoq sudya bilan Dasha xolaning taqdiridan xavotirlanar edi, chunki juda ehtiyot qilib yozilgan bir so'zidan, garchand Ensk front chi-zig'idan ancha uzoqda bo'lsa ham, bombardimon qilinganligini bilish qiyin emas edi. Xullas, Sanya xunuk bir narsani bilar edi, uning «albat-ta, diydor ko'rishamiz, ammo yaqin emas» deb yozishi ham shundan edi.

Maxsus polk ekan, «nima qipti, yuraging titramasin», – bu gap-larni o'zimga-o'zim aytdim. Bu so'zlarni o'zimga-o'zim aytar ekan-man, yuragim yana o'ynab ketdi. «Ispaniyaga borib omon qaytdi. Faqat unga «senga ishonganman» deb ko'proq xat yozib turish kerak».

O'lgudek charchaganimni mana shunda bildim. Karavotga yotib, ko'zimni yumgan edim, hamma ko'rgan narsalar: tuproq solingan og'ir zambil ko'targan qizlar, taxta yo'ldan g'ildiratib kelayotgan g'altak aravalar, deraza oynalarida qip-qizil bo'lib tovlangan oftob shu'lalari – ostinma-ustun bo'lib ko'rina boshladi.

So'ngra allaqayerdan xira bir yog'du paydo bo'ldi-da, sekin-sekin g'oyib bo'ldi, men ham uyquga ketibman. Faqat orqamdan biron uzoq vaqtgacha yo ingrar, yo mungli bir ashula aytar edi, agar shu bo'lmasa rohatim to'la bo'lar edi...

– Katya, trevoga!

Rozaliya Naumovna yelkamdan turtib meni uyg'otar edi.

– Turing, trevoga bo'ldi!

...Iyul oyining oxirida Nevskiy ko'chasida Varya Trofimova degan bir ayolni uchratdim, uning ham turmush o'rtog'i uchuvchi, sobiq Sovet Ittifoqining Qahramoni bo'lib, bir vaqtlar Sanya bilan birga «maxsus aviatsiya»da ishlagan edi. O'sha kezlarda biz Varya ikkimiz turmush o'rtoqlarimiz oldiga – Saratovga borgan edik, o'shanda uning tish shifokori ekanligini bilib, hayron qolgan edim.

Varya Trofimova balanddan kelgan, yuzlari qip-qizil, baquvvat, qadamlari dadil juvon edi. Ayniqsa oppoq va yirik tishlarini ochib qahqahlab kulganida, Kiraga o'xshab ketar edi.

– Mening Grisham Berlinni bombardimon qilibdi, – dedi u, og'ir nafas olib. – O'qidingizmi?

Mening o'ylanib qolganimni ko'rib, Varya «avval qanday ishligini borib ko'rish kerak» dedi, «bir oyimtillaga taklif qilgan edim, ikki kun ishlab ketib qoldi, u kishiga kasalxonaning hidi yoqmabdi».

Varya «oyimtillalar»ni juda yomon ko'rar edi, buni ham o'sha Saratovga borganimizda bilgan edim.

Rostini aytish kerak: kasalxonaning hidi haqiqatan yomon edi, buni ikki tomoni palatalar bo'lgan yo'lakka kirishim bilan bildim. U yerning hidi shu darajada ediki, kirishim bilan ko'nglim aynib, Varya Trofimova meni boshqa hamshiralalar, rentgenolog, bosh shifokorning turmush o'rtog'i va yana allakimlar bilan tanishtirib bo'lgunicha qayt qilgim kelaverdi.

Bu yerda yuzlaridan o'q yeb yarador bo'lganlar yotar edi. Men kirishim bilan palataga butun yuzini mina uchirib ketgan bir yosh yigitni olib kelishdi.

Shu odamlarga qarab yurar ekanman, ularga doim tasalli berish, yuzingizda jarohat o'rni qolsa zarari yo'q, faqat sabr qilib yotsangiz bo'lgani, keyin ko'rinmay, yo'q bo'lib ketadi, deyishga to'g'ri kelar edi. Undan keyinroq dala xirurgiyasi klinikasida ham ishladim, bu yerda ham yarador bo'lgan odam o'zining xunuk bo'lib qolishidan qo'rqishini, har bir yarador o'zining abjag'i chiqib ketgan yuziga tinmay qarashini, kasalxonadan chiqish oldida nuqul oynaga termilib, biron joyimni epaqaga keltirarmikinman deb orzu qilishini ko'rdim...

Ba'zan, «hech narsa bilinmay ketadi» degan so'zlarni aytmasdan to'g'risini aytar edik. Ilgarilari men, odamga yangi burun yasash yoki bironovning yuziga boshqa et payvand qilish mumkinligini bil-

mas edim. Ko'p vaqtlar biror yaradorning yarasini bog'laganingda qo'rqib ketarding, bir-ikki oydan keyin o'sha yarador kishi o'z qis-miga soppa-sog' bo'lib qaytar, ba'zida uning yarasidan asorat ham qolmas edi.

Stomatologiya klinikasida ishlash menga qiyin edi, ayniqsa dast-labki kunlari juda qiynaldim, ammo men bundan xursand ham edim. Har bir so'zingni avval o'ylab, so'ngra aytish, yuraging siqilib ketgan paytlarda o'zingni tiya bilish – menga yoqardi.

Petyaning qismi Universitet qirg'og'ida joylashgan edi. Bolalar Leningraddan jo'natilishi bilanoqu xalq qo'shiniga yozilgan edi. Bo'sh vaqtlarimda uning oldiga borib turardim, ikkimiz daryo bo'yiga qa-lab qo'yilgan xodalarga o'tirib gaplashardik, yo bo'lmasa Filologiya instituti bilan Abulxavllar (Sfinks) o'rtasida yurib turardik. Boshqa haykal va yodgorliklar joyidan ko'chirib olingan yoki ustlariga qum solingan qoplar qalab qo'yilgan edi, ammo Abulxavllar 1941-yilning 22-iyunigacha bo'lgan tinch davrda qanday yotgan bo'lsa, hozir ham shunday ochiq yotar edi. Ular Neva bo'yidan, odamlarning ivirsib yurishlariga beparvo qarab yotar edilar, ko'zlari keng ochilgan, oyoq kaftlari yerni mag'rurona bosib turar edi. Petya shu Abulxavllarga qaraganda yuzi allaqanday mehribon va mug'ambir tus olib ketardi.

– Bitta shunaqa oyoq yasang, keyin o'lsam ham mayliy-di, – dedi bir kuni; so'ngra anchagacha bu oyoqning nima uchun ajoyib oyoqligini menga tushuntirib berdi.

Rozaliya Naumovna bilan birga uning hamma ust-boshi o'zinikidan ancha yomon bo'lsa-da, hech narsa olmay ketdi. Umuman, u tezroq ha-qiqiy askar bo'lib olishga tirishar edi.

AKA

Bundan bir kun avval men uning oldiga borib kelgan edim. Menga hech narsa demagan edi, taxminimcha, buyruq kechasi kelgan bo'lsa kerak. Men ishda edim. Rozaliya Naumovna meni telefonga chaqirib, Petya qo'ng'iroq qildi, «kelsin, iloji bo'lsa hozir kelsin, har holda tush-gacha kelsin» deb aytdi, dedi. Ishim tushda tugar edi, ammo o'rnimga Varya Trofimovani qo'yib, ruxsat oldim-da, soat hali o'n bo'lmasdan, Filologiya institutiga yetib bordim. Petyaning batalonidagi bir tanish jangchi derazadan ko'rinib qolgan edi, chaqirdim.

– Skovorodnikovnikimi? Hozir to'g'rilaymiz...

Petya darvozadan shoshib-pishib chiqdi, salomlashdik-da, Neva bo'ylab Abulxavllar tomonga qarab ketdik.

– Katya, biz bugun ketadigan bo'ldik, – dedi Petya. – Men juda xursandman.

U jim qoldi, hayajonlanar edi.

– Hech kim bilmas edi. Biz yaqinda mashq qilgani ketishimiz kerak edi. Ahvol o'zgargan bo'lsa kerak.

Men boshimni egib «ha» dedim. Keyingi kunlarda yaradorlar Luga yaqinidan keltirila boshlangan edi – vaziyatning o'zgariganligini bilish uncha qiyin emas edi.

– Men bir necha xat yozib qoldirdim, – davom etdi Petya, sumkasini titkilab. – Sizdan so'ramoqchi edimki... Mana bunisini yubormang, o'zingizda tursin.

U sumkasidan xatjildi yopishtirilmagan, manzil ham yozilmagan bir xat chiqarib, menga uzatdi.

– Mana bu – Petkaga. Meni...

U «meni o'ldirishsa» demoqchi edi, hatto lablarini rostlagan edi ham, ammo birdan yosh bolalarga o'xshab jilmaydi.

– Albatta, berganingizda ham hozir emas, biron o'n yillardan keyin...

– Sanya hech vaqt bunday xatlarni yozmas edi...

– Uning farzandi yo'q.

Aftim burishgan bo'lsa kerak, Petya mening ko'nglimni og'ritdimmi deb qo'rqdi... To'xtadik, u mening qo'limni ushlab mahkam siqdi.

– Sanyadan xat bormi? Hozir qayerda u?

– Bilmayman.

– Men unga PPSga xat yozgandim, javob kelmadi. Baribir, u tirik, unga hech narsa bo'lmaydi.

– Nega?

U bir oz jim qoldi.

Unga hech narsa bo'lmasligiga ishongim keladi. Uning: «Osmon menga hech xiyonat qilmaydi, ammo yerga ishonmayman» degani esingizdami?

Rost, Sanya bir kuni shunday degan edi. Ammo uning aytganiga ancha vaqt o'tib ketgan, hozir, urush ketayotgan vaqtda, bu so'zlar allaqanday quruq va bema'ni eshitilar edi.

– Mana bunisi – otamga, – dedi Petya, sumkasidan yana bir xat olib. – Agar tirik qolgan bo'lsa. Ko'rdingizmi, hammasi pochta

orqali yuborib bo'lmaydigan xatlar, – dedi u, achchiq ohang bilan. – Mening asarlarimni Rus muzeyiga olishadigan bo'lishdi. Gaplashib qo'ydim.

Og'zim ochilib, hayron bo'lib qolibman.

– Shunchalik-da, – dedi u, shoshilib. – Meni o'ldirishlari mumkin emas, har ehtimolga qarshi. Kostochkin ham shunday qildi. Lifshits ham, Nazarov ham.

U aytgan odamlar rassomlar edi.

– Har narsa bo'lishi mumkin... Ha menga emas, axir, – dedi u toqatsizlanib. – Yo siz Moskvani bombardimon qilib, Leningradga tegmaydi deb o'ylaysizmi?

Men bunday bo'lar deb o'ylamas edim. Ammo u, o'z ishlarini shunday saranjomlab, bir yog'lik qilar ediki, xuddi omon qaytishga umidi yo'qday.

– Biz hanuzgacha urush o'z yo'li bilan, biz o'z yo'limiz bilan deb o'ylaymiz, – dedi u xayolga cho'mib. – Ammo biz – urushning o'zi ekanmiz.

Axir u qo'limga soatini tiqishtira boshlagan edi, jahlim chiqib, o'lgudek koyib ketdim, u kuldi-da, soatini yana cho'ntagiga solib qo'ydi.

– Qiziq ekansiz, menga kompasli yangi soat berishdi, axir, – dedi u. – Mening kimligimni bilasizmi, Katya? Men kichik leytenant bo'laman, men bilan hazillashmang!

Harbiy xizmatni boshlaganiga atigi bir oy bo'lgan edi, shuning uchun kichik leytenant nomini qanday olganini bilmas edim. Ammo u akademiya harbiy kursni o'tganman, zahiradagi komandir edim, dedi.

Biz Abulxavllar yonigacha bordik va har safargidek, daryoning panjarasi sinib tushgan yerida to'xtadik. Petya og'ir uh tortdi-da, Abulxavllarga qarab turdi, – vidolashganmikin? Uzun bo'yli bu yigit, boshini baland ko'tarib turardi, uning mag'rur va xayolchan ko'zli chehrasida allaqanday shunqorlik borligi sezilardi. Bundan ancha keyin uning batalyon komandiri menga Petya haqida gapirganida, «O'limni pisand qilmaydigan odam» degan edi. Ajabo, xuddi shu kuni, Petya bilan Abulxavllar yonida xayrlashgan kuni, uning mag'rurligini, o'limni pisand qilmasligini bildim.

Petenkani o'z o'g'lim qatorida ko'rishimni u bilar edi. Ammo buni yana bir marta aytish kerak bo'lsa kerak. Vidolashish vaqti-

da ko'nglingdagi hamma gaplarni aytishing kerak, buni hech kim bilmasa ham, men bilishim kerak edi! Ammo nechundir men hech nima demadim, keyin uyga qaytib, hech nima demaganimga achindim.

U yana qo'limdan ushladi. Mahkam quchoqladi-da, sekingina:
– Singlim... – dedi.

Men uni institutgacha kuzatib qo'yib, Petrogradskaya tomonga ketdim, garchand uyqusiz kechadan keyin o'lgudek charchagan bo'lsam ham, piyoda ketdim.

Kun issiq edi, Rastrelli ustunlari yoniga yotqizilgan asfalt erib, yumshab ketgan edi. Birja ko'prigining narigi tomonida turgan barkalar (yuk tashiydigan yassi daryo kemasi)dan smola hidi kelib turar, ajoyib bag'rikeng Neva ikkiga bo'linib, o'z yo'nalishida sokin oqib borar edi. Atigi yuz kilometr narida nemis askarlari terga cho'mib, hayvoniy g'ayrat bilan shu binolar yoniga, Nevaning jilvalanib oqishiga, Birja ko'prigi bilan Saroy ko'priklari o'rtasida qurilgan yosh, yangi skverga qarab intilishlarini o'ylasang, g'alati tuyiladi, ishonmasding, kishi.

Ammo hozircha atrof tinchlik, sokin edi, skverda bolalar o'ynab yurishar, qo'lida temir cho'p ushlagan keksa qorovul bog' yo'lkalari-dan yurib turar, ba'zan cho'pga qog'oz taqib olmoq uchun to'xtab-to'xtab olardi.

ENDI IKKIMIZ TENGMIZ

Ilgari Sanya bilan uchrashgan hamma kunlar xotiramda yod bo'lgani kabi, endi undan xat kelgan kunlar ham esimdan chiqmas edi. Ikkinchi xatni, (agar meni «Pira-Poleykin» deb atab yozgan kichkina xatini hisobga olmaganda) 7-avgust kuni oldim; keyinchalik bu kun ko'p marotaba tushimga kirib yurdi.

O'sha kuni kechasi gospitalda emas, uyda yotgan edim; Erta azonda turib, Rozaliya Naumovnani qidirgani chiqib ketdim, chunki uy yolg'iz qolar edi. Rozaliya Naumovna hovlida ekan, yonidagi uchta bolaga bo'yoq qorishni o'rgatayotgan ekan.

– Suyug'i ham yaramaydi, quyug'i ham, – derdi u. Taxta qani? Vorobev, qashinma. Taxtaga surtib ko'ringlar-chi. Bitta-bittadan, shoshilmanglar.

Men bilan ham xuddi shunday ohangda gaplasha boshladi:

– Yong‘inga qarshi choralar: cherdak hamda binolarning tepa qismlarini bo‘yashdan iborat. O‘tga bardosh beradigan moddalar. Bolalarga bo‘yashni o‘rgatayapman.

– Rozaliya Naumovna, – dedim men, bir oz qo‘rqa-pisa, – uyga tez qaytasizmi? Menga qo‘ng‘iroq qilishmoqchi edi.

Men Rus muzeyidan qo‘ng‘iroq qilishlarini kutardim. Petyaning rasmlari allaqachon tayyor turardi, ammo hech kim kelib olib ketmas edi.

– Bir soatdan keyin qaytaman. Cherdakka chiqib, bolalarning har biriga topshiriq beraman-da, bo‘shayman. Iya, esim ham qursin, Katya! – dedi u, birdan bir narsa esiga tushib. – Sizga xat kelgan edi! Qo‘llarim bo‘yoqda, o‘zingiz olaqoling cho‘ntagimdan!

Uning cho‘ntagiga qo‘l solib, xatni oldim. Xat Sanyadan kelgan ekan.

Sanyadan xat kelganida har safar avval nari-beri ko‘z tashlab chiqardim (ko‘ngilni bosish uchun), keyin bafurja o‘qirdim. Bu safar shunday qildim.

«Grisha Trofimovni bilarmiding? – deb yozardi xatning oxirida, – bir vaqtlar biz u bilan birga ko‘llarga o‘t sochar edik. Kecha biz uni ko‘mdik».

Grisha Trofimovni uncha bilmas edim, chunki men Saratovga borishim bilan u allaqayoqqa uchib ketgan edi, uning Sanya bilan bir polkda xizmat qilishini ham bilmas edim. Ammo ko‘z oldimga darhol Varya, bechora Varya keldi, xat qo‘limdan tushib, varaqlarini shamol uchirib ketdi.

...Gospitalga ketishim kerak edi, ammo men, kalitni Rozaliya Naumovnaga berganimni unutib, nechundir yana uyga qaytdim. Zinada «olim enaga»ni uchratdim, enaga hech ishga o‘rnasha olmayman, hamma «ovqat yetishmaydi» deb hech kim ishga olmaydi, bir uy xodimasi gulchilik trestiga kirib oldi, unaqa ishlarga mening madorim yetmaydi, deb noliy boshladi. Uning gapini tinglar ekanman, xayolim Varyada edi, «Bechora Varya, bechora Varya» derdim nuqul.

Gospitalga borib, «stomatologiya»ga kirmadim, chunki u meni ko‘rib qolishi mumkin edi, xatni yana bir marta o‘qib chiqdim. Birdan miyamga ilgari Sanya bunday xatlar yozmas edi, degan fikr keldi. Qrimda turganimizda bir kun uyga juda charchab kelib, kun dimligidan boshim og‘riydi deb nolidi. Ertasiga ertalab shturmanning rafiqasi aeroplanning osmonda yonib ketganini, bomba ortilgan aeroplanni

movna Leningraddan ketish to'g'risida eshitgisi ham kelmas, Bertani esa yolg'iz jo'natishdan qo'rqar edi.

...Uyning ichi bo'shab, huvillab qolgan edi, darcha tirqishlaridan tushgan quyosh nurlari divan va boshqa narsalarni g'ira-shira yoritardi. Men Bertaning yoniga borib o'tirdim-da, xayol surib ketdim, keyin meni ustlariga jild qoplangan mebelli uydin, bolalarga xos bo'lgan qiziqish bilan qog'ozdan dastro'molchalar yasab o'tirgan oriqqina kampir yonidan olib ketgan xayollardan o'zimga keldim.

– Shunaqa qilaversang, jinni bo'lib qolganingni bilmaysan, kishi...

Bu gap og'zimdanda chiqib ketgan bo'lsa kerak, Berta bir dam boshini ko'tardi-da, xayolchan ko'zlari bilan menga qaradi.

– Narigi uyda sizni bir kishi kutib o'tiribdi, Katya, – dedi u, bir oz xayol surgandan keyin.

– Kim ekan u?

– Bilmadim.

Men o'z bo'lmamga yugurib kirdim. Kirib qarasam, mutlaq begona bir mo'ysafid kishi ikki qo'lini ko'kragiga qo'yib, uxlab yotibdi.

– U meni tanir ekanmi, shunday dedimi? – deb so'radim Bertadan, uydin oyoq uchida chiqib.

– Roza gaplashgan edi. Ha, nima?

– Hech nima emas-ku, ammo bu kishini umrimda birinchi ko'rishim.

– Rostdanmi? – deb so'radi Berta, qo'rqib ketganidan rangi oqarib. – Sizni taniyman deb aytdi bo'lmasa!

Men uni darhol tinchitib qo'ya qoldim. Ammo mening hech bunaqa soqoli uzun, burnida ko'zoynakning izi qolgan, mo'ysafid tanishim yo'q edi. Kulgim qistab ketdi. Ana, xolos! U yana dengizchi ekan, kiteli va gazniqob sumkasi stulga ilib qo'yilgan edi.

Nihoyat u uyg'ondi. Uzoq bir homuza tortdi-da, ko'zoynaklarini paypaslab topdi. Men bir yo'talib qo'ydim. U o'rmidan irg'ib turdi.

– Katerina Ivanovna sizmisiz?

– Ha.

– Xullas, Katya – siz bo'lasiz, – dedi kulib, vaqtixushlik bilan. – Ajabo, kelibman-u, birdan uxlab qolibman.

Men hamon og'zimni ochib hayron bo'lib turardim.

– Meni tanimaysiz, albatta. Ammo sizning Sanyangiz bilan biz... ajabo, qachondan beri tanishmiz?

U ichida sanab chiqdi.

– Yigirma besh yildan beri. Rosa yigirma besh yildan beri tanishmiz!

– Ivan Ivanovichmisiz?

– Ha, barakalla!

U shifokor Ivan Ivanovich ekan, Sanya menga uning to‘g‘risida ko‘p gapirar edi. Sanyani gapga o‘rgatgan shifokor shu edi-da! Uning Sanyaga o‘rgatgan: «Abram, tovuq, yashik» kabi birinchi so‘zlari hali ham esimda edi. U Sanya bilan birga Vanokanga uchgan ekan, agar shu shifokor bo‘lmaganida, Sanyaning ishi chatoq bo‘lishi mumkin ekan. Axir, uch kungacha ular bo‘ronda tutilib qolishgan ekan-da! Hatto Sanya shifokorni entikib maqtaganida ham ko‘z oldimga allaqanday afsonaviy, xayoliy manzaralar kelardi. Darhaqiqat, bu shifokorning qip-qizil yuzi, semiz burni, burniga qo‘ndirilgan ko‘zoynagi, har damda silkitib turgan uzun-uzun qo‘llari xuddi doktor Aybolitga o‘xshardi.

– Men bo‘lsam kim ekan bu kishi deb boshim qotib o‘tiribdi. Xo‘sh, qayerlardan keldingiz, doktor? Siz allaqayerda, uzoq bir tomonlarda edingiz-ku?

– Yo‘q, uncha uzoqda emas. Oltmish to‘qqizinchi parallelda.

– Dengizchimisiz?

– Dengizchi barno yigitlardanmiz, – dedi shifokor kulib. – Barisini aytib beraman. Avval bir piyola choy bo‘lsa.

Men choy qo‘ygani yugurib chiqdim. Keyin qaytib kirib, bir vaqtlar Ensk shahri yaqinidagi qor ostida qolib ketgan xilvat qishloqda shifokorning esidan chiqib qolgan stetoskopini Sanya hali ham yonida olib yuradi, dedim.

Shifokor kuldi. Bir necha daqiqadan keyin ikkimiz xuddi bir-birimizni ming yildan beri tanigan eski qadrdonlardek, gaplashib o‘tirdik. O‘zi ham shunday edi-da, ming yil bo‘lmasa ham, har holda anchadan beri tanish edik, Sanyadan uning ta‘rifini eshitganimdan beri.

Shifokor flotda xizmat qilar ekan, flotga yaqinda, urush boshida kirgan ekan. Garchand Nenets milliy okrugi qarshilik ko‘rsatsa ham, Ledkov degan bir kishi bir kuni kechasi bilan uni qolishga ko‘ndirsa ham bo‘lmabdi, o‘z ixtiyori bilan ketibdi. Shifokorning o‘g‘li Volodya ham armiyada, Leningrad frontida ekan, doktor dunyoning bir burchagida qo‘l qovushtirib o‘tirishdan frontga borib xizmat qilishni afzal ko‘ribdi. Shundan keyin uni Polyarnoyega, suvosti flotining bazasiga tayinlashibdi. Polyarnoye bilan Zapolyaryening o‘rtasida farq

bor ekan. Polyaroye Zapolyaryedan ikki ming kilometr narida, Kolsk ko'rfazidagi harbiy shaharcha ekan. Polyaroyedagi dengiz uchuvchilari unga Sanya ADD (aviatsiya dalnego deystviya – uzoq masofaga uchadigan aviatsiya)da ishlaydi, bir necha marta Kenigsbergga uchdi, ovozalarga qaraganda, ADD polklaridan biri yaqinda Shimolga uchib kelar emish, deyishibdi.

– Kenigsbergga dedingizmi? Mening hech xabarim yo'q.

– Ana, xolos, – dedi doktor, achchig'i kelib. – Siz bilmasangiz, kim bilsin buni?

– Qayerdan bilay? Sanya o'lsa ham bunday gaplarni yozmas!

– To'g'ri, – rozi bo'ldi doktor. – Baribir, bilishingiz kerak, bilishingiz kerak.

Choy keltirdim, bir piyola choy ichdi-da: «Rohat» dedi.

– Frontlarda hozir ahvol og'ir, – dedi u. – Volodyani ko'rdim, u ham og'ir deydi. Ayniqsa, Leningrad yonida og'ir. Iya, shoshmang, men sizga xat olib kelganman-ku!

– Kimdan?

– Eski qadrdoningizdan, – dedi doktor, menga sirli ravishda qarab. Gazniqobi yonida osig'liq bo'lsa ham, atrofni qidira boshladi, xatni gazniqobga solib qo'ygan bo'lsa kerak. – Volodya bilan bir qismda xizmat qilar ekan. Sizning Leningraddaligingizni menga o'sha kishi aytdi-da. Bir yoqqa jo'nab ketayotgan ekan, mana shu xatni berib qo'ying, dedi.

Xatjildga «Yekaterina Ivanovna Tatarinova-Grigoryevaga tegsin» deb yozilgan edi, manzil ham to'liq yozilgan edi. Basharti meni doktor topolmasa, gospital manzili ham mukammal yozilgan edi. Xati aniq va oydin, ammo men tanimas edim. Men xatjildga hayron bo'lib qarab o'tirardim. Maktub Romashovdan kelgan edi.

– Xo'sh, qalay? – dedi doktor tantana bilan. – Tanidingmi?

– Tanidim. – Xatni stol ustiga tashladim. – Siz u odamni taniy-sizmi?

– Volodyaning oldiga borganimda tanishdim. Juda odamoxun ekan, Volodya shu odam bo'lmasa ishim chatoq bo'lardi, deydi. Juda yaxshi odam ekan. Afsuski, ketib qoldi.

Men bir nima deb qo'yaqoldim.

– Juda yaxshi odam ekan, – davom etdi doktor.

– Qiziq, mening Leningraddaligimni qayerdan bilar ekan?

– Ana, xolos! Sizning oldingizga kelmaganmidi?

Men indamadim.

– Ha-ha, – dedi doktor, ko‘zoynagining ustidan menga qarab. – Men uni sizning qadrdon do‘stingiz deb o‘ylagan edim. U menga sizning butun hayotingizni, ayniqsa keyingi yillardagi hayotingizni aytib berdi, men bilmagan ko‘p narsalarni gapirib berdi.

– Keling, qurib ketsin u! Yana choy quyib beraymi?

Doktor yana bir stakan choy ichib, keyin meni shokolad va kakao bilan mehmon qildi.

– Ajabo, – dedi u xayolga cho‘mib. – Xatini o‘qimaysiz hammi?

– Yo‘q, o‘qiyman.

Xatjildni yirtib ochdim. Xatda: «Katya, darhol Leningraddan keting, – deb yozilgan edi. – O‘tinaman sizdan. Bir daqiqa fursatni ham boy bermang. Men ko‘p narsani bilaman-u, ammo xatda yozishning iloji yo‘q. Mening muhabbatim o‘z panohida asrasin sizni, qimmatligim Katya! Mana, ko‘rdingizmi, qanday so‘zlarni topib yozdim. Leningradda yolg‘iz o‘zingizning qolishingizdan xavotirlanmasam, shunday so‘zlarni yozarmidim. Tixvingacha mashinada borish mumkin. Agar poyezdlar qatnasa, poyezdda borganingiz yaxshi. Bilmadim, jonim, bilmadim! Sizni yana ko‘rarmikinman, jonim, qimmatligim, baxtim va hayotim Katya...»

SHIFOKORNING XIZMATI

Biz har kuni kechqurun Petrogradskayadagi kvartiramizda yig‘ilishib turardik. Bir kuni Varya Trofimovani ham chaqirdim, doktor bilan turmush o‘rtog‘i haqida birinchi marta gapirdi. Avval doktor turmush o‘rtog‘i haqida juda oddiy bir gapni so‘radi, u javob berdi, shu onda uning o‘zi eri haqida juda gapirgisi kelgani, o‘z dardini o‘z ichida yutib ketish naqadar qiyin ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ertasi kuni Varya bir qancha rasm va eski xatlarni olib keldi, ikkimiz Saratovga borganlarimizni esladik, hatto ozgina yig‘lab ham oldik, – u vaqtlar allaqachon o‘tib ketgan, o‘zimiz ham yosh-yosh qizlar edik-da, axir! Men uni uyiga kuzatib qo‘yganimda uning ko‘zlari sokin, g‘amgin edi. Shundan keyin uning ko‘ngli ancha ko‘tarilib yurdi.

Bu – shifokorning xizmati edi.

Shifokor kelganidan beri o‘tgan hafta ichida Leningrad frontida vaziyat yanada og‘irlashdi, nemislar yangi kuchlar keltirib, ertalabdan trevogalar boshlanadigan bo‘ldi. Sanyadan xavotirlanaverib,

kechalari yomon uxlab chiqardim. Bir kuni kechqurun ustimdagi kiyimimni yechmasdan endi yotgan edim, doktor eshikni qoqib kirdi-da, qorong'ida qo'limga kichkina ayiqcha qo'g'irchoqni qis-tirdi.

– Pankov ishlagan, – dedi u. – Nenetslarning eng o'tkir usta-si. Mandan esdalik. Doktor Ivan Ivanovich nomidan shu oq ayiqcha sizga hamisha Sanyaning tirik ekanligini bildirib turadi.

Albatta, bu bema'ni va bachkana gap edi, ammo yuragim siqilib-siqilib ketgan paytlarda sumkamdan shu ayiqchani olib qaragam, xudo haqi, ko'nglim ancha ko'tarilar edi.

Ertalab shifokor odatda yo ashula, yo g'alati hajviy she'rlar ay-tardi, hammasini o'zi yozgan bo'lsa kerak; keyin anchagacha van-naga tushib cho'milar va cho'milish bilan nemis aeroplanlarining hujumi o'rtasida sirli aloqa bor dedi: endi vannaga tushishim bilan trevoga boshlanadi, derdi. Bir necha marta xuddi shunday bo'ldi-da o'zi! Nonushtaga alomat va hali qurimagan soqolini artmay kelardi, kelishi bilanoq, stulni ko'tarib menga irg'itar, men uni tutib olib, yana o'ziga otishim kerak edi. Juda alomat, qiziq odam edi doktor. U hamisha hammani hayratda qoldirib yurardi.

U biznikida turgan hafta juda yaxshi va xushvaqt o'tdi. Bo'ron turgan, momaqaldiroq gumburlagan dahshatli bir paytda inson ovozi eshitilganday bo'lardi.

Ammo bir kun kelib, xaltasini bog'lab, Leningradga sotib olgan kitoblarini yig'ishtirib otlandi.

Men uni kuzatgani chiqdim...

Shu mahalgacha Nevskiyda odamning shuncha ko'pligini ko'rmagan edim. Ayollar charchagan, chang bosgan bolalariga xavo-tirlik bilan qarab-qarab, kichkina g'altak aravalarga tugun, sandiq, jomashovlar ortib sudrab borar edilar... Qishloqlardan kelgan, quyosh-dan qoraygan mo'ysafidlar katta yo'l yoqasidan xalq oqimiga qarab borar edilar. Ular kolpinolilar, Detskoye selolilar edi... Shahar tevaragi aholisi shaharga ko'chib kelmoqda edi!

Moskva vokzaligacha rosa ikki soatda yetib boribmiz. Maydondan o'tib borar ekanmiz, doktorning qopini yelkasidan olib, o'zim ko'tarib ketdim. Qopni yaxshilab ko'tarib olmoq uchun Staro-Nevskiy ko'chasining burchagida to'xtadim. Ivan Ivanovich mandan oldinroqda ketaverdi. Vokzalning bag'rikeng eshiklari bo'sh, kimsasiz edi, bu menga g'alati tuyuldi.

«Yo endi poyezdga Ligovkadan tushishadigan bo'ldimi» deb o'yladim.

Ajabo, shu daqiqa esimda juda yaxshi qolgan: quyosh nurlariga cho'mgan Qo'zg'olon maydoni, dengizchilar kiyadigan uzun shinel kiygan va zinadan chiqib borayotgan baland bo'yli shifokor, uning zinaga tushgan soyasi, kimsasiz, huvillab qolgan vokzal eshigi... – hech esimdanda ketmaydi.

Eshik berk edi. Doktor taqillatdi. Temiryo'lichilar formasini kiygan, to'ladan kelgan bir ayol eshikdan boshini chiqarib qaradi-da, allanima deb ikki og'iz gapirdi. Doktor birmuncha vaqt qimirlamay turib qoldi-da, shoshilmay mening oldimga qaytdi. Chehrasi jiddiy edi.

– Qani, Katya, qopni menga bering, – dedi, – uyga ketsak ham bo'ladi. Poyezdlar to'xtab qolibdi...

Doktor bir necha kundan keyin uchib ketdi.

CHEKINISH

Frontning shu uchastkasiga haydovchining birinchi marta borishi ekan, yo'l ayrilgan joylarda to'xtab, xaritaga qarab olishga to'g'ri kelardi. Yo'lga chiqqanimizga bir soatdan oshgan edi, nemislar Leningraddan hali ancha yiroqda ekan-da, deb hayron bo'lardim. Ammo biz borayotgan joy – Gostilitsi, Oraniyenbaum va undan nari – Koporye – frontning eng yiroq uchastkasi edi. Dengizchilar bu joylarni uzoq masofaga otadigan zambaraklarning o'qlari bilan pana qilib turar edilar.

Biz xalq qo'shini diviziyasiga ketayotgan edik, yo'lda ketaturib, zora Petyani uchratsam deb o'ylardim, chunki Petya xuddi shu diviziyada edi, men hatto polk komissarining familiyasini ham bilar edim.

...Ro'paramizdan shatak mashinalar pachaq qilingan zambaraklarni sudrab olib kela boshladi. Yengil yarador bo'lganlar ikki kishilashib, uch kishilashib, chang bosgan ochiq yo'llardan sudralib kelar edilar. Oldimizda, yo'lning bir yeri dushman o'qi ostida ekan, chehrasi bolalarning chehrasiga o'xshagan do'ndiqqina Panya degan sanitar qiz menga shunday dedi. U sochlarini boshiga chamberak qilib tarab qo'ygan, mashina har safar sakraganda, u qotib kular edi.

Dushman o'qi ostida bo'lgan joydan eson-omon o'tib oldik, ammo orqamizda bir-ikki zambarak o'qining portlaganini eshitdim, mashinaning orqa eshigini qiya qilib ochib qaragan edim, osmonga to'zigan

chang ham yaqqol ko'rindi. Mashina yelganicha qishloqqa uchib kirdi, haydovchi mashinani to'xtatdi, mashinaning bir qanoti singanini ko'rib, o'zidan o'zi so'kina boshlagan edi, biz Panya ikkimiz medsanbat komandirini qidirib ketdik.

Qishloq eng oddiy qishloqlardan edi, undagi hamma narsalar ham oddiygina: yangi toldan yasalgan va ba'zi joylari novdalay boshlagan chetan devorlar, qo'ralarda g'ishtdan qilingan o'choqlar, eshiklari uzilib birgina oshiq-moshiqda ilinib yotgan omborlar. Diviziyaning shtabi shu yerda joylashgan edi, oldingi liniya esa bundan ikki-uch kilometr narida, kamariga kattakon to'pponcha osib olgan, ustiga shim kiygan bir sanitar qizning aytishicha, «huv anavi o'rmoncha yonida» ekan; u ko'rsatgan tomonda ko'ringan maysazordan siyrak bir o'rmoncha boshlanib, uning narigi tomonidagi qayinzor quyosh shu'lalarida tovlanib turar edi.

Yaradorlarni kechqurun, qosh qorayganda olib ketish buyurilgandi, shuning uchun fursatdan foydalanib, Petyani qidira boshladim. Yaradorlardan so'radim, sanitarkalardan so'radim, (hamma «shu komissar barcha komandirlarni biladi» degan edi). Petya xizmat qiladigan polk komissari kecha o'ldirilgan ekan, buni menga siyosiy bo'limda aytishdi.

Yoqasiga ikki shpal taqqan, darozdan kelgan baquvvat bir kishi (u siyosiy bo'lim instruktori ekan):

– Skornyakov ham o'lgan, halok bo'lgan, – dedi.

Buni eshitib, rangim oppoq oqarib ketgan bo'lsa kerak, og'ziga olib borgan qoshig'ini ko'targanicha turib qoldi (men ovqat ustidan chiqib qolgan ekanman). So'ngra, atrofga qaradi-da, so'rida ustiga shinel yopib yotgan odamdan yo'g'on tovush bilan so'radi:

– Ruben, Skornyakov halok bo'lganmi?

Shinel tagida yotgan komandir, uning so'zini tasdiqladi.

– Skovorodnikov! – dedim men chinqirib. – Nega Skornyakov bo'ladi? Mladshiy leytenant Skovorodnikov!

– Skovorodnikov? Tanimayman. Ovqat yedingizmi?

– Yedim, rahmat.

Siyosiy bo'limdan chiqqanimda oyoqlarim dag'-dag' qaltirar edi...

Qishloq ustida aeroplan aylanib yurar, sanitarkalar uylarning orqa tomonlaridan, pastqam joylardan yurib o'tar, ularning: «Mamsya, yerga yot!» degan ovozlari eshilib turardi. Snaryadlar endi ko'chalarga kelib tusha boshladi, nemislar endi batareyalarni emas,

balki qishloqni o'qqa tuta boshlagani ma'lum bo'lib qolgan edi. Biznikilar chekinishdi, qishloq bir zumda shinellari loyga belangan kishilar bilan to'lib ketdi-da, shu ondayoq yana bo'shab qoldi. Burni bukir, lablarini mahkam chimgan bir o'smir bola medsanbatga yugurib kirdida, suv so'radi. Panya unga suv berdi, uning suv berishida shuncha mehribonlik sezilar ediki, bunday holni sira ko'rmagan edim; yigitning suv ichishiga, tomoq olmasining qimirlashiga, biznikilar chekinib ketayotgan yo'lga xo'mrayib qarashlariga men qarab turdim.

Soat sakkizdan keyin biz ham jo'nadik, biz bilan birga butun medsanbat ham ko'chib ketdi. Yaqindagina shinam, tovlanib, jilvalanib turgan qayinzorni endi o't olgan, alanganib yonardi, shamol uning qalin va achchiq tutunini ustimizga uchirib keltirar edi. Bu bizga qo'l keldi: nemislar o'qqa tutib turgan joyni omon-esson o'tdik. Mashina yaradorlar bilan to'la bo'lgani uchun, endi o'nqir-cho'nqirlarda uncha sakramas edi, ammo har safar silkinganda oh-vohlar eshitilardi. Panya ikkimiz, yaradorlar boshlarini mashinaning chetiga urib olmasin deb tinkamiz quridi.

Bu 8-sentabrda bo'ldi, shu kuni nemislar qat'iy hujumga tayyorlanib, Leningradni qattiq bombardimon qila boshlagan edilar. Oldimizda yong'inning mudhish manzarasi ko'rinardi; biz Mejdunarodniy ko'chasiga kirdik, nazarimda butun shaharni o't olib ketganday edi. Yaradorlar orasida g'ovur-g'uvur ko'tarildi, avtobusning ichiga ah-yon-ahyonda kirib qolgan qizil shu'lalarda yelkalari keng, boshi bint bilan bog'langan bir dengizchining ko'ylagini yirtib, ho'ng-ho'ng yig'layotganini ko'rdim.

HAYOT DAVOM ETADI

Do'kon derazalarining oldi to'sib qo'yilgan taxta g'ovlar yorilib, sirlari ko'chib ketgan; bog' va parklardagi xandaq va chuqurlarni o't bosib ketgan: uy ichlari ertalabdan boshlab chalayorug' bo'lardi, chunki damba-dam trevoga bo'lib turganidan, darchalarni ochib-yopib turishning hojati yo'q edi. Men iyul oyida borib qazishgan «okoplar» dzotlar bilan mukammallashtirilgan kuchli istehkomlarga aylantirilgan edi.

Hech qachon umrimda shu kuzdagidek ko'p ishlamagan edim. ROKK kursida ham o'qidim, frontga ham borib kelib turdim, hatto dushman kuchli o't yog'dirib turgan paytda jang maydonidan yaradorlarni olib chiqqanim uchun tashakkurnoma ham oldim.

Ammo menga hamon xat kelavermas, sumkamdan kichkina ayiqchani ko'proq chiqarib qaraydigan bo'lib qolgan edim. Xat kelmas edi, Berlin, Kyonigsberg, Ployeshtiga uchgan va mukofotlangan uchuvchilar ro'yxatidan ham Sanyaning otini uchratmas edim.

Ammo men, xuddi signal chiroqlariga pisand qilmasdan, borgan sari tez uchib borayotgan, chinqirib, tun qorong'isini yorib uchib ketayotgan poyezd singari ishlardim.

Bir kun yetib keldiki, poyezd manzilda to'xtamay yelib o'tib ketdi, yo'lda yolg'iz o'zim, dard-alamlardan charchab, o'lay deb yotib qoldim.

Yoshligimda tushimni boshqalarga aytishni yomon ko'rardim. Tushimni aytib bersam, xuddi dunyoda o'zimdanda bo'lak hech kimsa bilmagan sirimni boshqalarga aytib berganday bo'lardim. Ammo bu safargi tushimni, albatta, aytib berishim kerak.

Ishim tugagandan keyin gospitalning o'zida o'n daqiqacha ko'zim ketibdi, shunda tush ko'ribman: deraza yonida ispan tilini o'qib o'tirganmishman. Bir vaqt Qrimdaligimizda haqiqatan shunday bo'lgan edi: chet el tillarini o'rganishni tashlab qo'yganimdan Sanya xafa bo'lgan edi, keyin yana shug'ullana boshlagan edim. Ammo derazaning narigi tomoni Qrim emas edi-ku? Xuddi mislsiz, dahshatli jannat emish, pishgan olxo'ri shoxlari pastga egilib yotarmish, sapsariq shaftolilar oftobda tovlanib, erib ketayotganday bo'larmish, hammayoq chamanmish, gullarning son-sanog'i yo'qmish. Bir mahal jimjitlikda birdan qushning chinqiriq ovozi, qanot qoqishi eshilib qolibdi; men qo'limdagi kitobni irg'itib, stol ustidan, so'ngra derazadan sakrab, boqqa tushgan emishman. Boqqa tushib qaragam, bir kalxatmi, qar-chig'aymi, xullas, tumshug'i o'tkir bir qush chinor ustida qanotlarini kerib, tumshug'ida boshqa bir kichkina qushni, kichkina shunqorchani tishlab o'tirganmish. Kalxat shunqorning oyog'idan tishlab olganmish, shunqor esa ortiq qichqirmas, faqat menga odamga o'xshagan ko'zlari bilan tikilib qararmish. Yuragim shuv etib ketganmish-da, baqirarmishman; atrofimdan yog'och qidira boshlagan ekanman, kalxat boshini mendan boshqa yoqqa o'girib, uchib ketgan emish. Qanotlarini kerib, parvoz qilib uchib ketgan emish.

– Ana, Lukerya Ilinishna, mana shu tushimni menga izohlab bering, – dedim, kanselyariyada ishlovchi kekxa va nima uchundir Dasha xolaga o'xshagan ayolga.

– Eringiz uchib keladi.

– Ha, nimaga endi? Kalxat tumshug‘idagi kichkina qushchani ko‘tarib olib ketdi-ku?

U birpas o‘ylab turdi.

Kechgacha shu qo‘rqinchli, bema‘ni tush ta‘siri ostida yurdim, kechqurun Varyani uyimga olib ketdim.

Odatdagidek, soat yetti yarimda trevogalar boshlandi. Birinchi trevoga vaqtida garchand Rozaliya Naumovna o‘z-o‘zini mudofaa qiluvchi guruh nomidan telefon orqali bizga yerto‘laga tushishni buyursa ham, uyda o‘tiraverdik. Ikkinchi trevogada ham uydan chiqmay o‘tirdik. Bombadan qochadigan, pana joylarga kirsam hamisha yuragim siqilib ketardi. Inglizlarning aytishicha, agar «omadim kelmay», bomba tagida qolish taqdirimga yozilgan bo‘lsa, ochiq joyda, Leningrad osmoni ostida bo‘la qolsin, deb qo‘ygan edim o‘zimga. Bundan tashqari, biz qahva qovurayotgan edik, bu nihoyatda muhim ish edi, chunki u qahva bo‘lishdan tashqari, ozgina un qo‘shilsa, non ham bo‘lar edi.

Biroq uchinchi trevoga boshlanib, bomba bizga yaqin bo‘lgan joyga tushdi, bizning uy xuddi oldin va ketinga qadam tashlagandek, silkinib-silkinib ketdi, oshxonadagi idish-tovoqlar qasir-qusur qilib yerga qulab tushdi. Varya mening e‘tirozlarimga quloq solmay, qo‘limdan sudrab pastga olib ketdi. Qop-qorong‘i dahlizda bir to‘da ayollar bidir-bidir qilib gaplashib turishar edi. Ular orasida tatar qorovul ayol – Gul Ishberdiyeva ham bor edi, ammo nechundir uni hamma Masha derdi.

– To‘qqizinchi xarob bo‘ldi, – dedi u. – Juda xarob bo‘ldi. Komendant belkurak olib, odamlarni kovlab olinglar deb buyurdi.

«To‘qqizinchi» degani – qo‘shni uy edi, unda to‘qqizinchi gastronom do‘koni joylashgan edi.

– Belkurak olinglar, ketdik. Hamma borsin! Kimning belkuragi bo‘lmasa, o‘sha yerda berishadi. Yur, buvi, yur! Sen ham imorat tagida qolsang, seni ham qazib olishadi.

Qorong‘ida belkuraklarni taraqlatib tarqatar ekan, menga ham, Varyaga ham bittadan belkurak tegdi. Mening hech oyog‘im tortmas edida! Harbiy-tibbiyot akademiyasining neyro-xirurgiya klinikasi xarob bo‘lganda ko‘p kishilarni «qazib olishga» to‘g‘ri kelgan edi. Ammo ayollar bir oz vaysab turishdi-da, yo‘lga tushishdi, biz ham ularning ortidan ketdik.

Tun juda alomat, havo ochiq, leningradliklarning aytishicha, «ayni hujum» kechasi edi. Shahar tepasida sariq sharga o‘xshagan dumaloq oy muallaq turardi, endi sovuq tushib havo musaffo ochiq edi. Qani

endi bunday kechada yoring bilan sayr qilib yursang, ikkoving bir plashga o'ralib, Neva bo'yida o'tirsang-da, pastda to'liqlar metin qirg'oqqa o'zini urib, nolib tursa!

Biz esa o'lgudek charchagan, kayfiyatimiz buzuq holda, qo'limizga belkurak olib, xarobalar tagidan yo tirik, yo o'liklarni kovlab olgani ketayotirmiz.

«To'qqizinchi» qoq o'rtadan ikkiga bo'linib ketgan ekan, bomba tomga tushib, besh qavatni yorib, o'yib ketgan ekan, paydo bo'lgan tuynukdan hovli ko'rinib turar edi. Uy oldinga, ko'cha tomonga qulab, ko'chani to'sib qo'ygan, pachaq-pachaq g'ishtlar, mebellar, armaturalar orasidan qora royalning bir tomoni chiqib ko'rinib turar edi. Uchinchi qavatdan kattakon javon osilib turar, devorda palto, ayollar-ning shlapalari ilig'liq turar edi.

Xuddi shifoxonadagidek, bu yer ham jimjit edi, odamlar uy yoniga shoshilmasdan to'planishar, gapirganda ham shoshilmay bafurja gapirishar edilar. Bir ayol chinqirib yig'lab yubordi-da, erga gurs etib yiqildi, uni darhol bir chetga chiqarib yotqizdilar, yana jimlik cho'mdi. Yo'lkada hamma yog'i ohakdan oqargan bir mo'ysafid o'lib yotardi, o'tgan-ketganlar unga qoqilib, so'ngra engashib yuziga qarar, keyin yonidan aylanib o'tib ketishar edi.

Yerto'laning ichini suv bosib ketgan, dastavval suvni bartaraf qilish kerak edi. Qutqazish ishlariga bosh bo'lgan militsiya serjanti – epchilgina va qotmadan kelgan kishi Varya ikkimizni suvni chiqaradigan nasos yoniga qo'ydi.

Yer yana bir larzaga kelib ketdi, tepamizdan osmonga ketma-ket pulemyot o'qlari uzildi. Projektorlarning nurlari osmonni paypaslab, bir-birlari bilan qo'shildi, ularning to'qnashgan joyida nazarimda bir aeroplan ko'ringanday bo'ldi.

Zenit to'plari o't ochdi, avvaliga ular nazarimda juda yiroqdan turib otayotganday edi, keyin borgan sari yaqinlashib, endi xuddi haybatli bir pahlavon ko'chama-ko'cha birdaniga mingta to'pponchadan o'q uzib yurganday tuyular edi. Ishimni qilaverib, boshimni osmonga ko'tarib qaradim, osmondagi daydib yurgan projektorlar bilan tunning nihoyatda sokinligi, atrofga beparvo qarab turgan oy o'rtasidagi farq juda g'alati tuyuldi. Urush – ya'ni pulemyotlarning tarsillashi, sof havoga rang-barang raketalarining pirillab uchib chiqishi – bularning hammasi dahshatli va allaqanday tantanali tus olgan edi.

Harob bo'lgan uy yonini militsiya arqon bilan to'sib qo'ygan edi, sanitar mashinalar shu yerda to'xtadi. Ish qizib ketgan, yerto'ladan odamlarning jaranglagan tovushlari eshitilar, u yerdan yarim bellarigacha suvga botgan, ranglari oqarib ketgan odamlar chiqishar edi. O'lganlar oz edi.

Ko'hlikkina, ishdan yuzlari qizarib ketgan Varya sinib, pachag'i chiqib ketgan mebel orasidan to'shak, ko'rpa, yostiqlarni tortib chiqarar edi, yaradorlarni yotqizar, allakimga sun'iy nafas oldirar, sanitarlarga qarab baqirar edi. Sanitar mashinada kelgan ikki shifokor xuddi yosh dastyor bolalarday, uning aytganlarini darrov bajo keltirar edilar.

U, yubkasini qistirdi-da, yerto'laga tushdi, bir ozdan keyin hammayog'i ho'l bir kishini sudrab chiqdi. Ozg'in serjant uning yoniga yugurib keldi-da, unga qarashdi, sanitarlar zambil ko'tarib kelishdi.

– O'tqizinglar, – dedi Varya amirona.

Sudrab chiqqan kishi komandirmi yoki qizil askar edi, shekilli, boshyalang, shineli suvda yotib qorayib ketgan edi. Uni o'tqizib qo'ygan edilar, boshi ko'kragiga tushdi. Varya uning dahanidan ushlab ko'targan edi, kallasi xuddi qo'g'irchoq kallasiga o'xshab, orqasiga osilib tushdi. Sap-sariq va taralmagan sochli, rangi oppoq bu bashara menga tanish ko'rindi, bir necha daqiqagacha bu odamni qayerda ko'rgan ekanman, deb ishimni davom ettirdim.

– Bo'пти, hozir o'ziga keladi, – dedi Varya, serjahl ovoz bilan.

U, o'tirgan odamning og'zini kerib, qo'lini tiqdi. O'tirgan kishi birdan kallasini silkitib, tipirchilab qoldi, xirillab havo yuta boshladi.

– Ha-ha, tishlar ekansiz-da! – dedi yana Varya.

Nasosning bandi goh tushib, goh ko'tarilar, shuning uchun Varyaning nima qilishi goh ko'rinar, goh ko'rinmas edi. U kishi endi ko'zlarini yumib, og'ir nafas olib o'tirar edi. Oy shu'lasida yuzi, yassi burni, to'rtburchak daxani xuddi bo'r bilan bo'yagandek, oppoq ko'rinar edi – bu basharani ming marta ko'rgan edim, ammo ko'zimga ishonmas, tanimas edim...

Romashovni nega kasalxonaga yubortirmaganimga hali ham o'zim tushunmayman (u odam Romashov edi). Ishonmasligingiz mumkin, ammo shinelining tugmalarini yechib, yerga o'tirganida, menga xuddi gumon ortidan qaraganday qarab, birdan eshitilar-eshitilmas tovush bilan: «Katya» deganida, sevinib ketdim. Qo'limda kichkina shisha ushlab turganimni ko'rib ham, u ajablanmadi. Biroq qon urishini tekshirib

ko'rish uchun qo'ldan ushlaganimda, u tishini tishiga qo'yib qaltirab titrab, yana: «Katya, Katya» dedi.

Uyga ertalab qaytdik. Garchand biz bomba tagida qolmay, erto'lada, suv ichida g'arq bo'lib qolmagan bo'lsak ham, Varya ikkimiz Romashov kabi gandiraklab borar edik. Romashovni Masha bilan yana bir ayol sudrab borishar edi. Romashov nuqul «xaltam qani, xaltam butunmi» deyaverdi, axiri Masha uning xaltasini burni oldiga olib keldi-da, jahl bilan dedi:

– Miyangga xalta kelganiga hayronman! Xaltani emas, Xudoni tilga ol! Biz sen ahmoqni qutqarib o'tiribmiz. Duo qilishing, kalima keltirishing kerak!

Uyga zo'rg'a yetib borib, qahva tayyor ekan, qahva ichdik, Romashovni Rozaliya Naumovnaga topshirdik-da, ust-boshimizni ham yechmasdan, kir va iflosligimizcha, o'zimizni karavotga tashladik.

– Xullas, u odamning kimligini hali ham bilmadim, – dedi Varya.

– Dunyoda eng qabih odam, – dedim men.

– Ahmoq, nega olib kelding bo'lmasa?

– Nima qilay, eski do'st!

Qahvadan keyin isib ketdim, ko'ylagimni yecha boshlab, oxirigacha yecholmadim-da, ko'zim mudrab ketdi; ko'z oldimga bir g'alati narsa kelib turib olganday bo'ldi, qo'limni silkib, qattiq uyquga ketganimni bilaman.

KECHKI OVQATDAN SO'NG

Biz uydan chiqib ketganimizda u hali uxlab yotgan edi. – Rozaliya Naumovna unga yemakxonaga joy solib bergan ekan. Ustidagi ko'rpa tushib, oppoq ko'ylagi ko'rinib yotar edi, o'tib ketayotganimizda Varya o'zining odati bo'yicha ko'rpa ko'tarib, tagiga qistirib qo'ydi. Romashov tishlarini siqib uxlab yotardi, ikki kiprigi orasidan ko'z olmasi ko'rinib turardi, tanimagan odam ham shu yotishini ko'rib, darrov tanib olardi.

– Shu odamni eng yomon odam deysanmi? – deb so'radi Varya shivirlab.

– Ha.

– Menimcha, unchalik emas.

– Esingni yedingmi?

– Rost, uncha yomon ko‘rinmaydi. Nega bunday uxlashini bilasanmi? Qovog‘i kaltaligidan shunaqa.

Nima uchundir, Romashov qanday paydo bo‘lgan bo‘lsa, kechga borib shunday ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi kerak deb o‘ylardim. Biroq u g‘oyib bo‘lmadi. Uyga qo‘ng‘iroq qilgan edim, go‘shakni Rozaliya Naumovna emas, balki Romashov ko‘tardi.

– Katya, siz bilan men, albatta, gapirishim kerak, – dedi u, muloyim, ammo keskin bir ohangda. – Qachon qaytasiz uyga? Yo ruxsat eting, men boray yoningizga?

– Keling.

– Ammo, menimcha, gospitalda uchrashish uncha qulay bo‘lmas deyman?

– Balki. Ammo uyga bir necha kundan keyin qaytaman.

U jim qoldi.

– Bilaman, meni ko‘rishga hech qanday orzuingiz yo‘q. Ammo oradan qancha vaqtlar o‘tib ketdi, axir... Men bilan ko‘rishishni istamaganligingizning sababi...

– Yo‘q, hali ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q...

– Siz, men doktor Pavlovdan berib yuborgan xatni aytayotgandirsiz? – dedi u bir oz jonlanib. – Xatni oldingizmi?

Men indamay turaverdim.

– Kechiring meni...

Yana indamadim.

– Bizning ko‘rishishimiz favqulodda emas. Men siznikiga kelayotgan edim. Birdan «yerto‘lada yosh bolalar qoldi» deb qichqirdi birov, men yerto‘laga yugurdim. Ammo buning ahamiyati yo‘q. Biz, albatta, ko‘rishishimiz kerak, chunki buning sizga aloqasi bor.

– Nimaning?

– Juda muhim bir ish. Men hammasini aytib beraman.

Kim bilan gaplashib turganimni xuddi unutganday, yuragim nechundir birdan shuv etib ketdi.

– Gapiring, qulog‘im sizda.

Endi u jim qoldi, u shu qadar uzoq jim qoldiki, sal bo‘lsa go‘shakni osib qo‘yardim.

– Xo‘p, bilganingiz. Men ketdim, meni ortiq ko‘rolmaysiz. Ammo ont ichamanki...

U yana allanimalarni shivirlab aytdi; uning telefon yonida tishini tishiga qo‘yib, ko‘zlarini yumib, og‘ir nafas olib turganini ko‘z oldimga

keltirdim, uning jim qolishi meni nechundir uning gapiga ishontirdi. Men boraman dedim-da, go'shakni ilib qo'ydim.

Yonimda o'zimning kalitim bor edi, ko'cha eshikni ochib, ostonaga kirishim bilan ko'zim darhol stol ustidagi pishloq va moyga tushdi. Odamning ishongisi kelmas edi, stolda haqiqatan ham usti qizil golland pishlog'i, haqiqiy, asl moy turgandi. Non ham ko'p edi, katta-katta qilib to'g'ralgan edi. Ammo bu non Leningradda yopiladigan nonga o'xshamas edi, boshqa yerdan keltirilgan nonga o'xshar edi. Men kirganimda Romashov oshpichoq bilan konserva bankasini ochmoqda edi. Stol ustida yotgan xalta ichidan shishaning og'zi chiqib turar edi...

Yotoqdan Rozaliya Naumovna chiqdi, uning kayfi xush, ko'ngli shod edi.

– Katya, siz nima deysiz, Bertani nima qilay? Uni ham chaqirsam bo'larmikan? – deb so'radi mendan, shivirlab.

– Bilmadim.

– Ha, mendan xafa bo'ldingizmi? Men shunday so'rab edim-da...

– Misha, – dedim men baland tovush bilan, – Rozaliya Naumovna mendan Berta singlimni ham chaqirsam bo'ladimi deb so'rab bering dedilar.

– Bu nimasi! Qani o'zi? Men o'zim chaqirib chiqaman.

– Sizni ko'rsa qo'rqib ketarmikin...

Romashov kuldi.

– Marhamat, marhamat, chaqiring!

Bu juda ko'ngildagidek, kechki ovqat bo'ldi. Bechora Rozaliya Naumovna qaltiragan qo'llari bilan nonga moy surkar edi-da, ehtiyotlik bilan og'ziga olib borar edi. Bukchayib qolgan, kichkina, sochlari oppoq, burni mixday o'tkir Berta har luqma ustida fотиha o'qirdi. Romashov tinmay gapirar edi.

Mana shunda men uni yaxshilab ko'rib oldim!

Bir-birimizni ko'rmaganimizga bir necha yil bo'lgan edi. U vaqtda u ancha semiz edi. Yuzida, bir oz orqaga tashlab yuradigan tanasida yoshi anchaga borib qolgan kishining savlati paydo bo'la boshlagan edi. Barcha xunuk odamlar singari, u juda olifta kiyinib yurardi.

Endi u ancha oriqlab qolgan, suyaklari turtib chiqqandi, ustidagi yangi kamarlari chirsillardi, ustida – gimnastorka, yoqasiga ikki shpal taqqan edi, mayor ekanmi a? Miya suyaklari ham turtib chiqqan edi. Hech yumilmaydigan, katta ochilgan ko'zlarida yangi bir alomat – charchaganlikmi, paydo bo'lgan edi.

– Men juda o‘zgarib ketibmanmi? – deb so‘radi, unga qarab o‘tiranimni ko‘rib. – Urush meni juda o‘zgartirib yubordi. Ruhan ham, jisman ham boshqacha bo‘lib ketdim.

Agar haqiqatan ham boshqacha bo‘lib ketganida hech buni o‘zi aytmasdi.

– Misha, buncha noz-ne‘matlarni qayerdan oldingiz? O‘g‘irladingizmi?

Gapimning oxirini eshitmagan bo‘lsa kerak.

– Qani, oling, – dedi. – Yana olib kelaman. Bu yerda hamma narsa topiladi. Yo‘lini bilmaysizlar-da!

– Rostmi?

– Albatta. Kerakli odamlar bor.

Nima deganiga yaxshi tushunmadim, ammo qo‘limdagi buterbrodni darhol likobchaga qo‘yib qo‘ydim.

– Leningradga qachon keldingiz?

– Uch kun bo‘ldi. Meni Moskvadan Voyentorg boshlig‘ining ixtiyoriga yuborishdi. Men Janubiy frontda edim. Qamalga tushib qolib, zo‘rg‘a qutulib chiqdim.

Uning menga gapirib bergan gapi men uchun dahshatli bir haqiqat edi, ammo men uni beparvo tinglab o‘tirardim.

– Biz Kiyev tomonga chekinib borar edik. Kiyevning bizdan ajralib qolganini bilmas edik-da, – dedi u. – Biz, nemislar hali qayoqda deb yursak, ular bizni frontdan ikki yuz kilometr naridagi Xristinovka qishlog‘ida kutib olsa bo‘ladimi! Jahannamning o‘zi deysiz, ammo bu to‘g‘rida keyin aytib beraman, – dedi u kulib. – Hozir men sizga Moskvada Nikolay Antonovichni ko‘rganimni aytmoqchi edim. Ajabo, u hech qayerga ketmapti.

– Shunaqami? – dedim men loqaydlik bilan.

Jim qoldik.

– Menga bir narsa demoqchi edingiz, shekilli, Misha? Gapingiz bo‘lsa yuring, mening uyimga kiraylik.

U o‘rnidan turdi-da, qaddini rosladi, ichidan og‘ir nafas chiqarib, kamarini to‘g‘rilab qo‘ydi.

– Xo‘p, kirsak-kiraylik.

Men divanga o‘tirdim, u bir vaqtlar Sashaniki bo‘lgan va hali ham cho‘tkalar turgan stol yoniga borib o‘tirdi.

– Gap juda ko‘p.

U hovliqardi, men esa xotirjam o‘tirardim.

– Gap ko‘p... chekasizmi?

– Yo‘q.

– Urush vaqtida ko‘p ayollar chekadigan bo‘lib qolishgan.

– Ha, ko‘p ayollar chekadi. Meni gospitalda kutib qolishlari mumkin. Sizga yigirma daqiqa fursat beriladi.

– Yaxshi, – dedi Romashov, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lib. – Avgust oyida Leningrad frontidan ketganimdan xabaringiz bordir. Mening sira ketgim yo‘q edi, chunki siz bilan ko‘rishib qolarman deb yurar edim. Ammo buyruq – buyruq.

Bu gapni Sanya ko‘p aytib yurardi, shuning uchun uni Romashovdan eshitalishi qulog‘imga xunuk tuyuldi.

– Janubga qanday borib qolganimni aytib o‘tirmayman. Biz Kiyev yaqinida jang qilib, tor-mor keltirildik.

U «biz» deb gapirdi.

– Xristinovkada men, Kiyevni uzoqlab, Umanga qarab ketayotgan sanitar eshelonga qo‘shildim. Oddiy qizil vagonlarga yaradorlar joylashgan edi. Ko‘pi og‘ir yarador edi. Kun issiq, dim, hammayoq chang, shu sharoitda uch kun, to‘rt kunlab yo‘l yurib borar edik...

Narigi uydan Bertaning duo o‘qishi eshitar edi, Romashov o‘rnidan turdi-da, eshikni yopdi.

– Eshelonga qo‘shilishimdan ikki kun avval kontuziya (qattiq zarb, portlash natijasida yetgan jarohatsiz shikast)bo‘lgan edim. Uncha qattiq kontuziya emas-ku, har holda goho-goho biqinim og‘rib turguvchi edi. Chap biqinim hali ham qorayib yotibdi, – dedi u o‘zini jilmayishga zo‘rlab. – Hozir ham shunaqa.

O‘sha kuni kechasi Romashovni yechintirgan Varya uning chap tomoni kuygan ekan degan edi; Romashov ham shuni aytgan bo‘lsa kerak.

– Eshelonning xo‘jalik ishlarini o‘z qo‘limga olishga to‘g‘ri keldi. Dastavval ovqat masalasini yo‘lga solish kerak edi, faxrlanib aytishim mumkinki, ikki hafta yo‘l yurgan bo‘lsak, shu ikki hafta ichida bir kishi ham ochlikdan o‘lmadi. Ammo gap mening to‘g‘rimda emas.

– Bo‘lmasa, kimning to‘g‘risida?

– Biz bilan birga stanislavlik ikki talaba qiz kelar edi, ular pedagogika institutida o‘qir ekanlar. Ular yaradorlarga suv tashib, yalarini bog‘lab, xullas, qo‘llaridan kelgan ishni bajarib yurishar edi.

Bir kuni shu qizlardan biri to'rtinchi vagonida yarador bir uchuvchi yotganligi va men zudlik bilan u yerga yetib borishimni aytdi.

Romashov biroz jim qoldi.

– Men qizlardan «O'zi nima gap?» deb so'radim. «Borib gaplashmasangiz bo'lmaydi» deyishdi. «Nima to'g'risida?» deb so'radim. «Yashashni istamayman, o'zimni o'zim otib o'ldiraman» deydi, nuqul yig'laydi. Biz uning yoniga bordik, nima uchun shu mahalgacha bu vagonga bir marta ham kirmaganimga o'zim ham hayronman. U mukkasigacha tushib yotar edi, oyoqlari nari-beri bog'langan. Qizlar uning yoniga borib o'tirishdi-da, ismini aytib chaqirishdi...

Romashov jim qoldi.

ISHONAMAN

Romashov aytib bergan mojaro quyidagicha.

Sanya yuzidan va oyoqlaridan yarador bo'lgan, yuzini titib yuborgan yarasi bitib qolgan edi. Qanday sharoitlarda yarador bo'lganini u aytmabdi, Romashov buni tasodifiy holda, «Krasniye sokoli» nomli gazetadan o'qib bilibdi. Gazetada Sanya haqida maqola bosilgan ekan. Romashov bu gazetani menga atab olib qo'ygan ekan, agar yerto'ladagi suvga tushib g'arq bo'lmaganida, muqarrar olib kelib bergan bo'lar edi. Ammo buning ahamiyati yo'q bo'lib, u butun maqolani yoddan bilar ekan:

«Kapitan Grigoryev boshqarib kelayotgan aeroplan jangovar vazifani bajarib bo'lib qaytib kelayotganida, dushmanning to'rtta qiruvchi aeroplaniga duch kelib qolgan. Dushman kuchi ustun kelgan bu kurashda Grigoryev bir qiruvchi aeroplanni urib tushirgan, qolganlari bardosh berolmay, qochib ketgan. Mashina shikastlangan edi, shunga qaramasdan, Grigoryev uchishda davom etavergan. Front liniyasiga yaqin qolganda, u yana nemislarning ikki «yunkersi»ga duch kelib qolgan. Grigoryev o'zining alangalangan mashinasini «yunkers»ga borib urgan. N. qismining uchuvchilari stalincha shunqorlar – kommunist kapitan Grigoryev, shturman Luri, o'qchi-radist Karpenko, havo o'qchisi Yershovlarning xotirasini abadiy saqlaydilar».

Balki so'zlar bu tartibda yozilmagandir, ammo maqolaning mazmuni xuddi shundayligiga Romashov ont ichdi. Bu gazetani u boshqa va juda muhim qog'ozlar bilan birga planshetkaga solib qo'ygan ekan, planshetka suvga tushib, gazeta ivib g'ijimlanib qolibdi, keyin quritib

qarasa, xuddi shu maqola bosilgan qismi yo‘qolib qolibdi. Ammo buning ahamiyati yo‘q ekan.

Shunday qilib, Sanyani halok bo‘lganga chiqarishibdi, ammo u tirik ekan, faqat yuzidan va oyoqlaridan yarador bo‘lgan ekan. Yuzidagi jarohati yengilroq, ammo oyoqlari qattiq yarador bo‘lgan bo‘lsa kerak, har holda, o‘zi yurolmas ekan-da.

«Eshelonga qanday tushib qolibdi?» – «Bilmayman, – dedi Romashov, – bu to‘g‘rida biz gaplashganimiz yo‘q». – «Nega?» – «Chunki ko‘rishganimizdan bir soat keyin Xristinovkadan yigirma kilometr narida eshelonni nemis tanklari otib tashladi». U xuddi shunday dedi, «otib tashladi» dedi.

Orqa tomondan nemis tanklariga duch kelish, bu – sira kutilmagan bir hol edi. Eshelon to‘xtabdi, chunki birinchi zambarak o‘qi parovozni ishdan chiqaribdi. Yaradorlar vagonlardan sakrashib, har qayoqqa qochib ketishibdi, nemislar ularning ketidan sochma o‘q ota boshlabdi.

Romashov eng avval Sanyaning yoniga yuguribdi. Yomg‘irday o‘q yog‘ilib turgan paytda uni vagondan olib chiqish nihoyatda qiyin ekan, ammo Romashov olib chiqibdi-da, ikkovlari g‘ildirak orqasiga berkinishibdi. Vagonlardan qattiq yaradorlarning: «Og‘aynilar, yordam qilingiz!» degan sadolari eshitilarmish, nemislar hamon yaqinlashib kelar, narigi vagonlardan o‘qqa tutarmish. G‘ildirak panasida ortiq yo‘tishning iloji qolmagach, Sanya: «Sen qoch, mening to‘pponcham bor, ularning qo‘liga tirik tushmayman», – debdi. Ammo Romashov uni tashlab ketmabdi, garchand Sanya qarshilik ko‘rsatib, uning qo‘llarini tishlasa ham, Romashov uni ariqlardan tizzasigacha loy kechib, sudrab ketibdi. So‘ngra yuzi kuyib ketgan bir leytenant ikkovi uni ko‘tarishib botqoqlikdan olib o‘tishibdi, keyin kichkina va nam terakzorda ikkovi yolg‘iz qolibdi.

Bu ham xavfli ekan, chunki nemis desanti yaqin stansiyanı ishg‘ol qilgan, atrofda janglar davom etmoqda, bu terakzorga har damda nemislar kelib qolishi mumkin ekan. Bir daqiqa fursatni ham boy bermasdan, darhol u yerdan ketish kerak ekan. Biroq Sanyaning yuzidagi yarasi yana ochilib, harorati ko‘tarila boshlabdi, u Romashovga nuqul: «Meni tashlab ketaver, halok bo‘lib ketasan», – dermish. Bir marta: «Mening vaziyatimda sendan qo‘rqishim kerak deb o‘ylovdim», – debdi. Oyoqlarini uzatganda yuzlari burishib ketarkan: yaralariga qon quyular ekan-da. Romashov bir ayri yog‘ochni yo‘nib, ustiga shlyomni

bog'lab, qo'ltiqtayog yasab beribdi. Shunda ham Sanya yurolmabdi. Shundan keyin Romashovning yolg'iz o'zi ketibdi, ammo u oldinga qarab emas, balki orqaga, eshelon tomonga qarab ketibdi. Stanislavlik qizlarni topib kelmoqchi ekan. Eshelongacha yetib borolmabdi, chunki botqoqlikdan o'tishi bilan uni o'qqa tutishibdi. Qaytib kelibdi.

– Bir soatlardan keyin qaytib keldim, – dedi Romashov, – qaytib kelib qarasam, u yo'q. Terakzor uncha katta emas edi, hammayog'ini aylanib chiqdim. Baqiray desam, qo'rqaman, shunday bo'lsa-da, uch-to'rt marta chaqirdim, hech kim ovoz bermadi. Kechasi bilan izlab chiqdim, axiri charchab, bir yerga yotib uxlab qolibman. Ertalab turib, kecha o'tirgan joyimizni borib qaradim: maysa o't yulib olingan, ezilgan, qo'ltiqtayog esa terak ostida yotar edi...

Keyin Romashov qamalga tushib qolib, Dnepr flotiliyasi matroslari bilan birga o'z qismiga yetib olibdi. Sanya haqida ortiq hech xabari bo'lmabdi...

Bunday xunuk xabar kelishini avvallari ko'p marta ko'z oldimga keltirar edim: markasiz, oddiy xat keladi, xatni ochamanda o'qiy boshlayman, ko'zimga hech narsa ko'rinmay ketadi, hushsiz yiqilaman. Men necha marotaba tasalli bergan, ovuntirgan Varya keladi-da, avvaliga gapni uzoqdan boshlaydi, keyin: «Agar halok bo'lsa nima qilarding?» – deb so'raydi. «Men ham o'lardim» deyman. Keyin Harbiy komissariatga boraman, boshqa ayollar bilan birga men ham navbatda turaman. Hammamiz bir-birimizga tikilishib qaraymiz, hammamizda bir fikr: qaysi birimizga bugun «vafot etgan» degan javob tegarkin? Bunaqalarning hammasini o'yladim, ammo Romashovning aytib berishini sira bilmas edim.

Albatta, bu gaplarni u yo o'zi to'qigan, yo biron jurnaldan o'qib olgan. To'g'risi, o'zi to'qigan, chunki uning har kalima so'zida o'z manfaatini ko'zlashi sezilib turardi. Biroq nima gunoh qilibmanki, boshimga shunday kulfatlar, shunday jafolar tushadi? Bu odamning, usiz ham kunlari og'ir Leningradga kelib, meni qabihlarcha aldashiga yarasha gunoh qilmagan edim-ku!

– Misha, – dedim men o'zimni bosib, – siz menga: «Mening baxtsiz, hayotimsiz» deb yozgan edingiz. Shu gapingiz rostmi?

U menga indamay qarab turardi. Yuzi oppoq oqargan, quloqlari qip-qizil. Men undan: «Shu aytganingiz rostmi?» deb so'raganimdan keyin quloqlari yana battar qizarib ketdi.

– Rost bo‘lsa, nega meni shuncha qiynaysiz? Iqror etishim kerakki, ba’zi vaqtlarda sizga achinardim. Ayol kishi o‘zini anchadan beri sevib kelgan kishiga, juda bo‘lmasa, bir marta achinadi. Ammo basharti Sanya halok bo‘lib ketsa, sizdan nafratlanishimni bilmaysizmi, anqov odam! Hamma gapingizning yolg‘onligiga iqror bo‘lishingiz kerak, Misha. Shu qilganingizga mendan afv so‘rashingiz kerak, bo‘lmasa sizni ablah qilib, uyimdan haydab chiqaraman. Siz aytgan voqea qachon bo‘ldi?

– Sentabrda.

– Ana, ko‘rdingizmi, sentabrda bo‘pti. Ha, men oktabrning o‘ninchisida Sanyadan xat oldim-ku, «sog‘-salomatman, agar boshliqlar ruxsat bersa, Leningradga bir-ikki kunga borib kelaman» deb yozgan edi. Xo‘sh, bunga nima deysiz, Misha?

Shu damda yolg‘on gapirishga jasorat qayerdan paydo bo‘ldi, deng! O‘ninchi oktabrda men hech qanaqa xat olganim yo‘q. Uch oydan beri Sanyadan hech qanday darak yo‘q edi.

Romashov kulimsirab qo‘ydi.

– Menga ishonmaganingiz yaxshi bo‘pti, – dedi u. – Men boshqa narsadan qo‘rqqan edim. Mayli, shunday bo‘lgani qaytanga yaxshi.

– Demak, hamma gapingiz – yolg‘on ekan-da?

– Ha, yolg‘on, – dedi Romashov.

Bir vaqtlar it o‘ynatish maydonchasidagi uyida meni ishontirgan-day, bu safar ham ishontirishi, ont ichishi, qarshimda lablari titrab-qaqshab turishi kerak edi. Ammo u beparvo qarab:

– Ha, hammasi yolg‘on, – deb turar edi.

Shundan keyin yuragim shuv etdi-yu, hammayog‘im bo‘shashib ketdi.

U buni sezgan bo‘lsa kerak, yonimga keldi-da, qo‘limdan dadil ushladi. Men qo‘limni tortib oldim.

– Agar men sizni aldamoqchi bo‘lsam, Sanyaning halok bo‘lgani haqida ochiq-oydin yozilgan gazetani olib kelib ko‘rsatib qo‘ya qolardim. Ammo men sizga dunyoda mendan boshqa hech kim bilmaydigan gapni aytib berdim. Buni o‘z manfaatini ko‘zlab qildi deyish kulgili bo‘lar edi. Yo siz meni shu xabarni olib kelishi sizni menga qaratadi deb o‘yladi dedingizmi? Yo‘q, men aytgan gaplarning bari-si – haqiqat, men uni sizdan sira yashira olmas edim.

Men hamon qimirlamay, qaddimni ko‘tarib o‘tirar edim, biroq shu onda hamma narsa: Sashaning stoli, stol yonida o‘tirgan malla

odam – hamma narsa allaqayoqqa qarab yurib ketdi. Men indamas edim, menga hech narsa kerak emas edi, biroq malla harbiy kishi darhol bir yoqqa chiqdi-da, kichkina, sochlari oqargan bir ayolni boshlab kirdi. Keksa ayol meni ko‘rishi bilan boshini ushlaganicha qoldi-da:

– Oh, Katya, nima bo‘ldi sizga! Suv keltiring, suv! Sizga nima bo‘ldi, Katya? – dedi.

U, ALBATTI, QAYTADI

– Varenka, menga nima qildi? Kasalmanmi?

– Hech kasalmassan, soppa-sog‘san.

U qo‘lini silkitdi, bir kishi:

– Hushiga keldi, – dedi-da, etiklarini sekin-sekin bosib, uydan chiqib ketdi.

– Kim u?

– Ha, o‘sha mallang-da, kim bo‘lardi, – dedi Varya, ensasi qotib. Men indamay qo‘ya qoldim.

– Varenka, sen ham eshitingmi?

– Nega hovliqasan, hali hech gap bo‘lgani yo‘q-ku! Faqat yarador bo‘pti-da. – Voy, azizim, qimmatligim-ey! – Varya meni quchoqladi. – Hadeb urinaverasanmi? Unday bo‘lsa men nima qilay, o‘lishim kerakmi? Men seni hech bunaqa bo‘lmassan deb yurardim. Yo ilgari ancha qiynalgan edingmi?

– Yo‘q, – ehtiyotlik bilan aytdi. – Tuzalib ketaman.

– Albatta, tuzalib ketasan. Tuzalib ketding ham. Qahva ichasanmi? Men yana indamadim.

– Varenka!

– Nima, jonim?

– Men umid qilaman.

– Albatta, umid qilasan-da, jonim! Albatta, umid qilish kerak. Mana, meni aytdi dersan, Sanyang omon-esson qaytadi.

Sanya haqida maqola bosib chiqarilgan «Krasniye sokoli» nomli gazetani Leningradda topish juda qiyin edi. Avval ancha qidirib ko‘rdim, hatto bir muxbirdan u gazetaning qaysi qismda chiqishini ham so‘rab bildim. Petyaning shu maqolani o‘z ko‘zim bilan o‘qidim deb yozgan xatidan keyin qidirmay qo‘yaqoldim, Petya bunday yozgan edi: «Men nuqul sizni o‘ylayman, qimmatligim Katya. Sanya mardona, qahramonlarcha halok bo‘ldi. U mening eng yaqin kishim,

yoshligimdan sevib kelgan ukam edi. Uning yuragi hamisha jaranglar, uning jarangini har safar eshitganingda, dunyoda yashash yengil va rohatli ko‘rindi. Uning jarangi – bizning yoshligimiz, orzuxayolimiz, umrbod esda qolgan ontimiz edi. Qani endi, sizni ko‘rsam, siz bilan birga bo‘lsam, dardingizga sherik bo‘lsam...»

Uning xatiga men javob tariqasida Romashov aytgan gaplarning hammasini yozdim-da, «hali ham umidim bor» dedim...

Uyga borgan sari kam kelar edim. ROKK kursini tugatib, endi «jamoatchi» sifatida emas, haqiqiy hamshira bo‘lib ishlay boshladim. Ochlik ham uncha xalaqit bermas edi, mendan ko‘ra ancha baquvvatroq ko‘ringan Varyaga qaraganda men tetikroq chiqib qoldim. Leningradda shu baxtsizlikka uchraganim menga ancha yengil edi, axir kechasi uxlab yotganingda artilleriya o‘qi kelib tushishi ham ajab emas edi, chunki leningradliklarning ko‘pi kun issiq kezlaridayoq kazarma holatiga o‘tib, uylariga kelmay qo‘ygan edilar.

Shuning uchun yengil ediki, qamal natijasida kelgan mashaqqatlarga bardosh berish bilan birga o‘zimning ham dardimga bardosh berardim. Ajabo, Romashov ham mening kayfiyatimni tushunardi. Meni Leningraddan keting deb yurgan odam endi bu haqda sira gapirmas edi.

U o‘z hikoyasini yana bir marta takrorladi, birinchi marta aytganida ko‘p tafsilotlarini gapirmagan ekan. Romashov bilan leytenant ikkovi qo‘llarini birlashtirganicha Sanyani botqoqlikdan olib o‘tishayotganda, Sanya ularning bo‘yinlaridan quchoqlab olgan ekan. Stanislavlik qizlarning biri Katya ekan, buni bilib Sanya juda xursand bo‘lib ketibdi, keyin nuqul: «Katya, Katya!» deb chaqirar ekan. Sanya: «Mening vaziyatimda sendan qo‘rqishim kerak deb o‘ylagandim», – deganida, Romashov faqat kulibgina qo‘yibdi, chunki bu haqiqatan kulgili edi-da: har damda terakzorga nemislar kelib qolishi mumkin edi.

Rost bo‘lsa kerak, yolg‘on gapirishning unga nima zaruri bor? Axir, u meni aldayman desa, Sanyaning halok bo‘lgani yozilgan gazetani to‘ppa-to‘g‘ri olib kelib ko‘rsatib qo‘yaqoldi. U xuddi shunday dedi, bu ham haqiqatga o‘xshardi. «Ammo u Romashov-ku, Sanya «Boyqush» deb nom qo‘ygan, ko‘zlari sira yopilmaydigan Romashov» derdim o‘zimga-o‘zim.

«Urush har qanaqa odamni boshqacha qilib yuboradi, – derdim o‘zimga-o‘zim javob berib. – U har qanaqa o‘limlarni ko‘rdi, bu

yolg'unchilik, hiylakorlik muhitida yashash joniga tekkan bo'lsa kerak. Sanyaga qo'ldan kelganicha yordam qildi, buni qo'ldan kelgani uchun qilgan-da!»

Bir kuni gap orasida Petyani sog'indim degan edim, bir necha kundan keyin:

– Bo'ldi, ertaga keladi, – dedi.

Romashov Petyani San'at akademiyasining rektori orqali chaqirtirdim dedi, ammo unday bo'lmasligi ham mumkin edi. Har holda bir necha kundan keyin Petya haqiqatan keldi.

Uni ko'rmaganimga uch yarim oydan oshgan edi. So'nggi marta uni kuzatayotganimda xayolchanligidan, shoirtabiatligidan xavotirlangan edim. Chunki bu xislatlar urushda eng keraksiz xislatlardir. Uyg'a kirib kelgan odam – qaddi-qomati kelishgan, baquvvat, quyoshdan qoraygan, qarashlari tikka va o'tkir odam edi.

Biz quchoqlashib ko'rishdik.

– Katya, endi men ham Sanyaning qaytishiga ishonaman, – dedi u. – Odamlar uni halok bo'ldi deyishganida, u tirilgan. Endi tamom. Endi u yashaydi! Biz urush qatnashchilarida shunaqa alomat bo'ladi o'zi. Uning tirikligini o'z qismida ham bilishadi. Bilishmasa, albatta, halok bo'ldi deb xabar yuborishar edi, rost aytaman!

Rostligiga-ku ishonish ancha qiyin edi-ya, ammo ichimda qattiq ishongim kelardi...

Petya juda erta, soat beshdan o'tganda keldi. Romashovni tushgacha kutdik, Petya front voqealarini aytib berar, men eshitib o'tirardim, nazarimda u Petyaning o'zi emas, balki sap-sariq barmoqlari bilan «echki oyoq» o'rab chekuvchi, kalta po'stin kiygan qo'polroq ukasi bo'lib ko'rinardi. Uning gapirib berganlari xulq-atvor o'zgarishining tarixi edi. Rassom, san'at kishisi bo'lgan Petya, frontga borgan dastlabki kunlarda urushni emas, balki urush manzarasini ko'ribdi. «Urush o'z yo'li bilan, men o'z yo'lim bilan edim». Biroq bir hafta o'tibdi, ikki hafta o'tibdi, shu kezda u birinchi nemisni o'ldiribdi.

– Qanday qilib men, rassom Skovorodnikov degan odam, odamni o'ldirdim? Ammo men, o'zini odam deb atashga haqqi yo'q kishini o'ldirdim. Uni o'ldirish bilan men, shu huquqni himoya qilardim.

Shunday qilib, u «urush atomi» bo'lib qolgan. U endi urushni rassom sifatida tomosha qilmas edi, haqiqiy askar bo'lish uchun qo'ldan kelgan hamma narsani qilishga tirishar, harakat qilardi.

– Bu eski dunyoda nima qilaman? – dedi u atrofiga nazar tashlab.

Romashov kelmadi, men ketdim, chunki Petyaning shu «eski dunyoda» yolg'iz o'zi qolishni istaganligini ko'rdim, sezdim. Ostonaga borib, orqamga qayrilib qaradim, Petya qaltiragan, dag'al qo'llari bilan o'zining eski rasmlaridan birini ochib qaramoqda edi.

Gospitaldan Romashovga qo'ng'iroq qildim.

– Keldimi? – deb so'radi u kayfi chog' bo'lib. – Ana, aytmadimmi! Siz ishonmagan edingiz!

– Ha, keldi. Kechqurun keling, u siz bilan ko'rishmoqchi.

– Afsuski, kechqurun borolmayman, zarur ishim bor.

– Yo'q, kelasiz.

– Hech iloji yo'q.

– Kelasiz dedim, kelasiz, eshitdingizmi, Misha? – dedim-da, go'shakni ilib qo'ydim.

Keldi. Biz emakxonada o'tirgan edik, u eshikda paydo bo'ldi-da, ikki qo'lini cho'zganicha Petyaning oldiga yurib kelaverdi.

– E-e-e, xursandman, xursandman, – dedi u, – ko'p xursandman. Rostini aytsam, hech iloji bo'lmas deb o'ylovdim, rost. Ammo siz juda mashhur kishi ekansiz. Agar siz mashhur bo'lmaganingizda, sizni chaqirtirib kelishning sira iloji bo'lmas edi.

– Tashakkur, o'rtoq mayor, – rasmiy tusda dedi Petya.

– Yo'g'-e, mayor qayoqda! Bori-yo'g'im ikkinchi rangli intendant (armiyada moddiy ta'minot xizmatini bajaruvchi harbiy xodim)man. Yoqamga g'ildirak taqib qo'yishga qo'lim tegmaydi, mayorligimning sababi shu.

Petya avval unga, so'ngra uning yoqasiga qaradi, uning qarashi yoqaga g'ildirak taqib olishdan yengil narsa yo'q derdi.

– Xo'sh, frontlarda ishlar qalay, nima yangiliklar bor? Menga hozir Ligovoni oldik deb aytishdi, rostmi?

– Mening bilishimcha, hali olinmagan, – dedi Petya.

– Ana, xolos! Men endi bir necha kundan keyin Moskvaga xalqaro poyezdda mazza qilib borar ekanmiz deb yuribman. Bir oz kutishga to'g'ri kelar ekan-da, a?

Leningradida «mazza qilib boramiz» degan gaplar ishlatilmas edi. Men o'zimni noqulay sezdim. Ammo nazarimda Petya bu so'zlarni eshitmaganday edi.

Bir oz jim o'tirdik.

– Xo'sh, birinchi va birdan-bir masala – Sanya masalasi, shundaymi? – dedi Romashov.

Nega u o'zini bunday g'alati tutadi? Nega u goh tortinib, uyalib, goh kibrilik bilan iljayadi? Nimaga u niqobli kiyimlar kiyib, artilleriya o'ti ostida kartoshka kovlagan allaqanday o't o'chiruvchilar haqida uzundan-uzun hikoyani aytib berdi? Bilmadim, menga baribir edi. Esim, xayolim Sanyada edi...

– Buning faqat bir yo'li bor, – dedi Romashov, qandaydir sirli kibr bilan. – Gap shundaki, Kiyev atrofidagi o'sha joylar hozir partizanlar qo'lida. Shubhasizki, partizanlar front qo'mondonligi bilan aloqada. Shu aloqaga qo'shilish kerak, ya'ni biron kimsaga Sanya haqida ma'lumot to'plashni topshirish kerak.

Petya oyoqlarini chalishtirib, dahanini qo'li bilan tirab, undan ko'zini uzmay qarab o'tirardi.

– Bu ishning ikki qiyin tomoni bor, – davom etardi Romashov. – Birinchisi shuki, biz Leningraddamiz. Ikkinchi qiyinlik – Sanya haqida ma'lumot to'plash to'g'risidagi buyruqni juda katta bir tashkilot bera oladi, unga borib etish juda qiyin. Ammo odam bolasining qo'lidan har narsa keladi. Shu erda, partizan otryadlari Leningrad shtabida, mening tanishlarim bor. Qo'limdan keladi, – dedi u rangi oqarib. Ishqilib, favqulodda hodisalar xalaqit qilmasa bo'lgani.

«Favqulodda hodisalar» to'lib yotgan edi, turmushning o'zi shu «favqulodda hodisalar»dan iborat edi. Ladoga ko'lining narigi tomoni «Katta yer» deb atalar edi, u yer bilan hatto oddiy telegraf aloqasini uzmay turish ham kundan-kunga og'irlashib borar edi.

– Petya, nega indamay o'tiribsiz?

– Eshitib o'tiribman, – dedi Petya, xuddi xayoldan uyg'on-ganday. – Bu kishi to'g'ri aytadi. Faqat men, ayniqsa hozirgi paytda bu aloqaga ishonch bog'lash qiyinmikan deyman. Lekin darhol ishga kirishish kerak. Bu to'g'rida o'rtoq Romashov to'g'ri aytadi. Men o'rningizda bo'lsam, Sanyaning qismiga, albatta, xat yozgan bo'lardim, Katya.

– Jonim, Katya, – dedi u, Romashov chiqib ketgandan keyin, – men nima ham deya olaman sizga? Menga sira yoqmadi u odam, ammo buning hech ahamiyati yo'q, shunday emasmi? U qandaydir tabiati sovuq, jirkanch odamga o'xshaydi. Ammo shuning bilan birga uning har so'zidan, har bir harakatidan hislarining oshkorligi sezilib turibdi. Men hatto uni suratga olgim keldi. Kallasining to'rtburchakligini qarang! Lekin mening gaplarimga e'tibor qil-

mang, ahamiyati yo'q. Eng muhimi, menimcha, serg'ayrat odamga o'xshaydi.

– To'g'ri aytasiz!

– Keyin, sizga juda mehribon ko'rinadi.

– Shubhasiz.

– Partizan otryadlari shtabiga u bilan birga borolmaysizmi?

– Albatta, borishim mumkin.

– Borganingiz ma'qul. Keyin xat yozish kerak, surishtirish kerak, albatta, shunday qiling. O'zingizga yengil bo'ladi. Juda ozib ketibsiz, rosa qiynalganga o'xshaysiz, – dedi u qo'limdan ushlab. – Bechora, bechora! Hech uxlamasangiz ham kerak?

– Yo'q, uxlayman.

– Sanya qaytadi, albatta, qaytadi, – derdi u; men ko'zlarimni yumib, titrab turgan lablarimni to'xtatishga harakat qilib, uning gapini tinglab o'tirardim. – Hammasi eski iziga tushib ketadi yana, chunki sizning muhabbatingiz shu qadar zo'rki, uning oldida har qanaqa o'lim ham daf bo'ladi. Siz bilan Sanyaga chiqargan sevishni, boshqa hech kimsa, menimcha, sizdek sevolmasa kerak bir-birini. Butun umr bo'yi bir-birlaringni sevib kelasizlar. Seni shu qadar sevgandan keyin o'lim qayoqda!? Hech kimning o'lgisi kelmaydi, eng avval men o'lmasdim. Sanya-chi? Siz uning vafot etishiga rozi bo'larmidingiz?

U gapirardi, men tinglab o'tirardim, yuragim ancha yengillashganday bo'lardi. Birdan ko'z oldimga bir eski xotira keldi: tun, Sanya o'lgudek charchab, ust-boshini yechmasdan uxlab yotibdi, uy ichi yorug'. Devorning narigi tomonida ozg'in bir bola skripka chalyapti, men ikki chakkamni ushlab, musiqani tinglab yotibman. «Baxtsizlik ketidan shodlik keladi, ayrilish ketidan – ko'rishish. Hammasi yana joyiga tushadi, chunki biz ishongan ertaklar bu dunyoda hali ko'p yashaydi...»

Petyaning diviziyasi endi Slavyansk degan joyda turar edi, shuning uchun frontga tramvayda borsa bo'lardi. U: «Kuzatmang, xavfli, Ribatskoyeda ruxsatnomasi yo'qlarni ushlab qolishi mumkin», dedi. Shunday bo'lishiga qaramay, men kuzatgani ketdim.

– Ushlasa, ushlasin, nima qipti! Komendant meni taniydi.

Tramvay liq to'la, shov-shuv edi. Shunday bo'lsa ham, buvimdan kelgan xatlarni nari-beri o'qib chiqdim. Petya yaqinda buvimdan birdaniga to'rtta yopiq xat, o'n ikkita ochiq xat olibdi. O'sha kezlarda Leningradda shunaqa edi – odamlar «Katta yerdan» haftalab hech narsa olmay, birdaniga bir quchoq xat olishar edi. Uyda faqat ochiq

xatlarni o'qib chiqqan edim. Ulardan birining oxiriga kichkina Petya o'z qo'li bilan: «Dada, biznikida quyuncha bor» deb yozgan edi; uning tilini chiqarib, qoshlarini chimirib xat yozib o'tirganini darrov ko'z oldimga keltirdim, har safar shunday qilganda u onasiga o'xshab ketardi. Uning qorni to'q, sog'-salomat, xavfdan xoli, buvim ham shunday. Bunday og'ir kunlarda shunga ham shukur qilish kerak edi.

– Rost-a, Petya? – dedim.

– Albatta, to'g'ri, – dedi Petya, g'amgin bir holda. – Ammo juda sog'inibman-da, men sizga aytsam!

Tramvay Ribatskoye posyolkasiga kirgan edi, birov tramvayning oxirida vagondan bittalab chiqarar ekan, hujjatlarni tekshirar ekan, dedi. Petya mendan tashvishlana boshlagan edi, men uyga qaytmoqchi bo'ldim.

– Sog' bo'ling, azizim.

– Xo'p, xo'p, sog' bo'laman, – dedi Petya kulib. Kichkina Petya hamisha shunday derdi.

O'z ishlari bilan ovora bo'lgan kishilarning boshlaridan qo'larimizni cho'zib xayrlashdik, uning ichida nima borligini, orzu-xayollarini so'rab bilmaganimga pushaymon yegan bo'lsam kerak. «Axir, yana ko'risharmiz, – dedim o'zimga-o'zim. – Gospitaldan javob olib borib kelarman, qismi yaqin joyda ekan-ku».

U bilan yana diydor ko'rishgunimizgacha qancha og'ir va tashvishli kunlar o'tishini bilmagan edim-da!

UMIDIM SO'NMOQDA

Dekabrning o'rtalarida, havo hujumi ayni qizigan, kechasi bilan bombardimon tugamay chiqqan kunlardan birida Berta halok bo'ldi. U ochlikdan o'lmagan edi, Rozaliya Naumovna «uning o'limiga ochlik ta'sir qilmadi» deb o'n marta aytdi.

Rozaliya Naumovna singlisi qazo qilgan kuniyoq eski odatlar bilan ko'chmoqchi edi. Ammo buning iloji yo'q edi. Shundan keyin u, darozdan kelgan, g'amgin bir yahudiyni chaqirtirib keldi-da, marhuma ustida kechasi bilan duo o'qittirdi. Marhumani ikkita tikilmagan choyshabdan qilingan kafanga o'rab, yerga yotqizib qo'yan edilar. Bombalar yaqin atroflarga kelib tushar, Maksim Gorkiy ko'chasida shu kecha bitta ham butun deraza oynasi qolmagan edi. Yong'in shu'lalaridan, pushti rangga kirgan qorlardan odam qo'rqar edi. Boya-

gi g'amgin kishi marhuma yonida duosini o'qib o'tirib, bir mahal uxlab qolibdi; ertalab azon paytda uyga kirsam, kitobini boshining tagiga qo'yib, marhuma yonida bemalol xurрак otib yotibdi.

Romashov tobut topib keldi (u vaqtlarda, ya'ni dekabrda tobut topilar edi), kichkinagina, bukchayib qolgan kampir shu qo'pol, nari-beri yasalgan yashikka yotganda, nazarimda qo'rqqanidan tobutning bir burchagiga siqilib olganday ko'rindi.

Romashovning aytishicha, go'rkovlar «juda baland narx» so'rashibdi. Rozaliya Naumovna taxta bo'yattirgan bolalarni go'r qazishga yolladi. Romashovning kayfi chog' edi, hovliga o'n marta yugurib tushar, komendant bilan allanimalar to'g'risida pichirlashar, Rozaliya Naumovnaning yelkalariga qoqardi. Nihoyat, Bertani bir-biriga tikilmagan ikki choyshabda ko'mdiraman degan Rozaliya Naumovnadani jahli chiqib ketdi.

– Choysxabni yangisiga almashtirib olish mumkin, axir, – deb bariqirib berdi Romashov, – Bertaga keragi yo'q-ku go'rda! Choysxabni olib qolmasangiz, baribir ikki kundan keyin o'g'rilar go'rdan olib ketadi.

Men Romashovni haydab yubordim-da, Rozaliya Naumovnaga «sizning istaganingizcha bo'ladi», dedim.

Ertalab mahalida Romashov bilan bolalar tobutni turtina-surtina pastga olib tushib, hovlida turgan chanaga qo'yidilar. Osmonda mayda va kishining yuziga mixday kelib uradigan qor yog'moqda edi. Men bolalarga pul bermoqchi edim, Romashov «nonga gaplashganman», dedi.

– Avvaliga yuz grammdan, – dedi u kayfi chog'lik bilan. – Bo'ptimi, bolalar?

Bolalar uning betiga qaramasdan, rozi bo'lishdi.

– Katya, siz tepaga ketayapsizmi? – davom etdi u. – Qaytganingizda nonni olakeling, mening shinelimda turibdi.

Nima uchun nonni shinelining cho'ntagiga solib qo'ydi ekan, bilmadim. Balki Rozaliya Naumovnadani yo boyagi yahudiydan bekitgandir. Ustiga kalta po'stin kiyib yurganidan, shineli dahlizda osig'liq turardi.

Tepaga chiqdim, zinadan chiqib ketayotib, issiqroq kiyinib olganim yaxshi deb o'ylaganim ham esimda. Kechasi bilan isitmalab chiqqan edim, qabristonga bormaganim yaxshiroq bo'lar edi-ya, chunki qabristongacha bo'lgan masofa yetti chaqirim kelar edi. Ammo Rozaliya Naumovna mensiz yo'lda yiqilib qolarmikin deb qo'rqardim.

Shinel cho'ntagida qog'ozga o'ralgan bir bo'lak non yotardi, men uni olib chiqara boshladim. Non bilan birga qandaydir bir yumshoq xaltacha ham ergashib chiqdi. Xalta qo'limdan tushib ketdi, dahliz qorong'i edi, xaltachani yerdan olay deb, katta eshikni ochdim. Xaltacha – sariq zamshdan tikilgan xaltacha edi, frontga yuboriladigan sovg'alar orasiga shunday xaltachalar ham qo'shib yuborilar edi. Bir oz o'ylab turdim-da, ochdim. Ichida ikki bukilgan rasm bilan bir necha uzuk bor ekan. Rasm – fotorasm bo'lib, ancha uringan, orqa tomonidagi yozuvi o'chib, xiralaniib, deyarli o'qib bo'lmaydigan bo'lib ketgan edi. Rasmni yana xaltaga solib qo'yay deb turgan edim, birdan qo'limni qaytardim. Nazarimda, shu rasmni bir vaqtlar qo'limda ushlagandek bo'lib ketdim.

Zinaga chiqdim, zina yorug'roq edi, orqasidagi yozuvni harfma-harf o'qiy boshlagan edim, «Agar bo'lsang...» degan so'z kelib chiqdi. Ko'zimga oppoq va o'tkir bir yorug' kelib urdi-da, yuragimga borib sanchildi. Rasmning orqasiga: «Agar bo'lsang, eng yaxshisi bo'l» deb yozilgan edi.

O'sha yerda nima bo'lganimni bilmayman. Birdan baqirib yuboribman, keyin zina sahnida o'tirib rasmni paypaslab qidirganimni bilaman. Ko'zlarim jimirlashib ketgan bo'lsa ham, yozuvni o'qib chiqqan va boshiga shlyom kiygan, shunqor yuzli, mehribon ko'zli Ch. ni tanigan edim. Bu rasm Ch.ning surati bo'lib, Sanya uni hamisha yonida olib yurar edi. Men Sanyaga rasmni yoningda olib yurma, eskirib yirtilib ketadi deb ming marta aytsam ham, u boshqa hujjatlari bilan birga olib yurar edi.

Jahlim chiqib, quturganimcha dahlizga otildim, qoziqdagi shinelni tortib oldim-da, yerga tashlab cho'ntaklarini chiqarib titkilay boshladim. Sanya o'lgan, uni o'ldirganlar. Nima qidirganimni o'zim ham bilmas edim. Sanyani Romashov o'ldirgan. Bir cho'ntagidan allaqancha pul chiqqan edi, g'ijimlab, yerga tashladim. Sanyani o'ldirganda, shu rasmni olgan. Men yig'lamas edim. O'rmon ichida o'lib yotgan – Sanya ekanligini bildirmaslik uchun, barcha hujjatlari bilan birga shu rasmni ham olgan, balki medalonni ham olgan. «Planshetkada boshqa va juda muhim qog'ozlar ham bor edi» – bu so'zlar yana qulog'imga eshitila boshladi. Xuddi Romashov aytgan bu so'zlarning har birini kimsa chiroq yoqib yoritganday bo'lar edi.

Bu rasm planshetkada bo'lgan. Boshqa qog'ozlar va «Krasniye sokoli» gazetasi ham planshetkada bo'lgan, ammo ular ivib, chirib

ketgan. Axir, Romashovning o'zi aytmadimi: «Gazeta ivib g'ijimlanib ketdi» deb! Rasmni Sanya hamisha kalka qog'ozga o'rab yurardi, balki shuning uchun rasm butun qolgan bo'lsha kerak.

Pastdan ovozlari eshilib qoldi. Meni Rozaliya Naumovna chaqirmoqda edi. Rasmni ko'kragimga yashirdim-da, xaltachani shinelning cho'ntagiga solib qo'ydim. Shinelni joyiga ilib, pastga tushdim, nonni Romashovga berdim.

U mendan so'radi:

– Ha, sizga nima bo'ldi? Tobingiz yo'qmi?

– Tobim joyida, – dedim men.

Ko'zimga hech narsa ko'rinmas edi. Kimsasiz jimjit ko'chalar, ulardan zo'rg'a oyoqlarini sudrab ketayotgan kishilar, to'xtab va yaxlab qolgan tramvaylar, ularning tomlaridagi qalin-qalin qorlar ham ko'rinmas edi ko'zimga. Yo'rgaklangan chaqaloq bolaga o'xshab kafanga o'ralgan kichkina jasad solingan va biz sudrab ketayotgan chana ham ko'rinmas edi.

Tobut kattalik qilib kichkina chanaga sig'magan edi, Romashovning qolaqolsin degani endi esimga tushdi.

– Mayli, sotib pul qilamiz, – dedi u.

Rozaliya Naumovnaning ham esi og'ib qolayozgan edi. Negaki, u ham, odat bo'yicha mayyitni tobutsiz ko'mish kerak, dedi. Bu gaplar qulog'imga kirdi-yu, o'sha zamonAQ esimdan chiqib ketdi. Yuzi keksa odamlarning yuziga o'xshagan kichkina bir qiz bola yo'ldan qorga o'tib, bizga yo'l berdi, chunki yo'l juda tor edi. Portfelini ipga bog'lab, yelkasida ko'tarib ketayotgan yana bir kishi keng paltosini sudrab o'tdi. Bularning barini ko'rdim-u, ammo o'sha ondayoq unutar edim. Jimjit va qor bosgan ko'chalarni, chanada bukchayib yotgan kichkina jasadni, ko'chaning narigi betidan bir ayol sudrab ketayotgan yana boshqa jasadni – hammasini ko'rar edim-u, ammo borgan sari orqada qolib ketaverar edim, axir qolib ketdim. Oynadan sekin-asta o'tib boruvchi ko'lankalar singari, qor bosib qolgan, oppoq shahar ham ko'zimdan shu yanglig' o'tib borardi.

Ko'zimga boshqa narsa ko'rinardi: iflos va qondan sarg'ayib ketgan bintga bog'langan oyoqlarini uzatib, kichkina va zax terakzorda bir chakkasini ho'l yerga berib yotgan Sanya bilan uning dushmani, qotili ko'rinardi, shundan yuragim zirqillab achishardi.

«SENI MENING MUHABBATIM ASRASIN!»

Yahudiylar qabristoni yiroq, unga etib borish qiyin edi, shuning uchun Rozaliya Naumovna singlisini Smolensk qabristonida ko'mishga qaror qildi. Fotiha o'qib o'tirgan g'amgin basharali yahudiy olti yuz gramm nonga mayyitni rus qabristoniga ko'mishga rozi bo'ldi.

Ertalabdan kechgacha davom etgan dafn marosimi yaxshi esimda emas. Xuddi eski, tovushsiz kintasma ko'z oldimdan birin-ketin o'tib borganday, ojiz xayolim goh uni payqaydi, goh atrofdagi qorga tushib, ko'milib ketadi.

Biz qabristonga ketayotibmiz, kun sovuq; horiganlik va muzlab qolgan jasadni yomon ko'rishdan boshqa hech narsa sezmaymiz. Bolalar tobutni tepaga ikkovlari galma-gal tortib chiqishadi, pastlik kelganda go'yo xuddi o'zining o'limi bilan bizni tashvishga solib qo'rganidan xijolat tortganday, o'zi sirg'anib tushib ketadi.

Jasadga bog'lab qo'yilgan belkurak quyoshda yaltiraydi, shu yaltiragan belkurakka qarasam – nechundir yodimga Qrim va dengiz tushardi. Naqadar yaxshi turardik Qrimda! Sanya soat beshda uyg'onardi, agar uning uchishini bilsam, yengil nonushta tayyorlardim. Biz «Standard» degan dush sotib olgan edik, men uni boplab ko'ndirgan edim, Sanya dushga tushib cho'milib, ustiga sariq yo'lli pijama kiyib, dasturxon yonida o'tirar edi. Bir kuni biz Sevastopolga bordik, dengiz to'lqinlanar, havo bulut edi, uchuvchilarga ta'til hamisha noqulay vaqtda berilar edi. Kayfiyatim buzilgan edi, Sanya: «Xafa bo'lma, men bilan bo'lsang havo ham ochilib ketadi», dedi. Darhaqiqat, kema endi jo'nagan ham ediki, havo ochilib ketdi.

Oppoq palubada Sanya yonida turganlarim (men ham oq ko'ylak kiygan edim), ko'hlik bo'lishga tirishganlarim qani endi! Boshqalarga yoqsam u xursand bo'lardi, buni men bilar edim. Ko'zingni qayerga tashlama, kapitan ko'prigining mis panjarasigami, shamoldan osmonga uchib chiquvchi dengiz to'lqinlarigami, suvga o'qday sho'ng'ib chiqqan chaykagami, qayerga qarama, hamma yerda oftob nuri tovlanar edi.

...Rozaliya Naumovna juda issiq va qalin kiyingan edi, shuning uchun zo'rg'a yurib borar edi, men uning qo'ltig'idan ushlab, chana ketidan borardik, chana goh oldinga yurib ketib qolardi, goh bolalar to'xtaganda biz unga etib olardik. Biz ikkovimiz ojiz kampir edik, men ham xuddi Rozaliya Naumovnaga o'xshab qolgan edim. Buni

Romashov ham sezib qolgan bo'lsa kerak, chunki u ortimizdan yetib oladi-da, mendan achchiqlanib:

– Siz nega chiqdingiz-a? Shamollaysiz, yotib qolasiz. Uyga qaying, Katya, – deydi.

Men unga qarayman: tirik, soppa-sog'! Ustida yap-yangi kalta po'stin. Ko'krak va belida yangi kamarlar, yonida to'pponcha. Soppa-sog'! Yerga engashib, og'zimga qor olaman. Jasadga bog'langan belkurak hamon yaltiraydi, uning yaltirashidan hech ko'zimni uzolmayman.

Qabriston. Biz devorlari qirov bosib ketgan kichkina va iflos kontorada kutib o'tiribmiz. Pechka yonida o'tirgan, hamma yog'i shishib ketgan kontorchi ayol, latta-puttalarga o'ralgan semiz oyoqlarini o'tga tutib o'tirardi. Romashov unga allanimalar deb baqiradi. Keyin qabr tayyor deb kelishdi, biz chiqdik. Bolalar belkurakka suyanib turishardi. Qabrni chuqur qazishmabdi ham. Romashov bolalarni marhumani keltirishga yubordi. Ana, chanani sudrab keltirishdi. Daroz va g'amgin yahudiy chana ketidan asta-sekin fотиha o'qib keladi. Romashov qor ustiga arqon yoyadi-da, jasadni rosa ko'tarib, chana ni oyog'i bilan itarib tashlaydi. Jasadni arqonga qo'yadi. Rozaliya Naumovna singlisini so'nggi marta o'padi. Yahudiy xuddi g'amgin bir qush singari, ohangdor qilib fотиha o'qiydi...

Biz kontorga isingani qaytdik. Biz deganim – men bilan Romashov. U menga ko'zini qisdi-da, cho'ntagini ko'rsatdi, biz kontor ichiga kirdik.

– Quyaymi? – dedi u va ikkita qadahga ozginadan ichimlik quydi.

Yuragim birdan tez ura boshladi, qo'llarim va oyoqlarimga is-siq yugurdi. Men isib ketdim. Tugmalarimni yechib, boshimdan ro'molimni oldim. Oyoqlarim, chaqqon, ildam, kontor ichida yura boshladim.

– Yanami?

Shishib ketgan ayol bizga suqlanib qaradi, men Romashovga unga ham quyishini aytdim. Romashov unga ham quydi, u «Bo'lganicha bo'ldi!» dedi, vaqti xush, kayfi chog', quloqlari qip-qizarib ketgan, quloqchini yelkasida qiyshayib ketgan. Mening ham kayfim chog', ha-zillashib, stol ustida yotgan qabr taxtalaridan birini qo'limga oldim-da, Romashovga uzatdim:

– Mana bu sizniki!

U kula boshladi:

– Mana endi eski Katya bo‘ldingiz tag‘in.

– Ammo hali ham sizniki emasman!

U yonimga kelib qo‘limdan ushladi. Og‘zi titray boshladi, maydamayda tishlari ko‘rindi, ajabo, uning mayda, oppoq va o‘tkir tishlari borligini ilgari sira bilmagan ekanman-da.

– Yo‘q, menikisan, – dedi u xirillab.

O‘ng qo‘limni tortib oldim. Deraza tokchasida bolg‘acha yotardi, shu bolg‘a bilan qabristondagi butlarga taxtachalarni qoqishsa kerak. Sekin-asta derazadan shu bolg‘achani olaman, o‘zi kichkina, og‘ir, sopi temirdan...

Agar bolg‘ani chekkasiga solganimda, Romashovni o‘sha yerning o‘zida o‘ldirgan bo‘lardim. Ammo u, o‘zini chetga olib qoldi, bolg‘a yanaq suyagini yorib ketdi. Pechka yonida o‘tirgan ayol birdan qichqirib yubordi-da, o‘rnidan turib tashqariga yugurdi. Romashov uning ketidan yugurib, ayolni ichkariga qaytarib, eshikni yopdi. Keyin mening yonimga keldi.

– Yonimga kelmang! – dedim men g‘azabim qaynab, jirkangan holda. – Siz qotilsiz! Sanyani siz o‘ldirgansiz!

U indamas edi. Yorilib ketgan yuzidan qon oqardi. Yuzini kafti bilan artdi-da, yerga silkitib tashladi, ammo qon hamon oqardi, yelkalari, ko‘kragi, po‘stini, hammayog‘i qon bo‘lib ketgan edi.

– Bosib turish kerak, – dedi menga qaramasdan. – Toza dastro‘molingiz yo‘qmi, Katya?

– Xo‘p, meni o‘ldirdi dedingiz, mayli, men o‘ldirdim! Ammo men o‘ldirgan bo‘lsam, suratni nega olib yurdim? Biz hujjatlarni yerga ko‘mmoqchi edik, Sanya ularni qo‘lida ushlab turgan edi, qo‘lidan tushib qolgan bo‘lsa kerak. Men rasmni topib olganligimni sizga aytmadim, menga ishonmaysiz deb qo‘rqqan edim. Eh, Xudo, siz urushning nima ekanligini bilmaysiz! Meni uni o‘ldirdi degan fikr qanday qilib miyangizga keldi-a? U kim bo‘lmasin, unga mening munosabatim qanday bo‘lmasin, yaradorni o‘ldirishga qo‘lim bormas edi, Katya! Dovdirab qolibsiz, Katya, bu gapingizga hech kim ishonmaydi!

«Bu gapingizga hech kim ishonmaydi» degan gapni Romashov bir necha marta qaytarib aytdi. O‘z gumonimni Harbiy tribunalga yoki prokurorga yozib berishimdan qo‘rqqan bo‘lsa kerak. U, qabristondagi kontorchiy ayolga yonidagi hamma pulini va nonini berdi, uning ayolga: «Hech kimga og‘zingizni ochmaysiz» deganini

eshitdim. U kasalxonaga ham bormadi. Rozaliya Naumovna qonni to‘xtatdi-da, yuzining yorilgan joyiga malham yopishtirib qo‘ydi.

– Ha, men uni yomon ko‘rar edim, bu to‘g‘ri, bu haqiqatni hech kimdan yashirmayman, – deb davom etdi Romashov, – ammo uni oyoqlari mayib holda, iflos qizil vagonda chekkasiga to‘pponcha qo‘yib yotgan joyida topganimda men uni emas, sizni o‘ylardim. Meni ko‘rgan zamoni sevingani ham bejiz emas edi. U meni ko‘rib, endi omon qolar ekanman deb o‘yladi. Uni zambilga solib olib ketish uchun odam chaqirgani ketganimda yo‘qolib qolgan bo‘lsa, ayb mendami?

U kichkina va tor oshxonaning u boshidan bu boshiga yurib, tinmay gapirar edi... Ba‘zan ikki qo‘li bilan boshini ushlab qolar edi, shunda uning devorga tushgan soyasida ikkita burni uzun maxluq paydo bo‘lar edi. Shunda yoshlik xotiralari esimga tushib ketar edi: «Ana, shoxi uzun sigir!» derdi oyim, ikki barmog‘ini menga mix qilib ko‘rsatib; men o‘zimning kichkina karavotimda yotaman, oyim yonimda o‘tiradi, qo‘lini devor yoniga olib boradi-da, soyaga emas, balki qo‘liga qaraganimdan kuladi. «Ana, soqolli echkivoy»... Ko‘zlarim yoshdan ho‘llanib ketardi, ammo yoshni artmasdim, chunki qo‘limni ko‘rpa, palto va tulki mo‘ynasi ostidan chiqaray desam sovuq edi.

– La‘nati taqdir nega meni u bilan eshelonda yo‘liqtirdi-ya! Men uni bemalol o‘ldirib yuborishim mumkin edi. Vagonlardan har kuni bir necha jasadni chiqarib tashlar edilar, o‘zini-o‘zi otib o‘ldiraman degan uchuvchining bir kunmas bir kun kallasidan o‘q yeb o‘lganini ko‘rgan odamlar hech ajablanmas edilar. Ammo men uni o‘ldirolmas edim, axir, – deb baqirdi Romashov, – chunki bir kunmas bir kun u emas, balki siz boshingizdan o‘q yeb yotgan bo‘lardingiz! Qizlardan biridan ismingiz nima deb so‘rasam, «Katya» dedi, shunda uning chehrasi ochilib ketdi, shunday bo‘lishini o‘shanda bildim. Uning o‘limini istagan, yuragim qora men, uning oldida bir pulga arzimasligimni bildim, bo‘lmasa, uning o‘limi menga baxt keltirishi kerak edi-ku! Yo‘q, shundan keyin men uni har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham siz uchun qutqarib qolmoqchi bo‘ldim. Mana endi siz menga Sanyani o‘ldirding deysiz! Yo‘q! – dedi u keskin, – meni baxtsizlikka va mashaqqatlikka tuqqan onam hurmatini o‘rtaga qo‘yib ont ichamanki, yo‘q! Eng muqaddas narsam – sizga bo‘lgan muhabbatim bilan ont ichamanki, yo‘q! Bas-harti u halok bo‘lgan bo‘lsa, mening zarracha gunohim yo‘q bunda!

U po‘stinining halqalarini qadardi, ammo qo‘li qaltiraganidan, halqa bog‘ichini topolmasdi.

Ortiq unga ishonmas va ishonolmas edim. Ko‘zlari cho‘kib ketgan yuziga, sap-sariq paxmoq sochlariga, badburush yuziga yopishtirilgan malhamiga beparvo qarab o‘tirardim.

– Keting!

– Tobingiz yomon ko‘rinadi, yoningizda qolishga ruxsat eting.

– Keting!

Ilgarilari ham yig‘laganmi, yo‘qmi, bilmayman. Ammo hozir karavot yoniga tiz cho‘kib, yuzini ko‘rpaga qo‘yganda va piqir-piqir qilib titrab o‘tirganda, yuzi ko‘z yoshiga to‘lib ketgandi. «Sanya tirik, deb o‘yladim men va birdan yuragim sevinchdan sakrab ketdi. – Yo oldimda tiz cho‘kib turgan – odam emas, iblismi? Yo‘g‘-a, bunchalik mug‘ambirlik bo‘lmasa kerak dunyoda».

– Keting!

Qayoqqa haydaganimni o‘zim ham bilmayman. Bir oydan beri u biznikida turar edi, nima uchundir Rozaliya Naumovna uni uy daftari-ga yozdirib qo‘yibdi. Qorong‘i tun, trevoga tinmas edi. Ammo u chiqib ketdi, men yolg‘iz o‘zim qoldim.

Metronom «tik-tak» deb tiqillaydi. Kimdir birov, Leningradda trevoga bo‘lganda metronomning tiqillashini eshittirishadi degan edi. Deraza oynalari bilan birga jinchi-roq alangasi ham larzaga kelar edi. Kichkina, nam terakzorda nima bo‘lgan ekan?

Men po‘stinlar, ko‘rpa va tulki mo‘ynasini ustimga yopib yotgan edim, trevoganing tugaganini bilmabman. Tugabdiyu, darhol yana boshlanibdi. «Tik-tak, – deb tiqillardi metronom, – ishonasan, ishonmaysan».

U tiqillagan mening qalbim edi; qish kunida, ochlik hukm surgan shaharda, muzdek sovuq uyda, kichkina jinchi-roq g‘ira-shira yonib turgan torgina oshxonada mening qalbim nola qilar, dukillab urar edi. Seni mening muhabbatim o‘z panohida asrasin! Umidim borib yetsin senga! Yoningga borib tursin-da, ko‘zlaringga boqib, jonsiz va qonsiz lablaringga hayot baxsh etsin! Bu menman, Katyangman desin! Qayerlarda bo‘lma, men yoningga keldim, desin. Boshingga ne-ne kulfatlar tushmasin, hamisha yoningdaman desin. Mayli, boshqa ayol seni parvarish qilsin, bir piyola suvingni boshqa kishi bersin, baribir, o‘sha men bo‘laman. Tepangga ajal kelib tursa ham, unga qarshi kurashishga kuching yetmay qolganda, yuragingning bir burchagida zig‘ircha mador qolganda bilginki, o‘sha – menman, men seni qutqarib olaman.

KECHIR, LENINGRAD!

1942-yilning yanvar oyida meni Leningraddan olib ketishdi. Men juda ojiz edim, shifokorlar meni eshelonda yubormaslikni maslahat qilishdi, shundan keyin Varya menga aeroplan to'g'rilab berdi.

Leningraddan ketishimdan bir kun avval, yaradorlarni ajratadigan gospitaldan qo'ng'iroq qilib, leytenant Skovorodnikov yarador, bir kelib ketarkansiz deyishdi.

– Siz singlisi bo'lasizmi?

– Ha, – dedim men, ovozim titrar edi. – Qattiq yarador bo'lganmi?

– Yo'q, siz bilan ko'rishishni umid qiladi.

Men borib kelmoqchi edim, biroq Varya qo'yimadi. To'g'ri qilgan bo'lsa kerak: balki yo'lda o'lib qolarmidim. O'zim juda nimjon bo'lib qolgandim, oyog'imni zo'rg'a sudrab bosardim, Petya yotgan gospital dunyoning narigi chetida, Vasilyev orolida edi! Varya Petyani Harbiy-tibbiyot akademiyasiga, albatta, «stomatologiya»ga emas, balki dala xirurgiyasi bo'limiga olib keltirmoqchi edi. Chunki Petya ko'krigidan va chap qo'lidan yarador bo'lgan edi. Ammo dala xirurgiyasi bo'limi «stomatologiya»ga yaqin edi. Varya har kuni Petyaning oldiga kirib xabar olib turishga va'da berdi. Bu va'daning faqat Petya uchun emas, balki o'zi uchun ham kelajakda katta ahamiyatga ega bo'lishini o'zi, shubhasiz, bilmas edi.

Juda baland va yog'ochdan qilingan katta bino ichida (angarmikan?), o'zimga o'xshagan har narsaga o'ralib o'tirgan odamlar bilan yerda o'tirganim g'ira-shira esimda. Keyin bizni torgina so'qmoq yo'ldan oppoq qor bosgan dalaga olib chiqdilar. Atrof bombalardan o'nqir-cho'nqir bo'lib ketgan, u yer-bu yerda pachaq aeroplanlar yotardi; goho-goho qor bosgan qizil tepaliklar uchrardi, ularning Leningradga aeroplanlarda keltirilgan go'sht ekanligini keyin bildim. Keyin ingichka zinadan ichi sovuq aeroplarga chiqdik, aeroplanning ichida pulemyotlar o'rnatilgan edi.

Esimda qolgani shu. Pakana va serjahl uchuvchi kabinaga kirdi, oyoqlarida mo'yna etik. Motor gurillab yurib ketdi, keyin qor bosgan dala ham goh u tomonga, goh bu tomonga qiyshaya boshladi. Shu onda o'zimga kelibman. Kechir, Leningrad!

Men Ladoga ko'li ustidan uchib ketmoqdaman, bir necha kundan keyin leningradliklar tushgan mashinalar shu ko'ldan «Katta yer»ga,

non va un ortilgan mashinalar Leningradga qatnay boshlaydi. «Hayot yo'li» tushadigan joylarga qoziqlar qoqib qo'yilgan, odamlar tinmay ishlashadi, qor ularning bellarigacha chiqadi.

Men urush xaritasi ustidan uchib bormoqdaman, endi aeroplanni serjahl pakana uchuvchi emas, vaqtning o'zi boshqarib boradi.

Vaqt olg'a, hamon olg'a boqadi, uning ko'z oldida ajoyib, ulug'vor manzaralar ochiladi. Bepoyon yo'llardan sharqqa qarab katta zavodlarning sexlari oqib bormoqda. Ustini qor bosgan uskunalarning keti yo'q, ularning hammasini ishga solib yuborish uchun necha yillar kerak deb o'ylaysan, kishi. Ammo yerdan hali qor ketmasdan, hali bahor quyoshi yerni qizitmasdan turib, har zamon-har zamonda o'tov ko'rinib qoladigan bepoyon cho'llarda, onda-sonda qozoq cho'pon do'mbira chalib o'tirgan cho'llarda ko'pqavatli imoratlar o'z qadlarini ko'kka ko'tara boshlaydilar. Mamlakat, kuch to'plamoq, qaddini rostlamoq uchun ichkari tomonga chekingan edi...

Meni chalajon holda Yaroslavlga, «leningradliklar palatasi»ga olib ketmoqdalar; u yerda yotgan nimjon odamlar ovqatni o'ylamay, jim yotadilar. Shifokorlar ularga ovqat haqida o'ylashni taqiqlashgan, ishonmaganlarni omborlarga olib kirib ko'rsatishadi: omborlar liq to'la!

Buvim meni shu gospitaldan topadi, ammo tanimaydi: palata ostonasida atrofga qarab, hayron bo'lib turadi. Menga qaraydi-yu, ammo tanimaydi, mening kulgim qistab, ham yig'lab, ham kulib, «buvi» deb chaqiraman...

Olg'a, olg'a! Kun, so'ngra tun, so'ngra yana kun. Ammo kun bilan tunning farqiga bormas edim, larzaga kelgan yer yuziga qachon chiqishini quyoshning o'zi ham bilmas edi.

Qorda qotib qolgan a'zolari ko'rinib turgan nemis askari yotardi, o'zganing tuprog'ini xuddi yutib yubormoqchi bo'lganday, og'zi to'la tuproq, shu holicha qotib qolgan.

Rus askari granata irg'itmoq uchun oldinga intilganicha turib qolgan: shu onda uning ko'kragiga daydi o'q kelib tekkan, askar qarag'ay daraxtiga suyanganicha, qirq darajali sovuqda qotib qolgan. U xuddi jangdan ilhom olgan muz haykali kabi, boshini baland ko'tarib turardi.

Bu – qirq birinchi yilning qishi edi...

Biroq butun dunyoning esidan chiqmaydigan qish ham yetib keldi. Yangi kuchlarning nafasi «leningradliklar palatasi»ga ham yetib keladi.

Yana yurakda o't yona boshlaydi. Hayot yana chaqiradi, endi ojiz va bekor yotganingdan xafa bo'lib alamini tortasan, kishi...

Martda kasalxonadan chiqaman. Buvim meni yetaklab vokzalga olib boradi, ariqlardagi oftobdan yaltirib oqayotgan suvlardan, sof havodan, odamlar va mashinalardan ko'zlarim jimirlashib ketadi. Biz Gniloy Yarga boramiz.

Bunday xunuk nomli joyda bolalar rohat ko'rmasa kerak, deb o'ylaganim bekor ekan! Bu qishloqda bolalar juda yaxshi yashashar edi. Petenka ancha katta bo'lib qolgan, burnining terisi ko'chib, xuddi qishloqi bolaning o'zi bo'lib qolgan edi.

Men uni boshqa bolalar oldida o'psam, uyaladi, u marka to'plashga ishqiboz. Vitka Kotelkov degan bolani yomon ko'rib qolgan; chunki Vitka Kotelkov yig'loqi ekan, nuqul oyisiga borib chaqar ekan. Petenka otasi bilan xat yozishib turadi va ajabo, har zamon-har zamonda otasi unga Varya degan ayoldan salom aytib yuboradi.

- Keksa ayolmi?
- Yo'q, yosh.
- Nega menga salom aytadi? Men bilan tanishmoqchimi?
- Shundaydir...

Qishloq qabristoni baland tepalikda joylashgan, havo ochiq kunlarda undagi but va beshburchakli yulduzlar uzoqdan ko'rinadi. Biz qabriston bilan yo'l o'rtasida turibmiz, yo'lning narigi tomonida yam-yashil maysazor va dalalar yastanib yotadi. Biz yovvoyi malinaning soyasida o'tiramiz.

- Mening oyim yerdan bir maysani uzib oladi, maysadan tillaqo'ng'iz o'rmlab boradi, unga qarab o'tirgan Petenka nimalarni o'ylar ekan?

- Sanya tog'am oyimga o'xsharmidi?
- O'xshardi!

U menga mehribon ko'zlari bilan qarab, qo'limdan silaydi. Men yig'layman, ko'z yoshlarim uning oftobdan kuygan burniga tushib oqadi. Ikkimiz bir-birimizni quchoqlab, yovvoyi malina soyasida o'tiribmiz.

Olg'a! Olg'a! Orqaga qaramayin ham, o'tmishni eslamayin ham!

1942-yilning yozi. Xudfond lageri Novosibirsk viloyatiga ko'chirildi. Men Moskvaga, shiddatli, kechalari zimistonday qorong'i, tomlariga zenit to'plari o'rnatilgan, maydonlariga tom suratlari solingan Moskvaga qaytdim.

Metro, o'sha-o'sha eski, chinnidek toza metro, urush davomida sira o'zgaribdi. Gogol bulvari, o'ynab yurgan bolalar, enagalar. Qing'ir-qiyshiq, torgina, jonajon Sivtsev-Vrajek, faqat ikki yeriga yangi uy tushgan. Qadrdon, ammo iflos zina. Eshikka qoqilgan taxtacha, unga: «Professor Valentin Nikolayevich Jukov» deb yozilgan. Oho, professor, a! Bu yangilik! Men qo'ng'iroqni tortaman, eshikni qoqaman! Eshik ochiladi. Soqoli o'sgan, ko'zoynak taqqan bir harbiy kishi menga tikilib qaraydi...

Albatta, men uni darhol tanidim. Undan boshqa kim menga shunday hurmat bilan qarab turardi? Men undan:

– Professor Valentin Nikolayevich Jukov shu yerda turadimi? – deb so'raganimda, undan boshqa kim boshini shunday egib, ko'zini pirillatib qarab turardi?

Menga birdan o'zini tashlab, yuzimni emas, bilki qulog'imdan o'pgan o'sha Valya edi! Oyog'imni bir bosib oldiki, men ham u bilan birgalashib baqirib yubordim.

– Katya! Jonim, ko'p xursandman! Yaxshiyam hozir kelding, sal bo'lsa ketib qolgan bo'lardim.

U mening chamadonimni ko'tardi-da, ikkimiz ichkariga kirdik, qayerga deng? – «umumiy oshxona»ga – ham kabinet, ham emakxona, ham bolalar xonasi bo'lgan uyga! Ammo bu qadimgi va shinam yemakxonaning holatini ko'rsangiz edi! Stolda allaqanaqa bo'tqa solingan idishlar turardi, pol tozalanmagan, derazalarda ko'k qog'ozlar osilib yotardi...

Valya qo'limdan ushladi.

– Hamma gapdan xabarim bor, – dedi u. Uning yuzi titrardi, ko'zoynak taqqan ko'zlarini yumdi. – Qadrdon do'stim, qadrdonim Sanya... Ammo hali umid bor. Ivan Pavlovich menga sening xatingni o'qib berdi, biz bir polkovnik bilan maslahatlashgan edik, u ham juda ko'p odamlar qaytib kelmoqda, dedi.

Men «ha, ko'plari» dedim, u yana meni quchoqladi.

– Hech qayoqqa ketmaysan, – dedi u keskin ravishda, – kvartira bo'sh, senga qulay bo'ladi. Ivan Pavlovich seni keladi degandan keyin men bir oz yig'ishtirib oldim. Bu yerni biroz yuvish kerakdir, a? – dedi u, uyalib.

Men kulib yubordim. U karavotga o'tirdi-da, menga qo'shilib kula boshladi.

– Xudo ursin agar, sira vaqtim yo'q. Men bu yerda ko'pincha turmayman ham, doim frontdaman. Ammo qishda ancha tuzuk edi. Qish-

da hayvonlarni shu yerga olib kelgan edim, institutda o'lgudek sovuq edi.

Albatta, u hamma hayvonlarni emas, balki eng qimmatbaholarini olib kelgan edi. Olib kelgani ham yaxshi bo'libdi, chunki allaqayerdan keltirilgan qunduz sira tug'mas ekan, Valyaning uyiga ko'chib kelgandan keyin birdan tug'ib beribdi. Valya mebelni yorib yoqibdi, buni ham to'g'ri qilibdi. Chunki agar Kira «qimmatbaho» hayvonlarning hamma mebelni bulg'atib harom qilib yuborganlarini ko'rsa, juda xafa bo'lgan bo'lardi.

– Ammo kerakli mebellardan faqat oshxonadagi stolni yorib yoqdim, – dedi Valya. – Eng keraklilari butun. Mana kursilar, Kira yaxshi ko'rgan javon, darparda va boshqalari but-butun turibdi.

Ko'klamda hayvonlar yana institutga ko'chirilibdi, Valyaga kapitani unvoni berilib, Harbiy-sanitariya boshqarmasiga ishga joylashibdi. Men undan «sening kemiruvchilaring bilan frontda nima kerakliging bor», deb so'ragan edim, u:

– Mana bunisi harbiy sir! – dedi.

Xullas, hamma ish joyida edi. Yomoni shu ekanki, «berilgan limitni» qishda yoqib tamom qilgan ekan, montyorlar kelib elektr simini kesib ketishibdi. «Ammo hozir kun ancha uzaygan, kechalari spirt lampa yoqib o'tiraman, juda ajoyib narsa-da!»

– O'sha lampangda suv isitib bo'ladimi?

Valya menga angrayib qarab qoldi.

– Voy men ahmoqni qara-ya! – dedi u baqirib. – Sen yo'ldan kelgansan, choy ham ichirmabman-a!

– Menga juda ko'p qaynoq suv kerak, – dedim men, – juda ko'p. Chelak topiladimi?

Yalangoyoq bo'lib, yubkamni qistirib, qo'limga latta olib uyni yig'ishtira boshlagan edim, Valya voy deganicha qoldi.

Karavot tagidan kartoshka po'choqlarini sidirib olishimga, derazalardan eski qog'ozlarni yirtib tashlashimga, burchak-burchakdan mog'or bosgan nonlarni to'plab kelishimga u burnini ishqalab qarab o'tirar edi.

Yubkamni qistirganimcha, yalangoyoq holimda, uzun tayoqqa latta o'rab turganimda eshikni birov taqillatib qoldi. Valya iflos suv to'la chelakni ko'tarib, yugurib dahlizga chiqdi.

Uning birovga: «Tuzuk, dadil, o'zini dadil tutadi» deganini eshitib qoldim. Keyin hech narsa eshitilmadi.

Eshikni orqasida bir kimsaning daroz gavdasi ko'rindi. Kimdir birov shlapasini yechib, hassasini burchakka qo'ydi-da, cho'ntagidan tarog'ini chiqarib, oyna oldida mo'ylovini taradi. Kimdir birov uyga kirib, to'xtadi-da, menga tikilib qarab turdi.

– Ivan Pavlovich, azizim!

U mening kelishimni bilar edi, chunki biz xat yozishib turar edik, shuning uchun meni Valyanikida ko'rishi uncha ajab emas edi. Biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu ko'rishishni ming yildan beri orzu qilib kelganday, bir-birimizning quchog'imizga tashlandik. Men o'zimni tiyib tutolmadim, yig'lab yubordim, u ham piqillab yig'lab yubordi-da, cho'ntagidan dastro'molini oldi.

Men shkafning eshigi orqasiga o'tib kiyinardim, qanday uchganim, kasal bo'lib yotganlarim, Leningrad qamali, Moskva yonida boshlangan hujum va boshqalardan tinmay gaplashardik... Ivan Pavlovichning ancha keksayib qolganini, keng peshanasiga botiq chiziqlardan iborat ajinlar tushganini, yuziga keksalik qizili yugurganini endi payqadim. Ammo u hamon sarvqomat edi.

U bilan so'nggi marta qirqinchi yilda ko'rishgan edik. Eh-ha, qancha vaqt o'tib ketdi o'shandan beri! Bir kuni qariyani sog'inib qolib, do'kondan tort va farang ichimligini olib, Sadovaya-Triumfalnaya ko'chasiga, uning kvartirasiga bostirib borgan edik. O'shanda qariya xursand bo'lib ketgandi. Sanya ikkovi Grisha Faberni xotirlab, o'lgudek kulishgan edi («Vaqti-soati yetdi» degan fojiali pyesada Grisha tashlandiq yahudiy bola rolini o'ynagan ekan). O'shanda yarim kechgacha kamin pechka yonida gaplashib o'tirgan edik. Ha, u vaqtlar boshqa vaqt, boshqa dunyo edi-da!

– Qarib qolibmanmi, a? – deb so'radi Ivan Pavlovich unga tikilib qarashimni ko'rib.

– Qarishga-ku hammamiz qaridik-a, Ivan Pavlovich. Men-chi?

U bir oz jim qoldi. So'ngra g'amgin bir ohangda:

– Sen onangga o'xshabsan, Katya, – dedi...

Kech kirgan edi. Valya o'zining spirt lampasini yoqdi, ammo biz uni jo'rttaga o'chirdik, ochiq deraza yonida qorong'ida chiroq yoqmay o'tirish ancha ko'ngilli edi. Ko'cha g'ira-shira yorug' edi, uyning qorong'isi esa butunlay boshqacha edi. Borgan sari qorong'ilashib borar edi, endi Ivan Pavlovich emas, balki oppoq mo'ylovi, Valya emas, balki uning ko'zoynagi yaltirab ko'rinardi. Bu dam shunday sukunat dami

ediki, shu onda o'zimni eng yaqin va qadrdon odamlar orasida ekanligimni sezdim. «Balki, eng og'ir kunlar endi o'tib ketgandir, – derdim o'zimga o'zim, – meni yaxshi ko'rgan, menga cheksiz mehribon bo'lgan shu kishilar men bilan birga ekan, men bilan birga o'ylashar ekan, demak, hayot haqiqatan ham go'zal va yaxshi bo'ladi».

O'YLAR, XAYOLLAR

(Bu bo'limni Aleksandr Grigoryev aytib bergan)

ERTAK ESHITAMAN

«Birinchi issiq kunlarga», – xayolimda faqat shu edi, sovuq payshishi bilanoq bolalar uyidan qochib ketaman, deb o'ylardim. Ammo ish boshqacha tus oldi... Men hech qayoqqa qochib ketolmadim. Meni kitobxonlik qo'ymadi...

Ertalab biz novvoyxonaga borib non keltirar edik. So'ngra dars boshlanar edi. Ichimizda oltinchi sinfda o'qishi kerak bo'lgan katta bolalar bo'lsa ham, biz birinchi guruh deb atalar edik.

Keksa muallima Serafima Petrovna (maktabga qop orqalab kelar edi) bizga dars berardi... Bizga bu ayol qanaqa dars berganini hech tushuntira olmayman.

«O'rdak» so'zini o'tganimiz esimda bor. Bu so'zni birdaniga uch darsda: geografiya, tabiat va rus tili darslarida o'tardik. Tabiat darsida o'rdakning qanotlari, oyoqlari qanaqa bo'ladi, qanday suzadi va hokazolarni o'rganardik. Geografiya darsida uning yer yuzida qayerlarda bo'lishi o'tilardi: xarita oldiga kelib, qayerlarda yashash va yashamasligini ko'rsatib berishimiz kerak edi. Rus tili darsida Serafima Petrovna «Ut-ka» (O'r-dak) deb yozdirar edi-da, Bremning «Hayvonot olami» nomli kitobidan o'rdaklar haqida o'qib berardi. Gap orasida u, nemis tilida o'rdak mana bunday deyiladi, fransuz tilida esa mana bunday deyiladi, derdi. Xato qilmasam, u vaqtlarda bu usul «kompleks usuli» deb atalar edi. Xullas, yo'l-yo'lakay aytilaverar edi. Serafima Petrovna bu narsani yanglish tushungan bo'lishi mumkin. U juda kekse edi, bo'yniga doim sadaf soat taqib yurar edi, bizdan vazifani so'rganida, biz uning soatiga qarab javob berardik.

Ammo kechqurunlari Serafima Petrovna bizga nuqul kitob o'qib berardi. Alyonushka singil, Ivanushka og'a haqidagi ertakni men birinchi marta undan eshitdim.

*Quyosh juda balandda,
Quduq esa olisda.
Issiq holdan toydirar,
Badandan ter quydirar.
Echki tuyog'i esa
Botib turadi suvga...*

Bu ertaklarni eshitib hayratda qoldim desam, mubolag'a bo'lmaydi. Ertakni Serafima Petrovnadek o'qiy olish mening eng katta orzuyim bo'lib qoldi.

Xullas, bolalar uyi menga yoqib qoldi. Boshpana bersa, boqsa, o'qitsa. Yana nima kerak? Odam zerikmaydi, yuraging siqilmaydi. Bo'yim kichkina bo'lgani uchunmi, o'rtoqlarim menga ozor bermas edilar.

Bolalar uyiga kelishimning birinchi kunlaridayoq ikkita bezori bola bilan tanishdim; biz vaqtimizni bekorga o'tkazmas edik.

O'rtoqlarimdan birining ismi Romashka edi. U oriqqina, xumkalla, paxmoq sochlari mushuk juniga o'xshagan bir bola edi. Burni puchuq, ko'zlari dum-dumaloq, engagi to'rtburchak, xullas basharasi xunuk, vajohati sovuq edi. Biz birgalikda rebus yechib o'tirganda o'rtoq bo'lib oldik. Men rebuslarni juda tez yechardim, uni men bilan do'st qilgan narsa shu bo'ldi.

Ikkinchi o'rtog'im Valka Jukov yalqov va ko'p narsalarni xayol qilib yuruvchi bola edi. Goh hayvonot bog'iga kirib, sherlarni qo'lga o'rgatishni, goh o't o'chiruvchi bo'lishni orzu qilar edi. Novvoyxonaga borganimizda, albatta, novvoy bo'laman derdi u, teatrdan qaytganda, albatta, aktyor bo'laman deb ahd qilardi. Rostini aytsam, uning dadil rejaları ham bor edi.

– Bunday qilsam-chi... – derdi u xayolga cho'mib.

– Yerni kovlab narigi tomondan chiqmoqchimisan? – derdi Romashka masxara qilib.

Valka itlarni juda yaxshi ko'rar edi. Nazarimda Sadovo-Triumfalnaya ko'chasidagi hamma itlar uni hurmat qilar edi.

Ammo Valka – Valka edi, Romashka – Romashka. Ularning ikkovi Petkaning poshnasiga ham arziyas edi.

Petkani shu qadar sog'ingan edimki, asti qo'yaverasiz.

Petka bilan daydib yurgan hamma joylarni aylanib keldim, boqimsiz bolalardan surishtirdim, taqsimot joylari va bolalar uy-

larining eshiklari oldiga borib turardim. Yo‘q, sira topilmadi. Halok bo‘ldimi, yo bironta xalqaro vagon ostidagi yashikka tushib boshqa shaharga ketdimi... Yo ocharchilik hukm surgan Moskvadan uyiga qaytib ketdimikan? Kim biladi...

Faqat endi, har kuni sang‘ib yurgan chog‘larimda Moskvani ko‘rib qoldim. Moskva qandaydir sirli, buyuk, qor bosgan, urush va ochlikka qarshi kurashuvchi shahar edi. Maydonlarga xaritalar osilgan bo‘lib, undagi bayroqchalarga bog‘langan qizil ip Kursk bilan Xarkov o‘rtasidan o‘tib, Moskvaga yaqin kelib qolgan edi. Oxotniy ryad* taxtadan qurilgan, uylari bir qavatli ko‘cha edi. Futurist – rassomlar uning devorlariga yuzlari ko‘k odamlar, minoralari qulab ketayotgan butxonalar suratini chaplab tashlagan edilar. Tverskaya ko‘chasidagi baland devor ham shunday rasmlar bilan bezatilgandi. Do‘konlarning derazalariga Rosta** plakatlari yopishtirilgan edi.

*Ananaslarni yeyaver,
Qush go‘shlarini chayna,
Burjuj, o‘liming yaqin,
Endi kun yo‘qdir senga!*

MAKTAB

Xalq maorifining fikricha, bizning bolalar uyimiz yosh talantlar bulog‘i ekanligini yuqorida aytib o‘tgan edim. Xalq maorifi bizni mu-siqa, rassomlik va adabiyot sohasida iste‘dodli bolalar deb o‘ylagan bo‘lsa kerak. Shuning uchun darsdan keyin xohlaganimizni qilar edik. Biz o‘z talantimizni o‘z bilganimizcha rivojlantirishimiz kerak edi. Va biz haqiqatan ham rivojlantirar edik. Ba‘zi bolalar Moskva daryosi qirg‘oqlarida o‘t o‘chiruvchilarga baliq tutishda yordam berar edilar. Ba‘zilari Suxarevkada*** biron narsa qo‘lga ilinarmikan deb yurishardi.

Men uyda qolar edim. Biz maktabdan bir qavat pastda turardik, shuning uchun maktab hayoti ko‘z oldimdan o‘tib turardi. Bu maktab hayoti sirli, murakkab, mening aqlimga sig‘maydigan bir hayot edi. Yuqori sinf o‘quvchilari orasidagi gaplarga quloq solib yurardim.

* Moskvaning markaziy ko‘chalaridan biri.

** Rusiya telegraf agentligi shunday deb atalardi.

*** Moskvada Suxarevka degan chayqov bozori bo‘lar edi. Tarjimon.

Yangi munosabatlar, yangi maslaklar, yangi maslakli kishilar. Ensk Moskvaga sira o'xshamaganidek, bu maslaklar, munosabatlar va kishilar ham Enskdagi hayotga sira o'xshamas edi. Ko'rgan va eshitgan narsalarga hayron bo'lib, anchagacha hech narsaga tushunolmay yurdim. Ammo hozir o'sha to'rtinchi mehnat maktabini shunday tasavvur etaman.

Sadovo-Triumfalnaya ko'chasidagi katta qizil binoda yaqin vaqtgacha Pestov gimnaziyasi joylashgan edi. Shu gimnaziya qoshida kichkina internat – bizning internat ochilgan edi. To'qqiz yuz o'n to'qqizinchi yilning kuzida Pestov gimnaziyasi Lyadovning maktabi bilan qo'shildi, bahorda bularning ikkoviga Brjozovskayaning qizlar gimnaziyasi qo'shildi.

Mening kitobxonlarim inqilobdan ilgari o'rta maktabda o'qimaganlar, shuning uchun shubhasizki, gimnaziya shogirdlari bilan real maktablari shogirdlari o'rtasidagi dushmanlikni bilmaydilar, albatta. Bu dushmanlikka nima sababchi bo'lganini bilmayman, biroq Enskda ekanligimda ham katok (yaxmalak)da bo'lgan mushtlashishlar, oliyjanob zo'ravon gimnaziyachilar, qo'llariga qo'rg'oshin olib urishadigan ablah realistlar haqida eshitib yurardim. Endi Moskvada bularni o'z ko'zim bilan ko'rdim.

Pestov gimnaziyasining shogirdlari butun Moskvani qiyratgan kallakesar deb nom chiqargan edilar; shuning uchun ham boshqa gimnaziyalardan haydalganlar bu gimnaziyaga imtihonsiz qabul qilinar edi. Aksincha, Lyadov maktabida, asosan, katta amaldorlar, muhandislar, pedagoglarning bolalari o'qir edi. Shunday bo'lgandan keyin dushmanlik faqat oddiy dushmanlik bo'lmasdan, balki ijtimoiy dushmanlik bo'lib chiqardi. Xalq maorifining ko'rsatmasi bo'yicha bu ikki o'quv yurti orasiga Brjozovskayaning qizlar gimnaziyasi kirib qolgandan keyin bu dushmanlik yanada kuchayib ketdi.

Qancha janjal, qancha mojaro, g'iybat, chaqimchilik! Qancha majlis, qancha so'z, qancha ochiq va maxfiy to'qnashuvlar! Bolalar uyi bu ishlardan chetda turar edi: bizni hech kim pisand qilmas edi. Ammo biz Pestov shogirdlari tomonida edik, albatta! Biz hatto ularga taqlid qilib, shapkani qiyshaytirib kiyar edik.

To'rtinchi kommuna maktabidan juda mashhur va hurmatli kishilar chiqdi. Mening o'zim ham bu maktabdan ko'p narsani o'rgandim. Ammo u vaqtlarda, o'n to'qqizinchi yilda bu yerda it egasini tanimas edi. Lyadovchilarni ham, pestovchilarni ham maktabda qiziqtirgan

muhim narsa bo'tqa edi. Bo'tqa goho jo'xoridan, goho so'kdan qilingan bo'lardi. Kattakon bo'tqa pishgan qozonni ko'rpachaga o'rab, o'ta ehtiyotkorlik bilan chanada olib kelinar edi. Chanadan tushirmasdan tepaga, faollar zaliga ko'tarib chiqar edilar. Xo'jalik komissiyasi Varya xola – qalin sochli, to'ladan kelgan, yuzi qip-qizil ayol cho'michni ko'tarib yurardi. Hamma qator bo'lib tizilardi, har kimga (formasiga, yoshiga, avlodiga qaramasdan) bir cho'michdan bo'tqa tegar edi; bo'tqa juda shirin bo'lardi.

Bo'tqa katta tanaffus vaqtida berilardi. Ammo darsga hech kim kirmasligi uchun butun kun katta tanaffusdan iborat edi.

Bir kuni beshinchi sinf majlisiga kirib qoldim. Majlisda o'qiymizmi yo o'qimaymizmi, degan masala muhokama qilinar edi. Hamma: «Ofarin, Kovichka!» degan, sochlari paxmoq pestovchi bola aslo o'qimaslik kerakligini isbot etardi. Maktabga qatnash ixtiyoriy, baholarni ovoz berish yo'li bilan qo'yish kerak, der edi.

– Ofarin, Kovichka!

– To'g'ri!

– O'rtoqlar, masala, umuman, pedagoglarga borib taqaladi. Darsiga juda oz o'quvchi qatnaydigan pedagoglarni nima qilish kerak? Men besh kishilik norma belgilansin degan taklif kiritaman. Agar darsga besh kishidan kam o'quvchi kelsa, shu kuni o'sha o'qituvchiga belgilangan oziq-ovqat berilmasin.

– To'g'ri!

– Ahmoq!

– Gapirilmasin!

– Otangga rahmat!

Gap hamma o'qituvchilar ustida emas, balki bitta o'qituvchi ustida bo'lsa kerak, chunki bolalar orqalariga o'girilib qarar, bir-birlari bilan shivirlashar, bir-birlarini turtishar edi: eshikda hali uncha kekxa bo'lmagan, shop mo'ylovli bir kishi ikki qo'lini ko'kragiga qo'yib, notiqning gapini diqqat bilan tinglab turar edi.

Bo'tqa kelishini kutib, yo'lakda cho'mich ko'tarib turgan Varya xoladan:

– U kim? – deb so'radim.

– U «Mo'ylov» bo'ladi, – dedi Varya xola.

– Qanaqa «Mo'ylov»?

– Ie, bilmaysanmi?!

«Mo'ylov»ning kim ekanligini keyin bildim. U geografiya o'qituvchisi Korablyov bo'lib, uni butun maktabdagilar yomon ko'rar

edi. Birinchidan, u qayerdan kelib qolganini hech kim bilmas – u Pestovniki ham emas, Ladovniki ham emas, Brjovskayaniki ham emas edi. Ikkinchidan, hammaning fikricha, u ahmoq va hech narsani bilmas edi. Uchinchidan, har kuni darsga kelib, agar sinfda uchta bola o'tirgan bo'lsa ham, belgilangan darsni baribir o'qitaverardi. Hammadan ham mana shunisi bolalarning joniga tekkan edi...

– Endi gap bunday, o'rtoqlar, – derdi Kovichka gapga qizishib ketib, tugmasiz paltosini qadamoqchi bo'lib, – maktab kengashida beshinchi sinfdan faqat bitta men bor. Bu noto'g'ri. Beshinchi sinf manfaatlari uchun kurashish yolg'iz menga qiyin. Bizni past sinf bolalari deb mensimaydilar. Xo'sh, yuz qirq to'rtinchi maktab kollektivining raisi kim? Muxoverov? Nechanchi sinfda o'qiydi? Beshinchi sinfda! Umuman, agar u yog'ini surishtirsang, bizning pastki sinf bolalari ekanligimizni avval isbot qilib, keyin gapirish kerak. Biz yuqori sinf bolalarimiz, shuning uchun maktab kengashida ikkita vakilimiz bo'lishi kerak. Biri – men o'zim, ikkinchisiga Firkovichni taklif qilaman!

– Gladilshchikov bo'lsin!

– Nedodayev!

– Galay bo'lsin!

Men Korablyovga qaradim. Shu payt baqrayib qaragan bo'lsam kerak, birdan u meni masxara qildi. Menga u mo'ylovi ostidan kulib qo'yganday bo'ldi. Biroq Kovichka yana so'zlay boshladi. Korablyov mendan ayyor ko'zlarini o'girib, yana uning gapini zo'r diqqat bilan tinglay boshladi.

UNUTILMAS KUN

Bu kun juda yaxshi esimda: quyosh charaqlagan, yomg'ir goh yog'ib, goh tinib turgan bir kun edi; o'sha kuni men Kudrin maydonida ko'k baxmal kamzul kiygan oriqqina bir kampirni uchratdim. U bir qo'lida savat to'la sabzavot – kartoshka, piyoz, bir qo'lida katta soyabon ko'tarib kelmoqda edi. Nazarimda savat ancha og'ir bo'lsa kerak, ammo kampir xayol surib, ildam borardi; u yo'ldan borarkan, bir narsalarni sanab, hisoblab borar edi: «Yarim qadoq qo'ziqorin – besh yuz so'm, sinka – bir yuz ellik so'm, lavlagi – bir yuz ellik so'm, bir krujka sut – bir yuz ellik so'm, fotihaga – etti yuz oltmish so'm, uchta tuxum – uch yuz so'm, papka – besh yuz so'm» deganlarini eshitib borardim. U vaqtlarda narx-navo shunaqa edi.

Bir yerga borib kampir uh tortdi-da, savatni toshga qo'yib, dam olib turdi.

– Buvi, menga bering, ko'tarishib boray, – dedim men.

– Nari yo'qol-ey, tirmizak! Sendaqalarni bilaman! Uchta limonimdan ajraldim-a.

Kampir menga do'q qildi-da, savatini ko'tardi.

Men undan nari ketdim. Biz ikkimizning ham yo'limiz bir ekan, bir necha daqiqadan keyin yana yonma-yon kelib qoldik. Kampir mendan qochmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak, ammo savati og'ir edi.

– Buvi, siz agar meni biron narsani o'g'irlaydi desangiz, yangli-shasiz. Men tekinga ko'tarib olib boraman; Xudo ursin agar, mening sizga rahmim kelib ketdi, – dedim.

Kampirning jahli chiqdi. Bir qo'li bilan savatni mahkam quchoqlab oldi-da, bir qo'lidagi soyaboni bilan meni xuddi arini haydaganday hayday boshladi.

– Meni bilmaydi deysanmi? Bilaman! Uchta limonimni o'g'irlatdim. Sendaqalarni bilaman!

– Xohlaganingiz. Limoningizni boqimsiz bolalar olib qochgandir, men internatdanman.

– Bari tirmizaklar internatdan chiqadi-da!

U menga qaradi, men unga qaradim. Kampirning burni biroz dik-kaygan edi, uning o'zi ancha mehribon va dadil ko'rinardi. Balki men ham unga yoqib qolgandirman. Birdan u meni haydashdan to'xtadi-da, keskin so'radi:

– Kimning bolasisan?

– Hech kimning.

– Qayerliksan? Moskvalikmisan?

Moskvalikman desam haydab yuborishini darrov payqadim. U limonni moskvalik bolalar o'g'irladi deb o'ylasa kerak.

– Yo'q, men ensklikman.

Darrov bildimki, u ham ensklik ekan. Ko'zlariga jon kirib, yuzi yanada mehribonlashdi.

– Yolg'on aytasan, yolg'onchi, – dedi u, jahl bilan. – Bir bola ham moskvalik emasman deb turib, bitta limonimni o'g'irlab ketdi. Ensklik bo'lsang, uying qayerda edi?

– Peschinkada, bozor maydonining orqasida.

– Hamma gaping yolg'on.

Yolg'on gapirmayotganligimni buvi bilar edi.

– Peschinka bitta deysanmi! Balki boshqa yerda ham Peschinka degan soy bordir. Men seni ko‘rmaganman.

– Siz u yerdan ketganingizga ancha bo‘lgandir, men kichkina bo‘lsam kerak.

– Ancha bo‘lgani yo‘q, yaqinda ketganman. Ushla savatni! Men bir tomonidan ko‘taraman, sen bir tomonidan ko‘tar. Tortma unaqa.

Biz savatni ko‘tarib, gaplashib ketdik. Men kampirga Petka bilan ikkimizning Turkistonga jo‘nab, Moskvada qolib ketganimizni aytib berdim. U qiziqib tinglab borardi.

– Voy tentaklar-ey! O‘ylab topganlaring shu bo‘ldimi? Shundan shunga-ya!

Triumfalnaya ko‘chasiga yetganda maktabimizni ko‘rsatdim.

– Ikkimiz hamshahar ekanmiz, – dedi kampir sirli ravishda.

U ikkinchi Tverskaya-Yamskaya ko‘chasida, kichkina uyda yashar ekan. Bu yuni bilar edim.

– Bu yerda bizning mudirimiz yashaydi, – dedim men. – Tani-sangiz kerak, ismi Nikolay Antonovich.

– Menga qara! – dedi kampir. – Mudirlaring qalay? Yaxshimi?

– Yaxshi bo‘lganda qanday!

Kampir kuldi, nima uchun kulganiga tushunmadim. Ikkin-chi qavatga chiqib, kleyonka bilan qoplangan toza eshik qarshisida to‘xtadik. Eshikka taxtakach qoqilgan bo‘lib, taxtakachga jimjimador harflar bilan familiya yozilgan edi, uni o‘qib ulgura olmadim.

Kampir o‘z-o‘zicha bir nimalarni aytib, paltosidan kalitni chiqardi. Men ketay deb turib edim, kampir qo‘ymadi.

– Ko‘tarishganim tekingaydi, buvi.

– Bir oz tekinga o‘tirib ketarsan.

Kampir kichkina dahlizga nima uchundir oyoq uchida yurib kirdi-da, chiroqni yoqmasdan paltosini yecha boshladi. Paltosini, popukli sholro‘molini, keyin yana bir kichikroq ro‘molni yechdi. So‘ngra soyabonini ochdi-da, bir yoqqa kirib ketdi. Xuddi shu onda bir qizcha oshxona eshigini ochib, ostonada to‘xtadi. Boyagi kampir qizga aylani-b qoptimi deb turgan edimki, birdan kampirning o‘zi paydo bo‘lib qoldi. U shkafning orqasiga ro‘mol va kamzullarini osayotgan edi.

– Ana, Katerina Ivanovna ham keldi, – dedi kampir.

Katerina Ivanovna o‘n ikki yoshlarda bo‘lib, men bilan teng edi. Ammo qiz juda boshqacha edi! U boshini mag‘rurona baland ko‘tarib, qora va o‘tli ko‘zlari bilan yuzingizga to‘g‘ri tikilib qarar edi. Sochlari

jingalak, peshanasiga ham jingalaklari tushgan edi. Yuzi qip-qizil, biroq burni xuddi buvisinikiga o'xshash keskin edi. Umuman, ko'hlikkina qiz edi-yu, ammo juda gerdaygan edi, – buni bir ko'rishdayoq payqash mumkin edi.

– Tabriklayman, Katerina Ivanovna, – dedi kampir, hamon yechinaturib. – Yana limonni o'g'irlatib qo'ydim.

– Men sizga paltoni cho'ntagiga soling devdim-ku, – dedi Katerina Ivanovna xafa bo'lib.

– Paltoni cho'ntagidan o'g'irlab ketdi-da!

– Bo'lmasa, yo'lda yana sanab kelibsiz-da, buvi.

– Hech sanaganim yo'q. Yonimda mana bu yigitcha bor edi.

Qiz menga qaradi. Shu mahalgacha u meni ko'rmaganday, mensimas edi.

– Savatimni ko'tarishib keldi. Oying qalay?

– Isitmasini hozir o'lchaymiz, – dedi qiz, hamon meni tomosha qilib turib:

– Eh, Xudoyim-ey! – birdan sarosimalanib qoldi kampir. – Nega shu mahalgacha o'lchamadinglar? Doktor soat o'n ikkida o'lchashni buyurgan edi-ku!

Kampir shoshganicha uyga kirib ketdi, biz qiz bilan ikkimiz qoldik. Ikki daqiqacha jim turdik. Keyin qiz qovog'ini soldi-da, so'radi:

– «Yelena Robinzon»ni o'qiganmisan?

– Yo'q.

– «Robinzon Kruzo»ni-chi?

– Uni ham.

– Nega?

Savodim chiqqaniga yarim yilcha bo'ldi deyishimga sag'al qoldi, tilimni tutib qoldim.

– Bunday kitobim yo'q.

– Nechanchi sinfdasan?

– Hech qanaqa sinfdamasman.

– U sayohatchi ekan, – dedi kampir, qaytib chiqib. – O'ttiz etti-yu ikki. Turkistonga piyoda bormoqchi bo'пти. Sen uni xafa qilma, Katya.

– Qanday qilib piyoda?

– Shunday-da! Oyog'ini qo'lga olib, ketavergan.

Dahlizda oyna tagida stol turar edi. Katya shu stol yoniga stulni surib, chakkasini qo'lga tirab o'tirib:

– Qani aytib ber-chi! – dedi.

Mening aytib bergim kelmadi: u judayam burnini ko'tarar edi. Shuning uchun men unga muloyimgina dedim:

– Hozir hafsalam yo'q. Boshqa safar.

Kampir qo'limga qiyom surilgan non tutqiza boshlagan edi, olmadim.

– Tekinga dedim, tekinga-da!

Nima uchun xafa bo'lganimni o'zim ham bilmayman. Men sayohatni aytib bermay, eshikka qarab yurganimni ko'rib, Katya qizarib ketdi, bu esa, menga yoqar edi.

– Xo'p, mayli, xafa bo'lma, – dedi kampir, meni eshikkacha kuzatib, – isming nima?

– Grigoryev Aleksandr.

– Xayr, Grigoryev Aleksandr. Rahmat.

Dahlizdan chiqib, anchagacha eshik oldida turib, taxtakachdagi familiyani o'qib turdim. Kazarinov desam Kazarinov emas...

Birdan:

– N.A. Tatarinov, – deb o'qidim. Ie! Tatarinov Nikolay Antonovich-ku! Bizning mudirimiz. Shuning uyi ekan-da?

O'YLAR, XAYOLLAR

Yozda Serebryanniy Borga, hech kim turmaydigan qadimgi uyga ko'chdik: uyda juda ko'p zinalar, boshi berk yo'laklari bor edi, shiftlar naqshli edi. Uyning hammayog'i – eshiklari ham, darchalari ham bir xil qisirlardi. Kattakon bir xonaning eshigi mahkam berkitib tashlangan edi. Ammo u yerda ham allanimalar qisirlar, shitirlar edi-da, birdan xuddi soat bolg'achasi qo'ng'iroqqa tegmay o'tib ketganday, bir narsa tiq-tiq qila boshlardi.

Cherdakdan qurbaqaning sallasi o'sib chiqqandi, hamma yerda turli tillarda bosilgan kitoblar sochilib yotardi.

1917-yillarga qadar bu uy keksa lo'li grafnyaga qarashli edi. Lo'li-grafnya! Bu sirli edi. Odamlarning gapiga qaraganda, lo'li-grafnya xazina ko'mib ketgan emish. Romashka yoz bo'yi xazinani qidirdi. Nimjon, xumkalla bu bola qo'liga yog'och olvolib, uyning hamma devor va pollarini taqillatib, quloq solib yurar edi. U kechalari ham taqillatib yurar edi, biroq bir kuni kattalardan biri bir adabini berib qo'ygandan keyin kechalari taqillatmaydigan bo'ldi. O'n uch yoshi-

dayoq boyluk orttirishga qaror qilar edi. Pul deganda quloqlari loladek qizarib ketardi. U xazina izlamasdan turolmaydigan, nihoyatda xasis bir bola edi.

Buzilib-yorilib ketgan shiypon va kapalar atrofida nastarin gullari o'sib yotardi. Ko'm-ko'k xiyobonlar chetida haykallar qator turardi. Ular yunon ma'budlariga o'xshamasdi – yunon ma'budlari befarq, ko'zlari ko'rday edi, bular esa xuddi o'zimizga o'xshagan edi.

Bitta haykal mo'ylovli bo'lib, xuddi Korablyovga o'xshar edi, bittasi o'n yoshlardagi oddiy qizcha edi. Tovonigacha tushgan uzun ko'ylak kiygan qizcha xuddi endi uyqudan turganday, kerishib ko'zlarini ishqalardi.

Men uni o'zim yasab ko'rmoqchi edim, qilolmadim. Faqat jingalak sochlari Katerina Ivanovna degan hov anovi qiznikiga o'xshab chiqdi. Burni ham o'xshadi. Ammo qurbaqa va quyonlarni yasash oson ekan-u, odam haykalini yasash qiyin ekan.

Boshda, Serebryanniy Borga ko'chib chiqqanimizda turmushimiz yaxshi edi. Keyin turmushimiz yomonlashib ketdi, bizga ovqat ham bermaydigan bo'lishdi. Butun internat bolalari o'zlarini o'zlari boqa boshladilar. Biz baliq tutardik, qisqichbaqa ovlardik, musobaqa bo'lgan kunlarda stadion yoniga borib nastarin sotardik, nima to'g'ri kelsa shuni o'g'irlab ketaverar edik. Kechalari bog'da gulxan o'qib, topgan narsamizni pishirib yerdik.

Mana shunday kechalardan biri (ularning hammasi bir-biriga o'xshar edi)da gulxan atrofida charchab, qornimiz och o'tirar edik. Hamma yoqni – ayrini, unga ilingan idishni yuz-betlarimizni, qo'llarimizni is bosib qop-qorayib ketgan. Biz, xuddi kapitan Kukni o'ldirib, yeyishga shaylangan hindilarga o'xshab, o'tga tikilib indamay o'tirardik. Birdan cho'g'lar alangalanib, uchqunlanib ketdi-da, gulxan ustini qizil shapkaday yopdi.

Biz deganim «Kommuna» deganim. Butun internat bir necha «kommuna»ga bo'lingan edi, chunki yakka qolgan odam ochidan o'lgan bo'lardi. Har bir «kommuna»ning raisi, o'zining gulxani, o'zining fondi – ba'zi sabablarga ko'ra bugun yeyilmay qolgan narsasi bo'lardi.

Bizning raisimiz Styopka Ivanov degan o'n besh yashar, yuzi silliq, yebto'ymas va ablah bir bola, undan hamma qo'rqadi...

– Oshiq o'ynaymizmi? – dedi Styopka istar-istamas. Hech kim indamadi. Hech kimning oshiq o'ynagisi kelmadi. Styopkaning qorni to'q-da, uning g'ami yo'q.

– Mayli, Styopka. Ammo juda qorong‘i-ku? – dedi Romashka.

– Bilasanmi, qayer qorong‘i? Tur!

Bizning raisimiz hammadan oshiq o‘ynashni yaxshi ko‘radi.

Uning soqqasi g‘irrom soqqaligini hamma biladi. Ammo men va Valkadan boshqa hamma, ayniqsa Romashka unga laganbardorlik qilar edi. Styopkaning jahlini chiqarmaslik uchun Romashka unga jo‘rttaga yutqizib yuradi.

Bizning gulxanda nozik parrandalarni qovurar ekan deb o‘ylanilmasin. Internat oshxonasidan urishib, talashib olib chiqilgan idishda sho‘rva qaynaydi. Bu, Serafima Petrovna bizga qishda o‘qib bergan ertakdagi singari, «xasip bo‘laklari» solib pishirilayotgan sho‘rva edi. Farqi shunda ediki, ertakdagi sho‘rvaga sichqon dumi solingan, biz esa nima to‘g‘ri kelsa shuni, hatto ba‘zan qurbaqaning oyog‘ini ham solar edik.

Birdan uyning eshigi ochildi-da, ayvonga soyasi keng, pakana semiz kishi chiqdi.

– Petya amaki, bu yoqqa!

– Bu yoqqa, Petya amaki!

U Pyotr Andreyevich Lopuxov, bizning oshpazimiz. U gandi-raklab – suv ichib emas, albatta, – har xil operalardan ashulalarni po‘ng‘illab aytib, «kommuna»larni aylanib chiqadi. Har qozondan totib, keyin tupurib tashlaydi-da, jirkangan holda:

– Zahar-ku bu! – deydi.

U musiqa va ashula ishqibozi. Hamma operalarni yoddan biladi. U «Yevgeniy Onegin» yoki «Pikovaya dama» operasidan o‘yin ko‘rsatishni hammadan yaxshi ko‘rardi. Biz esa uning o‘yinidan rohat olardik.

– Qoyilman-ey! Shalyapindan qolishmaysiz. Petya amaki, nega artist bo‘lmaysiz, a?

– Qo‘rqaman.

– Nimadan qo‘rqasiz, Petya amaki?

– Yeb yuboradi.

Ana u, bizning gulxanimiz yoniga kelib, ovqatdan totib, tupuradi, so‘ngra ilgari zamonlarda, bundan yuz yil, ikki yuz yil ilgari odamlar qanday shirin ovqat yeganlari haqida uzundan-uzun hikoya boshlaydi. U qadimgi taomlarning, har turli quyon, kiyikdan qilinadigan taomlarning tarixini biladi.

– Shoh quymoq, – derdi u, tovushini sirli ravishda pasaytirib. – O‘n sakkizta tuxumning sarig‘ini ajratib olib, biskvit bilan

aralastiriladi, ichiga bir oz achchiq bodom, qaymoq, shakar qo‘shib yog‘da qovuriladi. Yeb ko‘rganmisan?

Biz hammamiz birdan:

– Yeb ko‘rmaganman! – deb javob beramiz.

– Albatta! Po‘stli olma. Olmaning ichidan urug‘i chiqarib olinadi, ichiga uzum solib, yog‘liq xamir bilan surkaladi-da, pechda pishirib, ustiga moy surtiladi. Yeganmisan?

– Yemaganman!

– Albatta!

Ammo oshpazimiz hamma taomlar ichidan ichimlikni yaxshi ko‘rar edi. Yigirma birinchi yilning yozida u bizning yagona rahbarimiz, murabbiyimiz edi. Serafima Petrovna sarosimaga tushib nima qilishini bilmay qoldi, unga hech kim nazar-e‘tibor bermaydi.

Uy ichida yana allaqanday murabbiyalar daydib yurishadi, ammo ular oshpaz bilan chiqishmaydi: oshpazning ovqat masallig‘ini bizga xomligicha berishi nechundir ularga to‘g‘ri kelmaydi. Xullas, agar oshpazimiz bo‘lmaganda hammamiz qochib ketgan bo‘lardik.

Shunday qilib, bizning gulxanimiz yonida turib ilgari zamon taomlarini ta‘riflaydi. Ba‘zan u o‘zining tibbiy tomondan ham bilag‘onligini namoyish qiladi:

– Cho‘rtan baliq hammaga ham yoqavermaydi. Me‘dani buzadi.

Yoxud:

– Tanga baliq qonni suyuqlashtiradi. Dori taom-da!

U o‘tdan idishni oladi-da, hidlaydi. Ba‘zan, ovqatni hidlab, «zahr» demaydi-yu, «jahannam» deydi-da, sho‘rvani to‘kib tashlaydi. Bu safar nima der ekan? Ovqatni hidlab ko‘rdi, ko‘zlarini osmonga tikib, jim qoldi.

– Zahar!

Yetti kishi idishga engashadi, yetti qoshiq ketma-ket ovqatga tushadi. Yeymiz!

Bunday taomdan yozda semirdik deb aytish qiyin, albatta. Styopka Ivanovdan boshqa hamma bolalar (u tuyaqushga o‘xshab har narsani hazm qilib yuboraverar edi) oriqlab ketgan, ko‘plari kasal, mazasi yo‘q edi.

Shunday bo‘lsa ham, o‘sha yoz sira esimdan chiqmaydi, buning sababi mutlaq ovqatning yomonligida emas. Yoshligimda yaxshi ovqatlar yeb o‘rganmaganim uchun bu holga ko‘nikish og‘ir emas edi.

Yo'q, buning sababi boshqa edi. O'zimni o'zim birinchi marta hurmat qila boshladim.

Bu voqea avgust oyining oxirida, shaharga ko'chib kelishimizdan sal avval bo'ldi. Biz gulxanda kechki ovqatimizni pishirib o'tirgan edik. Birdan Styopa ovqatni boshqa taqsimlaymiz deb qoldi. Shu mahalgacha hammamiz qoshiqni idishga birin-ketin solardik. Styopa rais bo'lgani uchun qoshiqni hammadan oldin solardi, uning ketidan Romashka, Romashkadan keyin boshqasi va hokazo. Endi hammamiz sho'rva sovib qolmasin deb, birdan yopirilar ekanmiz.

Bu tartibga hech kim rozi bo'lmadi. Nega ham rozi bo'lar ekanmiz! Raisimiz shu bo'lar ekan – uyimiz kuyar edi. Butun ovqatni uch mar-ta olishda tamomlab qo'yar edi.

– Bo'lmaydi! – keskinlik bilan dedi Valka.

Biz ham rozi emasligimizni chug'urlab aytdik. Styopa o'rnidan shoshilmay turdi-da, tizzasini qoqib Valkani bir urdi. Yomon urgan ekan, burni qonab, yuzi qonga belandi, ko'ziga ham qon kirgan bo'lsa kerak, chunki Valka xuddi ko'r odamday, qo'llarini silkita boshladi.

– Qani, yana kim rozi emas? – dedi Styopa zo'ravonligini ko'r-satib.

«Kommuna»da men hammadan kichik edim, meni bir urganda yitishi mumkin edi, ammo men Styopani urdim. Styopa birdan gandi-raklab ketdi-da, yerga o'tirib qoldi. Qayeriga urganimni bilmayman, ammo u yerda ko'zlarini pirillatib qimirlamasdan o'tirar edi. Rost, u darrov o'ziga kelib, menga tashlangan edi, biroq men tomonga o'tib olishdi. Styopa itdek savalandi. U gulxan yonida ingrab yotganida, bolalar meni rais etib saylashdi. Styopa saylovda ishtirok etmadi, ammo ishtirok etganida ham baribir ozchilikda qolar edi, chunki bir og'izdan meni saylashdi.

Men yomon raislik qilmadim. Bizning «kommuna»miz maktab-da eng yaxshi zveno hisoblanar edi. Zvenomiz sho'x, jangovar zveno bo'lib, «Chapayev» nomi berilgan edi.

Ajabo, mening o'sha mushtlashishim birinchi ijtimoiy ishim edi. Bolalarning: «Kichkina bo'lsa ham balo ekan» deganini eshitdim. Men – jasur ekanman! Umuman, men kimman? Fikrlar, xayollar ko'p edi.

QORNING TUZI BORMI?

Bu yil maktabda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmadi. Sobiq lyadovchilar sobiq pestovchilar bilan avvalgidek urishib yurishar, ilgarigidek, bo'tqani eski-tuskilarga o'rab chanaga solib olib kelinar edi. Korablyov ilgarigidek har kuni soat o'nda maktabga kelar edi.

U endi kuzlik uzun palto, soyaboni keng shlapa kiyib yurardi; oyna oldiga kelib, mo'ylovini yaxshilab taraydi-da, darsga kiradi.

Endi uni Kovichka taklif etganidek, belgilangan oziq-ovqatdan mahrum qilib bo'lmas edi. Uning darsiga besh kishidan ko'proq o'quvchi kirar edi. U hech kimdan dars so'ramas, uyga ham vazifa bermas edi. U darsda yo hikoya aytib berar, yo kitob o'qib berar edi. Ma'lum bo'lishicha, u sayyoh bo'lib, butun dunyoni kezib chiqqan ekan. Hindistonga borganida iog nayrangbozlarni ko'ribdi; nayrangbozlarni yerga ko'mib, bir yildan keyin qazib olar ekanlar, ular ilgari qanday tirik bo'lsa, shunday tiriklayin qolaverar ekan; Xitoyga borib, xitoylarning eng yaxshi taomi bo'lgan sassiq tuxumlardan yebdi; Eronliklarning bayrami shaxsi-vaxsini tomosha qilibdi.

Bir necha yildan keyin bilsam, u Rossiyadan hech qayoqqa chiqmagan ekan. U butun gaplarni o'zi to'qir ekan, ammo juda qiziq gaplarni to'qir edi. Garchand hozir ham ko'p bolalar uni ahmoq desa ham, u hech narsa bilmaydi, deb bo'lmas edi...

Maktabning eng katta odami hamon Nikolay Antonovich edi. Hamma masalani u hal etardi, hamma narsaga bosh qo'shardi, hamma majlislarda bo'lardi. Yuqori sinf o'quvchilari «munosabatlarni aniqlaymiz» deb hatto uyiga ham borar edilar. Lyadovchilar bilan pestovchilar janjalini birpasda hal qilardi, eng ashaddiy janjalchilar ham uning gapiga ko'nardi. Har bir talaba, xoh yuqori sinf talabasi bo'lsin, xoh pastki sinf talabasi bo'lsin, o'zining ishi to'g'risida kirib gapirishi mumkin edi. «Nikolay Antonovichga aytaman», «Nikolay Antonovich buyurdi», «Meni Nikolay Antonovich yubordi»... Bu gaplar og'izdan tushmasdi.

Nihoyat, mening ham shu to'rtta so'zni aytish vaqtim keldi.

Bundan bir kun avval o'quvchi bo'lgan edim. Bolalar uyida imtihon o'tkazilib, meni ikkinchi sinfga tayinlashdi. Bu voqeaga qanday qaray, Moskva daryosi bo'yicha ketaymi yo Vorobyov tog'iga yuguraymi deb o'ylab, faollar zalida yurgan edim, o'qituvchilar xonasining eshigi ochilib, Nikolay Antonovich meni imlab chaqirdi.

– Grigoryev, – dedi u. (U butun maktab bolalarining ismini bilar edi). – Mening uyimni bilasanmi?

– Ha, bilaman, – dedim.

– Laktometrning nima ekanligini bilasanmi?

– Yo‘q, bilmayman, – dedim men.

– Sutning suvi ko‘pmi, ozligini ko‘rsatadigan asbob bo‘ladi. Ma‘lumki (Nikolay Antonovich barmog‘ini mix qilib ko‘tardi), ayrim sutchilar sutga suv qo‘shishadi. Suv qo‘shilgan sutga laktometrni solib ko‘rsang, qanchasi sut, qanchasi suv ekanligi darrov ma‘lum bo‘ladi. Tushundingmi?

– Tushundim.

– Ana o‘shani keltirasan.

U xat yozib berdi.

– Ehtiyot bo‘l, sindirib qo‘yma tag‘in.

– Sindirmayman, – dedim men entikib.

Xatni Nina Kapitonovnaga berish kerak edi.

Ensklik kampirning ismi Nina Kapitonovnaligini bilmas edim. Ammo eshikni kampir ochmadi, qora ko‘ylakli ozg‘in bir ayol ochdi.

– Nima deysan, bola?

– Meni Nikolay Antonovich yubordi.

Bu juvon, albatta, Katkaning onasi, kampirning qizi edi. Chunki uchovining ham burni keskin, ko‘zlari qora edi. Ammo buvi bilan naboraning ko‘zlari sho‘xroq, qizining chehrasi esa g‘amgin edi.

– Laktometr? – hayron bo‘ldi u, xatni o‘qib chiqib. – Ha, ha!

U oshxonaga kirib laktometrni olib chiqdi. Laktometri oddiy gradusnikning o‘zi ekan, faqat undan sag‘al kattaroq, xolos.

– Sindirib qo‘ymaysanmi?

– Yo‘g‘ey, – dedim men pisand qilmay. – Yosh bolamanmi...

Laktometrni qorga tiqib ko‘rish fikri Katkaning oyisi eshikni yopib kirib ketgandan taxminan ikki daqiqa keyin kelgani esimda.

Laktometrni cho‘ntagimga solib, qo‘limda mahkam ushlaganimcha zinadan tushdim. Bir vaqtlar Petka qorning tuzi bo‘ladi, deb aytar edi. Laktometr qorda tuz borligini aytarmikin yo Petka yolg‘on aytganmikin? Masalaning qizig‘i shunda edi. Buni tekshirib ko‘rish kerak edi.

Bostirmaning orqasidan, axlat to‘kiladigan o‘ra yonidan tinch bir joyni tanladim. Bosilgan qorga g‘ishtdan kichkina o‘yinchoq uy solingan bo‘lib, undan bostirmaning orqasigacha qoqilgan qoziqdan

qora ip tortilgandi, bolalar telefon o'ynayotgan bo'lsalar kerak. Men nima uchundir laktometrni bug'lab isitdim-da, uycha yoniga qorga botirdim, yuragim gup-gup urar edi. Birpasdan keyin laktometrni chiqarib, hech narsa bo'lmaganini ko'rgach, uchini osmonga qilib yana qorga tiqdim, mana shundan farosatimni bilib olaveringlar.

Yonimda birov voy dedi. Qayrilib qaradim.

– Yugur, portlab ketasan! – deb baqirdi bostirmadan birov.

Ikki soniya ichida bo'lgan gap hammasi. Palto tugmalarini yechgan bir qiz bostirmadan yugurib chiqdi-da, men tomonga chopib kela boshladi. «Katkayu» deb o'yladim men va har ehtimolga qarshi, qo'limni laktometrga cho'zdim. Biroq shu tobda Katka qo'limdan ushlab sudray boshladi. Men uni itarardim, oyog'imni tirab turardim; ikkimiz qorga yiqilib tushdik. Birdan gumburlagan ovoz chiqdi. Osmonga g'ishtlar uchib ketdi, orqamizdan oppoq qor changi ko'tarilib ustimizga kelib tusha boshladi.

Bundan avval, oyimni ko'mgani ketayotganimizda bir marta o'q yomg'iri ostida qolgan edik. Ammo bu safargisi juda qo'rqinchli edi. Axlat to'kiladigan o'ra yonida hamon bir nimalar gumburlab portlar edi, har safar boshimni ko'tarib qaraganimda, Katka bir seskanib tushar edi-da, «Qalay, bopladimmi?» deb so'rar edi.

Nihoyat o'rnimdan irg'ib turdim.

– Laktometr qani? – deb baqirdim-da, axlat o'rtasiga qarab yugurdim. – Qani laktometr?

– Yorilib ketibdi-ku!

Katka hamon qor ustida o'tirardi. Uning rangi oqargan, ko'zlari yonar edi.

– Ahmoq, bu portlovchi gaz – portladi-ku, – dedi, u go'yo bu ish unga pisandmasday. – Yaxshisi, hozir jo'nab qolganing tuzuk, negaki hozir militsionerlar keladi, bir marta kelib ketgan, men-ku o'zimni tutqizmayman-a, seni baribir ushlab olishadi. Titraganim va labim labimga tegmagani holda, nuqul:

– Laktometr... Meni Nikolay Antonovich yuborgandi. Qorga tiqib qo'ygandim, qani u? – derdim.

Katka o'rnidan turdi. Kun sovuq bo'lsa-da, Katka boshyalang edi, ikki qora jamalak sochlarining bittasini og'ziga solib chaynardi. U vaqtda men unga qaramas edim, keyin esladim.

– Men seni qutqazdim, – dedi u va xayolga cho'mib burnini tortdi. – Yelkangdan mayib bo'lib, o'lib qolarding. O'limdan sog'

qolganingga men sabab bo'ldim. Mening portlovchi gazim oldida nima qilib yurganding?

Men indamasdim. Jahlim chiqqanidan nafasim bo'g'zimga tiqilgan edi.

– Rostini aytsam, bilginki, mushuk bo'lganda ham baribir qutqarar edim. Menga baribir.

Men indamasdan hovlidan chiqib keta boshladim. Endi qayoqqa boray? Maktabga-ku borish yo'q, bu aniq.

Katka darvozaga yetganimda orqamdan quvib yetib oldi.

– Hoy! – deb qichqirdi u. – Qayoqqa ketding? Borib arz qilarsan?

Orqamga qayrilib qaradim. Shunday rohat bilan yelkasiga bir tushirdim-ki! Yorilib ketgan laktometr, ko'tarilgan burni, maktabga borolmasligim, hech kim so'ramasa ham meni qutqarganining alamini birdan oldim.

Ammo u ham bo'sh kelmadi. Bir qadam keyinga tislandi-da, biqinimga bir tushirdi. Jamalagidan tortib, burnini qorga ishqalashga to'g'ri keldi. Katka o'rnidan irg'ib turdi.

– Oyog'imni nega chalasan, – dedi u qizishib. – Oyog'imni chalmaganingda, rosa boplardim-da seni! Sinfimizdagi hamma o'g'il bolalarni do'pposlayman. Nechanchi sinfdasan? Buvimning savatini ko'tarishib kelgan senmisan? Ikkinchidamisan?

– Ikkinchidaman, – dedim men qayg'uli qiyofada.

U menga qaradi.

– Gradusnikni sindirganingga xafamisan?– dedi u, hech narsani pisand qilmay. – Men sindirdim deb aytaymi? Menga hech narsa demaydi. Shoshmay tur-chi!

Katka yugurganicha ketdi-da, bir necha daqiqadan keyin boshiga shapka kiyib, sochiga lenta bog'lab, butunlay boshqacha, savlatli bo'lib chiqdi.

– Buvimga seni keluvdi, dedim. Hozir uxlab yotibdi. «Nega kirma-di, – deydi. – Yaxshiyam laktometr sinibdi, har safar sutga tiqaverib jonga tekkan edi», deydi. Baribir noto'g'ri ko'rsatardi. Buni Nikolay Antonovich o'ylab topgan, buvim sutni tatib ko'rib ham yaxshi sutni yomon sutdan ajrata oladi...

Maktabga yaqinlashganimiz sari Katkaning dimog'i ko'tarila borar edi. Zinadan chiqib ketayotganimizda u, ko'zlarini sag'al qisib, boshini baland ko'tarib, hech kimni mensimaganday borar edi.

Nikolay Antonovich o'qituvchilar bo'imasida edi.

– Sen gapirma, men o'zim aytaman, – dedim Katkaga.

Katka pisand qilmasdan qo'ya qoldi; shapkasining tagidan bir jamalagi dikkayib chiqib turardi.

Sirli narsalarning hammasi shu suhbatdan boshlandi-da!

Gap shundaki, Nikolay Antonovich, biz to'rtinchi maktabning hokimi deb o'rganib qolgan o'sha Nikolay Antonovich Katka ostonadan kirishi bilan g'oyib bo'ldi-yu, o'rniga yangi Nikolay Antonovich paydo bo'ldi. U gapirganda g'ayritabiiy iljayardi, stol ustidan engashardi, go'yo Katka allaqanday gaplarni aytganday, ko'zlarini katta ochib, qoshlarini uchirardi. Yo u, Katkadan qo'rqarmikin?

– Nikolay Antonovich, siz uni laktometrغا yuborganmidingiz? – dedi Katka meni ko'rsatib.

– Ha, yuborgandim, Katyusha.

– To'g'ri, men uni sindirib qo'ydim.

Nikolay Antonovichning yuziga jiddiylik yugurdi.

– Yolg'on aytadi, – dedim men, – laktometr yorilib ketdi.

– Tushunolmay qoldim. Jim tur, Grigoryev! Qani, sen tushuntirib ber, Katyusha.

– Nimasini tushuntiradi, – dedi Katka kibrlanib. – Laktometrni men sindirdim, vassalom!

– Ha, ha, ha. Ammo men mana bu bolani yuborgan edim-ku, shunday emasmi?

– Bu olib kelmadi, negaki men uni sindirib qo'ydim.

– Yolg'on aytadi, – dedim men yana.

Katka menga xo'mrayib qaradi.

– Xo'p, mayli, Katyusha, sinsa singandir, – dedi Nikolay Antonovich, labini chiroyli qilib burib. – Gap shundaki, maktabga sut keltirishdi, bu oziqning sifatini aniqlaylik deb ovqatni to'xtatib turibman. Bundan buyon sutni shu mijozlardan olish-olmasligimiz uning sifatiga bog'liq. Bundan chiqadiki, men bekor kutib o'tiribman-da. U ham mayli; oqibatda qimmatbaho bir asbob sinibdi, buning ustiga qanday singani noma'lum. Endi sen gapir, Grigoryev.

– Jonimga tegdi! Men ketaman, Nikolay Antonovich, – dedi Katka.

Nikolay Antonovich unga qaradi. Nima uchunligini bilmayman-ku, ammo nazarimda u, Katkaga nafrat bilan qaraganday bo'ldi.

– Yaxshi, Katyusha, bor, – dedi u muloyimgina. – Bu bola bilan hozir o'zim gaplashaman.

– Bo‘lmasa, qolaman.

Katka yana qoldi-da, biz gaplashar ekanmiz, asabiylashib, jamalagini tishlab o‘tirardi. Agar u ketib qolganida, suhbat bunchalik tinch tugamas edi. Laktometrni sindirganim uchun gunohim kechirildi. Nikolay Antonovich hatto meni bo‘lajak haykaltarosh sifatida maktabga yuborilganimni esga oldi. Katka diqqat bilan tinglab o‘tirar edi.

Shu kundan boshlab biz o‘rtoq bo‘ldik. Aybni o‘zining ustiga oldirmaganim unga yoqqan ekan; voqeani Nikolay Antonovichga aytib berganimda, bir yo‘lini qilib portlaydigan gazni aytmay qo‘yaqoluvdim.

– Sen meni urishadi, deb o‘ylovdidingmi? – dedi Katka, biz maktabdan chiqqanimizda.

– Ha.

– Urishib bo‘pti. Biznikiga bor, buvim chaqirdi seni.

MEHMONDA

Boraymi, bormaymi? – ertalab uyqudan uyg‘onishim bilan miyamga kelgan fikr shu edi. Meni ikki narsa xijolatga solardi: shim va Nikolay Antonovich. Shimimning haqiqatan ham ko‘rinishi yaxshi emas edi – uzun bo‘lib uzun emas, kalta bo‘lib kalta emas, buning ustiga tizzasi ham yamalgan edi. Nikolay Antonovichning maktab mudiri ekanligi ma‘lum, demak u ancha dahshatli odam edi. Birdan «nega kelding, bu yerda nima qilib yuribsan», desa-chi? Shunday bo‘lsa-da, darsdan keyin etigimni tozaladim, sochimni ho‘llab, farq ochib silliqlab taradim. Mehmonga boraman!

Xo‘pam uyalib, xijolat tortdim-da o‘zim ham! La‘nati sochlarim hadeb do‘ppayib ketar, qo‘lim bilan uni bosib qo‘yardim. Nina Kapitonovna Katya ikkimizga bir narsani aytib berarkan, birdan menga qarab:

– Og‘zingni yop! – dedi.

Men og‘zim ochilib tinglab o‘tirgan ekanman.

Katya menga butun uyni ko‘rsatdi. Bir xonada uning o‘zi oyisi bilan, birisida Nikolay Antonovich yashar ekan, uchinchisi yemakxona ekan. Nikolay Antonovichning yozuv stolida, Katyaning ta‘rificha, «Ilya Muromets hayotidan» yasalgan siyohdon turardi. Haqiqatan, siyohdonning o‘zi sersoqol kallaga o‘xshardi, kuldon esa bir-birining ustiga ko‘ndalang qilib qo‘yilgan qadimgi qo‘lqopga o‘xshardi. Siyoh boyagi kallaning ichiga quyilgandi. Demak, Nikolay Antonovich

peroni siyohga botirganda pahlavonning kallasiga tiqar ekan-da? Bu menga juda qiziq tuyildi.

Derazalar o'rtasida amirkon shkaflar turardi, hech qachon shuncha ko'p kitob ko'rmagan edim. Shkafning tepasida peshanasi keng, jag'larini qattiq siqqan, ko'zlari sho'x dengizchining beligacha olingan surati osig'liq turar edi.

Emakxonada ham shu rasmni ko'rdim, ammo bunisi sag'al kichikroq edi. Yana kichkinasi Katyaning bo'lmasida kichkina karavot tepasida osig'liq edi.

– Otam, – dedi Katya, menga peshana ustidan qarab.

Ie, Nikolay Antonovichni men uning otasi deb yurgan ekanman. Aytgandek, o'zining otasi bo'lsa, uni Nikolay Antonovich deb chaqirarmidi! «O'gay atasidir» dedim-u, shu ondayoq bunday emasdir deb o'yladim: o'gay otaning qanaqa bo'lishini boshimdan kechirgandim! Nikolay Antonovich o'gay otaga o'xshamasdi.

Keyin Katya menga dengiz kompasini ko'rsatdi, judayam qiziq narsa ekan. U taglikka o'rnatilgan mis chamberak bo'lib, undagi kichkina idishcha chayqalib turardi, ustiga oyna qoplangan idishchani ichiga strelka o'rnatilgandi. Idishchani qaysi tomonga burmang, strelka baribir chayqaladi-da, langar osilgan bir uchi shimolga qarab qoladi.

– Dengizda eng dahshatli bo'ron tursa, agar shunday kompasning bo'lsa, xavfli bo'lmaydi.

– Qayerdan olding buni?

– Otam bergan.

– O'zi qayerda?

Katyaning qovog'i solindi.

– Bilmayman.

«Oyisi bilan ajralishib tashlab ketgandir» deb o'yladim. Bu kabi voqealarni men bilar edim.

Uyda juda ko'p chizma rasmlar bor edi, menimcha, juda yaxshi ishlangan edi. Ularning ichida bittasi alohida ajralib turardi: rasmda bog' ichidagi keng va to'g'ri yo'l, qarag'ay daraxtlari tasvirlangan bo'lib, qarag'ay daraxtlarini quyosh shu'lalari yoritib turardi.

– Bu – Levitan, – dedi Katya xuddi katta kishilarday, beparvolik bilan.

Levitan – rassomning ismi ekanligini u vaqtda bilmas edim, shuning uchun men Levaitan – rasmda ko'rsatilgan joyning nomi deb o'ylabman.

Keyin Katyaning buvisi bizni choygga chaqirdi.

– Sen shunaqa ekansan-da, Aleksandr Grigoryev, – dedi u. – Laktometrni sen sindiribsan-da.

Kampir menga Enskdan, u yerdagi hol-ahvoldan gapirtirdi. Hatto pochtani ham so‘radi:

– Pochta qalay?

Allaqanday Bubenchikovalarni tanimayman degan edim, uning jahli chiqdi.

– Yahudiylar ibodatxonasi yonidagi bog‘-chi! Shuni ham bilmaysanmi! Ming marta olma o‘g‘irlashga borgandirsan! – Kampir uhtortdi.

– Ko‘chib ketganimizga ko‘p bo‘ldi. Hech ko‘chgim kelmagan edi, sira oyog‘im tortmagan edi-ya! Hamma baloni shu Nikolay Antonovich qildi. Enskka keldi-da, xoh kutinglar, xoh kutmanglar, endi farqi yo‘q, manzilimizni aytib ketamiz, kerak bo‘lsa topib olishar, dedi. Uy-ro‘zg‘orni sotdik, mana shu qolgan narsalarni ko‘tarib, Moskvaga ko‘chib kelaverdik.

– Buvi! – dedi Katya do‘q bilan.

– Ha, nima – buvi?

– Tag‘inmi?

– Bo‘ldi, mayli! Bu yer ham yomon emas.

Kimni kutishar edi, nega endi farqi yo‘q ekan, hech narsaga tushunmadim. Surishtirib o‘tirishning ham joyi emas edi, Nina Kapitonovna gapni boshqa yoqqa burib yubordi...

Maktab mudirimizning Tverskaya-Yamskaya ko‘chasidagi uyida o‘tkazgan vaqtim shu bo‘ldi.

Qaytishda Katya menga «Yelena Robinzon» nomli kitobni berib, muqovasini bukmaslik va kitobni kir qilmaslik to‘g‘risida mendan va‘da olib qoldi.

TATARINOVLAR

Tatarinovlarning uy xizmatchisi yo‘q edi. Nina Kapitonovnaga qarib qolgan chog‘ida uy ishlari ancha og‘ir edi. Ikkalamiz pechlarga o‘t yoqar edik, o‘tin yorardik, hatto idish-tovoqlarni yuwardik. Nina Kapitonovna kuyani juda yomon ko‘rar edi, shuning uchun quyosh charaqlagan kunlari birdaniga buyumlarni hovliga olib chiqib osa boshlardi – bu ishlar ham mensiz bo‘lmas edi. Yaqin joydagi bir maydondan bir necha g‘isht olib keldim-da, yemakxonadagi pech

mo'risini tuzatdim. Xullas, kampirning menga beradigan quruq baliq va so'k oshlarini tekinga yemas edim. Ammo menga uning ovqati kerak emas edi! Ularnikiga kelsam huzur qilardim. Bu uy menga xuddi Ali boboning xazinalarga boy, xavf-xatarli, sirli g'origa o'xshar edi. Kampir men uchun xazina, Marya Vasilyevna – sir, Nikolay Antonovich esa – xavf-xatar va g'amginlik edi.

Marya Vasilyevna beva edi, balki beva bo'lmasa ham kerak: bir kuni Nina Kapitonovnaning og'ir uh tortib, «beva deb beva emas, eri bor desa, eri yo'q» deganini eshitib qoldim. Yana shunisi qiziq ediki, Marya Vasilyevna doim erining hasratida kuyib yurardi. U tibbiyot institutida tahsil olar, xuddi rohiba ayollarga o'xshab, hamisha qora ko'ylak kiyib yurar edi. U vaqtda menga onalarning o'qishi g'alati ko'rinardi. Ba'zan u hech kim bilan gaplashmasdan, institutga ham bormasdi, ishga ham bormasdi (u ishlardi ham), kushetkaga chiqib o'tirib olardi-da, papiros chekkani-chekkan edi. Shu mahallarda Katya: «Oyimni g'am-g'ussa bosdi» derdi, hammaning kayfi buzilib biri-biridan achchiqlanardi.

Keyinroq bilsam, Nikolay Antonovich uning turmush o'rtog'i emas ekan, yoshi qirq beshda bo'lsa ham haligacha bo'ydoq ekan.

– U sening kimning bo'ladi? – deb so'radim bir kuni Katyadan.

– Hech kimim.

Uning gapi yolg'on edi, albatta, chunki o'zining, oyisining va Nikolay Antonovichning familiyasi bir edi. Nikolay Antonovich unga amaki bo'lar edi.

O'zining amakisi-ku, ammo uni yomon ko'rganiga hayronman. Antonovich hammaga muloyim, hatto haddan ortiq muloyim bo'lsa-da, Katyaning uni yomon ko'rishi qiziq edi.

Kampir kinoni yaxshi ko'rar, biron yangi kartina chiqsa ko'rmadan qolmas edi. Nikolay Antonovich hatto avvaldan chipta olib, birga borardi. Kechki payt ovqat ustida kampir ko'rgan kartinaning mazmunini shoshib, entikib aytib berardi (shu mahalda u Katyaga juda o'xshab ketardi). Nikolay Antonovich hozirgina u bilan birga kinodan kelgan bo'lsa-da, sabr qilib tinglab o'tirardi.

Menimcha, kampirning unga rahmi kelsa kerak. Bir kuni uning qartadan fol boqib, xayol surib o'tirganida kampirning unga ma'yus qarab o'tirganini ko'rib qoldim.

Hammadan ham Marya Vasilyevna unga qarshi beshafqat edi. U esa, Marya Vasilyevna uchun nimalar qilmas edi! Ko'pincha Nikolay

Antonovich teatrga chipta olib kelib, o'zi uyda qolar edi. Gul taqdim etardi. Bir kuni uning «o'zingni urintirma, qiynama, ishingni tashla» deb yolvorganini eshitib qoldim. Marya Vasilyevnaning mehmonlari kelganida, u judayam iltifotli bo'lib ketardi. Biron kimsa Marya Vasilyevnaning oldiga kirishi bilanoq darrov u ham paydo bo'lardi. Kayfi chog', serlitifot bo'lib, mehmon bilan uzundan-uzoq suhbat boshlardi. Marya Vasilyevna esa kushetkaga chiqib olib, qoshlarini chimirib, papiros chekib o'tirar edi.

Ayniqsa Korablyov kelganida Nikolay Antonovich shirinso'z, xushmuomala bo'lardi. Shubhasiz, u, «Mo'ylov»ni o'zining mehmoni deb o'ylardi, chunki u kelishi bilanoq o'z bo'lmasiga yoki yemakxonaga sudrab chiqib ketardi-da, ularni gaplashtirmas edi. Korablyov kelganida, umuman, uyga jon kirardi, ayniqsa, Marya Vasilyevna boshqacha bo'lib ketardi. U oq yoqalik yangi ko'ylagini kiyib, dasturxonni o'zi yozardi, ovqatga unnardi, umuman, ko'hlik bo'lib ketardi. Ba'zan Korablyov oyna oldida mo'ylovini tarab, kampirga ortiqcha iltifot ko'rsata boshlaganida, Marya Vasilyevna hatto kulardi ham. Nikolay Antonovich ham kulardi, rangi oqarardi.

Nikolay Antonovich meni yomon ko'rar ekan, men bilmay yurar ekanman. Avvaliga u meni ko'rib hayron bo'lardi, keyin afti burishib, burnini tortib pishqiradigan bo'ldi. Keyin menga ta'lim bera boshladi:

– Nima deding? – «Rahmat» dedingmi? – Bir kuni kampirga rahmat deganimni eshitib qoluvdi. – «Rahmat» degani nimaligini o'zing bilasanmi? Shuni bilginki, taqdiring buni bilish, bilmasligingga, anglash, anglamasligingga bog'liq. Biz insoniyat jamiyatida yashaymiz, bu jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri minnatdorlikdir. Bir vaqtlar mening ukam borligini bilsang kerak. Butun umr davrida men unga ham moddiy, ham ma'naviy yordam berib kelganman. U noshukurlik qilib ketdi, qadrimga yetmadi. Oqibati nima bo'ldi? Oqibati shu bo'ldiki, u o'z taqdiriga ziyon yetkazdi.

U gapirganda tizzamning yamog'i borligi esimga kelardi. Ha, oyog'imdagi etigim eski, o'zim kichkinaman, kiyimim kir, rangim oppoq. Men boshqa odamman, Tatarinovlar esa – boshqa odamlar. Ular – badavlat, men – kambag'al. Ular o'qigan, donishmand, men – nodon. Mana o'ylar, fikrlar!..

U yog'ini aytganda, Nikolay Antonovich o'zining ukasi to'g'risida so'zlaganida hammaga ham shunday so'zlar edi. Bu to'g'rida gapirishni u juda yaxshi ko'rardi. U yoshligidan, ya'ni Azov dengizi bo'yidagi

Genichesk shahrida turganlaridayoq, ukasiga g'amxo'rlik qilganini aytardi. Amakisining o'g'li kambag'al baliqchilar oilasidan bo'lib, Nikolay Antonovich bo'lmaganida, o'ta-bobolari kabi baliqchi bo'lib qolaverar ekan. Nikolay Antonovich, «bolada zo'r qobiliyat va uning kitobni yaxshi ko'rishini» sezib, Genicheskdan Rostov-Donga olib kelgan-da, ko'p mashaqqatlar ko'rib uni dengizchilar maktabiga kiritib qo'ygan. Qishda unga «oylik nafaqa» berib turgan ekan, yozda esa uni Botum bilan Novorossiysk o'rtasida yuradigan kemalarga matros qilib kirgizar ekan. Uning bevosita qatnashuvi ostida flotga ko'ngilli bo'lib kirib, dengiz praporshigi unvoniga imtihon topshirgan. Ukasi maktabni tugatganidan so'ng, yangi kiyim buyurtirishi kerak bo'lganida pul bergan. Xullas, Nikolay Antonovich unga ko'p yordam qilgan, uni ko'p eslashi ham bejiz emas-da! Nikolay Antonovich shoshilmay, bafurja, batafsil so'zlar edi. Ayollar uning gapini og'izlarini ochib tinglar edilar.

Bilmadim nima uchun, ammo shu damlarda menga ular o'zlarini uzilmas qarzdor kabi his qilganday tuyulardi.

To'g'risini aytganda, ular chindan ham uzilmas qarzdor edilar, chunki Nikolay Antonovich goh «marhum», goh «bedarak ketgan» deb eslaydigan ukasi Marya Vasilyevnaning eri edi. Demak, Katyaning otasi edi. Uydagi barcha buyum-jihozlar ilgari uniki bo'lgan, endi Marya Vasilyevna bilan Katyaniki edi. Kampirning so'ziga ko'ra: «Tretyakovkaga* sotsa ancha pul turadigan» rasmlar, Parij bankidan sakkiz ming so'm tegadigan qandaydir «straxovoy polis» ham shularniki edi.

Bu murakkab ishlar va munosabatlarga aralashmaydigan yolg'iz Katya edi. Uning ancha muhimroq, o'ziga tegishli ishlari bor edi. U Enskda qolgan ikkita o'rtog'i bilan xat yozishib turar edi. O'zi yozgan va olgan xatlarini har qayerda qoldirib ketaverardi, shuning uchun ularni kim topsa shu o'qiyverardi, hatto kelgan mehmonlar ham o'qishardi. O'rtoqlari unga nima yozsa u ham shuni yozardi. Masalan, o'rtog'i «tush ko'rdim, tushimda sumkamni yo'qotib qo'yibman, birdan qaragam – Mishka Kunsovning qo'lida (esingdadir, men senga yozgan edim-ku) ekan» deb yozsa, Katya ham o'rtog'iga «tush ko'rdim, tushimda lentamni yo'qotib qo'yibman, lentamni Shurka Blubensev (esingdadir, senga yozgan edim-ku) topib olib keltiribdi» deb yozardi. O'rtog'i kinoga bordim desa, Katya ham (garchand uydan chiqmay

* Tretyakov galereyasi.

o'tirgan bo'lsa ham) kinoga bordim deb yozardi. Keyin bilsam, Katyaning o'rtoqlari undan katta ekan, Katya ularga taqlid qilar ekan.

Ammo u o'z sinfidagi qizlarni qiyratgan edi. O'zini Kiren deb yurgan qizga (Tatarinovlarnikida uni hamma Kiren deb chaqirardi) ayniqsa zug'um qilardi. Kiren kitob o'qishni yomon ko'rardi, bu Katyaga juda yoqmas edi.

– Kirka, «Dubrovskiy»ni o'qiganmisan?

– O'qiganman.

– Yolg'on aytasan!

– Yolg'on bo'lsa, betimga tupur.

– Bo'lmasa ayt: nega Masha Dubrovskiyga erga tegmadi?

– Tegdi.

– Ana, xolos!

– «Yelena Robinzon»ni olib kelganimda Katya meni ham xuddi shunday sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Ammo uning o'ylaganiday bo'lmadi. Qaysi yerini so'rasa, shu yeridan yoddan sharillatib o'qib beraverdim. U hech narsaga ajablanmas edi, shuning uchun:

– Maynaga o'xshab yodlab olibsanda, – dedi qo'ydi.

U o'zini Yelena Robinzondan kamligim yo'q, o'shanga o'xshab xavf-xatar ostida qolsam men ham hech narsadan qo'rqmas edim, deb o'ylasa kerak. Ammo bunday g'ayrioddiy va ajoyib taqdirni havas qilgan odam o'zini nuqul oynaga solishi kerak emas edi; ma'lumki, kimsasiz va pastqam orollarda oynadan asar ham bo'lmaydi. Katka esa, oyna oldidan nari ketmas edi.

Men Tatarinovlarnikiga borib yurgan qish faslida Katya portlatish bilan qiziqar edi. Bir vaqtlar Petkaning qo'llari piston va o'q tutunidan qorayib yurganidek, Katyaning qo'llari ham hamisha qop-qora bo'lar edi. Menga o'qigani bergan kitoblar orasidan bertolet tuzi chiqib qolar edi. Birdan portlatishlar to'xtadi. Katya «Kashfiyotlar asri» nomli kitobni o'qiy boshladi.

Bu kitob nihoyatda qiziq kitob edi, unda XV va XVI asrlarda o'tgan Xristofor Kolumb, Ferdinand Kortes va boshqa ajoyib dengiz sayyohlari va jahongirlarning tarixi yozilgan edi.

Kitobni yozgan odam bu buyuk kishilarni cheksiz hurmat qilib yozgan bo'lsa kerak, ularning uzoqlarda suzib yuruvchi Koravellalar soyasiga solingan rasmlari hali ham ko'zim oldidan ketmaydi.

Amerigo Vespuchchi (Amerika shuning ismi bilan ataladi) ko'k globus yonida, ochiq kitob ustida sirkul ushlab turgan holda, soqolli,

xushvaqt va ayyor qilib tasvirlangan edi. Vasko Nunyes de Balboa sovut, qalqonlar, ukipar qadalgan qalpoq kiygan holda tizzasigacha suvda turganicha tasvir etilgandi. Menimcha, u Tinch okeanigacha yurib borgan o'zimizning rus Vaskaga o'xshar edi. Men ham qiziqib ketgan edim. Ammo Katyani aytmysizmi! U juda dovdirab qolgan edi. U xuddi tush ko'rib yurganday. Xuddi: «Kortes, tlakskalanlilar-ning fotihalarini olib, safarga chiqdi va bir necha kundan keyin inklar-ning obod poytaxtiga kirib bordi» deyish uchun uyg'otganday bo'lardi.

«Kashfiyotlar asri»gacha hamma Vasyona deb yurgan mushukka Iptakchuxuatl deb nom qo'ydi – Meksikada bir tog'ning cho'qqisi shunday atalar ekan. Boshqa bir tog'ning Popokateptel degan nomini Nina Kapitonovnaga qo'ymoqchi bo'lgan edi, bo'lmadi. Nina Kapitonovna «buvi» degan so'zdan boshqasiga javob bermas edi.

Xullas, Katyaning afsuslangani – Meksikani urushib olmagan, Peruni ochib, o'ziniki qilmagan edi. Ammo uning orzu-havasini bilardim. U kapitan bo'lishni havas qilardi.

MAKTAB TEATRI

Ular bilan do'st bo'lishim yaxshilikdan boshqa yana nima berishi mumkin edi? Ammo yarim yil ham o'tmagan ediki, meni uydan haydab yuborishdi...

Bu voqea maktab teatridan boshlandi. Maktab teatri esa, bir kun Korablyov darsga kelib, yaqinda faollar zalida spektakl qo'yiladi deb e'lon qilishidan boshlandi.

Beshinchi sinf o'quvchilarining majlisida Kovichkaning nafratli «Mo'ylov»ga boykot e'lon qilinsin deydigan zamonlar allaqachon o'tib ketgan edi. Geografiya muallimining uzun oyoqlari, uning yaxshi va ozoda kiyinib yurishi va hatto uning «hamma ishga aralashib yurishi» ortiqcha hech kimning g'ashiga tegmas edi. Uning bir gunohi Hindistonda tirik iog'larni ko'rgani uchun, ikkinchi gunohi Xitoyda chirigan tuxum egani uchun kechilgan edi. Endi maktab teatri degan yangi narsani topib kelibdi. Teatrga rejissyorlar, aktyorlar, rassomlar, duradgorlar, mebelchilar, tikuvchilar kerak edi. O'ylab qaralsa, bu hunar egalarining hammasi maktabimizning o'zida bor ekan. Hatto Nastya Nachayeva degan dramaturg-shoira ham topildi.

Teatrimizning birinchi mavsumi «Vaqti-soati yetdi» degan fojia bilan ochildi. Afsuski, bu esimda judayam yaxshi qolgan emas. Fojia-

ning mazmuni, taxminimcha, quyidagicha bo'lsa kerak: bola ko'rmagan bir baronessa ayol bir bolani o'g'il qilib oladi, ammo uning yahudiyiligini bilmaydi. Biroq bundan tovlamachi xizmatchi ayol (salbiy tip) ogoh bo'ladi. Xizmatchi ayol: «Pul bermasang, sharmandangni butun olamga yoyib yuboraman», deb qo'rqitadi. Bu orada bola o'sib balog'atga yetadi-da, uylanmoqchi bo'ladi. Fojia xuddi mana shu yerdan boshlanadi.

Teatrimizdagi eng yaxshi rollarni Ivan Pavlovich (Korablyovni endi hamma shunday chaqirar edi) hammaning hafsalasi pir bo'lgan bolalarga berishi qiziq edi. «Vaqti-soati yetdi» fojiasida yetim bola (ijobiy tip), oliyjanob qahramon rolini hamma o'qituvchilarga ozor beruvchi, bezorilar boshlig'i Grisha Faber o'ynar edi. U yaxshi o'ynar edi-yu, ammo juda ko'p baqirardi. Uni o'n bir marta sahnaga chaqirishdi. Parda orqasida terlab-pishib, hovliqqanidan muvaffaqiyatiga ishonmay titrab turardi, xalq hamon chaqirardi. Uning dovrug'i ketdi. Bu mashhur aktyor keyinchalik juda gerdayib ketdi-yu, ammo ortiq bezorilik qilmay qo'ydi.

Xullas, teatr to'rtinchi maktabga sira kutilmagan darajada ta'sir qildi. Korablyovning aytishicha, maktabda «darsga emas, xo'rakka» qatnab yurgan bolalar to'satdan «mehnatga tortilib» qoldilar.

Bizning teatr juda yaxshi teatr desam maqtanchoqlik qilma-gan bo'laman. Biz hatto boshqa maktablarga ham borib spektakl qo'yardik. Biz, artistlarimizning repetitsiya qilishini ko'rgani har kuni Korablyovning uyiga (u Vorotnikov ko'chasida turardi) borardik. Grishka Faber qatnashadigan repetitsiyani uyga kirmasdan hovlidan turib eshitsa ham bo'lardi. Umuman, bu ish juda qiziq edi. Ilgari men har yoqqa afisha yopishtirib yurar edim, keyin afishalarni o'zim yozadigan bo'ldim. Ko'k to'tiqush chizib ishlagan bir afisham juda yaxshi chiqqan edi, Korablyov esdalik uchun deb o'ziga olib qoldi.

To'rtinchi maktab butun Moskvaning og'zidan tushmaydigan bo'lib qoldi. Bu maktabda hamma Korablyovni maqtardi: bosh rejissyor ham o'sha, grimchi ham o'sha, butafor ham, dekorator ham o'sha edi. Hattoki, yuqori sinflarda o'quvchi qizlar Korablyov ko'rkam ekan degan fikrga kelishdi. Xo'p, ko'rkam bo'lsa, ko'rkamdir. Haqiqatan ham, u ko'rkam edi, ayniqsa yangi kulrang kostum kiyib, uzun mundshukdan papiros chekib kelib mo'ylovini burab kulganida juda ko'rkam bo'lib ketar edi.

Teatr boshqa o'qituvchilarga yoqdimi, yoqmadimi, unisini bilmayman. Har tomoshada Nikolay Antonovich birinchi qatorda o'tirib, hammadan baland chapak chalardi. Demak, unga yoqarkan-da. Ammo maktabda hammaning og'zidan Korablyov tushmagani, hammaning: «Men Ivan Pavlovichga aytaman», «Meni Ivan Pavlovich yubordi» va shunga o'xshagan so'zlar juda yoqmagan bo'lsa kerak, deyman. Menimcha, Nikolay Antonovichga hadeb «Korablyov yaxshi odam ekan» deyaverish kerak emas edi.

Nikolay Antonovich qiziqib tinglar, barmoqlarini o'ynatib kular va rangi oqarib ketardi.

To'satdan falokat yuz berdi.

KORABLYOVNING TAKLIFI. O'QITUVCHILIK BURCHI

Yakshanba kuni edi, Tatarinovlarnikida mehmon kutilardi. Katya «Kashfiyotlar asri» kitobidan «Ispanlarning hindlar bilan birinchi uchrashuvi» rasmini chizish bilan ovora edi, meni Nina Kapitonovna oshxonaga safarbar qildi. U bir oz hovliqqan edi, har damda ko'cha eshikka quloq solib:

– Sh-sh, qo'ng'iroq, – dedi.

– Ko'chada-ku bu, Nina Kapitonovna. – Axiri, endi yemakxonaga chiqib ketgan edi, eshik qo'ng'irog'i chalindi. Chiqib ochdim. Yengil palto va shlapa kiygan Korablyov kirib keldi. Uning bunchalik yasanganini ilgari sira ko'rmagan edim.

«Marya Vasilyevna uydami» deb so'rganida, ovozi titrab ketganday bo'ldi. Men «ha» dedim. Ammo u yana bir necha daqiqa yechinmay turdi. So'ngra Marya Vasilyevnaning oldiga kirib ketdi, men Nina Kapitonovnaning yemakxonadan oyoq uchida yurib qaytayotganiga ko'zim tushib qoldi. Nega endi oyoq uchida yuradi, nega u hovliqadi, nega afti sirli ko'rinadi?

Shu damdan ishimizga putur yeta boshladi. Nina Kapitonovna kartoshka tozalar edi. Pichog'i o'z-o'zidan tushib ketaverdi. U go'yo biron ish bilan har damda yemakxonaga yugurib chiqib ketar edi-da, yana qo'li bo'sh qaytardi. Har safar u yangi kartoshkani arta boshlardi, shuning uchun ham savat yarmi artilib, yarmi artilmagan kartoshka bilan to'lib qolgan edi. Ammo bir mahal Nina Kapitonovnaning chala artilgan bir kartoshkani maydalab to'g'rab sho'rvaga solganini ko'rib,

hayratim yana ortib ketdi. Uning miyasi biron narsa bilan band bo'lsa kerak. Ammo nima bilan? Tezda buni ham bildim. Nina Kapitonovna sir saqlaydigan odamlardan emas edi.

Avvaliga u, qo'llari bilan har turli imolar qilib, indamay qaytib chiqar edi, uning bu imolari: «Xudoyim-ey, oqibati nima bo'larkin?» degan ma'noni bildirar edi.

So'ngra o'zidan-o'zi to'ng'illay boshladi. Keyin og'ir uh tortdi-da, ochiq gapirdi. Yangilik nihoyatda katta edi. Korablyov Marya Vasilyevnaga taklif qilgani kelgan ekan. «Taklif qilish»ning nima ekanligini men bilardim, albatta. U Marya Vasilyevnaga uylanmoqchi, uning roziligini bilishga kelgan.

Rozi bo'larmikin yo bo'lasmikin? Agar men oshxonada bo'lmasam, Nina Kapitonovna bu masalani idish-tovoqlar bilan muhokama qilardi. U sira jim turolmas edi.

– Hamma narsamni, jonimni ham fido qilaman deydi, – dedi Nina Kapitonovna, yemakxonadan uchinchi yo to'rtinchi marta qaytib, – hech narsani ayamayman, dedi.

Jim turmaslik uchun men:

– Yo'g'-ey? – dedim.

– Hech narsamni ayamayman deydi! – dedi Nina Kapitonovna, tantanali ohangda. – Sizning qanday umr kechirishingizni ko'rib turibman. Yaxshi emas, men chidab turolmayman deydi.

Kampir yana kartoshka tozalay boshlagan edi, biroq yana chiqib ketdi-da, yig'lab qaytdi.

– Doim oilali, bola-chaqali bo'lish orzusi ezib yubordi deydi, – deb keldi kampir, – men yolg'iz odamman, sizdan bo'lak hech kim kerak emas menga. Anchadan buyon sizning qayg'uyingiz meniki ham bo'lib qolgan. Shu xildagi gaplar...

«Shu xildagi gaplar»ni Nina Kapitonovna o'zidan qo'shdi. Besh daqiqalardan keyin u yana chiqib ketdi-da, taraddudlanib qaytdi.

– Bu odamlardan juda to'ydim deydi, – kampir ko'zlari pir-pir uchib. – Mening ishimga xalaqit berishadi. Kimni aytishimni o'zingiz bilasiz. Rost aytaman, u juda dahshatli odam.

Nina Kapitonovna uh tortdi-da, o'tirdi.

– Yo'q, tegmaydi. Uni g'am bosgan, unisining esa yoshi o'tib qolgan.

Bunga nima deyishimni bilmasdim, har holda:

– Yo'g'-ey? – deb qo'ya qoldim.

– Rost aytaman, bu juda dahshatli odam, – dedi Nina Kapitonovna, xayolga cho‘mgani holda, bo‘lsa bordir! Oh, Xudo! O‘zing asra! Bo‘lsa bordir.

Men jim o‘tirardim. Ovqat yig‘ishtirilgan edi, kartoshka qaynayotgan idishdan suv toshib, plita yuzida jizillardi...

Kampir yana chiqib ketdi, bu safar yemakxonada besh daqiqacha qoldi. So‘ngra qaytib chiqdi-da, ko‘zlarini chirt yumib, qo‘llarini bir-biriga ishqalab:

– Rad etdi, – dedi. – Tegmayman dedi. Oh, Xudo! Shunday kishiga-ya!

Marya Vasilyevnaning Korablyovga tegmayman deganiga xursand bo‘lish-bo‘lmasligini kampirning o‘zi ham bilmas edi nazarimda.

Men:

– Attang, – dedim.

Nina Kapitonovna menga ajablanib qaradi.

– Tegsa bo‘lardi, hali yosh-ku, – dedim yana.

– Yolg‘on gapirma... – dedi Nina Kapitonovna jahl bilan.

Birdan u yuziga jiddiylik yugurtirib, oshxonadan dahlizga chiqib, Korablyovni kutib oldi. Korablyovning rangi oppoq edi. Marya Vasilyevna eshik yonida uning kiyinayotganiga indamay qarab turardi. Xo‘pam yig‘lagani ko‘zidan ko‘rinib turardi.

– Bechora, bechora, – derdi Nina Kapitonovna, go‘yo o‘ziga o‘zi.

Korablyov uning qo‘lidan, kampir uning peshanasidan o‘pdi, buning uchun kampirga oyoq uchida turishga, Korablyovga esa, engashishga to‘g‘ri keldi.

– Ivan Pavlovich, siz mening do‘stimsiz, bizning do‘stimizsiz, – dedi Nina Kapitonovna jiddiy ohangda. – Bizning uyimiz – sizning uyingiz. Mashaning eng yaqin do‘sti siz bo‘lasiz, men bilaman. Buni o‘zi ham biladi.

Korablyov indamadi-da, ta‘zim qildi. Mening unga juda rahmim kelgan edi. Nima uchun Marya Vasilyevna unga tegmaganiga sira tushunolmas edim. Menimcha, ular bir-biriga juda munosib er-xotin bo‘lar edi.

Kampir, Marya Vasilyevna uni chaqirib, Korablyovning qanday taklif qilgani, qanday qilib yo‘q deb javob berganini aytib berar deb o‘ylagan bo‘lsa kerak. Ammo Marya Vasilyevna chaqirmadi. Aksincha, u uyning ichidan qulflab oldi-da, burchakdan-burchakka yura boshladi.

Katya «ispanlarning hindlar bilan birinchi uchrashuvi»ni bitirib, oyisiga ko'rsatmoqchi bo'lgan edi, ammo oyisi uy ichidan turib: «Keyin, qizim» dedi-da, eshikni ochmadi.

Umuman, Korablyov ketishi bilan uyga sovuqlik tushdi. Vaqti xush Nikolay Antonovich kelib, tushlikka avval o'ylaganicha uch kishi emas, olti kishi kelishini aytganidan keyin uyni undan battar zeriktiruvchi sukunat bosdi.

Nina Kapitonovna noiloj ovqatga urina boshladi. Hatto Katya ham ishga tortilib, stakan bilan xamirdan qush tili kesish buyurildi. U ishga g'ayrat bilan kirishdi, hammayog'i – burni, sochlari unga belandi, ammo darrov sovudi; «g'ildirak xamir kesmayman, yulduz qilib kesaman» deb, eski siyohdon bilan kesa boshladi.

– Buvi, chiroylik bo'lsin-da, – dedi yolvorib Nina Kapitonovnaga.

Keyin hamma yulduzchalarni yana aralashtirib zuvala qildi-da, o'zi alohida somsa yopishini aytdi. Xullas, undan foyda oz edi.

Oltita mehmon-a! Kimlar ekan? Men oshxonadan sanab turdim.

Eng avval ilmiy mudir Rujichek keldi; uning laqabi Oliyjanob Faddey edi. Nima uchun, qanaqa oliyjanobligi uchun bu odamga bunday laqab berilgan ekan, bilmayman. Uning ketidan to'ladan kelgan, sochi yo'q, kallasi uzun o'qituvchi Lixo keldi. Undan keyin yana allakimlar keldi – hammasi o'qituvchi. So'ngra nemka keldi, fransuzka ham o'sha edi, u ham nemischa, ham fransuzcha o'qitardi. Ko'kragiga soat taqib yuradigan bizning Serafimamiz ham keldi. Eng keyin, sira kutilmagan holda, sakkizinchi sinfdagi Vozchikov ham sudralib kelib qoldi. Bu Vozchikov ashaddiy «lyadovchi» edi. Vozchikov ozoda kiyinib yurar, hatto to'qasiga MRUL, ya'ni «Lyadovning Moskva real maktabi» deb yozilgan kamar taqib yurardi; u, maktab kengashida yuqori sinf o'quvchilarining vakili edi.

Umuman, maktab kengashining barisi shu yerda yig'ilgan edi. Maktab kengashi a'zolarining deyarli hammasini mehmonga chaqirishning o'zi qiziq edi.

Ularning hamma gaplarini oshxonada eshitib o'tirar edim. Eshik ochiq edi. Oldin Lixo «oziq-ovqat» masalasidan, endi yangi pul chiqishidan gapirdi. Bugun bir qadoq moy o'n to'rt million so'm tursa, ertaga xuddi urushdan avvalgi davrdagidek, yigirma tiyin bo'larkan. Bugun qorovulga o'n million moyana berilsa, ertaga o'n tiyin berilarkan, «tag'in u ta'zim qilib minnatdor ham bo'ladi» dedi.

– Men ahmoq bir dasturxonimni yaqindagina ikki yuz o‘ttiz millionga sotibman-a, – dedi Serafima Petrovna og‘ir uh tortib.

Keyin Korablyovdan gap ketdi. Ana, xolos! U sho‘ro hukumati-ga xushomadgo‘ylik qilari ekan-da! «Amal orttirish» uchun u o‘lib-tirilib harakat qilarkan. Mo‘ylovini bo‘yarkan. Teatr o‘yinini «shuhurat qozonish» uchun boshlaganmish. Ayolini qiynayverib, axir go‘rga tiq-qan emish. Kengashlarda «timsohday ko‘z yoshi» to‘karmish.

«Timsohning ko‘z yoshi» nima ekanligini-ku bilmas edim, ammo bu so‘zni eshitib, Korablyovning Marya Vasilyevna uyidan rangi oppoq oqarib, mo‘ylovlari osilgan holda chiqib kelayotganini ko‘z oldimga keltirdim. Darrov bildimki, ularning gapi butunlay yolg‘on. Teatr to‘g‘risidagi gap ham, turmush o‘rtog‘i ham, «timsoh ko‘z yoshi» ham, – barisi yolg‘on edi. Ular Korablyovning dushmanlari edi, bugun Marya Vasilyevnaga: «Bu odamlardan charchadim. Menga ish-lashga xalaqit beradilar» degan kishilari shular edi.

«Timsoh ko‘z yoshlari»gacha bo‘lgan gaplar anchayin gap edi. Biroq Nikolay Antonovich gapira boshladi, shunda bildimki, bu gap emas, ig‘vo, fitna ekan. Ular Korablyovni maktabdan quvib yubormoqchi ekanlar.

Nikolay Antonovich gapni uzoqdan boshladi:

– Tarbiya ishlarining boshqa turlari bilan bir qatorda pedagogika hamisha mohirlikni taqozo etadi...

Keyin gapni Korablyovga burdi va dastavval «uning qobiliyatli ekanligini e‘tirof» etdi. Uning fikricha, «uning xotinining halok bo‘lish sabablari» bilan bizning ishimiz yo‘q ekan. Bizni: «Uning bolalarga qanchalik va qanday ta‘sir etishi»gina qiziqtirar ekan. Bizni, Ivan Pavlovichning maktabni zararli yo‘lga sudrashigina xavotirga solar ekan, shu sababdangina biz pedagogika vazifasi – «xayrixoh sho‘ro fuqarolari» vazifasiga muvofiq ish qilmog‘imiz kerak.

Nina Kapitonovna bo‘sh idishlarni urishtirib yuborgan edi, Nikolay Antonovichning o‘qituvchilik burchi nimani taqozo etishini eshitolmay qoldim. Biroq Nina Kapitonovna yemakxonaga ikkinchi taomni olib kirganida, ular nima qilmoqchi ekanliklarini bilib oldim.

Birinchidan, maktab kengashining yaqinda bo‘ladigan majlisida Korablyovga «geografiya darsini dasturdan chiqmasdan bering» deb aytiladi. Ikkinchidan, uning faoliyatiga «mehnat tarbiyasini vulgar-lashtirish» degan baho beriladi. Uchinchidan, maktab teatri berkitiladi. To‘rtinchidan, beshinchidan yana allanima balolar. Korablyov xafa

bo'ladi-da, maktabni tashlab ketadi. «Oq yo'l» dedi «Oliyjanob Faddey».

Bu qabih, razil fitna edi. Nima uchun Nina Kapitonovnaning bu ishga aralashmay chidab turishiga hayron bo'lardim. Biroq bilsam, gap boshqa narsada ekan. Taxminan ikkinchi taomni tortganidan keyin Nina Kapitonovna Marya Vasilyevnaning Korablyovga tegmaganiga achina boshladi. Uning qulog'iga bundan boshqa hech narsa kirmasdi, miyasi ham bundan boshqa hech narsani o'ylamas edi. U o'zidan-o'zi bir narsalarni g'o'ng'illab yurar, yelkalarini qisardi, hatto bir marta ovozini chiqarib:

– Ha-ha, shunaqa ekan-da! Ona bir chetda qolib ketaverar ekan-da! – deb qo'ydi ham.

Korablyovga javob qilmasdan avval qizi u bilan maslahatlashmaganiga xafa bo'lgan bo'lsa kerak...

Mehmonlar tarqalishdi, ammo men nima qilishimni bilmay o'tirar edim.

Korablyovning xuddi shu kuni kelib taklif qilishi nojo'ya edi. Bundan ko'ra uyida o'tiraversa bo'lmasmidi! Shunda men hamma gapni Marya Vasilyevnaga aytib bergan bo'lardim. Endi bu noqulay, hatto mumkin ham emas edi. U ovqatlanishga ham chiqmay, xonaning ichidan qulflab olib, hech kimni kiritmas edi. Katya dars tayyorlashga o'tirdi. Nina Kapitonovna birdan o'lgudek charchadim deb, yotdi-yu, qotib uyquga ketdi. Men o'ksinib xayrlashdim-da, uyimga ketdim.

«RAD BILAN JAVOB»

Bolalar uyining navbatchisi cho'loq Yafet ikki marta kelib, bolalar yotib uxlaganini tekshirib ketdi.

Yo'lakda tungi chiroq yoqildi. Valka Jukov uxlaganida xuddi it ko'zlari uchganidek, ko'zlari pir-pir uchardi, yo uning tushiga itlar kirganmikin?

Romashka xurрак otardi. Faqat men xushyor, o'y o'ylab yotardim.

Miyamga har xil dadil fikrlar kelardi. Ana, men maktab kengashida Nikolay Antonovichga qarshi nutq so'zlab, Korablyovni maktabdan haydash rejasini fosh qilaman. Ana, men Korablyovga xat yozmoqdaman... Qanday xat yozishni o'ylab, uxlab qolibman...

Ajabo, hammadan avval uyg'onishim bilan xatni kecha qayerda to'xtatgan bo'lsam – shu yerdan to'qiy boshlabman. Petka-

ning xatnomasi endi kerak edi-da! Biz u bilan o'qigan xatlarni eslay boshladim. «Rad bilan javob»: «Siz bildiringan iltifotingizdan minnatdorman...» Yaramaydi!

«Hurmat ila qabul qilganingiz uchun tashakkur» xati ham yaramas edi, «kerakli pul talab etilgan» xat ham yaramas edi. «Tul erkakning qizga» yozgan xati esimda yo'q edi. Esimda bo'lganida ham, baribir, yaramas edi: men tul erkak emas, Korablyov – qiz ham emas edi.

Nihoyat bir qarorga keldim. Hali juda erta – soat sakkiz ham bo'lmagan, ko'chalar qorong'i edi. Bu meni cho'chitmadi, albatta. Meni cho'loq Yafet to'xtatgan edi, men unga chap berib, orqa eshikdan qochib chiqib ketdim.

Korablyov Vorotnikov ko'chasida, chorbog'ga o'xshagan ayvonli, panjarali yog'och uyda turar edi. Nima uchundir men uni uyg'oq deb o'ylardim. Kecha Marya Vasilyevnadan «rad bilan javob» olgan odam uxlay olarmidi? Darhaqiqat, u uyg'oq ekan. Uy yorug' edi, Korablyov deraza yonida xuddi hovlida alomat ishlar bo'layotganday, hovlidan ko'zini uzmay qarab turar edi. U shunday tikilib qarar ediki, garchand men deraza tagida turib, har xil ishora qilsam ham, anchagacha meni payqamay turdi.

– Ivan Pavlovich!

Ivan Pavlovich ko'zlarini chirt yumib ochdi-da, boshini bir silkitib, deraza yonidan ketdi.

– Ivan Pavlovich, oching, menman!

Bir necha daqiqadan keyin yelkasiga palto tashlab, ayvonga chiqdi.

– Men Grigoryevman, – dedim men; unutgan bo'lsa kerak, deb qo'rqdim. U menga g'alati qarab turar edi. – Men sizning oldingizga bir gap aytgani keldim. Teatni berkitishmoqchi, sizni... – «Sizni haydashmoqchi» demadim, shekilli. Yo aytdimmi, bilmadim, har holda u o'ziga keldi.

– Kir, – dedi u.

Uning uyi hamma vaqt ozoda bo'lardi, kitoblar javonga terilgan, karavoti, yostiqlariga choyshablar yopilgan bo'lardi. Hozir ham xuddi shunday edi, faqat o'zi besaranjom ko'rinardi. U, xuddi ko'zi qamashganday, goh ko'zini qisar, goh katta ochardi. Uning kechasi uxlamagani ko'rinib turar edi. Uni bu qadar charchaganini hech ko'rmagan edim.

– Ha, Sanya, senmisan, – dedi u xomush. – Nimaga kelding?

– Ivan Pavlovich, men sizga xat ham yozmoqchi edim, – dedim men entikib. – Umuman, masala maktab teatriga borib taqaladi. Sizni turmush o‘rtog‘ingizni ochdan o‘ldirdi deyishadi.

– Shoshma! – dedi u va kuldi. – Kim etdi bu gapni?

– Hamma. «Marhuma ayolning vafoti bilan ishimiz yo‘q. Maslaklarni vulgarlashtirishi nafratimizni keltiradi».

– Tushunmadim, – dedi jiddiy sur‘atda Korablyov.

– Ha, vulgarlashtirish, – dedim men qat‘iy.

«Vulgarlashtirish», «populyarlik», «xayrixoh» degan so‘zlarni kecha kechqurundan beri yodlar edim. «Vulgarlashtirish»ni aytdim, endi «populyarlik» bilan «xayrixohi» qoldi.

– «Majlislarda u timsoh kabi ko‘z yoshi to‘kadi», – davom etardim men entikib. –«Taniqli bo‘lmoq niyatida u bu zararli ishni boshladi: ha, «populyar», «u sho‘ro hukumatiga xushomad qiladi», «Biz o‘zimizning xayrixohlik burchimizni bajarmog‘imiz kerak...»

Ehtimol ba‘zi so‘zlarni boshqacha qilib aytib qo‘ygandirman. Ammo kecha eshitgan hamma gapni o‘z so‘zim bilan aytib berishdan, yoddan aytib berish menga oson edi. Har holda, Korablyov tushundi. Juda yaxshi tushundi. Uning ko‘zlari bir lahza hushyor bo‘ldi, yuzlariga qizillik yugurdi, uy ichida tez-tez yura boshladi.

– Qiziq bo‘pti-da, – dedi u, garchand hech qizig‘i bo‘lmasa ham. – Bolalar teatrning yopilishiga qarshimilard?

– Albatta, qarshilar!

– Sen ham shu teatr vajidan keldingmi?

Men indamadim. Balki teatr vajidan kelgandirman. Balki Korablyovsiz maktabning huvillab qolishidir. Balki ular Korablyovni maktabdan haydab chiqaramiz deb uzoq maslahatlashganlaridandir...

– Eh, ahmoqlar, – dedi Korablyov birdan, – dunyoning eng katta ahmoqlaridan!..

U qo‘limni mahkam siqdi-da, burchakdan burchakka xayol surib yura boshladi. Keyin uydan chiqib, oshxonaga bo‘lsa kerak, qaynoq suv keltirib choy damladi. Javondan stakanlarni olib qo‘ydi.

– Moskvadan ketmoqchi edim, endi ketmayman, – dedi u.

– Kurashamiz. To‘g‘rimi gapim, Sanya? Qani, choy ichib o‘tiraylik-chi, hozircha.

Maktab kengashining yig‘ilishi bo‘ldimi, yo‘qmi, unda Korablyov «mehnat tarbiyasi g‘oyalarini vulgarlashtirgani» uchun jazo

oldimi, yo'qmi, bilmadim. Yig'ilish bo'lmagan bo'lsa kerak, chunki Korablyovga hech narsa bo'lmadi. Har kuni ertalab «Mo'ylov» go'yo hech narsa bo'lmaganday, oyna yonida mo'ylovini tarar edi-da, darsga kirib kelardi...

Bir necha kundan keyin teatr «Har qanday donishmandda ham yetarli soddalik bor» degan spektakl qo'yajagini bildirdi. Donishmand rolini Grishka Faber o'ynar edi. Pyesada aytilishicha, donishmand yigirma beshlarga kirgan bo'lishi kerak edi, ammo Grishka uni o'rta yoshlardagi, tepa sochi kal, tilla tishli qilib ko'rsatmoqchi bo'ldi. U sahnada xuddi Nikolay Antonovich singari, nuqul stolni chertib o'tirardi, agar haddan tashqari ko'p baqirmaganida edi, o'yini juda yaxshi chiqardi.

O'sha davrdagi komsomol raykomidan qorachadan kelgan, sochlari jingalak ikkita bola kelib, maktabimizda komsomol yacheykasini tuzishni taklif etdilar. Valka o'tirgan joyidan turib: «Internat bolalari ham yozilsa bo'ladimi», – deb so'ragan edi, ular: «Agar o'n to'rt yoshga to'lgan bo'lsa, bo'ladi», – deyishdi. Men nechaga kirganimni o'zim ham bilmas edim. Hisobimga qaraganda, yaqinda o'n uchga to'lishim kerak edi. Har ehtimolga qarshi, o'n to'rt daman dedim. Shunday bo'lsa ham, menga ishonishmadi. Bo'yim juda pakanaligidandir deyman.

Bu majlisda o'qituvchilardan Korablyov bilan Nikolay Antonovich bor edi. Korablyov ancha tantanali va'z qildi, u avval bizni boshlang'ich yacheyka tuzilgani munosabati bilan tabrikladi, ketidan yomon o'qishimiz, bezorilik qilishimizni aytib xo'pam so'kdi.

Nikolay Antonovich ham nutq so'zladi. Uning nutqi juda yaxshi nutq edi – u raykom vakillarini yosh avlodsizlar deb qutladi, ketidan Nekrasovning «Yashil shovqin» degan she'rini o'qib berdi. Ammo nutq so'zlab turib, barmoqlarini qarsillatib bukishi juda qiziq edi. Barmoqlarini qarsillatar ekan, vaqti xush, hatto afti iljayar edi ham.

Majlisdan keyin men uni yo'lakda uchratib, «Salom Nikolay Antonovich!» dedim. Nima uchundir u salomimga alik olmay o'tib ketdi.

Xullas, hamma ish joyida edi; ammo Tatarinovlarnikiga boraman deb turib, nima uchun bormaslikka qaror qilganimni, yaxshisi, Katyani ertaga ko'chada uchrataman-da, so'ragan tayoqcha bilan loyni bera-man deganimni o'zim ham bilmasdim. Yarim soat ham o'tmasdan bu fikrdan qaytdim. Xudo ursin, agar bunga hozir ham pushaymon qila-man.

Eshikni kampir ochdi, men kiray desam, zanjirni ushlab yo‘l bermay turdi. Nazarimda, kirsinmi, kirmasinmi deb o‘ylab turgan bo‘lsa kerak. Keyin eshikni ochib yubordi-da, «oshxonaga o‘taqol» deb shivirladi va orqamdan sekin itarib qo‘ydi ham.

Men hayron bo‘lib alanglab qolibman. Shu onda dahlizga Nikolay Antonovich chiqib qoldi, meni ko‘rib qoldi-da, chiroqni yoqdi.

– Ah-ha, kelibsan-ku! – dedi u, qandaydir bo‘g‘iq ovoz bilan.

Yelkamdan qattiq siqib ushladi.

– Ko‘rnamak chaqimchi, ablah, ayg‘oqchi! Ikkinchi marta oyog‘ingni bosma bu yerga! Eshitdingmi?

Uning lablari burishib, og‘zidagi tilla tishi ko‘rinib ketdi. Ammo Tatarinovlar uyida ko‘rgan oxirgi narsam – shu bo‘ldi. Nikolay Antonovich bir qo‘li bilan eshikni ochib, bir qo‘li bilan meni xuddi mushukni irg‘itganday zinadan uloqtirib tashladi.

KETAMAN

Internat ham, maktab ham huvillab qolgan edi. Yakshanba kuni bo‘lgani uchun har kim har qayoqqa tarqalib ketgandi. Faqatgina Romashka kimsasiz uylarda yolg‘iz o‘zi daydib, nimalarnidir sanab yurardi. Ehtimol, kelajakdagi davlatini sanab yurgan bo‘lsa kerak, undan boshqa oshpaz oshxonada ovqat pishirib, ashula aytar edi. Men issiq plitaning orqasiga o‘tirib, xayolga cho‘mdim.

Ha, buni Korablyov qilgan. Men unga yaxshilik qilsam, u menga yomonlik qaytarardi. U Nikolay Antonovichning oldiga borib hamma gapni aytgan, qo‘ygan.

Demak, ular Nikolay Antonovich ham, nemka-fransujenka ham, Korablyovni «timsoh kabi ko‘z yoshi to‘kadi» degan Lixo ham haqli ekanlar-da! Korablyov qabih odam ekan. Marya Vasilyevna «yo‘q» deganda men unga achinib yuribman-a!

– Petya amaki, «timsoh kabi ko‘z yoshi to‘kadi» degani nima degani?

Petya amaki qaynab turgan qozondan bir parcha karam chiqardi.

– Qayla bo‘lsa kerak, deyman...

Yo‘q, qayla emas... Men bu qayla emas demoqchi bo‘lib turgan edim, birdan karam mazasini totib turgan Petya amaki qiyshayib, atrofimda aylana boshladi. Boshimda og‘riq sezdim. Men bir uh tortdim-da, yotoqxonaga chiqib ketdim.

Romashka yotoqxonaning derazasi yonida bir nimalarni miyasida sanab o'tirar edi.

– Yuz ming so'm endi bir tiyin bilan baravar, – dedi u menga. – Bekor bo'lgan pullarni ko'p to'plashang-da, hali hech kim bilmaydigan joyga borib, har narsalarni sotib olsang, keyin bu yerga kelib yangi pulga sotsang... Men sanab chiqdim – har bir tilla so'mga qirq foiz foyda kelarkan.

– Xayr, Romashka, – dedim men unga. – Men ketaman.

– Qayoqqa?

Garchand Turkiston degan so'z miyamga kelmagan bo'lsa ham:

– Turkistonga, – dedim.

– Yolg'on aytasan.

Men indamasdan yostiq jildini bo'shatdim-da, hamma bor-yo'q narsalarimni – ko'ylak, shimimni, «4-maktab talabalari tomonidan «Marat» spektakli qo'yiladi» deb yozilgan afishani, bir vaqt doktor Ivan Ivanovich menga tashlab ketgan qora surnaychani o'shaning ichiga joyladim. O'zim yasagan quyon va baqalarning barini urib sindirdim-da, axlatxonaga tashladim. Peshana sochlari jingalak, Katyaga o'xshagan qizcha ham ular bilan jo'natildi.

Romashka mendan ko'zini uzmasdan qarab turardi. U avvalgidek entikib sanamasa ham, biroq hamon shivirlab sanashdan to'xtamas edi:

– Bir so'mga qirq ming foyda bo'lsa, demak yuz so'mga...

Alvido, maktab! Men o'qishdan kechdim. O'qishning nima keragi bor? O'qish, yozish, sanashni bilib oldim. Shunisi yetadi menga. Kifoya. Men ketganimdan keyin hech kim yo'qlamaydi ham. Yo'qlasa, Valka yo'qlaydi qo'yadi.

– Demak, yuz so'mga to'rt yuz, – deb shivirlardi Romashka. – Yuz so'mga to'rt yuz ming foiz foyda-ya!..

Ammo men bir kun qaytib kelaman. Nina Kapitonovnaning oldiga boraman-da, pulini berib: «Mana, siznikida qancha yegan bo'lsam, pulini oling» deb aytaman. Maktabdan quvib chiqarilgan Korablyov ham mening oldimga keladi-da, mendan afv so'rab yalinadi, yolvoradi. Hech afv etmasman!

Birdan Korablyovning men uyiga borganimda ma'yus va bir oz shirakayf holda derazadan hovliga qarab turgani yodimga tushdi. Yo'g'-e, u aytmagan bo'lsa kerak. Nega u aytar ekan? Bunday bo'lmasa kerak, aksincha, u o'zini hech narsa bilmaganga, maxfiy maj-

lisdan xabari yo'qlikka solishga harakat qilishi kerak edi. Bekorga uni koyibman. U emas. Bo'lmasa kim?

– E-e, Valka! – dedim birdan o'zimga o'zim. – Axir, Tatarinov-larnikidan qaytganimda, o'shanga hamma gapni aytib bermabmi edim! Albatta, buni Valka qilgan!

Biroq Valkaning gapini oxirigacha eshitmay, xurрак otib ketgani esimga tushdi. Umuman, Valka bu ishni bir umr qilmas edi.

Yo Romashkadir? Men uning yuziga qaradim. U rangi oppoq, quloqlari qip-qizarib, derazada hamon bir narsalarni miyasida ko'paytirib o'tirar edi. Nazarimda, xuddi qush qaraganday, bir ko'zi bilan menga qarab o'tirganday edi. Ammo uning hech narsadan xabari yo'q edi-ku...

Endi, bu ishni Korablyov qilmagan degan qarorga kelganimdan keyin, hech qayoqqa ketmasam ham bo'ladi, dedim o'zimga. Ammo boshim og'rir, quloqlarim jaranglar edi. Romashkaga ketaman deb aytgandan keyin ketmay qolish yaramaydi deb o'yladim. Qandaydir bir qayg'u bosgan holda, atrofga so'nggi marta nazar tashlab chiqdim. Ana, qorong'i kechalarda men qarab yotgan oq lampa, ana, devordagi kiyim qo'yadigan kataklar, ana, meniki, uning yonidagisi Valkaniki. Qator-qator karavotlar...

Men bir xo'rsindim-da, tugunimni qo'limga olib, Romashkaga boshimni silkitib, ko'chaga chiqdim. Issig'im ko'tarilgan bo'lsa kerak, chunki ko'cha juda sovuq ko'rindi. Aytmoqchi, dahlizda kurtkamni yechib, ko'ylagim ustidan paltomni kiyib olgan edim. Kurtkamni sotmoqchi edim, taxminimcha, o'n besh millionga sotsa bo'lar edi. Suxarevkada ertadan kechgacha yurgan bo'lsam-da, ammo issig'im ko'tarilgani va boshim og'riganidan, u yerda nima qilganim deyarli esimda yo'q. Piyozdog' qilinayotgan bir do'kon yonida qo'limda kurtkamni ushlab...

– Kimga kerak... – deb turganim esimda.

O'shanda, ovozim nega buncha ojiz, deb o'ylaganim ham esimda. Odamlar orasida ustiga ikkita po'stin kiyib olgan daroz bir kishini ko'rib qoldim. Bittasini ustiga kiyib olgan, ikkinchisini sotmoqchi bo'lganini, shunday yelkasiga tashlab qo'ygan edi. Ajabo, qo'limdagi molimni qayoqqa ko'tarib bormay, boyagi odam o'sha yerdan chiqib qoladi. Bo'yi baland, sersoqol, ikki po'stinli bu kishi po'stinning etaklarini, yoqalarini ushlab ko'ruvchi xaridorlarga qaramay, qovog'ini ochmay narxini aytardi.

Ertadan kechgacha bozorda sandiroqlab yurib, ko‘yilagimni sabzili somsaga almashganim, somsani bir tishlab yegim ham kelmagani esimda.

Bir yerga borib isinib o‘tirdim; garchand endi sovuqni sezmasam ham, qo‘llarim ko‘karib ketgan edi. Somsani yostiqning jildiga tiqib qo‘ydim. Somsa maydalanib ketmadimi, deb hadeb ochib qarardim. Tobim qochganini sezgan bo‘lsam kerak. Juda chanqab ketgandim, yana yarim soatdan keyin sotolmasam, choyxonaga boraman-da, kurtkamni bir stakan choyga almashaman, derdim o‘zimcha. Ammo shuni o‘ylashim bilan xaridor mana endi keladi-da, deb o‘ylardim-da, yana yarim soatcha o‘tiray-chi, derdim.

Ana, novcha kishi ham po‘stinini sotolmay yuribdi-ku, deb o‘zimni o‘zim ovutardim...

Suxarevkaning qori uncha iflos bo‘lmaganida bir oz qor yerdim-a, ammo juda iflos edi, bulvarga boray desam, uzoq edi. Uzoq bo‘lsa ham borib yedim, ajabo, qor menga iliqday tuyuldi. O‘shanda qayt qildim ham, shekilli. Qor ustida o‘tirganim, birov mening yelkamdan ushlab turgani (chunki yiqilar edim) esimda. Keyin meni qo‘yib yuborishdi, qorga yotdim-da, rohatlanib oyoqlarimni uzatdim. Tepamda odamlar: «Tutqanog‘i bor ekan, tutqanog‘i...» deyishardi. Keyin yostiq jildini olmoqchi bo‘lishdi, «Voy jinni, boshingga qo‘yib qo‘yamiz» deyishardi, ammo jildni qattiq ushlab olib, bermadim. Ikki po‘stinli kishi yonimdan indamay o‘tib ketaturib, bitta po‘stinini ustimga tashladi. Bunisi dovdirash bo‘lsa kerak, dovdiraganim aniq esimda... Yostiq jildini yana tortishdi. Bir ayol kishi:

– Tugunni bermayotir, – dedi.

Erkak kishi:

– Mayli, tuguni bilan solavering, – dedi.

Keyin erkak kishi:

– Ispanka* bo‘lsa kerak, – dedi.

Hushimdan ketdim...

Bir oz issig‘im chiqsa hozir ham alahsirayman. Haroratim o‘ttiz sakkizga chiqsa allanimalarni aytaveraman, uydagilarning yuragi chi-

* Ispanka – gripp kasalligining eng yomon turi.

qib ketguday bo'ladi. Ammo ispanka kasali bilan yotganimgidek hech qachon shirin alahsiramaganman. Kattakon, yorug' bir uyda shalola rasmini chizayotgan emishman. Suv tikka kesib tushgan tog'dan torgina joyga sharillab tushayotgan emish. Qanday ajoyib manzara! Quyosh nurlarida suv yaltirarmish, tog'-toshlar ko'm-ko'k emish.

Ustimga pochapo'stin kiyib, chanada bir yoqqa ketayotgan emishman. Kun qoraygan emish-u, ammo qorda chana izi qolishi ko'rinarmish, biz bir joyda turgandaymishmiz-u, qor esa, chopib ketayotganday emish. Men rohat qilib ketayotgan emishman, butun umrim qishda chanada o'tsa ham mayli, dermishman.

Nega men bunday alahsiraganimni bilmayman. Men o'lim yoqasiga borib qolgan edim, meni endi o'ladi deb ikki marta boshqa kasallardan ajratib qo'yishdi. Badanım shu qadar ko'karib ketgan ediki, bir shifokordan boshqa hamma shifokorlar «bu endi odam bo'lmaydi» deyishgan va har kuni ertalab:

– Hali ham tirikmi? – deb hayron bo'lishar edi.

Bu gaplarni o'zimga kelgach esladim...

Har holda o'lmay tirik qoldim-da!.. Aksincha, sog'aya boshladim. Bir ko'zimni ochib, internat yotog'ida yotibman deb o'ylab, karavotdan sakrab turmoqchi bo'libman. Birov qo'li bilan mahkam ushlab qoldi. Bir kishining nihoyatda tanish yuzi tepamga yaqinlashdi. Xoh ishonıng, xoh ishonmang, u shifokor Ivan Ivanovich edi.

– Doktor, – dedim-da, unga qarab, sevinganimdan, darmonsizlikdan yig'lab yubordim. – Doktor! Bo'ron!

U yuzimga qarab turardi; u meni hali ham alahsirayotgandir deb o'ylagan bo'lsa kerak.

– Egar, yashik, bo'ron, uchmoqdalar, Abram, – dedim men, ko'zimdan duv-duv yosh oqardi. – Menman, doktor. Men – Sanyaman. Qishloqdagi, esingizdami, doktor? Biz sizni yashirgan edik-ku? Siz meni gapirtirgan edingiz.

U yana ko'zimga tikilib qarardi-da, ikki yuzini do'mbira qilib, puf deb nafas chiqarardi.

– E-ha! – dedi u va kuldi. – Nega esimda bo‘lmasin? Singling qayerda? Bu qandoq bo‘ldi? U vaqtda sen faqat «quloq» degan so‘zni ayta olarding, o‘shani ham to‘g‘ri aytolmas eding. O‘rganib oldingmi endi? – Tag‘in Moskvaga ham kelib olibsan-da? Buning ustiga o‘lging ham kelibdi-da?

Men unga o‘lgim kelmaydi, aksincha, demoqchi edim, u birdan o‘ng kafti bilan og‘zimni berkitib, bir qo‘liga dastro‘mol olib yuzimni, burnimni artib qo‘ydi.

– Jim, qimirlamay yotaver, og‘ayni, – dedi u. – Gapirishga hali ruxsat yo‘q. Soqovman deb yotaver. Ustingga necha marta ajal kelib ketdi, kim biladi, endi bir kalima so‘z aytsang, joning uzilishi mumkin. Jim yotaver...



Mixail Arkadyevich Svetlov



Iste'dodli rus shoiri Mixail Svetlovning ko'p millatli adabiyotimizda tutgan o'rni, she'riyatimiz rivojiga qo'shgan hissasi haqida juda ham ko'p gapirish mumkin. Chunonchi, uning «Grenada»sini Hamid Olimjon o'zbek tiliga mohirona tarjima qilganligi o'zbek adabiyotining yutug'i desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Svetlov umrining so'ngigacha yoshlikka sodiq bo'lib qoldi. Yoshlikka xos quvnoqlik, keksayganda ham uning she'riyatini tark etmadi.

*Bitta oyoq narigi asrda,
Surib hatto vaqtni nari –
Tirmashlanib yuribmiz yerda,
Bizlar – ya'ni nuroniy chollar.*

Ushbu to'plam Svetlov ijodidan kichik bir namuna, xolos. Shoir ijodi bilan o'zbek kitobxonlarini yanada to'liq tanishtirish tarjimonlarimiz oldida turgan kelgusi vazifadir.

*Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri,
O'zbekiston Qahramoni*

GRENADA

Jabhalarda yo‘l bosdik
Miltiqni qo‘lga ushlab,
«Yablochko» qo‘shig‘in
Tishlarimizga tishlab.

Bu qo‘shiqni unutmay
Saqlaydi hozirgacha,
Sahrolarda ko‘kargan –
Yashil o‘t o‘z bag‘rida.

Do‘stim qo‘shiq aytardi,
Uzoq yerning dardida.
Kuyni doim u birga
Tashirdi egarida.

U kuylarkan, boqardi
Uzoq, tuqqan ellarga;
– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

Ul bu dardli qo‘shiqni
Ko‘pdan yoddan bilardi...
Ispaniya g‘amini
Sho‘rlik qaylardan oldi.

Javob bering shaharlar,
Va Xarkov javob:
Sizga ispan qo‘shig‘in
O‘rgatdi qaysi oftob?

Aytsang-chi, sen, Ukraina,
Shu ekinzor yerlarda,
Ota Taras Shevchenko
Baxshining qabri qayda?

Qaylardandir qo‘shig‘ing,
So‘ylasang-chi, o‘rtog‘im:

– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

Sukut bosib javobda,
Xoxol sekin so‘ylaydi:
– Og‘ayni, bu qo‘shiqni
Kitobdan o‘qib topdim.

Go‘zal ism – bir sharaf,
U ham bir iftixori.
Ispaniyada bordir
Grenada diyori.

Tashlab men choldevorni,
Chiqdim, kurashga ketdim;
«Grenadaning yarlari
Qullarga» deb ahd etdim.

Xayr, omon bo‘lingiz,
Xayr, tug‘ishganlarim!
– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

Chopardik etib xayol
O‘rgansak deb tun-kunni –
Urushning sarfi – nahvi
Batareyalar tilini.

Quyosh qanday qizarib
Chiqdi, yondi va botdi,
Sakramakdan charchagan
Otlar-da alam tortdi.

Lek «Yablochko» qo‘shig‘in
Chalardi eskadron:
Azoblar xuddi bir yoy,
Skripkadir zamon.

Qani, kuyla, o'rtog'im,
Qayda ashulang sening:
– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

O'qqa uchgan bir tana
Yiqildi, tushdi yerga,
Ul bizlardan ayrildi,
Ajaj tegdi yosh erga.

Men ko'rgandim, o'shal on
Egilmishdi oy to'na,
Murdaning labi zo'rg'a
Pichirlardi: «Grena...»

Ketdi uzoq ellarga,
Bulutlarga adashib,
Mening o'rtog'im ketdi
O'z qo'shig'ini tashib.

Tinglamadi shundan so'ng
Sevgan, tuqqan ellarim:

– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

Kurashchi ketdi, lekin
Otryad hech tislamadi,
Va «Yablochko» qo'shig'i
Aytilmayin qolmadi.

Faqat ko'klardan sekin,
Qator-qator yosh tomidi.
Kun botar baxmalida
Uning dog'lari qoldi...

Yangi-yangi qo'shiqlar
Chiqardi yana turmush,
Kerak emas, o'rtoqlar,
Qo'shiqlarga qayg'urish.

Istamas, kerak emas,
Qayg'u-g'am, o'rtoqlarim...
– Grenadam, Grenadam,
Grenadam menim!

1926 y.

TIRIK QAHRAMONLAR

Shafqatni bilmagan,
Kokildor Taras,
Eshitilar menga
Kechalar, hayhot! –
Eshik orqasidan
Dahshat to'la sas:
«Andriy! Men senga
Bergandim hayot!...»
Go'zal panna turar,
Yuzida yo'q, qon,
Shamolda o'ynaydi
O'rim sochlari.
O'q teshgan Andriy

Qular nogahon
Bo'ronda yiqilgan
Qayin singari.

Poltava ustida
Suzar yarim tun,
Mana u, bog' ichra
Kezar ro'dapo.
Bu kech
Rossiyaga qarshi yashirin
Yurish o'ylamoqda
Sotqin Mazepo.



Kochubey tutqunda,
Qorong'u zindon.
Qochishni o'tkazar
Mahbus ko'nglidan.
Tong bilan Kochubey
Qatl etilgan on
Yevgeniy Onegin
Turdi o'rnidan.

«Pechorin! O, dahshat!
Atrof zim-ziyo.
Shubha o'rtamoqda,
Do'stim, dilni ko'p».
Qimor o'ynar ekan
Dostoyevskiy,
Kampirlarni bo'g'ar
Shum Raskolnikov.

Jimgina pիրpirab
So'nar yulduzlar,
Tong otib kelmoqda
Quyug tumandan.
Parovoz qo'zg'aldi,
Titradi izlar,
Anna Karenina
Ayrildi jondan.

O'rtoq klassiklar!
Endi shumi ish!
Bari qahramonlar
Yitib ketmoqda!
Nahot, niyatingiz
Faqat o'ldirish –
Temir iz,
Yo duel.
Va yo sirtmoqda!

Roman yozmoqchiman
o'zim,

Kattakon!
Kitobning birinchi
Betidan boshlab,
Hunar o'rganadi
Har bir qahramon,
Men ham o'rganaman
G'afiatni tashlab.
Ruhiy azoblarga
Bo'lsa-yu taslim,
Qahramon zerikib
Qolsa biror kech.
Parovoz ostiga
Tashlayman o'zim,
Ammo qahramonim
Tashlamayman hech.
Bu yorug' dunyodan
Ko'z yumsam agar,
Tobutim ortidan, –
Iztirob-la jim –
Meni so'nggi yo'lga
Kuzatib borar,
Men qutqarib qolgan
Qahramonlarim.

Qabrim tepasida
To'xtagan yo'lchi
So'raydi:
– O'lgan kim?
So'yla, birodar!
Qahramonlar aytar:
– Svetlov o'ldi!
Haqiqiy yozuvchi
Edi u odam!

1927 y.



Butun edi u kun es-hushim,
Isitmam yo'q, tanu jonim sog'.
Yarim tunda ovoz bermay, jim –
Kirib keldi xonamga arvoh.

Yo'q, u rasmiy arvohga chandon,
O'xshamasdi, butunlay boshqa.
Kafan emas, ustida chakmon,
Kepka kiygan qoq suyak boshga.

Ko'z kosasin ko'zoynak to'smish,
Ust-boshida tartib, qoida.
Shim ostida ko'rinmas quymich,
Tugmalarning bari joyida.

– Salom, inson,

– Salom, ey arvoh!

Nega kelding bu qorong'uda?
Men Hamletmas, otam bo'lsa sog',
Yashar mening qaramog'imda.

Paydo bo'lding uyimda nega?
Ket! Turqingni ko'rmasin ko'zim,
Men – dahriyman, – buning ustiga,
Komsomolga a'zoman o'zim.

Sharpalarga oshno bo'lmak,
To'g'ri kelmas bizning g'oyaga.
Shoir o'rin bermasa kerak,
O'z she'rida zarra soyaga.

Hozir birov kirsamabodo,
Ko'rsa agar bizni yonma-yon,
Yog'iladi boshimga balo,
Dashnomlarga bo'lurman nishon.

Arvoh bo'g'iq, hasta ohangda
Javob berdi sekin: – Men axir,
Qoqib ko'rdim yotoqxonangda,
Talabalar eshigin bir-bir.

Ket, deyishdi menga barchasi,
Senga panoh bo'lmas bu go'sha.
Qo'shni darcha – shoir darchasi,
Arvohlarning oshnosi o'sha.

Inson, menga sochma qahringni,
Do'st bo'laylik, ko'ryapsan holim.
Uch kun kezdin sening
shahringni,
Ikki kecha ayozda qoldim.

Men qabrdan chiqdim rasmana
Qo'lda chalg'i, egnimda kafan.
Boshqa ekan, ammo zamona,
Sezdim buni o'zim daf'atan.

Men sho'rlikni to'xtatib yo'lda,
So'ramasdan na hol-u ahvol,
Tortib olib chalg'imni qo'ldan,
Yubordilar qishloqqa darhol.

Shahar tushdim, ko'p tomoshabin
Atrofimga yig'ildi bunda.

– Aynigan chol, tashla

choyshabing,

Kim yopinchiq tutar bu kunda?!

Shunday dedi bitta tirmizak,
Yig'ilganlar ko'rib ahvolim,
Birov chakmon, birov ko'zoynak,
Birov berdi eski, yamoq shim.

Cekdim qancha
azob, mashaqqat,
Qara, tag'in jonsizman o'zim.
Tirik odam, bergil ijozat,
Shu tun qolay yoningda, do'stim.
Ko'p yolvordi, urdi o'zini,
Ko'rinmadi bular ko'zimga,

Shafqat qilmay haydadim uni,
O'z obro'yim kerak o'zimga.

Xayol ichra ba'zan ko'zimga,
Ko'rinadi u ayanch o'lik.
O'sha kecha tosh yo'l ustida,
Yana bir bor o'lgandir sho'rlik.

1927 y.

SARHAD

Bilmayman, qayda sarhad,
Mag'rib va mashriq aro,
Bilmayman, qayda sarhad,
Do'st bilan rafiq aro.

Biz sen bilan ko'p kezdik,
Jangga kirdik yonma-yon.
Volgani ozod qildik,
Oqdik Kaspiyga tomon.

Bo'tqa pishirganda goh, –
Bo'tqaga usta o'zim, –
Chaqiraman: «Hoy, o'rtoq,
Qani, yeyishvor, do'stim!»

Uyimizning ustidan
Suzib ko'p vaqtlar o'tdi.
Uyimizning ustida
Yangi qavatlar o'sdi.

Shodlikmi yo g'am-kadar,
Teng kechirdik yonma-yon:
Ham o'rtoq, ham birodar,
Ham do'stimsan qadrdon.

Bilmayman, qayda sarhad,
Olov bilan dud aro,

Bilmayman, qayda sarhad,
Marg'ub va mahbub aro.

Sen bilan aslida biz,
Kechagina tanishdik.
Bugun berk derazamiz,
Qulfdir ichdan eshik.

Tun sukuti ichida,
Yolg'iz qoldik ikkovlon.
Qo'lim sening bo'yningda,
Aziz do'stim, qadrdon.

Yo'yib yurma sen buni,
Oddiy ermak, o'yinga.
Yoshligimni, she'rimni,
Topshirdim men qo'lingga.

Ko'plar meni shum dedi,
Men undaymas, begumon.
Valya, buni sen bilding,
Aziz do'stim, qadrdon.

Shepetovka tomonda,
Sarhad uzra qishloq bor.
Go'yo bu keng jahonda,
Zatvor bor-u, qo'ndiq bor.

Tong otmoqda osuda,
Qaydasan, ey qadrdon?
Bu yagona sarhadda,
O'zimman yolg'iz posbon.

Bilmayman hali o'zim,
Qancha bo'lur ayriliq.
Sevgi menga, azizim,
Faqat ta'til va hordiq.

Zim-ziyo. Har yon tuman,
O'qlar chaqnar zulmatda.
O'n kun bo'lsam sen bilan,
O'n yil umrim – sarhadda.

Qo'shin tayyor safarga,
Safga chorlar intiqom.
Botir bo'l, tur qatorga,
Birga bo'laylik mudom!

1927 y.

SIMLAR

Inson shunday dedi
Chayir simlarga:
– Ish topib beramiz,
Hali sizlarga.

Cheksiz ish beramiz,
Juda ko'p qo'shiq... –
Simlar ishga tushdi,
Yonib va jo'shib.

Endi ko'rib qo'ying,
Ahil simlarni.
Ishlaydi, kuylaydi,
Shoir singari.

Men ham simlar kabi
Qo'shiq kuylardim,
Tinmasdim, dillarni
Dilga ulardim.

Va lekin nimaki
Bo'lsa olamda,

Xabarlarning yuki
Mening yelkamda.

– Kul va qon ichidan
O'smoqda shahar.
– Otajon, sog'misiz?
Tez qiling xabar.

Qo'shinlardan o'tib
Chopaman ildam...
Xabar ortga qaytar:
– Bo'ling xotirjam...

Davr!
Yurak simlarim
Tortay, ber fursat!
Shoir deyishadi
Meni odamlar.
Sukut qilay, Lida:
– Sog'man! – deganda,
Guvlay xarobadan
O'sganda shahar.

1927 y.

YULDUZLI TUN

Ko'tarildi miltiqlar,
Nayzalar yarqiradi.
Ko'kdan sochib mayin zar,
Yulduz bizga qaradi.

Borar edik jim, beso'z,
Asta jilardi otlar.
Dedim unga: – Bu yulduz
Mirrix deya atalar.

Jang oldidan yulduzlar
Nur sochadi ko'p xira.
U so'rar:
– Ne deyilar,
Ruschada bu sayyora?
Hamrohim javob kutar,
Cho'chitdimi yo so'zi –
Qochib kirdi bulutga,
O'zga elning yulduzi.

Aravalar g'ichiri
Eshitilar asta goh.
Chegaraga boramiz,
To'shagimiz dasht, qiyog'...

Tun qo'ynida
Naq do'lday,
Ustimizdan yog'di o'q.
Otishmaga duch keldik,
Endi omon qaytish yo'q.

Dedim unga:
– Qani, yur!

Bu jang o'xshar qiyinga.
Aravani ortga bur,
Qaytar otni keyinga.
Tun qaro, sharpasiz, jim,
Qochib qolaylik ildam.
Bu haqda bilmas hech kim,
Sardorlar ham,
Do'stlar ham.

Shunday dedi u jindak
Bostirib sur qalpog'in:
– Quyonmidik biz, qochsak
Ko'rib miltiq qo'ndog'in.
Tirik qolib men elga
Qay yuz bilan qaytaman?
Qay yuz-la sardorlarga
Qochganimni aytaman?
Qochib tirik qolgandan
Jon berayin egarda.
Yerda baxtsiz bo'lgandan
Baxtli bo'lay qabrda.

Tun bag'rin o'qlar kesar,
Tun o'xshaydi o'limga.
O'q uning boshin teshib,
Kirdi mening ko'ksimga.
Sokin zulmat har yonda,
Qorayadi tun yuzi.
Mirrix suzar osmonda,
O'zga elning yulduzi.

1927 y.

QO'SHIQ

Bermasin deb senga yer çangi ozor,
Yellar ko'mmasin deb poying izini,
Ohista kaftimga oldim-u, dildor,
Momiq bulutlarga o'tqizdim seni.

Men shamollar bilan quvlab pastda,
Arg'umoq otimni qistagan nafas –
Bulutlar ustidan bosh egib asta,
Menga qarab qo'ysang, shuning o'zi bas.

Senga na er edim, na yo'ldosh edim,
Faqat yurar edim izingdan tun-kun.
Bugun senga cheksiz osmonni berdim,
Ertaga beraman olamni butun.

1932 y.

TABASSUM*

M. Golodniy va A. Yasniyga

Dilimga sololmas
Zarracha g'ashlik,
Na biror mushkulot,
Na g'am, na kinna.
Sen bilan balandga
Yelaman, yoshlik,
Tutqin ushlamasdan,
Sanamay zina.

Zarb qilsak agarda
O'tmayoq bir zum –
Ko'hna devorlarning
Ko'chadi siri.
Quyoshday yarq etar
Labda tabassum,

Yarq etar misoli
Turkning shamshiri.
Paradga chiqamiz
Saf bo'lib ravon.
Qo'ng'ir budyonovka
Kiyib boshlarga.
Olchoqlik va qo'rquv
Turar yonma-yon –
Komsomoldan mangu
Bo'lgan badarg'a.

Aldashni bilmayman,
Kechiring, o'rtoq,
Men ham ayrilganman
Bugun biletдан

* Qisqartirib olindi.

Men qo'rqoq emasman,
Va lekin qo'rqoq –
Yonida turibman
Paraddan chetda.

Kimga so'zlayapman
Yonib, o'rtanib.
Yoshlar meni
Eshitmas, ayon.
Jang dudi ichida
Kim meni tanir,
Baribir meshchan deb
Qilishar e'lon.

Yo'q aslo! Men hamon
Soqchi shoirman,
Mening bu holatim
Vaqtli emasmi?
Meni tiklashadi,
Qasam ichaman,
To'g'rimi, Golodniy,
Shundaymi, Yasniy?

Yigirmanchi yillar
Yodingizdadir.
Jang dudi hamon ko'z –
Oldingizdadir.
Dud ichra bombadan
Taqib qo'ng'iroq,
Bizning troykamiz
Uchari quvnoq.

Dilkash yamshchik bo'lib
Oldinda yoshlik,
Poyonsiz kenglikda
Uchari chana.
Shundan menga odat:
Yuksalaman tik,

Tutqich ushlamasdan,
Sanamay zina.

Paytava chuvalib,
Turmasdi miltiq,
Parishonxotirlik
Ajoyib bir on.
Ilk safargi topshiriq,
Yoddadir, aniq,
Bir qop she'r ko'tarib,
Qaytgandik shodon.
Onaginam yo'lga
Pishirdi quymoq,
Somsa o'rab berdi
Chit ro'moliga.
Yo'lim bo'lsin uchun
Pardek yengil, oq,
Par yostiq keltirib
Qo'ydi oldimga.

Jimgina o'tirdik
Safar oldidan.
Hamon esimdadir
O'sha yo'l oldi.
Onam uzoq chopdi
Arava ortidan,
Yetolmay entikib,
Halloslab qoldi.

Shundan buyon har gal
Ortinga boqib,
Ko'raman onamning
Yoshli ko'zini.
Ko'raman ko'chaning
Changida qolib,
Intilib, entikib
Bo'rtgan yuzini.

Dilimga sololmas
Zarracha g'ashlik,
Na biror mushkulot,
Na qayg'u, gina.

Sen bilan oldinga
Yelaman, yoshlik,
Tutqich ushlamasdan,
Sanamay zina.

1928 y.

O'LIM

Har yil kurtak yozar,
Gullar bodomlar,
Milliardlab marhumlar
Singar zaminga.
O'lganlarni sho'rlik –
Demang, odamlar,
Oldimda o'lim bor,
Achining menga.

1936 y.

«TUN QO'YNIDA PORTLAGAN KO'PRIK»

N. Aseyevga

Tun qo'ynida portlagan ko'prik,
Chor atrofni quchgan zimiston.
Dabdabani sevmagan yigit
Zax tuproqda berayotir jon.

Oltinsimon Poltava kuzi
Aks etadi xazon yuzida.
O'n to'qqizinchi yil yulduzi
So'nayotir uning ko'zida.

Hali tirik, hali berar jon,
Ag'darilib bir yonboshiga.

Ilma-teshik shinellar kiygan
Jangchi do'stlar kelar qoshiga.

Olib po'lat nasl farzandin
Yo'l ustiga ko'marlar bugun –
Toki hali barhayot dohiy
O'g'lon bor deb yurmasin uchun.

Toki qolsin asrlar o'tib,
O'sha yoshlik tanho, yagona...
Qizlar yozar kechasi maktub,
Pochtachilar kezar dunyoda.

1936 y.

ITALYAN YIGIT

Tuproqda yotibdi italyan yigit,
Ko'ksida benaqshin, oddiy qora but.
Mushtipar onaning yolg'iz o'g'loni,
Musofir o'lkada uzilgan joni.

Neapol shahrida o'sgan azamat,
Nima izlab kelding Rossiyaga, ayt!
O'z ona tuprog'ing, go'zal yurtning bor,
Netardi elingda bo'lsang baxtiyor?!

Men seni Mozdokda o'ldirgan odam –
Vulqonli yurtningni g'oyat sevardim.
Bepoyon Volgada shavq ichra bir dam,
Yengil gondolada suzmoq istardim.

Va lekin men, axir miltiq ko'tarib,
Sening diyoringga yo'l olganim yo'q!
Rafael qadami tekkan yer uzra
Uchib o'tgani yo'q men otgan bu o'q!

Men o'z tuprog'imda o'q uzdim, bu yer,
Meni ardoqlagan qutlug', ezgu yer!
Bunday el haqida aytilgan ertak,
Tarjimada bunday chiqmasa kerak.

Seni keltirdilar poyezdga ortib,
O'zgalar yerini olmoqqa tortib.
Toki sen ko'ksingga taqqan bu salib,
Mozoring ustida tursin yuksalib.

Yo'q! Qilich ko'tarib hech inson hech vaqt,
Mening diyoringga qo'yolmas oyoq.
O'q uzdim – dunyoda yo'qdir adolat,
Dushmanga men uzgan o'qdan odilroq.

Musofir o'lkada bugun jon berdi,
Mushtipar onaning yolg'iz o'g'loni.
Jonsiz ko'zlarida aks etib turdi,
Go'zal Neapolning zangor osmoni.

1943 y.

JAMBULGA XAT*

O'n ikki-yu nol-nolda aniq,
O't ochadi to'plar dushmanga.
O'n ikki-yu nol-nolda aniq,
Biz kiramiz eng qattol jangga.
Bu jangda biz yovlardan mangu,
Saqlaymiz deb ichamiz qasam –
Bolalikning baxtli tongi-yu,
Sening nurli keksaliging ham.
Osmon qora, osmon beyulduz,
Shitirlaydi barglar paydarpay.
Derazadan mo'ralaydi kuz,
Qishning zahil ayg'oqchisiday.
Kiftga tirab miltiq qo'ndog'in,
Qo'rg'oshindan yog'diramiz sel,
Va dushmanning manfur oyog'in,
Olov bo'lib kuydiradi yer.
Sentyabrda tunlar ayozli,
Ikki kecha jang qildik butun.
Ikki bor tong shafaq yozdi-yu,
Qora kiydi ikki marta tun.
Kaznacheyev – botir leytenant
«Vperyod!» deb qilganda nido,
Bolg'aboyev buyruqni shu payt
Takrorladi qozoq tilida.
O'q ostida maydonga kirdik,
G'azabimiz nayza tig'ida.
«Ur, fashistni!» degan chaqiriq
Jarangladi qozoq tilida.
Va nogahon ko'ksin g'ijimlab,
Bolg'aboyev yiqildi chimga.
Ikki kecha jang qilgandi ul,
Ikki o'lan yoz unga Jambul.
Derlar, she'ning hayotbaxsh nuri
Yoritadi elning dilini.

* Qisqartirib olindi.

Derlar, buyuk zamon shoiri
Olddan ko'rar tarix yo'lini.
Tushunasan o'qning tiliga,
Sen nazar sol uning yo'liga.
Yov ko'ksini tik nishon etib,
Otdi Odil Qalmag'ambetov.
Yelar ekan dushmanga o'tru
Granata o'ynab qo'lida,
«Yovga o'lim!» dedi politruk
Ona tili – qozoq tilida.
Yo'limizda g'ov bo'ldi dzot, –
Shunda qo'rqmas fidoyi mergan –
Yer bag'ridan qo'zg'oldi azot –
Cho'l yigiti botir Bekpergan.
Granata irg'itganda ul,
Parchalandi yov qo'ygan to'g'on...
O'g'lonlarning mardligi, Jambul,
Mamlakatga azaldan ayon...
Tuman ichra cho'mgan qora tun,
Asta suzar okoplar tomon.

1943 y.

TIRILAJAK DARYO

O'z ismim bor, o'z familiyam,
O'z ongimni o'stirdim doim.
Ishon, do'stim, hech xohishim yo'q,
U dunyoga qo'ygali odim.

Dahshat emas ketmoq ul joyga,
Ammo dilda bir narsa armon,
Men sevaman jonsiz olamga,
She'rim bilan baxsh etmoqni jon.

Daryo oqar jimjit, osmonrang,
Baliqchilar suzar mavj aro.
Sen o'xshatib she'r yoza olsang,
Tiriladi, albatta, daryo.

O'rmon-chi? Gar mo'jizamizga
Ishontirsak uni begumon –
Ming bir tilda zavq bilan bizga
Qo'shiq aytar ihota o'rmon.

Jangchi bilar, har vaqt, har joyda,
Unga g'oyat zarurdir qo'shiq.
Kerak emas tozalash, moylash,
Uning o'zi musaffo, tiniq.

Ko'hna tarix tubida emas,
Chang shkafda emas mutlaqo –
Suz, ey mening bir tomchi she'rim,
Jilvalangan to'lqinlar aro.

1952 y.

ROSSIYA

Rossiya – bu yamshchik chol emas, Ko'ylagini bir oz tuzatib,
Pochta emas yo'lda sargardon, Achinmayin shirin joniga,
Rossiya – bu majnuntol emas, Lobnoyega chiqdi Pugachyov,
Ko'prik uzra bosh eggan nolon. Kelib turdi jallod yoniga.

Asr bo'ylab, jabhalar aro Zulmat quchgan qutbdan u kun
Ayiqpolvon yurishi bilan, Tayog'ini o'ynab qiyoda,
Yurib o'tdi so'nggi varyagdan, Moskvaga o'qimoq uchun
Ilk bolshevik askargacha to. Lomonosov kelar piyoda.

Garchi azal ellar og'zida Tong yorishar Peterburg uzra,
Doston bo'lmish bitmas davlating, Safda turar soqchilar sokin.
Arshin mato bilan, Rossiya, Xayrlashar ekan Jelyabov,
Tamom bo'ldi, kerik savlating. Perovskayaga qaradi g'amgin.

Kabaklarda och, yupun g'ulu, Qatl etilgan jonlar uzra jim,
Ochdi senga yurak-bag'rini. Boshin egib turdi Rossiya.
Bir lahzalik shodligini-yu, Ko'z yosh to'kmay
Bir umrlik achchiq dardini. mardo'g'lonlarin,
Qaro yerga berdi Rossiya.

To'ng amaldor qog'oz betiga,
Nomlar surar, bitmas bu surish.
Qatl uzilmas qatl ketidan,
Kelar urush ketidan urush.

Yapon nogoh oshiqib qoldi,
Rus boyligini o'lja qilmoqqa.
Majburmidi, uylik yefreytor
Gaolyanlar aro o'lmoqqa!

Dolg'alanib o'tardi zamon,
Ochlikda-yu, bitmas kulfatda.
Bu tarixda Praga, London,
O'z o'rmini tutar, albatta.

– Behaq bo'lmas
 hech qachon mehnat!
Najot istar uysiz go'daklar!
Parts'yezdlar bong urgan bir payt,
Rus bongidan jo'shdi yuraklar.

O, Rossiya, ko'p mushkul edi,
Sen kechirgan, ko'rgan ko'rgilik.
Tarixchimas, mana men endi,
Bu kurashda jangchiman tirik.

Ha! Joy oldim, so'ramang nega,
Jangchilarning safidan bugun,

Nihoyat bu baxt binosiga,
Odamlarni ko'chirmoq uchun.

Rossiya, men sening shoning deb,
Berdim yoshlik ilhomim barin.
Shonli safda turadi hamon,
Komsomollik otash yillarim.

Yarim asr ko'rdim hayotda,
Lekin tortar yoshligim hali.
Garchi ba'zi yoshlarga hatto,
Tuyulsam-da, oq sochli, qari.

Osoyishta nafaqaxo'rlar,
Xotiralar so'ylasharkan tek,
O'tar safda yosh iqtidorlar,
Naq yuz nafar Lomonosovdek.

Yo'llarida saf chekkan go'yo,
Posbon kabi ming yillik zarang.
Rossiyaning kengliklarida,
Qani endi to'yguncha yursang.

Yo'q, demayman
 shuhrat-u shon-la,
Odamlarga mayoq bo'layin.
Qayerdadir, biror o'rmonda,
Bo'lib qolsam bir tup oq qayin.

1956 y.

UFQ

Ko'k yer bilan uchrashgan joyda,
Paydo bo'ldi yoshgina ufq.
Men quvaman, ammo befoyda,
Endi yetdim deganda u yo'q.

Goh tog'dan, goh dengizdan nari...
Shoshmay turgin, ko'ramiz hali.

Ayamasman o'zni bu yo'lda,
Men quvishdan sira tolmasman.
Qasam ichdim, har narsa bo'lay,
Gar shu ufqqa yetib olmasam.

Daraxtlarning ortida bo'lsa,
Daraxtlarni kesib olurman.

Gar hayvonlar isini bilsa,
Hayvonlarni yo'lga solurman.

Makr bilan, ayyorlik bilan,
Yonboshidan boraman, biroq
To'sar nogoh yo'limni tuman,
Yana qochar ko'zimdan yiroq.

Jabduq urdim eng uchqur otga,
Ufq yana qochadi ortga.
Mashinaga o'tirdim tajang,
Ufq qani? Yo'lda faqat chang.

Samolyotga mindim nihoyat,
Endi uni tutaman, albat.
Uchib ketdim ufq sari tik,
Ufq qani? Yo'q, faqat kenglik!

Ufq, ufq, sen yana uzoq,
Oz qoldi, bo'l, yana ildamroq!

O'g'ri kabi kuppa-kunduz kun,
Ufq mendan qochadi butun.

Ufq, seni izlayman har on,
Qidiraman aldoqchi izing.
Bilmam, balki yo'qdirsan o'zing,
Balki jangda bo'lgansan qurbon?

Bu hayotda do'stlar bilan biz,
Yangi-yangi yerlar ochgan chog',
Yuraklarni o'rtar alam – dog',
Qurbon berdik yo'lda behisob.

Gullar ko'mdi ularning qabrin,
Mayli, yurak chidar firoqqa.
Ufq, ko'rsat yiroqni yaqin,
Yurmoq oson bo'lsin yiroqqa.

1957 y.

SOQCHI

Ko'z oldimda yana u bo'ron,
Yana Neva tug'yon urmoqchi.
Chipta kovush, paxtalik chopon,
Postda turar junjukkan soqchi.

Postda turar, esnab qo'yar goh,
Nayzani u tik tutgan chunon.
Postda turar, o'ylamas biroq –
U oddiymas, u buyuk inson.

Soqchi turar, jang esa tingan,
Yangi nasl o'sar – tetik, yosh.
Qara, qirq yil osha ustingdan,
Uchib o'tdi birinchi yo'ldosh.

Rossiyaning yo'lida talay,
G'ovlar qoldi misoli bir xas.

Kel, o'ringda men soqchi bo'lay,
Sen tin olgin yotib bir nafas.

Neva bo'ylab borar toliba,
Borar mag'rur, baland tutib bosh.
Qizil gvardiya postidan,
Bu toliba ikki marta yosh.

Ey siz, olis qizil soqchilar,
Bu zamonda bizlar qariya,
Kel, azizim, isinmoqqa kel,
So'nayotgan she'rim qoshiga.

Boshimizda yulduzli osmon,
Sayyoralar jam bo'lmish to'yga...
Ayrilamiz, xayr, qadrdon,
Sen dostonga, men esa – uyga.

1957 y.

OSHIQLAR UCHUN

Hali yonar tomirimda qon,
Zavq-shavqlarim so'nmagan hali.
She'riyat – bu mening xoqonim,
Men-chi, uning quliman mudom.

She'rlarimda, o'ylamang, mangu
Kuylanadi deya bu zamon,
She'r yozaman oshiqlar uchun,
Ayrilganlar uchun yozaman.

Ko'tarildi ko'p narsa esdan,
Ko'p yo'l bosdim, ko'pni ko'rdi bosh.
Yoshligimning ustida esa
Allaqachon turar lavha tosh.

Ammo yomon emas hayotim,
O'quvchiga tanishman, biroq
Asr bo'ylab ko'p otdim odim,
Goh kiyimda, goh yalangoyoq.

El qatori qilardim mehnat,
Men ham edim kichik bir odam.
Mana, nogoh kelib she'riyat,
Tutib oldi yoqamdan mahkam.

Tutib oldi va menga hamdam,
Odamlarning ichiga otdi.
Dedi, so'zla kelajakni, ham
Tushuntirgil o'tmish hayotni.

Odamlardan ajratma o'zing,
Odamlarga hamdam, hamdard bo'l.
Avtobusga o'tir, azizim,
Ular bilan yo'l yur doim, yo'l.

Oshno bo'lgin mudom ularning,
Qayg'usiga, xush onlariga.

Sen ko'targin ularning dardin,
She'riyatning osmonlariga.

Shunda senga yashirmay o'zin,
Pinhon sirin ochadi olam.
Gar dog' tutsa quyoshning yuzin,
O'chirmoqqa bel bog'la mahkam.

Keksaga ham yoshga azaldan,
Odat bo'lmish o'sha bizdagi,
So'nggi gugurt donasi bilan
Katta gulxan yoqmoq istagi.

O't shu'lasi, olov taftiga
Intilgandek har tirik odam,
Hamma kelar she'r atrofiga,
Tanishlar ham, notanishlar ham.

Janubda ham qutb yerida,
Tinch hayotda, jangda ham doim,
G'amlilarga taskin ber deya
Chaqiraman yoniq ash'orim.

Tonglar balqsin yer uzra har gal,
Alvon nurlar taralsin mayin.
Boqib olis sayyoralarga,
Men ko'rmadim birorta qayin.

Tabiat zo'r iltifot bilan
Bu daraxtni menga ko'rmish ep.
O'tinaman, ne ketar sizdan,
Ayta qoling, hali yoshsan deb.

Ayta qoling, muhtojmassan deng,
Ko'rpa-to'shak dori-darmonga.
She'ring hanuz o't – otashga teng,
Uradi deng hanuz nishonga.

1957 y.

QIZALOQ BILAN SUHBAT

Majlis cho'ziladi, notiqlar bir-bir,
Minbarga chiqadi. Nutqlar tumtaroq.
Muk tushib she'rimning qay burchidadir,
Yig'lab o'tiribdi jajji qizaloq.

Sovet zamonida yig'laysan nega?
Kapitalizmdan qolmadi-ku iz.
Mana, senga holva, mana, qand senga,
Mana, o'yinchoqlar... Beri kel-chi, qiz!

Olamning ishlari seni qiynarmi?
Tartib yo'q deysanmi yerda mutlaqo?
Mabodo gettoda bo'lganing bormi?
Habash qizi bo'lib ko'rganmisan yo?

Mayliga yig'layver, faqat sekinroq,
Bezovta qilmagin majlis hay'atin.
Eshitganmi eding, jajji qizaloq,
Dehqon bolalarning achchiq qismatin?

Ko'rganmisan rusning qo'ng'ir qishlog'in?
Cho'pon bolalarning uzun tayog'in?
Balki tayoq bilan o'sha bolalar,
Hozir darvozani urib qolarlar.

Kelib ular bizga so'zlar oldidan –
Askar ayolining achchiq dodidan.
Kunlarga ulangan tunlardan so'zlar,
Dildagi qatma-qat munglardan so'zlar.

Barcha matonatli, sobit bo'laylik!
(Buni notiq aytdi, men emas mutloq.)
Biz esa suhbatni davom etaylik,
Ho'ngrab yig'layotgan jajji qizaloq!

Oting nima? Lyubov Petrovnami yo?
Nechaga kirgansan? Beshga, hoynahoy?
Men istardim, qizcha, ko'nglingda ne sir –
Aytib bersang menga shoshmay birma-bir.

Qani, payti edi kaptar o'ynasam,
Umr o'tib ketmish mundoq o'ylasam.
Umr o'tib ketmish to'la g'am-kulfat,
Bugun o'ltiraman, xayollar ulfat.

Majlisda o'ltirib yig'layotgan qiz,
Bas qil endi, yetar, uyga bora qol!
Unda seni otang kutmoqda yolg'iz,
Mening zamondoshim bo'lar o'sha chol.

Ayt qizcha, otangdan ranjidingmi yo?
Hadeb ho'nggrayverma, dam olgin bir oz.
Hayot qarshimizdan lapanglab go'yo –
Ayiqpolvon kabi kelmoqda peshvoz.

Mana, ayiqchalar yetim qoldilar,
Ovchilar-chi, yana otar beshafqat.
Azal-abad mening bag'rimda yashar,
Bolalikka bo'lgan ojiz muhabbat.

Bolalik – betashvish, beo'y, bemaosh,
Besabab ko'z yoshga to'lgan bolalik –
Ukrain xatasi ichra oq momiq,
Bahorgi bulutday ko'taradi bosh.

Qora bulut bo'lar quyulib birdan,
Chaqmoq bo'lib yonar, solar gulduros.
So'ng yerga to'kilar go'yo yurakdan,
Otilib chiqquvchi insoniy ko'z yosh.

Yana yig'layapsan... bu endi chatoq,
Bobo degin meni hech tortinmasdan.
Aloqam uzilgan allazamonoq,
Muhabbatning ko'chma bekati bilan.

O'zga uy – chodirlar o'sha bekatda,
O'zga mojarolar ishq-muhabbatda.
O'zga dedimmi? Yo'q, sevaman hamon,
Sevgimni hech kimga bermam hech qachon.

Yana bir oz yig'la, qizalog'im, sen,
Qalbim-la so'zlashay bir oz oshkora,
Sabr-u sabot bilan kutmoqdaman men,
Kimdir taqdirimga bo'lgusi oshno.

Faqat shu kun kelsin, tezroq kelsin boz,
Intizorlik dilni o'rtar, oh, uzoq –
Uzoq sargashtalik so'ngida na soz –
Tug'ilgan kuningni ardoqlab kutmoq.

Bilasanmi, buning ma'nosi nadir?
To'xtama, yashagin, yaratgin mudom.
Men so'zdan to'xtadim, qizcha yig'idan,
Notiq esa so'zin ettirar davom.

1957 y.

QADRDON AYOLLAR

Barcha «ezma-churuk» bolalar kabi
O'g'il ajablanib so'radi bir kun:
Dunyoda juda ko'p qardoshlar qabri,
Dugonalar qabri bo'lmaydi nechun?

Kattalar tushini havas qilmayman,
Ammo xayolimni tark etmas sira,
Menga ko'rinadi: to'pning o'qidan,
Halok bo'lar go'yo tibbiy hamshira.

Ne murod bu olg'a intilishlardan?
Jamoat ishidan yagona tilak –
Umumiy majlisdan tarqalar ekan,
Yakka shaxs dardini bir so'rab o'tmak.

So‘lim oqshom cho‘kar Ryazan uzra tinch,
Qishloq markazida, bog‘chada, mana –
Qo‘sh yulduzli lochin – Vanechkasining
Byusti qoshida turibdi ona.

Deydi: bu dunyodan ketarman, biroq
Ketmayman bir nafas o‘g‘limdan yiroq.
Xoh marmarda bo‘lsin, xoh ganch, xoh xarsang –
Meni o‘g‘lim bilan birlikda saqlang.
Bechora onani elitdi uyqu,
Juda toliqqandi, ezilgandi u.

Siz shu bog‘ qo‘ynida sayr aylagan dam,
Xoh zebo saharda, xoh so‘lim oqshom,
Do‘stlar, sukut saqlab bir lahza to‘xtang,
Qadrdon ayollar olmoqda orom.

1958 y.

SIRLAR

Oz narsaga ko‘nganman doim,
Taqdirimdan noxush emasman.
Harbiy sirni saqlamoqqa jim,
General ham bo‘lmoqchimasman.

Chaqiradi dolg‘ali hayot,
Cheksiz yasha, sev, kuyla, inon!
Ko‘cha-ko‘yda keng yozib qanot,
Sirlaringni sochib yur, inson!

Gaz budkadan mana, bir bola
Suv ichmoqda, o‘yi parishon,
Hozir, aziz o‘quvchim, senga
Uning sirin qilaman bayon.

Mana, ho‘ngrab yig‘layotir qiz,
Hayotidan norizo bu choq,
Visol chog‘i aytdi dag‘al so‘z,
Sochlarini o‘rdi shoshibroq.

Mana, mayxo‘r qayda loy kechgan,
Qay sir uni soldi bu ko‘yga?
Maoshini yo‘ldayoq ichgan,
Tortmayotir oyog‘i uyga.

Ishdan qaytar amaldor, uni
Quchog‘iga oladi to‘shak.
U o‘zining shirin jonini,
Davlat siri hisoblar beshak.

Yashar, izlar tirik insonlar,
Men izlayman shularning sirin.
Izlaganday sayyod o‘rmonda,
Nodir qushning berkingan yerin.

Davr so‘zi nimadir? Zamon,
Xayollarni qildimi abas?
Yo‘q! Bu zamon sirlarga emas,
Oshkora mo‘jizaga kon.

1958 y.

BEDORLIK

V. Lugovskiy xotirasiga

Yana kelur boshimga,
Charchamas bedorligim –
Kelgan kabi qonimga,
Budyonniy lashkarida
Shahsuvorligim.
Tahdid etar sukunat,
Portlash oldi tinchiday.
O‘zligimga sadoqat –
Qalbimning sevinchiday.

Nechun bo‘lay benavo,
Nedin bo‘lay norizo?
Asrim ming qo‘ng‘iroqdan,
Menga berdi bong – nido.
Shodman, dunyoda hech kim,
Mendek yonib yasharmi?
Faqat yetmaydi qo‘lim,
Quchmoq uchun basharni.

1958 y.

MONOLIS GLEZOSGA

Ayni yoz faslida kecha bo'lur tang,
Zim-ziyo bo'ladi tun yarmida goh.
Glezos! Ber, menga qora panjarang,
Men yorug' darchamni berayin, o'rtoq!

Naqadar yaqinsan, tug'ishganimsan,
Do'stim, qadrdonim sensan jahonda.
Munis diyorumda yashagin-u sen,
Meni o'ldirsinlar mayli, Yunonda.

Panjarang ortidan termilib bu kun –
Tong yorishib ketdi – ko'raman ayon,
Yevropa oralab sargardon bo'lib,
Sen haqingda qo'rqib so'zlaydi Yunon.

Nahotki yo'qotib bo'lmas dahshatni,
Nahotki adolat topg'uvsini o'lim!
Eng ko'hna, eng ajib bu poytaxtni,
Afina demakka bormaydi tilim.

Ha, bu kun ikkiga bo'lindi jahon,
Kurashar ekanmiz, bormiz jahonda.
Vaqt kelar, Monolis, bizlar ikkovlon
Birga sayr etamiz Qizil maydonda.

1959 y.

SHU DEB YASHAR DUNYODA INSON

Ilya Selvinskiyga

Kim topa olar sabrimga amal,
Kim bu go'zal, bu go'zalmas der?
Yo'l ko'rsatsin menga yulduzlar
Bamisoli militsioner.
Ishonaman – tushlar bo'lur chin,
Ko'p yo'l bosdim, ko'p yo'llar kutar.

Qushlar menga hamroh bo'lishsin,
Hamroh bo'lsin burgut, kabutar.

Olamda eng dahshat qurol – bu
Qabohatu vahima, gumon –
Man etilsin qalblarda mangu,
Shu deb yashar dunyoda inson.

Bir qo'shig' u bir tug' ostiga,
Birlashadi olamda bashar...
Yuragimga naqadar yaqin,
Har ikkala ulkan yarim shar.

Kenglik yo'qki etmasin odim,
Ko'z tikkanmiz nurli yiroqqa.
Svetofor nima! Men doim
Intilaman qizil chiroqqa.

1959 y.

* * *

Barcha zar-u injular – sengadir, senga,
Barcha o'yin-kulgilar – sengadir, senga,
Barcha yoshlik tuyg'ular – sengadir, senga,
Barcha shodon g'ulular – sengadir, senga.
Ishq yo'lida orzular – sengadir, senga,
Hatto harbiy cholg'ular – sengadir, senga,
Butun shahar va uylar – sengadir, senga,
Barcha alam, qayg'ular – mengadir, menga.
Tong otmoqda,
Qushlarning inida g'ulu,
Yuragimda hech so'nmas
Ishq degan tuyg'u.

1959 y.

NURONIY CHOLLAR

Olga Berxgoldga

Bitta oyoq o'tgan asrda,
Surib hatto vaqtni nari,
Tirmashlanib yuribmiz Yerda,
Bizlar, ya'ni nuroniy chollar.

Yo'q, biz o'tgan asrni ko'rgan,
Nogiron chol emas turfahol,
Naq asrining belida turgan,
Azamat chol, bir oz kerik chol.

– Bu binoni qurgan biz mardlar,
Ha, biz shunday, bizlar shunaqa.
Tin oladi charchagan dardlar,
Hukumatdan olib nafaqa.

Shifokorning o'giti bir pul,
Hali bizlar o'tlimiz, bardam,
Ko'hna dunyo, qo'rq hali ham bul,
Qarimagan shaytonchalardan.

Sokin zulmat tortar o'ziga,
Ko'ndirolmas bizlarni biroq.
Rost aytganda, yashirmoq nega,
Alamlidir bu yoshda bo'lmoq.

O'kinmoq yo'q, hasrat qilmoq yo'q,
Ammo qani yorning visoli.
Uzoqlashgan sari kichikroq,
Yo'qotilgan yillar ro'moli.

Sezar qalbim, o'tgan sayin dam,
G'amli bo'lar ekan xotira.
So'ramayman sendan, azizam,
Buyuraman, qarima sira.

Menga bo'lsin mayli, bor ajin,
Mayli, bo'lay men burushgan chol,
Mayli, yuz bor oqarsin sochim,
Sen qarima, yoshligingcha qol!

Qaror qildim. Qat'iy mutlaqo,
Vaqt! Sen ko'hna odatni unut!
Nuramasin, topmasin fano,
Men sevgan, men sevguvchi vujud.

Na atayin, na tasodifan,
Na boshda, na so'ngida bir zum –
Ko'klam kabi tiniq yuzingdan
Arimasin quyosh tabassum.

Hali yurak tepmoqda, mana,
Bilib oldim hayotda bir-bir,
Tasdiqlovchi boshlanish nima,
Rad etuvchi nihoya nadir.
Odamlarga zarurmiz bizlar,
Siznikidir mehrimiz bari,
Azal abad, g'olib, muzaffar,
Bizlar, ya'ni nuroniy chollar.

1960 y.

GUGURT

Tarki odat amri mahol der,
Har na borki, tortar harorat,
O't gugurtga doim muntazir,
Yo'qdir unga gugurtsiz hayot.

She'r qidirib, she'rning ketidan,
Keldim, bu yer mo'jizaga kon.
Tanholikda sukutga cho'mgan,
Ajinalar tark etgan o'rmon.

O'rmon ichra yolg'iz tup terak,
Gugurt bo'lib bergan u yallig',
Bunda o'tib bo'lmas chakalak,
Oqpadarning maskani yanglig'.

Avval oxir yolg'iz matlabim,
Borlig'imni bersam olovga.
Men istayman shu terak kabi
Terilsaydim minglab g'ilofga.

Toki meni olib yursinlar,
Inson bilan bo'layin mudom.
Hordiq payti chekkanda askar,
Meni yoqsin va olsin orom.

Malikaday turar qayinlar,
Kunda mag'rur saqlashar sukut.
Mehnat bilan o'tadi kunlar,
Biz ishlaymiz, yonadi gugurt.

1960 y.

IKKI YALMOG'IZ QO'SHIG'I

(Pyesadan)

Qo'rqsin bizdan har inson,
Qaltirasin har zamon,
Zero biz
Yalmog'iz.
Bizdan qo'rqar butun yurt,
Fildan toki mayda qurt,
Zero biz
Yalmog'iz.
Qopishga biz mohirmiz,
Mingta itdan olg'irmiz,
Zero biz
Yalmog'iz.

Yuz bermasin bir balo,
Bizdan qoching doimo,
Zero biz
Yalmog'iz.
Besh karra besh – bir yuz besh,
Shunday hisob bizga esh,
Zero biz
Yalmog'iz.
Bizning sanoq shunday zo'r –
To'rt karra to'rt – yuz qirq to'rt,
Zero biz
Yalmog'iz.
Achinamiz o'lgudak,
Bo'lmaganmiz biz go'dak,
Zero biz
Yalmog'iz.
Yomonlikni yengsa el,
Sinar shunda bizning bel,
Zero biz
Yalmog'iz.

1962 y.

KOLKA

Yekaterinoslav dashtida,
Cheksiz o'tloqlar,
Poyonsiz kengliklar aro
Maxnochi Kolkani qo'lga oldik biz,
Shahar ko'rsin uchun,
Bilsin uchun yer bilan samo,
Menga topshirildi uni qatl etish.

Yo'lga tushdik...
U – quvnoq va mast,
Men – uning ortida qat'iy va sarkash...
Kun bo'yi charchagan quyosh bu nafas,

Go'yo o'ldirilgan, bag'ri qontalash.
Keldik...
Men tepkiga qo'l yubordim jim,
Kolka esa so'zsiz, ohista,
Xayrlashmoq uchun menga cho'zdi qo'l,
Besh barmoq,
Jon-jahd-la hayotga intilgan besh yo'l...
Kolka, Kolka... Qayda mening g'azabim?
Yo'q, men o'q uzmadim,
Ortga qaytdik biz:
Tug'ilgan paytdayoq, uning chamamda,
Olchi tushgan ekan oshig'i.
Biz ketdik olislab va tonggi damda,
Bryansk zavodining naq yonidagi
Bir notanish qovoqxonada,
Yangi do'stlik bilan ikkimiz,
Chin dildan qutladik bir-birovni, biz –
Unutib maxnochi ekanini u,
Unutib yahudiy ekanimni men.

1924 y.

YULDUZLAR

Men ham g'ijjak «oh» tortsa, shoshib –
Izlagayman goh ro'molchamni,
Va og'zimning tanobi qochib,
Uchratgayman ota-onamni.
Ammo bo'lmas tanni – bo'rondan,
Bo'g'ilishdan – ovozni asrab.
Men turaman, – buyruq zamondan, –
So'yil ushlab g'ijjakka qarab.
Ko'rdim uni, qulog'i og'ir,
Yosh sirg'alar yuz, iyagidan:
Kutardi u – Betxoven – dilgir,
Shtab oldi, qayin tagida.
Men o'sha kun band edim chunon,

Ketdi oxir.
Ayni yarim tun,
Bir musiqiy ko‘z bilan shu on,
Menga boqdi yulduzlar beun.
Tong oldidan zangori tuman,
Qo‘nishini kutib bir hisda,
Bor tabiat ilhom, dard bilan
Fortepiano chaldi ohista.
Barcha yulduz qilmishim yoqlab,
Boshim uzra qo‘ndi shu tunda, –
Ovoz berdi yulduzlar oqlab,
Men – jangovar insonni shunda.

1927 y.

ZAMON QIZIGA

Nog‘oraning zarblari hissiz,
Uyqu bermas tong tumaniga, –
Janna d’Ark ot qo‘yar bu kez,
Qamaldagi Orleaniga.

Kesib qo‘yar minuet nogoh,
Juft qadahning ahd-paymon unin,
Trianon nishonlar quvnoq,
Mariya Antuanetta kunin.

Yigirma besh sham quvvati jam,
Kichikkina elektr chiroq –
Egilasan, singlim, azizam,
To‘ldirilgan daftarga bu chog‘:

Mudhish yangrab, qo‘ng‘iroq, oqlar –
Shum cherkovning «muqaddas» sha‘nin:
Janna d’Ark gulxanga chog‘lar,
Nozikkina bokira tanin.

Jallod hatto na bir zum titrar,
(Qonrang kiyim – boshdan-oyoq qon), –
Antuanetta bo‘ynin qidirar,
Gilotina pichog‘i shodon.

Yulduzlardan ortga o‘tdi tun,
Charchamading – muqova aro,
Sen topshirgan sinovning butun,
Varaqalari bir-bir bo‘ldi jo.

Ko‘rpaga kir, tez kelgay uyqu,
Toliqtirma o‘zingni hargiz.
Boq, yulduzlar ko‘kdan tushdi-yu,
Tarqalishdi uyma-uy beiz.

Shamol ochdi darchangni, lekin
O‘zga uyga solmas nazarni,
U ko‘rmoqchi xonangga sekin,
Kirib kelgan xotiralarni.

Bizning qizlar kamarni siqib,
Qo‘shiq bilan tik boqib yovga,
Quladilar goho pichoq yeb,
Tashlandilar ba‘zan olovga.

O‘shanda ham mudhish qo‘ng‘iroq,
Nog‘oraga berardi navbat...
Har o‘rtoqlik mozoriga boq –
Bir Jannamiz yotar bu fursat.

Chorlar uyqu – mayin bir xilqat,
Og‘ushiga tortadi seni.
Kulranggina ko‘ylaging faqat,
Bezar kursi suyanchig‘ini.

1925 y.

SHE'RIYATIM

Yo'q! Hayotim zanglardan xalos,
Kunim o'tmas qashshoqlik aro...
Mamlakatim – she'riyat, xolos,
Men – abadiy unga fuqaro.
Olovnafas she'r bilan, bilgil,
Men davrga faqat boj bermam –
Men yozaman sevajak har dil,
Ayrilajak yo'llar uchun ham.
Ko'p narsani olis yo'l tamom,
Xotiramdan badarg'a qildi.
Allaqachon yoshlik degan nom,
Marmar lavha bo'lib qoqildi.
Ishlar uncha yomonmas, ammo
Kitobxonga tanishman, biroq –
Men piyoda kezdin davr aro,
Goh etikda, goh yalangoyoq.
Mana, ko'ndim taqdirga, niyat:
Ishlarimni bir-bir jamlamoq.
Ammo nogoh kelib She'riyat,
Naq yoqamdan oldi-da, shu choq.
Menga doim qadrdon, xushhol,
Odamlarning bag'riga otdi:
«Sen tushuntir nima istiqbol,
O'tgan kun ne? – deya so'z qotdi. –
Sendan o'zin tortmasin hech kim,
Atrofingga do'stlar yig'ilsin.
Avtobusga o'tir, azizim,
Ular seni safdosh deb bilsin.
Birga yashab, birga mehnat qil,
So'ng ularning ishq, baxti va har –
Orzusini sen kelgusi yil
Shoirona cho'qqiga ko'tar.
Ayon bo'lgay shunda ko'p sirlar,
O'rganasan kuzatmoqni ham.

Goh quyoshda dog' ko'rsang agar,
Bel bog'lagin artmoqqa shu dam.
Shundoqqina eshikdan nari –
Olisdamas, voqealar, boq,
Arslon kabi yulqinar bari,
Faqat qiyin qo'lga o'rgatmoq!»
Shu-shu odat menga bir orzu:
Kattaga ham, kichiklarga ham
So'nggi gugurt cho'pidan mangu
Osmon o'par gulxanlar yoqsam!
Chorlar ekan shu gulxan, shu taft,
She'rga qo'noq bo'lay deb tunda,
Kirib kelar odamlar saf-saf –
Notanish ham, tanish ham shunda.
Tinch turmushda, yo qo'lda miltiq,
Yo Qutbda, qayda iliq so'z –
Bir hamdardga kim bo'lsa intiq,
She'riyatim unga munis do'st.
Na muhlatli, na doim bu ish:
Men zamondosh do'stinga goho,
Haq to'layman – misralar kumush,
Hoshiyasi oltindan ammo.
Tonglar, burkang olamni zarga,
Tong nurlari quyiling mayin!..
Boqdim olis sayyoralariga,
Ko'rolmadim biror tup qayin!
Uni faqat menga baxsh etdi –
Tabiatdan bu daraxt hadya...
Ayting – axir, sizdan ne ketdi! –
Uncha kekxa emassan deya.
Seni hali bu tulpor hayot,
Na yiqitdi deya, na egdi,
She'riyating o'q kabi bot-bot,
Yangrab, aniq nishonga tegdi.

1957 y.

SULIKO

Rodam Amirejibiga

Boshlagayman, Suliko, bu choq,
Seni ajib o'lkalar tomon.
Bu, chamamda, juda ham yiroq,
Huv, yoshligim yashagan makon.

Ortda qolgan olis yillar bu...
Ukraina... Quyosh jilmayar...
Gulyay-Polya bo'ylab uchar u,
Maxno meni mo'ljalga olar.

Go'l polapon edim u payt xo'p,
Men ilk bora angladim, inon,
Jo'n o'yinchoq to'pponchadan ko'p,
Nagan og'ir ekanin u on.

Yigirma yil keyin, bir kuni, –
Shundoqqina yaqin, boq, bari! –
Men eseschi pistoletini
Ko'kragingdan itardim nari...

Qo'lingni ber! Eslaylik birrov
Olis kunlar tongin o'y surib.
Ehtiyot bo'l! Boryapmiz ikkov
Do'stlarimning qabridan yurib.

Bilasanmi, sen hayot yurib, –
Ne degani do'stni yo'qotmak?
Bil, bu: ming bor «Salom!» deb turib,
Nogahoniy «Alvido!» demak.

Men ko'p narsa bildim hayotda,
Ishonch – qat'iy, but, silsilalik:
Loyihalanan kanal odatda
Volga-Dondek: Yoshlik-Keksalik.

Quloq tutgin, Suliko, bu dam
Yo'l olgaymiz o'lkalar tomon –
Ki uzoqmas, bilsang, rostdan ham,
Keksaligim yashovchi makon.

Men tobora ko'raman ravshan:
Chiqib borar qo'lida hassa,
Kelajakning zinalaridan
Soqol-murti qirilgan keksa.

Bu – menman! Ha, bildingmi, menman!
Qaynoq sevging bilan mast kimsa;
Men – do'stlari goh havas qilgan,
Yoshligi, deb tugamas kimsa.

Jasoratga chanqoq, beminnat,
Yer chizmasdan, bilmayin qo'rquv, –
Angla meni, – shu taxlit faqat,
Faqat shunday keksaymoq orzu.

Men yashadim qo'rqmay dahshatdan,
Zar-u zavar jamg'armay hech bir.
So'ng dam titrab cho'ng muhabbatdan,
Quchib olgay meni ona – Yer.

Suliko! Sen – aziz vafodor!
Yoshligimga, ey, sodiq hamroh.
Go'yo bugun yonimga takror,
Kelgandeksan qo'shiqdan nogoh.

1953 y.

IQROR

Aslo yoshligimdan o'girmadim yuz,
Ne qilsam – xush yoqar o'zimga bu vaqt.
Hapshanba kun yoqqan yomg'irdan tekis
Gullagandek bog'da yaydoq dov-daraxt.

Men – tirik, demakki, yashar muhabbat!
Sen uchun, yolg'izim, tengsiz dilrabo,
Eng yaxshi so'zlarni topdim bu fursat
Eng a'lo lug'atlar varag'i aro.

Osonmas o'xshatish topmoqlik, ammo
Ko'zlaring naq she'rdan izlaydi maskan,
Ularni zangori buloqdek go'yo,
Qoshing obkashida tinmay tashiysan.

Ikki dunyoda ham takror etolmam –
So'zlaring olovki – har bir sasida,
Yig'moqqa qodirdir qorbo'ronda ham,
Barcha turnalarni Rus dalasida.

Bo'lgayman barchadan boyroq, istasam,
Qashshoqman deya arz qilishim qiyin.
Senga olib beray borliqni, desam,
Yetmaydi atigi bir necha tiyin.

Ko'p yashab, ko'p narsa boshdan kechirdim,
Men senga, navqiron, mag'rur – bir bog'lam,
Shox-shabba misoli – orzum keltirdim,
Gulxan yoq, isingin, sovuq juda ham...

1959 y.

OVCHILAR QO'NALG'ASI

She'rlar kitobimni ochganimcha men,
Boqaman: odatiy, tanish barchasi.
Yoshligim! Ovchilar qo'nalg'asi sen,
To hanuz yorug'dir uning darchasi.

Ko'ngilchan ovchilik kasbiga, yana
Ishonib qalbimning shafqat hissiga.
Kelishdi soddadil hayvonlar, mana,
Qo'l ham tegizmasman birortasiga!

Yashashmas, bu – jang-ku, turgan-bitgani!..
O'tilgan yillarning tozisi, do'stim,
Vujudi tiralgan, ey, kuchuk, qani,
Kir mening xonamga, orom ol bir zum.

Men qancha yashadim, hayot cho'tlaydi,
Qanday yordam kerak yana men uchun!
Ehtimol, bir kamim kapalak saydi?
Menga fil yetishmas, ehtimol, bugun.

Oson kechgani yo'q hayotim bir dam,
Qancha chaqirimni piyoda o'tdim!..
Hurkak quyonna ham, karkidonna ham,
Yozuv stolimga men taklif etdim.

Keksalik, bu – bezak, uvada emas,
Charchagan kishining yoshligi asli, –
Bizning quvonchlar-u g'oyaning o'lmas,
Nuroniylar savlati, ulug'vor fasli.

Ehtimol, qo'llarim endi yozolmas,
Odamga eng zarur so'zlarni hech vaqt,
Mayliga, koinot nafas olsa, bas,
Qulf urib o'ssa, bas, maysa-yu daraxt.

Hayotim! Nahot, men bugun sersavlat?!
Bir o'quvchingman-ku, bolakay go'yo.
Salom, xilma-xillik – sirli jamiyat,
Salom, ey tuyg'ular, rango-rang dunyo!

1962 y.

MUNDARIJA

VENIAMIN ALEKSANDROVICH KAVERIN IKKI KAPITAN

(*Romandan parcha*)

YOSHLIK DAVOM ETADI.....	4
«Sen uni yaxshi bilmaysan».....	4
It o'ynatish maydonchasida	9
Oq yo'l va omonlik tilaymiz	13
Sanyani sharaflab... ..	20
«Bibi Maryam» shxunasi)	27
Buvimnikida.....	30
Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)	40
Uchrashuv	46
Tun	51
Singil.....	53
Vidolashuv	50
Tungi mehmon	63
Yoshlik davom etadi	65
«Qo'lingda chaqaloq...»	69
Besh yil	72
Buvimning hikoyasi	83
«Esingda bo'lsin, sen ishongansan»	87
«Albatta, diydor ko'rishamiz...»	91
Aka.....	97
Endi ikkimiz tengmiz.....	100
«Yekaterina Ivanovna Tatarinova-Grigoryevaga tegsin».....	103
Shifokoming xizmati	107
Chekinish	109
Hayot davom etadi	111
Kechki ovqatdan so'ng	116
Ishonaman.....	121
U, albatta, qaytadi	125
Umidim so'nmoqda	131
«Seni mening muhabbatim asasin!»	135
Kechir, Leningrad!.....	140
O'YLAR, XAYOLLAR	146
Ertak eshitaman.....	146
Maktab	148
Unutilmas kun.....	151
O'ylar, xayollar	155

Qorning tuzi bormi?.....	160
Mehmonda	165
Tatarinovlar.....	167
Maktab teatri	172
Korablyovning taklifi. O'qituvchilik burchi	174
«Rad bilan javob»	179
Ketaman	183

MIXAIL ARKADYEVICH SVETLOV

SIRLAR

(*She'rlar*)

Grenada (Hamid Olimjon tarjimasi)	191
Tirik qahramonlar (Erkin Vohidov tarjimasi)	192
Arvoh (Erkin Vohidov tarjimasi)	194
Sarhad (Erkin Vohidov tarjimasi)	195
Simlar (Erkin Vohidov tarjimasi).....	196
Yulduzli tun (Erkin Vohidov tarjimasi)	197
Qo'shiq (Erkin Vohidov tarjimasi).....	198
Tabassum (Erkin Vohidov tarjimasi)	198
O'lim (Erkin Vohidov tarjimasi).....	200
«Tun qo'ynida portlagan ko'prik» (Erkin Vohidov tarjimasi).....	200
Italyan yigit (Erkin Vohidov tarjimasi)	201
Jambulga xat (Erkin Vohidov tarjimasi)	202
Tirilajak daryo (Erkin Vohidov tarjimasi).....	203
Rossiya (Erkin Vohidov tarjimasi).....	204
Ufq (Erkin Vohidov tarjimasi)	205
Soqchi (Erkin Vohidov tarjimasi)	206
Oshiqlar uchun (Erkin Vohidov tarjimasi).....	207
Qizaloq bilan suhbat (Erkin Vohidov tarjimasi)	209
Qadrdon ayollar (Erkin Vohidov tarjimasi)	211
Sirlar (Erkin Vohidov tarjimasi).....	212
Bedorlik (Erkin Vohidov tarjimasi).....	213
Monolis Glezosga (Erkin Vohidov tarjimasi)	214
Shu deb yashar dunyoda inson (Erkin Vohidov tarjimasi).....	214
Nuroniylar chollari (Erkin Vohidov tarjimasi)	216
Gugurt (Erkin Vohidov tarjimasi)	217
Ikki yalmog'iz qo'shig'i (Erkin Vohidov tarjimasi)	218
Kolka (Abdulla Sher tarjimasi).....	219
Yulduzlar (Abdulla Sher tarjimasi).....	220
Zamon qiziga (Abdulla Sher tarjimasi).....	221
She'riyatim (Abdulla Sher tarjimasi).....	223
Suliko (Abdulla Sher tarjimasi)	225
Iqror (Abdulla Sher tarjimasi).....	226
Ovchilar qo'nalg'asi (Abdulla Sher tarjimasi).....	227

Adabiy-badiiy nashr

Veniamin Aleksandrovich KAVERIN

IKKI KAPITAN

(Romandan parcha)

Ruschadan **O. Rahimiy** tarjiması

————— • —————
Mixail Arkadyevich SVETLOV

SIRLAR

(She'rlar)

Nashr uchun mas'ul M. Bo'ronov

To'plab, nashrga tayyorlovchi Sh. Beknazarova

Muharrir *Sh. Beknazarova*

Rassom *R. Zufarov*

Badiiy muharrir *B. Zufarov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhihlar: *D. G'aybullayeva, A. Umirova*

Kompyuterda tayyorlovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 20-yanvarda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. «New Roman» garniturasida
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 14,50.

Nashr tabog'i 12,36. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-16.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

Veniamin Kaverin.


K 24

Ikki kapitan [Matn]: Romandan parcha / M. Svetlov. Sirlar (She'rlar) (Rus adabiyoti durdonalari) – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2021. – 232 b.

ISBN 978-9943-6582-5-7

**UO‘K 821.161.1-3
KBK 84 (2 Rus)**





19 568, 40





V. A. Kaverin



M. A. Svetlov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-6582-5-7



9 789943 658257